

Axmedova M.E., Melibayeva R.N., Bekmirov T.R.,  
Nurmatov A.N.

KASBIY  
**PEDAGOGIKA**  
Darslik

TOSHKENT- 2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**M.E.Axmedova, R.N.Melibayeva, T.R.Bekmirov, A.N.Nurmatov**

**KASBIY PEDAGOGIKA**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2021-yil 25-dekabrdagi 538-sonli buyrug'iiga asosan 5510100- Davolash ishi ta'lif yo'nalishi talabalari (o'quvchilari) uchun darslik sifatida tasdiqlangan (Guvochnoma № 538-767)

**TOSHKENT 2022**

**Axmedova M.E., Melibayeva R.N., Bekmirov T.R., Nurmatov A.N.**// "Kasbiy pedagogika" Darslik // «TIBBIYOT NASHRIYOTI MATBAA UYI» MCHJ Toshkent – 2022, 252 – bet.

**Tuzuvchilar:**

**Axmedova M.E.** – Toshkent tibbiyot akademiyasi "O'zbek va xorijiy tillar" kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

**Melibayeva R.N.** – Toshkent tibbiyot akademiyasi "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.

**Bekmirov T.R.** – Toshkent tibbiyot akademiyasi "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi.

**Nurmatov A.N.** – Toshkent tibbiyot akademiyasi "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi.

**Tuzuvchilar:**

**Isamova P.Sh.** – O'zDJTU "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

**Xoshimova M.K.** – Toshkent tibbiyot akademiyasi, "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

Ushbu Kasbiy pedagogika – darsligi 5111000- Kasbiy ta'lim (5510100-Davolash ishi) yo'nalishi III-kurs talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib berilgan talablarga to'liq javob beradi, kasbiy pedagogika shaxsda kasbga doir bilim, ko'nikma, malakalarni shuningdek, ulardagi majvud tushuncha, tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi. Ushbu darslikda kasbiy pedagogika fanining o'r ganuvchi asosiy muammosi, predmeti, maqsadi va vazifalari va tadqiqot metodlari va kasb pedagogikasining rivojlanishi, kasbiy ta'lim mazmuni, usullari, innovatsion va zamonaviy ta'lim usullari, kasbiy ta'limda tarbiyaviy ishlar mohiyati, kasbiy motiv va motivatsiya, tibbiy ta'limda pedagoglarning xususiyatlari va shunga doir ilmiy nazariy ma'lumotlar keltirilgan.

*Darslik O'zbekiston Respublikasi Sog'ligni saqlash vazirligi 2019 yil 25.04 dagi 107-sonli buyrug'inining 1-ilovasi bilan ro'yxitga olingan "Kasbiy pedagogika" fan dasturi asosida TTA "Pedagogika va psixologiya." kafedrasida taylorlangan hamda Toshkent tibbiyot akademiyasi Kengashining 2021 yil 26 maydagi 12 sonli bayonnomaga bilan tasdiqlangan.*

## KIRISH

Ushbu darslik O‘zbekiston Respublikasi davlat ta’lim standarti talablari asosida tibbiy ta’limning, tibbiy pedagogika yo’nalishi talabalari uchun asosiy manba hisoblanadi. Keng ma’noda kasbiy shakllanish deganda insonning o‘z aqliy qobiliyatlari jismoniy imkoniyatlari u yoki bu sohaga bo‘lgan layoqatlari, qiziqish va intilishlari, shuningdek qadriyat va dunyoqarashlariga ko‘ra biror bir kasb sohasida ta’lim olish keyinchalik shu sohaga kirishib, moslasha borishi va nihoyat yillar davomida yetuk va malakali mutaxassis yetishishi tushuniladi.

Ushbu darslikda kasbiy pedagogika fanining o’rganuvchi asosiy muammosi, predmeti, maqsadi va vazifalari va tadqiqot metodlari va kasb pedagogikasining rivojlanishi, kasbiy ta’lim mazmuni, usullari, innovatsion va zamonaviy ta’lim usullari, kasbiy ta’limda tarbiyaviy ishlar mohiyati, kasbiy motiv va motivatsiya, tibbiy ta’limda pedagoglarning xususiyatlari va shunga doir ilmiy nazariy ma’lumotlar keltirilgan.

Kasbiy pedagogika fanining asoslari, kasbiy ta’lim jarayoni va mazmuni O‘zbekistonda kasbiy ta’limni rivojlantirishda xorijiy tajribalarni qo’llash, kasbiy ta’lim usullari, shakllari va vositalari, kasbiy ta’limda tarbiyaviy ishlar mohiyati, kasbiy ta’limda zamonaviy dars turlari. Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish. Tibbiy ta’limda o‘qitishning noan’anaviy usullari va kasbiy pedagogakada talabalarni motivlashtirish va kasb ta’limida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish hamda kasbiy ta’limda pedagogik boshqaruvni faollashtirish, kasbiy ta’limda malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish hamda o’tkazish. O‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi muloqot, rag‘batlantirish, ularning faoliyatini kuchaytirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Jamiyatda yashayotgan har bir yoshlar kuchli, qobiliyatli, hayotda muvaffaqiyatli bo‘lishni istaydi, vaziyatni nazorat qila oladi va o‘z taqdirini quradi va unga intilib yashaydi. Shunday bilim kunikma va malakalarni shakillantirishda kasbiy pedagogika fanlari muhim hisoblanadi.

Bu fan amaliy ahamiyatga ega fanlar hisoblanib ular orqali olingan bilimlar quruq nazariya yoki shunchaki yod olish uchun emas, balki hayot davomida tibbiy kasbiy faoliyat jarayonlarida ana shunday bilimlarni kunikmalarni amaliy qo‘llay bilishdadir. Zero, jamiyatimizning ma’naviy yangilanishida, ijtimoiy yo‘naltirilgan shakllantirishda jahon hamjamiatiga qo‘shilishini ta’minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o‘ynaydi. Kasbiy pedagogika – darsligi tibbiy pedagogika yo’nalishi talabalari uchun mo’ljallangan bo‘lib berilgan talablarga to’liq javob beradi, kasbiy pedagogika shaxsda kasbga doir bilim, ko’nikma, malakalarni shuningdek, ulardagi majvud tushuncha, tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi.

Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev shaxsning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlari ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish mamlakatda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlarning asosiy maqsadi kuchli raqobatbarsosh kadrlarni taylorlash kerakligini o‘z nutqlarida qayd etganlar. Chunki, xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyaning yangi yutuqlarini salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish O‘zbekiston Respublikasi ta’lim taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo‘lib qoldi. Haqiqatan ham bu cheksiz murakkab orqaga qaytarilmaydigan muhim jarayon bo‘lib, unda inson manfaatlari yo‘lidan unumli foydalanishni tashkil etish, bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Shu boisdan, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning muhim omillari barkamol insonning shakllanishi uning munosib egallashi jamiyat taraqqiyoti uchun baholi qudrati o‘z hissasini qo‘sib yashashi va shu orqali jamiyatda o‘zligini namoyon etishi ya’ni shaxsning kamol topishi nazarga olinadi.

Komillik sari intilish shaxsning kasbiy shakllanishi bilan birgalikda yaxlit holda kechadigan va deyarli bir umr davom etadigan murakkab jarayondir. Ushbu darslik O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim davlat standarti talablari asosida tibbiy oliy ta’limning 3-kurs talabalari uchun pedagogika modulining asosiy manbasi hisblanadi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ham har bir nutqlarida, chiqishlarida tibbiy oliy ta’limga oid nazariy yondashuvlarga alohida e’tibor bermoqdalar «Ta’lim to’g’risida»gi yangi qonunimizda (2020 yil 23 sentabr) Barkamol insonning shakllanishi uning munosib kasb egallashi jamiyat taraqqiyoti uchun baholi qudrati o‘z hissasini qo‘sib yashashi va shu orqali jamiyatda o‘zligini namoyon etishi ya’ni shaxsning kamol topishi nazarga olinadi. Komillik sari intilish shaxsning kasbiy shakllanishi bilan birgalikda yaxlit holda kechadigan va deyarli bir umr davom etadigan murakkab jarayondir. Keng ma’noda tibbiy-pedagogik shakllanish deganda insonning o‘z aqliy qobiliyatları jismoniy imkoniyatlari u yoki bu sohaga bo‘lgan layoqatlari, qiziqish va intilishlari, shuningdek qadriyat va dunyoqarashlariga ko‘ra tibbiy kasbiy sohasida tibbiy ta’lim olish keyinchalik shu sohaga kirishib, moslasha borishi va nihoyat yillar davomida yetuk va malakali tibbiy-pedagogik soha mutaxassis bo‘lib yetishishi tushuniladi.

# I BOB KASBIY PEDAGOGIKA FANINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

## 1.1 Kasbiy pedagogika fanining asoslari

Kasbiy pedagogika ta’lim- tarbiyaning umumiy qonuniyatları, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o’rganadigan fan. Kasbiy pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqlol g’oyalari asosida tarbiyalash, unga ta’lim berish muammolarini o’rganadi. Kasbiy pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihat – uni o’qitish va tarbiyalashga asosiy e’tiborni qaratganligi bois didaktika (ta’lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Kasbiy pedagogika o’qitishni o’zgartiruvchi oltita tamoyili mazkur samarali amaliyot yo’riqnomasini yaxshiroq tushunishga bag’ishlangan.

Didaktika (ta’lim nazariyasi, yunoncha didaktikos «o’rgatuvchi», didasko «o’rganuvchi»)ta’limning nazariy jihatlari, ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatları, o’qituvchi va o’qituvchi faoliyatları, ta’limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo’llari va hokazo muammolarni tadqiq etadi. Ta’lim o’z mohiyatiga ko’ra umumiy va maxsus kabi turlarga ajratiladi. Umumiy ta’lim har bir shaxsning kamol topishi hamda u tomonidan hayotiy faoliyatni tashkil etaolishi uchun zarur bo’lgan ma’lumotlarni berishga yo’naltiriladi. Kasbiy ta’lim asosida o’zlashtirilgan ma’lumotlar kelgusida shaxsning kasbiy tayyorgarligini ta’minalashga imkon beruvchi maxsus ta’lim olishi uchun asos bo’ladi. Maxsus ta’lim– o’zida mutaxassislik xususiyatlarini namoyon qilib, shaxsga muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etish borasida nazariy bilimlarni berish asosida amaliy ko’nikma hamda malakalarni shakllantirishgaxizmat qiladi. Ta’lim, shuningdek, turli darajadagi ta’lim dasturlarini amalga oshirishiga ko’ra muktabgacha ta’lim, umumiy o’rta ta’lim, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash hamda maktabdan tashqari ta’lim kabi turlarga bo’linadi.

**Tarbiya nazariyasi** – pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo’lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o’rganadi. Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o’stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Ijtimoiy tarbiya aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va jinsiy tarbiya kabi yo’nalishlarda tashkil etiladi.

## **1.2. Kasbiy pedagogika fanining vazifalari.**

Kasbiy pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shamdi. Kasbiy pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etishsharoitida mazkur fan yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, milliy istiqlol g'oyasi asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini ijodiy rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor sharatiladi:

1. Ma'naviy vaaxloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o'rghanish.
2. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash.
3. Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi tajribasini o'rghanish asosida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish.
4. Tibbiy ta'lim muassasalari hamda, ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini asoslash.
5. Ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish vaamaliyotga joriy etish.
6. Kasbiy pedagog mutaxassislarni kasbiy pedagogika nazariyasiga oid bilimlar hamda ta'lim-tarbiya usullari bilan qurollantirish.
7. Ta'lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlarini o'rghanish.
8. O'qitish hamda tarbiyalash jarayonining samarali texnologiyalarini yaratish.
9. Oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish yuzasidan ota-onalar uchun ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

## **1.3. Kasbiy pedagogika fanining asosiy kategoriyalari.**

Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlar, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushunchakategoriya deb ataladi. Kasbiy pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga haratilgan jarayonlarning umumiyligi mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish.

**Shaxs** – pedagogik va psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari vaxatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo`lgan( tarbiyaning 12 turini bosib o`tgan) jamiyat a`zosi.

**Tarbiya** - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajribaasosida yosh avlodni har tomonlama o`stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

**Ta`lim** –talabalarni nazariy bilim, amaliy ko`nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o`stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo`naltirilgan jarayon.

**Bilim** – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko`rinishidaaks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.(Olingan bilimlarni o'zida aks ettira olishi)

**Ko`nikma** – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil etaolish qobiliyati.

**Malaka** –muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

**Ma'lumot** – ta`lim-tarbiya natijasida o`zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko`nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui. Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo`ladigan miqdor va sifat o`zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

#### **1.4. Kasbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.**

Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum kasbiy pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo`lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, kasbiy pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo`lib, uning umumiyl mohiyatini to`laqonli anglashuchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqtai nazardan kasbiy pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o`rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

1. Falsafa– shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g`oya, qarash hamda ta`limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

2. Iqtisod – ta`lim muassasalarining faoliyatini yo`lga qo'yish, o`quv binolarini qurish, ta`lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashgaxizmat qiladi.

3. Sotsiologiya – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etishshartlari xususida ma'lumotlarga ega bo`lish asosida ta`lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o`zaro munosabatlarini samarali tashkil etishuchun imkoniyat yaratadi.

4. Etika- shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliv insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rinn tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishdaalohida o'rinn tutadi.

5. Estetika – shaxs tomonidan go'zallikning his etilishi, unga intilishi, Shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo'naliishlarni aniqlashgaxizmat qiladi.

6. Fiziologiya- o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatgaolinishi uchun boshlang'ch asoslarni beradi.

7. Gigiena– talabalarning salomatligini muhofazalash, ularning jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishda nazariy vaamaliy g'oyalari bilan yordam beradi.

8. Psixologiya – shaxsda ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirishuchun zamin yaratadi.

9. Tarix – pedagogika fani taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatgaolish, Shuningdek, xalq pedagogikasi g'oyalarini kelgusi avlodga uzatishuchun yo'naltiriladi.

10. Madaniyatshunoslik – talabalarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirishuchun xizmat qiladi.

11. Tibbiy fanlar – shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash, uning organizmida namoyon bo'layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishgaamaliy yondaShuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishda ko'maklashadi.

### **1.5. Kasbiy pedagogika fanlari tizimi.**

Shaxs kamolotini ta'minlash, uning intellektual, ma'naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o'zigaxos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatgaolish maqsadga muvofiqdir. Shu bois yaxlit kasbiy pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi kasbiy pedagogik fanlar tomonidan o'rganiladi. Ular quyidagilardir:

1. Umumiy pedagogika – (maktabgacha va boshlang'ch ta'lim pedagogikasi) maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalarini o'rganadi.

2. Korreksion (maxsus) pedagogika – rivojlanishida turli psixologik va fiziologik nuqsonlari bo'lган bolalarni tarbiyalash va o'qitish bilan bog'liq muammolarni o'rganadi.

O‘z navbatida korreksion pedagogika tarkibiga maxsus pedagogika va psixologiyaning turli sohalari kiradi. Ular quyidagilardir:

Surdopedagogika va surdopsixologiya – eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o‘rganadi.

Oligofrenopedagogika va oligofrenopsixologiya – aqli zaif bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o‘rganadi.

Tiflopedagogika va tiflopsixologiya – ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o‘rganadi.

Logopediya va nutqiy buzilishlar psixologiyasi – nutqi, Shuningdek, motorli-harakatlanish doirasida murakkab nuqsonlari bo‘lgan bolalar (ko‘r, soqov va kar bolalar)ni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o‘rganadi.

3. Metodika– xususiy fanlarni o‘qitish xususiyatlarini o‘rganadi.

4. Pedagogika tarixi – ta’lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda etakchi o‘rin egallagan pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalalarini o‘rganadi.

5. Pedagogik texnologiya – ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, texnologik yondaShuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o‘rganadi.

6. Pedagogik mahorat – bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o‘rganadi.

7. Ta’limni boshqarish – ta’lim muassasalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash masalalarini o‘rganadi.

8. Ijtimoiy pedagogika – ijtimoiy munosabatlar jarayonida kasbiy pedagogik g‘oyalarning tutgan o‘rnini va roli, shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yo‘naltirish oila muammolarini o‘rganadi.

## **1.6. Kasbiy pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari.**

Kasbiy pedagogika fani rivoji muayyan kasbiy pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g‘oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta’minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiharish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda kasbiy pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va tibbiy holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o‘rganish, mavjud ko‘rsatkchlar vositasida ularning sodir bo‘lish sabablarini o‘rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Kasbiy pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator ob‘ektiv va sub‘ektiv omillarga bog‘liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul. Ayni vaqtida samarali bo‘lgan metodlarni

tanlay olish ham muhimdir. Kasbiy pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo`nalishlarda Chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, ob`ekti va sub`ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir. Ayni vaqtda, O`zbekiston Respublikasida pedagogik yo`nalishdaolib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondaShuvgaasoslanadi. Kasbiy pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarilarni aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayondlarning umumiyo`loqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomilashtirib borishini ta`minlashi, şarama-şarshiliklarning shaxs kamolotini ta`minlashdagi o`rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e`tirof etadi. Kasbiy pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalgaoshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamdaaniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo`lgan jarayon bo`lib, uning samarali bo`lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir:

- 1) muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi;
- 2) ilmiy farazlarning to`g`ri shakllantirilganligi;
- 3) vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to`g`ri belgilanganligi;
- 4) tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan ob`ektiv yondaShuv;
- 5) tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to`g`ri hisobgaoltinganligi;
- 6) tadqiqot natijalarini oldindan tashhislash va uning natijalarini aytib o`tish;
- 7) tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo`nalishda, tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanalmoqda:

1. Kasbiy pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta`lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Kasbiy pedagogik tahlil metodi.
8. Kasbiy pedagogik tajriba metodi.
9. Matematik-statistik metod.

Kasbiy pedagogik kuzatish metodi. Uni qo`llash jarayonida, ta`lim muassasalarining o`quv-tarbiya ishlari jarayonini o`rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba- avvali va yakunida qo`lga kiritilgan

ko`rsatkchlar o`rtasidagi farq to`g`risidagi ma'lumotga ega bo`linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o`zigaxos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzlucksiz, izchil va tizimli amalgaoshirilsa, kutilgan natijani qo`lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan kasbiy pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, talaba shaxsini shakllantirishgaxizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanadaoshadi.

Kasbiy pedagogik kuzatuvni tashkil etishdaxatoga yo`l qo`ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- 1) kuzatuv jarayonidaaniq maqsadga egalik;
- 2) kuzatishni tizimli ravishda yo`lga qo`yish;
- 3) kuzatishning har bir bosqchida muayyan vazifalarni hal etish;
- 4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o`rganish;
- 5) xulosa chişarishga shoshilmaslik.

Suhbat metodi. Bu metod kasbiy pedagogik kuzatish jarayonida ega bo`lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to`g`ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari sub'ektlari imkoniyatlarini muammo ychimiga jalg etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda indiviudal, guruhli hamdaommaviy shaklda o`tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to`la-to`kis namoyon bilishga erishish muhimdir. Uning samarali bo`lishi uchun quyidagilargaamal qilish maqsadga muvofiq: maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmuni aniqlash hamda savollar o`rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta'minlash; suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash; suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma'lum to`xtamga kelish; suhbatdosh to`g`risida avvaldan muayyan ma'lumotlarga ega bo`lish; suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo`lish; suhbatdoshning o`z fikrlarini erkin va batafsil aytaolishi uchunsharoit yaratish; savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish; olingen ma'lumotlarni o`z vaqtida tahlil qilish.

Anketa metodi (fransuzcha – tekshirish). Ushbu metod yordamida kasbiy pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to`plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishgaasoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko`p hollarda, yozma ravishdaolinadi. O`rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holdaanketa savollari quyidagcha bo`ladi: ochiq turdagи savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar); yopiq turdagи savollar (respondentlar «ha», «yo`q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniharli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

Anketa metodini qo`llashda ham bir qator shartlargaamal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

- 1) anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishgaxizmat qilishi lozim;
- 2) anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo`lmasligi kerak;
- 3) anketa savollari talabalarning dunyošarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatgaolish asosida tuzilishi zarur;
- 4) anketa savollari respondentlar tomonidan to`la javoblar berilishini ta`minlovchi vaqt ni kafolatlay olishi zarur;
- 5) anketa talabalarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaigaaylantirib yuborilmasligi zarur;
- 6) anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta`minlaydi. Intervyu respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o`tkaziladi. Intervyu jarayonidaolangan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta'lismuassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi. Kasbiy pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lismuassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod talablarining tibbiy ta'lismuassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o'rganish, bu boradagi faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg`or tajribalarni ommalashtirish va ta'lismuassasasi kasbiy pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi. Ta'lismuassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchihujjatlar quyidagilardan iborat: O`quv mashg`ulotlarining jadvali, o`quv dasturi, guruh (yoki sinf) jurnallari, talabalarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig`ilishi bayonnomalari yozilgan daftari, Pedagogik Kengashqarorlari, ta'lismuassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasи, o`quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta'lismuassasasi jihozlari (o`quv partalari, stol stillar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftari va hokazolar. Mazkur metod muayyan yo`nalishlarda o`quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, talabalarda hosil bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalar hajmi, ilg`or pedagogik tajribalar mazmunini o`rganishda muhim ahamiyatga ega.

Test metodi. Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (Shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo`ycha o`zlashtirilgan nazariy bilim vaamaliy ko`nikma, malakalar darajasini aniqlashgaxizmat qiladi. Test o`z mohiyatiga ko`ra quyidagi savollardan iborat: 1)ochiq turdagи savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar); 2) yopiq turdagи savollar (respondentlar «ha», «yo`q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniharli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).3) to`g`ri javob variantlari qayd etilgan savollar

(respondentlar o`z yonda Shuvlariga ko`ra to`g`ri deb topgan javob variantini belgilaydilar). Test metodini qo`llashdaaniqlanishi zarur bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga e`tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo`ycha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejalishi bilan tavsiflanadi. Biroq, metod ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishdaolinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlardan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o`z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyaga ega emas. Kasbiy pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo`llashdan ko`zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo`nalishlarda o`rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo`lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g`oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi. Talabalar ijodini o`rganish metodi. Mazkur metod talabalarning muayyan yo`nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo`ycha bilim, ko`nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo`llaniladi. Uni qo`llashda talabalarning ijodiy ishlari – kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo`lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma'lum talabagaxos bo`lgan individual imkoniyatni ko`raolish, baholash va uni rivojlantirishchun zamin yaratadi.

Talabalar ijodini o`rganishning quyidagi shakllari mavjud:

- 1) fan olimpiadalari;
- 2) turli mavzulardagi tanlovlari;
- 3) mакtab ko`rgazmalari;
- 4) festivallar;
- 5) musobaqalar.

Kasbiy pedagogik tajriba (eksperiment – lotincha «sinab ko`rish», «tajriba qilib ko`rish») metodi. Kasbiy pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o`rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o`z in`ikosiga ega bo`laolishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo yechimini topishga yo`naltirilgan kasbiy pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalgaoshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay hamda unga baho beraolishi zarur. Ba`zantalabalar o`zlarini kashf qilish va tekshirishda strategiyaga ega bo`lishmaydi. Natijada talabalarni mustaqil o`ylovchi va o`rganuvchi bo`lishlarini o`rganishlari uchun o`qituvchilar o`ylash jarayonini ehtiyyotlik bilan

ko‘tarib borishlari kerak. Kasbiy pedagogik tajriba ham bir qator shartlargaamal qilgan holda tashkil etiladi. Xususan:

- 1) tajribaning maqbul loyiha (dastur) asosida uyushtirilishi;
- 2) tadqiqot ilmiy farazining puxtaasoslanishi;
- 3) tadqiqot ob’ektlari vv usullarining to’g’ri tanlanishi;
- 4) tajriba o’tkazilish vaqtি hamda davomiyligini aniqlanishi;
- 5) zarur pedagogik shart-sharoitlar (asbob-uskuna, jihozlar, vositalar)ning yaratilganligi;
- 6) tajriba ma’lumotlarini umumlashtirish, tahlil qilish va natijalarni qayta ishslash.

Pedagogik tajriba yakunidaolingo natijalargaasoslanib umumiyl xulosaga kelinadi va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi. Matematik-statistik metod tajribasinovalishlari, shuningdek, umumiyl holda tadqiqotning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida qo’llaniladi, muammo holatini ifodalovchi ko’rsatkchlar maxsus matematik formulalar yordamida qayta tahlil etiladi. Yakuniy qiymat tadqiqot samarasini ifodalovchi asosiy ko’rsatkch hisoblanadi. Ayni vaqtda, pedagogik yo’nalishda, tadqiqotlar olib borishda Ko’virlyag, Rokch, V.P.Bespalko hamda V.V.Grechixin metodlaridan keng foydalaniilmoqda.

### **1.7. Pedagoglik kasbi, uning paydo bo’lishi va ravnaq topishi.**

Pedagoglik kasbining shakllanishi kishilik taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog’liq. Terib-termachlab kun kechirgan ibridoiy davr kishilari yoshlarni o’zлari bilan ergashtirib yurib, ularga ov qilish, turli daraxt mevalarini terish, o’simliklarning ildizi kovlab olish, suv manbalarini izlab topish kabi harakatlarni amalga oshirishni o’rgatganlar. Bunday harakatlar qabila (urug’)ning tajribali kishilari yoki keksalar tomonidan amalga oshirilgan. Oddiy kundalik ehtiyojlarni qondirish yo’lida olib borilayotgan xatti-harakatlar asosida yoshlarga mavjud tajribalar asosida ma’lumotlarni berib, ularda amaliy ko’nikmalarni shakllantirganlar. Turli tovushlarni chiqarish yordamida atrofdagilarni yaqinlashayotgan xavfdan ogoh qilishni yoshlar kattalarning namunalari asosida o’zlashtirganlar. Nutq va yozuv paydo bo’lgunga qadar bu kabi harakatlar imo-ishoralar asosida amalga oshirilgan. Kishilik tarixida tub inqilobni sodir etgan nutq va yozuvning paydo bo’lishi, shuningdek, urug’ jamoasi tomonidan bajariladigan mehnat faoliyatining turli sohalarga ajralishi yoshlarga nisbatan munosabatning ilg’or (progressiv) xarakter kasb etishiga imkon berdi. Turli tabiiy ofatlar ta’siridan himoyalanish, kishilar hayotiga xavf solayotgan kasallikkarni davolash, hayot kechirishuchun yetarli oziq-ovqatlarni jamlab olishga bo’lgan tabiiy ehtiyoj yoshlarga hayotiy tajribalarni ma’lum mehnat faoliyati yo’nalishida yetarlcha bilimga ega bo’lgan kishilar tomonidan berilishi maqsadga muvofiq ekanligini ko’rsatdi. Natijada yoshlarga

hayot tajribalarini o'rgatuvchi kishilar guruhi shakllandi hamda ma'lum yo'nalishlar bo'ycha bilimlarni berish maxsus ajratilgan joylarda tashkil etila boshlandi. Dastlabki o'qish joylari madrasalar( maktab) qadimgi Sharqda (Vavilon, Misr, Hindistonda) paydo bo'lib, ularda o'qitish ma'muriy-xo'jalik boshqaruvi asoslari o'rgatilgan.

Antik davrda o'qishlar(maktab) Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar. Qadimgi Yunonistonda bunday joylar akademiya deb nomlangan. «Akademiya» so'zi (uchib ketayotgan qush,yuqorida , balandlikda) Akadem nomidan kelib chiqqan. Eramizdan avvalgi IV asrda Afina yaqinidagi Akademiya nomi bilan nomlanuvchi joyda Platon o'z shogirdlariga ma'ruzalar o'qigan bo'lib, keyinchalik ta'lim tashkil etiluvchi maskan ham shunday nom bilan atala boshlagan. qadimgi Rim va Yunonistonda yoshlarga bilim berish faylasuflar zimmasiga yuklatilgan. Jamiyatning tabaqalanishi natijasida, qudorlik tuzumida ta'lim maskanlariga olib borish va olib kelish vazifasini qullar bajarishgan va ular «payne agoyenlar» deb nomlanganlar. Ushbu tushunchaning ma'nosi «bola yetaklovchi» tarbiyalovchi demakdir. «Didaskal» «men o'qitaman» ta'lim bilan shug'ullanuvchi shaxs. Demak, Pedagogika ana shiu so'zlarning qo'shiluvidan hosil bo'lgan. Tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqchlarida yoshlarga tizimli bilimlarni berish bilan doimiy shug'ullanuvchi kishilar aynan shu nom bilan atala boshlaganlar. Feodalizm davrida aksariyat o'qish joyi (maktablar) masjid (musulmon mamlakatlarida) yoki ibodatxonalar (Hindiston) qoshida tashkil etilgan. Bunday maktablarda yoshlarga diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlar ham o'rgatilgan. O'rta asrlar davrida, Sharqda akademiya ko'rinishidagi ta'lim muassasalari ham faoliyat yuritgan bo'lib, ular «Donishmandlar uyi» (IX asr, Bag'dod), «Ma'mun akademiyasi» (XI ar boshlari, Xorazm), observatoriylar qoshidagi jamiyatlar (XV asr, Samarqand) tarzida nomlangan. Akademiyalarga turli fan yo'nalishlari bo'ycha kuchli bilimga ega bo'lgan qomusiy olimlar jalb etilgan bo'lib, ular tomonidan tibbiypot, matematika, geodeziya, mineralogiya, astronomiya kabi yo'nalishlarda keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilgan. O'rta asrlar hamda kapital ishlab chiqarishiga asoslangan jamiyatlarda akademiya (Sharqda madrasa)lar ko'rinishidagi maktablarda ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, turli sohalar bo'ycha mukammal bilimga ega pedagoglarning faoliyat yuritishlariga alohida ahamiyat qaratilgan. Chunonchi, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek tomonidan barpo etilgan madrasalarda o'z davrining taniqli olimlari – Ali qushchi, Taftazoniy, qozizoda Rumiy, Mavlono Muhammad, g'iyosiddin Jamshid Koshiy, Muiniddin Koshiy hamda Mansur Koshiylar talabalarga ta'lim bergenlar. XIX asr oxiri hamda XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidizm harakatining assoschilari, taniqli ma'rifatparvarlar – Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori, Hamza

Hakimzoda Niyoziy, AbdullaAvloniy, Abduqodir Shakuriy, Ismatulla Raxmatullaev, Abdurauf Fitrat, Isohxon Ibrat va boshqalar aholi orasida nafaqat murabbiy, balki ma’naviy etuk inson sifatida ham nom qozondilar.

**Nazorat uchun savollar:**

1. «Kasbiy pedagogika» tushunchasi qanday mazmunni anglatadi?
2. Ta’lim nazariyasi (didaktika) nima?
3. Tarbiya nazariyasi nimalarni o’rganadi?
4. Kasbiy pedagogika fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Kasbiy pedagogikaning asosiy kategoriylarini ayting va mohiyatini yoriting.
6. Qanday fanlar kasbiy pedagogik fanlar tizimiga kiradi?
7. Qanday metodlar kasbiy pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari hisoblanadi
8. Kasbiy pedagogikaning tarixiy taraqqiyotini izohlab bering.

## **II BOB. KASBIY TA'LIM JARAYONI**

### **2.1. Kasbiy ta'lim jarayoni mazmuni**

Kasbiy ta'lim tizimli bilim olishning eng muhim va ishonchli usulidir. Kasbiy ta'limga ikki tomonlama aloqa (ta'lim olish va ta'lim berish), shaxsni har tomonlama rivojlantirish va boshqa xususiyatlar xosdir. Kasbiy ta'lim o'qituvchi tomonidan boshqariluvchi o'ziga xos anglash jarayonidir. O'qituvchining yo'naltiruvchi sifatidagi roli shaxsning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalarni to'liq o'zlashtiraolishlarida ko'rindi. Kasbiy ta'lim o'qituvchining talabalar bilan muloqoti jarayoni ham sanaladi. U talabalarga o'quv materiali mazmunini tushuntirib beradi, savol va topshiriqlar beradi, ularning faoliyatini nazorat qiladi, xato va kamchiliklarini aniqlaydi, yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'rilaydi, qanday ishlash lozimligini qayta ko'rsatadi. Har qanday ta'lim o'zida o'qituvchi va talabalarning faoliyati, ya'ni, o'qituvchining o'rgatish hamda talabaning o'rghanishga yo'naltirilgan faoliyati, boshqachai aytganda to'g'ridan to'g'ri, bevosita va nisbiy munosabat<sup>1</sup>aks etadi. Kasbiy ta'lim jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtasida o'zaro muloqat yuzaga keladi. "Muloqot" tushunchasi "ta'lim" tushunchasidan ko'ra keng ma'noga ega. Ta'lim talabalarga nazariy bilimlarni berish asosida ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish, ularda amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishga yo'naltirilgan jarayondir. Kasbiy ta'lim jarayoni (didaktik jarayon) sinonim tushunchalar emas. Jarayon bu yaxlit pedagogik hodisa, pedagogik faoliyatning tarkibiy qismi sifatida ta'lim tizimining muayyan holatini o'zgartirish hisoblanadi. Jarayon mohiyatini V.P.Bespalko tomonidan taklif etilgan quyidagi formulaassosida to'laqonli anglash mumkin:

**DJ-M-Tf – B** bu yerda;

**DJ** – didaktik jarayon;

**M** – talabalarning o'qish (ta'lim olish) motivasiysi;

**Tf** – talabalarning o'zlashtirish faoliyati;

**B** – talabalarning bilish faoliyatlarini boshqarish.

**Ta'lim jarayonining yaxlit tizim sifatidagi tavsifi.** Ta'lim jarayonining "yaxlitligi" "tizimliligi" va "majmuaviyligi"ni bir xilda talqin etish mumkin emas. Biroq, ta'lim jarayonining yaxlitligi uning tizimliligi bilan uzviy bog'liq. Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) o'zaro bog'langan ko'plab elementlar (tarkibiy qismlar) o'rtasidagi mustahkam birlik va o'zaro yaxlitlikdir. Demak, ta'lim yaxlit tizim sifatida ko'plab o'zaro bog'liq quyidagi elementlarni o'z chigaoladi: ta'lim

---

<sup>1</sup>Дьяченко В.Д. Организационная структура учебного процесса и его развитие. – Москва, Педагогика, 1984. – с. 44-45.

maqsadi, o`quv axborotlari, o`qituvchi va talabalarning ta`limiy faoliyatları, uning shakllari, pedagogik muloqot vositalari, shuningdek, ta`lim jarayonini boshqarish usullari. O`qituvchilar individual ehtiyojlar va qobiliyat darajalariga e'tiborli bo`lgani sababli talabalar o`rganib boradi va ular talabalarni rivojlantirishuchun ular bilan individual ishlaydi. shuninguchun talabalar bilan aloqa o`rnatish o`qitish jarayonidagi muhim va kuchli kelishuv hisoblanadi. Bu kasbning talablari va murakkabliklari sababli ta`lim beruvchilar ta`lim jarayoni va dasturlarini rivojlantirishuchun boshqalar bilan birga hamkorlikda ishlashlari zarur. O`qituvchilar o`zlarining atrofidagilarga ta`sir o`tkaza olishuchun yetarli kuchga ega bo`ladi. Nemis shoiri Gyote aytishicha , quydagi fikr atrofidagilarga ta`sir o`tkaza olishuchun individual kuch haqida juda yaxshi bayon beradi: “Men shunday qo`rqinchli xulosaga keldimki, men hal qiluvchi elementman. Iqlimimni yaratish bu mening shaxsiy fikrlashim. Ob-havomni yaratish bu mening kunlik faoliyatim. Hayotni qo`rqinchli yoki zavqli qila oladigan kuchga men egalik qilaman. Men ilhomlantirish quroli yoki azoblarning manbai bula olishim mumkin. Ayblay olishim ham hazilga yo`yishim ham, yoki tuzatishim ham mumkin. Barcha hollarda ham, har qanday qaltis vaziyatni kuchaytirish yoki kamaytirishga qaror qilish bu mening javobgarligimdir.” Agar biz odamlarga ular qanday bo`lsa , shunday murojaat qilsak biz ularni yomon ahvolga solib qo`yamiz, ya`ni biz ularga qanday bo`lishi kerak bo`lsa shunday bo`lishlariga yordam beramiz. Bir paytning o`zida Gyotening so`zlari hayotga bo`lgan qiziqishni yaqqol ilhomlantiradi hamda uning tushunchasi guruhga ta`sir ko`rsatadi. Talabalar bizning haridorlarimiz va ishimizning manbaidir, bir paytning o`zida o`qituvchilarning o`zлari darsdagi eng muhim inson hisoblanadi. Chunki, ular ko`plab talabalarning muvaffaqiyatiga hissa qo`shadigan omillarni nazorat qiladi. O`qituvchilarning harakati va munosabatlari hamkasblari bilan bo`lgan ijobiy kasbiy munosabatlari ota-onalar bilan birgalida ishlashni taminlaydi. Bundan tashqari o`qituvchilar ota onalarni taklif qilib farzandlarining talim tarbiyasi bo`yicha sherik bo`lib ishslashini anglatadi. O`qituvchi risoladagidek namunali darsni tashkillashtira oladi lekin munosabat o`rnatish orqaligina darsning yutuqlarini keskin kuchaytira oladi.<sup>1</sup>

## **2.2. Kasbiy pedagogik ta`lim funksiyalari.**

“Funksiya” tushunchasi “ta`lim vazifalari” tushunchasiga yaqindir. Ta`lim funksiyasi ta`lim jarayoni mohiyatini ifoda etadi, vazifasi esa ta`limning komponentlaridan biri hisoblanadi.Didaktika ta`lim jarayonining quyidagi uchta funksiyasini ajratib ko`rsatadi: ta`lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash. Ta`lim

---

<sup>1</sup>Jeff Halstead . Navigating the new pedagogy. R and Education, 2011.128-b.

berish funksiyasi ta’lim jarayonining o’quvchilarda bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Kasbiy ta’lim natijasi sifatida bilimlarining to`laligi, chuqurligi, tizimliligi, anglanganligi, mustahkamligi vaamaliy xususiyat kasb etishi muhimdir. Bu kabi holatlar ta’lim jarayonining metodik jihatdan to`g`ri tashkil etilganligini ifodalaydi. Kasby ta’lim jarayonida talabalarda ular tomonidan o’zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan amaliy ko`nikma va malakalarning shakllanishi ham alohidaahamiyatga ega. Ko`nikma – olingan bilimlargaasoslanib qo`yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig`indisi. Malaka – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.Umumiy ko`nikma va malakalargaog`zaki va yozma nutqni bilish, axborot materiallaridan foydalanaolish, o`qish, manbalar bilan ishslash, referat yozish, mustaqil ishini tashkil etish kabilar kiradi.Kasbiy ta’limning rivojlantiruvchi funksiyasi ta’lim jarayonida, bilimlarni o’zlashtirish jarayonida talabaning rivojlanishi sodir bo`lishini ko`rsatadi. Rivojlanish quyidagi yo`nalishlarda sodir bo`ladi: nutqi rivojlanishi, fikrashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emotsiional-irodaviy va ehtiyoj-sababli sohalari rivojlanadi. To`g`ri tashkil etilgan ta’lim shaxsni har doim rivojlantiradi, lekin o`qituvchi va talabaning shaxsiy har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan maxsus o’zaro munosabatlarda rivojlantirish funksiyasi yanada samaraliroqdir. Kasbiy ta’limning shaxsni rivojlantirishga yo`naltirilganligi “rivojlantiruvchi ta’lim” tushunchasi bilan ifoladanali. XX asr 60-yillardan boshlab rivojlantiruvchi ta’limni tashkil etishga nisbatan turli yondoshuvlar yuzaga keldi. Bularning hammasi ta’limni tashkil etish faqat bilimlarni shakllantirishga emas, o’quvchini har tomonlama rivojlantirish (birinchi navbatda, aqliy rivojlantirish, aqliy faoliyat usullari, analiz qilish, taqqoslash, turlargaajratish va boshqalarni kuzatish, xulosa chiqarish, ob’ektlarning muhim belgilarini ajrata bilish, faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni bilishga o’rgatish, uning natijalarini tekshirishni bilish malakasini rivojlantirish)ga xizmat qilishini anglatadi. Ta’lim jarayoni tarbiyalovchi xususiyatga ham ega. Tarbiya va ta’lim o`rtasidagi bog`liqlik ob’ektiv va qonuniy hisoblanadi. Biroq shaxsni ta’lim jarayonida tarbiyalash tashqi omillar (oila, mikromuhit va boshqalar)ning ta’siri tufayli qiyin kechadi. Tarbiyalash funksiyasi. Ta’limning tarbiyalovchilik xususiyati turli ijtimoiy tuzum hamda sharoitda ham yaqqol namoyon bo`ladi. Tarbiya funksiyasi ta’lim mazmuni, shakli va metodlarining mohiyati bilan belgilanadi va o`qituvchi hamda talabalar o`rtasidagi munosabatlarni tashkil etish jarayonida yetakchi o`rin tutadi. Ta’lim jarayonida shaxsning ma’naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi shakllantiriladi. Ta’limning tarbiyalovchilik xususiyati, eng avvalo, ta’lim mazmunida aks etadi. Biroq, shuni ham e’tiborda tutish kerak-ki, barcha o’quv fanlari ham birdek imkoniyatiga ega emas. Gumanitar va estetik fanlarning bu boradagi imkoniyatlari yuqori. Ta’lim

jarayonida tarbiyaning ikkinchi omili o`qituvchi va talabalarning munosabatlari, guruhdagi psixologik muhit, o`qish jarayoni ishtirokchilarining o`zaro munosabatlari, o`quvchilarning idrok etish faoliyatlariga o`qituvchining rahbarligi hisoblanadi. Zamonaviy pedagogika o`qituvchi va talabalar o`rtasidagi munosabatning eng qulay usuli sifatida demokratik usulini e'tirof etadi. Bu usul ta'lim jarayonida o`quvchilar shaxsini hurmat qilish, ularning xohish-istiklari, qiziqishlarini inobatga olinishini anglatadi. **O`qituvchi va talabalarning ta'lim jarayonidagi faoliyatları. O`qituvchi faoliyatining vazifasi va tuzilishi.**

Ta'lim muassasasida, tashkil etiluvchi ta'lim jarayonida talabaning faoliyati o`qituvchi rahbarligi ostida kechadi. O`qituvchi faoliyatining vazifasi talabalarning ijtimoiy borliqni ongли va faol idrok etishga yo`naltirilgan faoliyatlarini boshqarishdan iboratdir.

Ta'lim jarayonini boshqarish quyidagi bosqchlardan iborat:

- 1) rejalshtirish;
- 2) tashkil etish;
- 3) boshqarish (rag`batlantirish);
- 4) nazorat;
- 5) natijalarni baholash va tahlil qilish.

O`qituvchi faoliyatini rejalshtirish bosqchi kalendar-tematik yoki darslar rejalarini tuzish bilan yakunlanadi. Rejalar, reja-konspektlar yoki konspektlarni tuzishuchun uzoq, jiddiy ishslash kerak bo`ladi. O`qituvchi talabalarning tayyorliklari darajasi, ularning o`quv imkoniyatlari, moddiy baza holati, shaxsiy (kasbiy) imkoniyatlarini o`rganib chiqishi, o`quv materiali mazmunini tanlab olishi, dars olib borishshakli va metodini o`ylab chiqishi kerak bo`ladi. Talabalar faoliyatini tashkil etish, o`quv masalalarini qo`yishni va uni bajarishuchun imkoniyatlar yaratishdan iborat bo`ladi. Shubhasiz ta'lim - tarbiya jarayoni o`zining vazifasiga ega turli bosqichlarga bo`linadi. Va bunday holatda talim-tarbiya masalasi aynilsa yangi pedagoglar uchun juda murakkab va havotirli ko`rinadi. Lekin uslub va strategiyalar bo`laklarga ajratilsa, ta'lim tarbiya mantiqiy, ilmiy va tushunarli bo`ladi. Yaxshi o`qitish barcha uslub va strategiyalardan yaxshiroqdir. Albatta guruhda intellektual ta'lim jarayonini yaratishuchun o`qituvchidan o`z sohasining chuqur bilim talab etiladi, lekin o`qituvchi shunday bir san`atkor bo`lishi kerakki talabalarni darsga sehrlay olsin. Uslub ta'lim tarbiyada talabalarni yetuklikka ko`tarishuchun nima kerakligini tushuntirmaydi. Shuning uchun ham shaxs hususiyati tajribali o`qituvchilarda boshqacha shakllanadi. Yaxshi ta'lim tarbiyaning asosida jo`shqinlik yotganidek,

mashxur pedagoglar o'z g'oyalarini talabalariga yetkazishda shu g'oyani ilgari surishadi. Talabani ilhomlantira olgan pedagoggina ularni ishslashga unday oladi.<sup>2</sup>

**Kasbiy pedagogik ta'lif jarayonida talabalarining faoliyatini.** Bilim olish faoliyatning o'zigaxos ko'rinishi sifatida muayyan tuzilish, rivojlanish va faoliyat qonuniyatlariga ega. Bilim olish borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni hisoblanadi. Bilim olishning muhim komponenti motiv,ya'ni, ta'limiylar xarakterdagi harakat yoki faoliyatni tashkil etishga nisbatan rag'batni his etish, ehtiyojning yuzaga kelishidir. O'qishning keyingi komponenti o'quv harakatlari (operasiyalari) sanalaib, ular anglangan maqsadga binoan amalgaoshiradi. O'quv harakatlari o'quv jarayonini tashkil etishning barcha bosqchlarida namoyon bo'ladi. Harakatlar tashqi (kuzatiladigan) va ichki (kuzatilmaydigan) ko'rinishda bo'lishi mumkin. Tashqi o'quv harakatlariga predmetli harakatlar (yozish, rasm chizish, tajribalar o'tkazish); perceptiv harakatlar (tinglash, fikrlash, kuzatish, sezish) hamda nutqdan foydalanish kiradi. Chunki (mnemonik, yunonchadan «mnemonikon» - eslab qolish madaniyati) harakatlarga materialni eslab qolish, uni tartibga solish va tashkil etish, shuningdek, tasavvur va fikrlash harakatlari (intellektual) kiradi. Har qanday bilimni o'zlashtirishda talabalardan idrok etish madaniyatiga ega bo'lish va o'quv materialini anglab etish talab etadi. Pedagogik jarayonda talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning ma'nosini etarli darajada tushunmay, faqat tovushlar birligi sifatida qabul qilinishi va yodlab olinishi xavfilidir. Talabalarni ilmiy bilimlarni ularning mohiyatini to'la tushungan holda o'zlashtirishshartlari bilan tanishtirib, ularga o'zini o'zi nazorat qilishning mohiyati vaahamiyatini tushuntirish maqsadga muvofiqdir. O'zini o'zi nazorat qilishda talabalar ular qo'llayotgan aqliy mehnat vositalarining samaradorligi, shuningdek, o'z mehnati natijalarini baholashi kerak. Natijalarni baholash, nazorat qilish va tahlil etish o'quv harakatlarining ajralmas qismlari hisoblanadi. Ta'lif jarayonida talaba tomonidan o'zini nazorat qilish, o'zini baholash va o'zini analiz qilish amalgaoshirish o'qituvchining shunga o'xhash o'rgatuvchi harakatlarini kuzatish asosida shakllanadi. Bu harakatlarni shakllantirish talabalarni o'z tengdoshlari faoliyatini kuzatishga jalb etish, o'zaro nazoratni tashkil etish, o'rnatilgan mezonlar asosida o'z faoliyati natijalarini o'zaro baholash va tahlil qilishga yordam beradi. **Bilimlarni o'zlashtirish jarayonining tuzilishi.** Talabalar o'quv idrok etish faoliyatlarini boshqarishga o'rganib olishuchun bilimlarni o'zlashtirish jarayoni tuzilishini yaxshi tasavvur etish, talabalar tomonidan bilimlarning egallash bosqchlarini bilishi zarur: idrok etish, o'quv materialini anglab yetish,

---

<sup>2</sup>Jeff Halstead . Navigating the new pedagogy. R and Education, 2011.143-b.

mustahkamlash, amaliy faoliyatida bilimlarini qo'llash. Birinchi bosqch idrok etish hisoblanadi. Psixologiyadan ma'lumki, idrok etish aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni bo'lib, u tanlash xususiyatiga ega. Shuning uchun birinchi navbatda talabalarga mavzuni, ya'ni, ularning nimani o'rganishlari (masalani qo'yish)ni tushuntirib berish kerak. Shu asosida o'quv materiali bilan dastlabki tanishish amalga oshiriladi. U haqiqiy mavjud yoki xayoliy predmet, hodisa, vaziyatlarni kuzatish, mumkin bo'lgan tajribalarni o'tkazishdan iborat bo'ladi. Birinchi bosqch talaba qaysi hodisa va voqealarni, predmetlarni o'rganish haqidaetarlcha tasavvurga ega bo'lganida va o'quv masalasini tushunib yetganda yakunlanadi. Ikkinci bosqch – o'quv materialini anglab etish. U ma'lumotlarning nazariy jihatlarini ajratib olish va analiz qilishdan iborat. Bunda asosiy mazmunni topish, tushunchani ajratib olish, ularning belgilarini asoslab berish, tushuntirish materialini xususiyatini aniqlab olish, misollar va tushuntiruvchi dalillar to'plamini o'rganib chiqish kerak. Bu vaziyatda bilimlar o'rtasidagi tizimlilik muhim ahamiyatga ega. Unda talaba eng asosiy, ikkinchi darajali hamda qo'shimcha, tushuntiruvchi elementlarni ajratib ko'rsatsin. Talaba o'quv masalasini yechish usulini tushunsa, bilimlar o'rtasidagi tizimni anglab yetsa ushbu bosqch yakunlangan sanaladi. Uchinchi bosqch – eslab qolish va mustahkamlash. Bu bosqch o'zlashtirilgan bilimlarini uzoq vaqt davomida saqlab qolishdan iborat. Unda idrok etish faoliyati ko'proq mashqlar, mustaqil reproduktiv va ijodiy masalalar xususiyatiga ega bo'ladi. Nazariy material, tushuncha, qoida, isbotlar turli xil mashqlarda takrorlanadi. O'qituvchi talabalar topshiriqlarni tushunib bajarishlarini kuzatib borishi kerak. Ular matnlarni mexanik ko'chirib olishlari, topshiriqlarni bajarishlari, qoida va tushunchalarni chuqur anglab yetmay bajarishlari mumkin. Bosqch yakunida talabalar nazariy materiallarni biladilar va ulardan mashqlarni bajarish, masalani yechish, teoremani isbotlashda foydalanishni biladilar. Ularda o'quv malakalari va ko'nikmalari shakllantirilgan bo'ladi. To'rtinchchi bosqch bilim, ko'nikma va malakalarni amaliy faoliyatda qo'llashdan iborat bo'ladi. Bilimlarini qo'llash o'rganilayotgan materialning mazmuni xususiyatiga qarab faoliyat turli shakllari va ko'rinishlarida amalga oshirilishi mumkin.

### **2.3. Kasbiy ta'limning gnoseologik asoslari.**

O'quv jarayonini mantiqiy qurilishi ta'lim mazmunining xususiyatlari va gnoseologik jihatlariga bog'liq. Gnoseologiya (yunoncha – «gnosis» («gnoseos»)-bilim, ong, o'rganish, logiya –fan, ta'limot) – bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatları, uslublari, ilmiy tafakkur shakllari, shuningdek, insonga xos bo'lgan borliqni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, ta'limot. Ijtimoiy taraqqiyot tarixida insonning atrof-muhitni bilishi umumiyligi

tuzilishiga va bosqchlariga turlcha yondoshishlar ma'lum. Ana shu yondoshishlar o'quv jarayonini qurish va ta'lim mazmunini tushunish mantiqini belgilab beradi. Muhammad al-Xorazmiy (IX asr) bilish nazariyasini rivojlanishiga katta hissasini qo'shgan. U birinchi bo'lib koinot ob'ektlarining harakatlari hamdaerdagi nuqtalarining joylashishini jadval ko'rinishidaaks ettirib, tajriba-kuzatish va tadqiqotlar metodlarini ilmiy jihatdan asoslab berdi, yagonalikning birligi tamoyili, shuningdek, alohida va umumiy, induksiya va deduksiyalarning mohiyatini aniqlashtirdi; matematik masalalarni echishning algoritmik metodini ishlab chiqdi. Bu metoddan bugungi kunda ham foydalanib kelinmoqda. Abu Nasr Forobiy (X asr) Kindiy g'oyalarining mohiyatini aniqlashtiradi. Biror narsani bilishga intilgan inson avvalo uning ma'lum holatini o'rganadi, o'zlashtirganlarini o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilimlarga yo'naltiradi. Alloma fanlar klassifikasiyasi, shuningdek, bilish faoliyatini tashkil etishga oid tavsiyalarni ishlab chiqadi. Yaxshi nazariyotchi bo'lishuchun deydi, - Abu Nasr Forobiy, - qaysi fan bilan shug'ullanishidan qat'iy nazar quyidagi uchta shartgaamal qilish kerak:

- 1) fan asosida yotuvchi barcha tamoyillarni yaxshi bilishi;
- 2) ushbu tamoyil va ma'lumotlar asosida zarur xulosani chiqarishi, ya'ni, mulohaza yuritish qoidalarini bilishi kerak;
- 3) xato nazariyalarini isbotlab berish va boshqa mualliflar fikrlarini tahlil qilishni, Shuningdek, haqiqatni yolg'ondan ajratish vaxatoni tuzatishni bilishi zarur. Abu Rayhon Beruniy Beruniy (X asr) bilishni uzluksiz, to'xtovsiz davom etadigan jarayon sifatida tushunadi. Allomaning fikrcha, insoniyat borliqning haqiqiy mohiyati, hozircha noma'lum bo'lgan jihatlarini kelajakda bilib oladi.

Abu Ali ibn Sinoning (X asr) bilish nazariyasida sabab haqidagi ta'limoti alohida o'rin oladi. U sabablarni aniq, sezish asosida anglanadigan va yashirin, tashqi holatlarini tahlil etish asosida tushuniladigan sabablarga ajratadi va hodisaning mohiyati uning yuzaga kelish sabablarini aniqlash yo'li bilan anglanishi mumkin deb hisoblaydi. Alloma ushbu gnoseologik qoidani o'zining tabiblik amaliyoti, kasallikkarni ularning simptomlari bo'ycha va dorilar ta'sirini kuzatish asosida aniqlagan. Chex pedagogi Ya.A.Komenskiy XVII asrda ta'lim jarayonining mohiyatini ilmiy asoslashga urindi. Alloma tomonidan ilgari surilgan ta'limning tabiiyligi g'oyasi ta'lim jarayoni, uning tuzilishi, tamoyil va metodlari tabiat qonunlariga muvofiq belgilanishini ta'kidlaydi. Ya. A. Komenskiyninng tabiatga bog'liqligi haqidagi g'oyasi – g'arb olimlarining ta'lim jarayonining gnoseologik asoslarini ochib berish, moddiy dunyo qonunlarining o'quv jarayoniga ta'sirini ko'rsatib berishga urinishlaridan biridir. XVIII asrda fransuz olimi Jan Jak Russo ham insonning tabiat va jamiyatdagi o'rni haqidagi falsafiy dunyoqarashlar asosida ta'lim mohiyatini ochib berishga urinib ko'rgan. Olimning fikrcha, ta'lim jarayonining mohiyati shaxsning atrof-muhitni bilishi tabiatidan

kelib chiqadi. Ekzistensializm rasional bilishni rad etadi, ta’lim fandan ko’ra san’atga yaqinroq deb hisoblaydi, Shuningdek, borliqni bevosita bilish metodini ilgari suradi. Ta’lim mazmuni masalalariga boshqa bir yondoshish “Pragmatizm pedagogikasi” yoki progressivizm AQShda, alohida rivojlandi. Uning yetakchisi Djon Dyui mazkur ta’limotni ifodalashda pragmatizmning falsafiy g’oyalarini asos qilib oldi. Pragmatizm (yunonchapragma – ish, harakat, falsafiy amal) zamonaviy Amerika falsafasida idealistik oqim. Bu oqim haqiqatning ob’ektivligini rad etadi, haqiqat bu ob’ektiv borliqqa mos kelmaydi, balki amaliy foydali natijalar beradi. D. Dyui fikrcha, bilish va bilim inson o’z hayotida duch keladigan turli muammo yoki qiyinchiliklarni yengish vositasi hisoblanadi. Bilim yashashchun kurash vositasi va shaxsning rivojlanish darajasini ko’rsatuvchi omil hisoblanadi. Biz faqatgina muammoni hal etayotganimizda fikrlaymiz, buning boshlanish yo’li har doim qiyinchilikni his etish hisoblanadi.

**“Harakatlar pedagogikasi”** konsepsiysi ko’p jihatdan Dj.Dyuining falsafiy (pragmatizm) va psixologik qarashlarining oqibati hisoblanadi. Uning muallifi, reformatorlardan biri nemis pedagogi Vilgelm Avgust Lay (1862-1926 yillar) bilim olish jarayonida ko’zga tashlanuvchi quyidagi uch bosqchni ko’rsatadi: idrok etish, qayta ishlab chiqish, ifoda etish.

Bugungi kunda ham ta’lim mohiyatini tushunishga nisbatan turlcha yondoshishlar mavjud. Xususan:

1. Sotsiologik yondoshish.Unga ko’ra ta’limning mohiyati ijtimoiy tajribalarni yoshlarga yetkazishdan iborat. Talabalar insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi natijalari bo’lgan bilimlarni o’rganadilar. Ta’limning mazmuni o’quvchilarning ajdodlar tajribasini o’zlashtirishga xizmat qiluvchi jarayonini tashkil etishdan iborat. Bu falsafiy qoida ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning muhim omili - shaxs kamolotini tushunishga ilmiy yondashishni anglatadi. Ta’limga bunday yondashish ijtimoiy jarayon hisoblanadi. Boshqa bir yondashishni xususiy pedagogik yoki didaktik yondashish deb atash mumkin. Bu yondashish yaxlit ta’lim jarayonining borishini belgilab beruvchi bilim olish bosqchlari (o’quv materialini o’rganishni, uni anglab yetish, mustahkamlash, amaliy faoliyatda bilimlarini qo’llash)ni ifodalaydi. Mazkur yondashuvga ko’ra ta’lim mazmuni talabalar tomonidan bilim egallah bosqchlaringin ketma-ketligiga amal qilish asosida faoliyatni tashkil etishdan iborat. Konsepsiya tarafdarlari bilish yo’lini quyidagcha formulaasosida ifodalaydilar: jonli mushohadadan abstrakt fikrlashga vaabstrakt fikrlashdan amaliyotga. Ta’lim mazmunini tushunishga nisbatan psixologik ondashish bilimlarni o’zlashtirish va inson rivojlanishi borasidagi psixologik nazariyada ilgari surilgan g’oyalarga tayanadi.Bu konsepsiyaning kelib chiqishi L.S.Vigotskiyning (1896-1934 yillar) ta’limning shaxs rivojlanishida asosiy omil bo’lishi haqidagi “yaqin rivojlanish zonası” deb

yuritiluvchi qarashining yaratilishi bilan bog'liq. Unga ko'ra, ta'lism faqat yaqin zonada qurilganda, hali to'la shakllanmagan, lekin o'quv jarayonini qurishga asos bo'la oladigan mexanik harakatlar asoslangandagina mazmunga ega bo'ladi. Psixologik tadqiqotlar pedagogik nazariyani so'zsiz boyitadi. Bilim olish jarayonida shaxs rivojlanishining kechish jarayoni mohiyatini ochib beradi. Ammo faqat psixologik g'oyalar asosida ta'lism mohiyatini yoritish pedagogik jarayonni bir tomonlama talqin etishgaolib keladi. XIXasrning 40-yillarida dialektik materializm nazariysi asoslandi. Dialektik materializm tabiat, jamiyat va fikrlashning harakatlanishi hamda rivojlanishi borasidagi umumiyl qonunlarni yorituvchi falsafiy ta'limotdir. Bu ta'limotda Feerbaxning materializmi va Gegelning dialektikasi uzviy ravishda birlashadi. Bu ta'limot ta'lism jarayoni inson ongingin borliqni aks ettira olishiga imkon berishi zarur degan g'oyani ilgari suradi. Haqiqatni bilish murakkab jarayon. Dialektik nazariya g'oyasiga ko'ra rivojlanishning asosi qarama-qarshilik hisoblanadi. Rivojlanish qarama-qarshi kuchlar kurashidir. Dialektik yondoshishga binoan ta'lism jarayonining asosiy qarama-qarshiliklarini quyidagilar sanaladi:

1. Ijtimoiy-tarixiy (ilmiy) bilimlar hajmi va talaba o'zlashtirgan bilimlar hajmi o'rtaqidagi qarama-qarshilik. Bu qarama-qarshilik ta'lism jarayonini harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. U ta'lism mazmunini doimiy takomillashtirishga olib keladi. Ta'limini ijtimoiy-texnik taraqqiyot darajasiga yaqinlashtirish zaruriyati ta'lism mazmunini tubdan yangilash, uni yangi tamoyil, shakl, metod va vositalarini izlashni muhim ijtimoiy vazifa qilib qo'yemoqda.

2. Talaba tomonidan o'zlashtirilgan o'rganishning amaliy jihatlari (shakl, metod va vositalari)ning darajasi bilan ijtimoiy-tarixiy bilish (o'rganishning o'quvchi egallab olishi kerak bo'lган shakl, metod va vositalari) darajasi o'rtaqidagi qarama-qarshilik. Bu qarama-qarshilikni hal etish talabaning intellektual rivojlanishi sur'ati va darajasiga bog'liq. Bir xil mazmun va hajmdagi o'quv materiali aqliy rivojlanishning turli ko'rsatkchlariga namoyon etishi mumkin.

3. Talabaning mavjud rivojlanish darajasi bilan ijtimoiy buyurtmada ko'zda tutiluvchi rivojlanish darajasi o'rtaqidagi qarama-qarshilik. XXasrning 80-90-yillarida pedagogik hodisalar, shu jumladan, ta'lism muammolarini ham o'rganishda MDH davlatlarida aksiologik yondaShuv ko'zga tashlana boshladi. Aksiologiya (yunoncha «axios» – qimmatli, logiya - fan) – qadriyatlar haqidagi falsafiy ta'limot bo'lib, u XIX asrning oxiri XX asr boshlarida shakllangan.

Rossiyalik ba'zi olimlar (V.A.Slastenin, I.F.Isaev, E.N.Shiyanov) mazkur yondaShuvni ta'limning yangi falsafasi asosi hamda zamонавиј pedagogikaning

metodologiyasi sifatida tushunishni taklif etadilar<sup>1</sup>. Hayot, sog`liq, muhabbat, oila, ta`lim, mehnat, tinchlik, ishonch, go`zallik, ijod va shu kabi qadriyatlar hamma davrlarda ham inson hayoti uchun o`zigaxos ahamiyat kasb etgan. Insonparvarlik g`oyasi asosini tashkil etuvchi ushbu qadriyatlar tarixiy taraqqiyot jarayonida vaqt sinovidan o`tgan. O`zbekiston Respublikasida kechayotgan demokratik o`zgarishlar mazkur qadriyatlarni qayta tiklash va baholash zaruriyatini kun tartibigaolib chiqmoqda. Insonparvarlik g`oyasi markazida shaxsni har tomonlama kamol toptirish masalasi yotadi. Shaxsni rivojlantiruvchi ta`lim nazariyasasoshchilari ushbu masalani nazariya uchun qilib olganlar. Rivojlantiruvchi ta`lim nazariyasining g`oyalari XX asrning 80-yillarida, pedagogikaga muqobil sifatida yuzaga kelgan hamkorlik pedagogikasida o`z aksini topdi. Hamkorlik pedagogikasini novator-pedagoglar (Sh.A.Amonashvili, S.N.Lisenko, I.P.Volkov, V.F.Shatalov, E.N.Ilin va boshqalar) pedagogik jarayon ishtirokchilari (o`qituvchi va talabalar) o`rtasida insonparvarlik tamoyiligaasoslangan o`zaromunosabatlari tashkil etishini ta`kidlab o`tadilar. Hamkorlik pedagogikasi uchun konseptual ahamiyatga ega qoidalari - A.Avloniy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, Pestalosi, Gerbart, J.J.Russo, Ya.Korchak, K.Rodjers va boshqalarning pedagogik qarashlarida o`z ifodasini topgan. Pedagogik hamkorlik g`oyalari bugungi kunda pedagogik texnologiyalar mazmuniga singdirilgan va “XXI asr ta`limi Konsepsiysi” asosini tashkil etadi. Pedagogik hamkorlik mazmuni va metodikasi xususiyatlari quyidagilardan iborat: talabaga insonparvarlik asosida shaxsiy yondaShuv maktab ta`limi tizimida bola shaxsi, uning hali rivojlanmagan qobiliyatları, «men»ligi ustuvor o`rin tutadi. Ta`limning maqsadi mavjud qobiliyatları rivojlantirish, shaxsni ijtimoiy faoliyatga jalb etish, uni erkin rivojlantirishdan iborat. Shaxsga yo`naltirilgan (rivojlantiruvchi) texnologiyalar asosida quyidagi g`oyalar muhim o`rin tutadi:

1. Shaxsga ta`limning maqsadi sifatida yangcha qarash: to`la huquqli shaxs, pedagogik jarayonda sub`ekt; shaxsning rivojlanishi – ta`lim tizimining maqsadi; har bir erkin, o`z fikrini mustaqil ifodalovchi, barkamol shaxsni tarbiyalash ta`lim maqsadining asosi kabi g`oyalarlarni aks ettiradi.

2. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bolalarga nisbatan muhabbatli bo`lish, ularning taqdiri bilan qiziqish; shaxsga o`z kuchi va iqtidoriga ishontirish; pedagogik munosabatlar jarayonida u bilan hamkorlikka erishish, o`qituvchi va o`quvchining huquq jihatldan tengligi; bolaning erkin tanlash huquqi; xato qilish huquqi; o`z shaxsiy nuqtai nazariga ega bo`lish kabi holatlarni ifodalaydi. Aksincha, to`g`ridan-to`g`ri majburlash inkor etiladi.

---

<sup>1</sup>Философия образования XX века. – Москва, Педагогика, 1992.

3. Individual yondoshishning yangi talqini. Uning mazmuni o`quv fanini o`quvchiga emas, balki bolani o`quv faniga yo`naltirishdan iborat. Individual yondashish quyidagilarni o`z chigaoladi: materialni o`rtacha o`zlashtiruvchi o`quvchilarga mo`ljallashdan chetlanish, shaxsning ijobiy sifatlarini ko`ra bilish, shaxsni psixologik-pedagogik diagnostika qilish.

4. Shaxsning ijobiy «Men-konsepsiysi»ni shakllantirish. Men-konsepsiysi – bu shaxsning o`zi haqidagi tasavvurlari asosida shaxsiy hulqini shakllantiruvchi tizim bo`lib, ijobiy Men-konsepsiysi (Men o`zimga yoqaman, Men har ishga qodirman, Men hamma narsani bilaman) shaxsni muvaffaqiyatlarga rag`batlantirib, shaxsninng ijobiy namoyon bo`lishiga yordam beradi. Salbiy Men-konsepsiysi (Men o`zimga yoqmayman, Men hech narsani bajaraolmayman, Men hech kimga kerak emasman) uning turli faoliyat yo`nalishlarida muvaffaqiyatga erishishiga halaqit beradi, o`qish natijalarini yomonlashtiradi, shaxsda salbiy sifatlarning shakllanishigaolib keladi. O`qituvchining vazifasi har bir talaba timsolida komil shaxsni ko`rish, uni tushunish, qabul qilish va unga ishonishdan iborat («Hamma bolalar iste`dodli» tarzida).

5. “Nimaga?” va “qanday ta’lim?” masalasini hal etishga yangcha yondashish.

Uning mohiyati ta’lim mazmunini shaxs rivojlanishining vositasi sifatida tushunishdan iborat.

6. Zamonaviy ta’lim- tarbiya konsepsiysi. Hamkorlik pedagogikasi quyidagi muhim g`oyalarni aks ettiradi: talaba shaxsini yaxlit tarbiya tizimining markaziga qo`yish, tarbiyaning insonparvarlik xususiyatiga egaligi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarning shakllanishi, talabaaning ijodiy qobiliyati hamda uning individuallagini rivojlantirish, individual va jamoaviy tarbiyani uyg`unlikda olib borish. Pedagogik hamkorlik yuqorida qayd etilgan g`oyalalar asosida shaxsga yo`naltiriluvchi (rivojlantiruvchi) texnologiya yaratiladi. Ta’lim texnologiyasining mohiyati shaxsni rivojlantirish, ta’lim nazariyasini asoslashuchun nazariy shart-sharoit yaratish, falsafasi esa insonni shakllantirishdan emas, balki unga o`zi o`zini tarbiyalashga yordam berishdan iborat. **Kasbiy ta’lim qonuniyatları va tamoyilları.** O`quv jarayonidaamal qiluvchi barcha qonuniyatlar umumiyligi vaxsususiy tarziga ikki guruhga ajratiladi. Amal qilinishiga ko`ra yaxlit didaktik tizimni qamrab oladigan qonuniyatlar umumiyligi, amal qilinishiga ko`ra faqat alohida tarkibiy qismlariga taalluqli bo`lgan qonuniyatlar esaxsususiy (aniq) deb ataladi. I.P.Podlaso`y<sup>1</sup> ta’lim jarayonining quyidagi umumiyligi qonuniyatlarini ajratib ko`rsatadi:

---

<sup>1</sup>Подласый И.П. Педагогика. Новый курс. – Москва, Владос, 1999.

1. Kasbiy pedagogik ta’lim maqsadi quyidagilarga bog`liq: jamiyatning rivojlanish sur’ati va darajasi, jamiyatning talablari va imkoniyatlari hamda pedagogika fani vaamaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari darajasi.
2. Kasbiy pedagogik ta’lim mazmuni quyidagilarga bog`liq: ta’limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari, ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur’ati, talabalarning yoshi imkoniyatlari, ta’lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasi, shuningdek, o`quv yurtining moddiy-texnik va iqtisodiy imkoniyatlari.
3. Kasbiy pedagogik ta’lim sifati (samaradorligi) quyidagilarga bog`liq: avvalgi bosqch mahsuldorligi va mazkur bosqchda erishilgan natijalar, o`rganilayotgan material xususiyati va hajmi, talabalarga tashkiliy-pedagogik ta’sir ko`rsatish hamda o`quvchilarning bilim olishga qobiliyatları va ta’lim vaqtı.
4. Kasbiy pedagogik ta’lim metodlari samaradorligi quyidagilarga bog`liq: metodlarni qo’llashda bilimlari va ko’nikmalari, ta’lim maqsadi, ta’lim mazmuni, o`quvchilarning yoshi, ta’lim olish imkoniyatlari, moddiy-texnik ta’midot hamda o`quv jarayonini tashkil etish.
5. Kasbiy pedagogik ta’lim boshqarish mahsuldorligi quyidagilarga bog`liq: ta’lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va tuzatish, ta’sir ko`rsatishlarning asoslanganligi.
6. Kasbiy pedagogik ta’limni rag`batlantirish samaradorligi quyidagilarga bog`liq: ta’limning iichki rag`batlari (sabablari) hamda tashqi (ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik) rag`batlari.

Zamonaviy fangaaniq qonuniyatlar ko`plab soni ma’lumdir. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Didaktik qonuniyatlar.
2. Gnoseologik qonuniyatlar.
3. Psixologik qonuniyatlar.
4. Kibernetik qonuniyatlar.
5. Sotsiologik qonuniyatlar.
6. Tashkiliy qonuniyatlar.

Didaktik tamoyillar (didaktika tamoyillari) o`quv jarayonining umumiyligi maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilovchi boshlang`ch qoidalardir.

Tamoyil (yunoncha «principium») – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang`ch qoidasi; boshqaruvchi g`oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

## **2.4. Kasbiy pedagogik ta’lim qonuniyatları va tamoyillarining shakllanish tarixi.**

Ibtidoiy jamiyatda insoniyat o’sib kelayotgan avlodga mavjud bilimlarni uzatish asosidaamaliy bilimlari asta-sekin shakllangan. O’sha davrdayoq ta’lim amaliy qoidalari ishlab chiqilgan va avloddan-avlodga uzatib kelingan. Antik davrda asosan ajdodlar tajribasi an’analar tarzida umumlashtirilib, amaliy ta’lim masalalari hal etilgan. Platon va Aristotellar tavsiya hamda qoidalari to’plami ko’rinishidaamaliyotiylar ta’lim mohiyatini umumlashtirishga uringanlar. Sharqdagi Uyg’onish davrida (IX-XI asrlar) arab, musulmon madaniyatining Yaqin va Markaziy Osiyo xalqlarining moddiy va ma’naviy madaniyati bilan birlashishi asosidaalohidasinkretik(yunoncha synkretismos – birlashish, yaxlitlik, qo’shilish) madaniyat birlashgan turi yuzaga kelgan. Allomalar Muhammad al-Xorazmiy (787-850 yillar), Abu Nasr Forobi (870-950 yillar), Al-Kindiy (800-870 yillar), Abu Rayhon Beruniy (973-1050 yillar), Abu Ali ibn Sino (980-1037 yillar) va boshqalar uning asoschilari sifatida mashhur bo’ldilar. Bu madaniyatning asosiy markazlari Suriya, Eron, Markaziy Osiyo hududlarida joylashgan. Sharq mutafakkirlari o’z asarlarida ta’lim usullari, qoidalari, tamoyillari, metodlari va shakllari asosida ta’lim amaliyotining mohiyatini ifoda etadilar. Biroq ta’lim masalalari bilan ular maxsus va izchil shug’ullanmaganliklari bois maxsus didaktik nazariya yaratilmadi. Ta’limni ular fan sifatida emas, boshqa fanlarga o’rgatish san’ati, hunarmandchilik sifatida tushundilar. Sharq allomalari tomonidan ilgari surilgan qoida, usul va tamoyillarning aksariyati zamonaviy ta’limda ham qo’llanilmoqda. Quyidagi jadvaldan Sharq allomalari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Al-Kindiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muslihiddin Sa’diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylar ham ta’limning ilmiyligi, ongliligi, ko’rgazmaliligi, tushunarligi, ketma-ketligi, muntazamligi, moslaShuvchanligi va mustaqilligi, shuningdek, shaxsning individual xususiyatlari, layoqati va qobiliyatlarini hisobgaolish, ta’limni insonparvarlashtirish kabi qoida va tamoyillarni ifoda etib berganlari anglanadi<sup>1</sup> (93-betga qarang). XVII asrda, pedagogikaamaliy tabiatShunoslik sifatida biologiya qonuniyatlariga bo’ysunishi e’tirof etilgan. Pedagogikani tubdan to’la qayta qurishni cheholimi Ya.A.Komenskiy va ingliz pedagogi Djon Lokk amalgaoshirdilar.

Ular pedagogik qonunlarining quyidagi uch jihatiga ko’ra guruhlaganlar:

1. Ijtimoiy-tarixiy.

<sup>1</sup> Yuzlikayev F.R. Pedagogika institutida bo’lajak o‘qituvchini didaktik tayyorlash jarayonini jadallashtirish. – Toshkent, Fan, 1995.

2. Tabiiy-tarixiy.
3. Psixologik.

Keyinchalik bir guruh ilg'or pedagoglar umumiy tamoyillar bilan qanoatlanmay, didaktik qonuniyatlarini ifoda etishga uringanlar. Xususan, Ya.A.Komenskiy didaktikaning tematik belgilariga ko`ra guruhlangan quyidagi qoidalar tizimini ilgari surdi:

1. “Ta’lim vaoson o’qishning asosiy qoidalari” (“Buyuk didaktika” - XVII bob);
2. “Tabiiy o’qish va ta’limning asosiy qoidalari”;
3. “Fanlarga o’qitish san’atining to’qqiz qoidasi” (XX bob) va boshqalar.

Disterveg tomonidan asoslangan qoidalar soni 33 ta bo’lib, ular muayyan loyihalarga taaluqli ekanligiga ko`ra guruhlargaajratadi (birinchi guruh – o’qituvchiga nisbatan, ikkinchisi – dars tashkil etilayotgan fanga nisbatan, uchinchisi – o’quvchiga nisbatan va hokazolar tarzida). Shu bilan birga Disterveg mazkur qoidalarning ayrimlarini qonunlar ham deb ataydi.

## **2.5. Kasbiy pedagogik ta’lim tamoyillari.**

Didaktik tamoyillar (didaktika tamoyillari) o’quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga ko`ra tashkil etiluvchi ta’lim jarayonining tashkiliy shakl va metodlari, asosiy qoidalari mohiyatini belgilovchi mazmundir. Ta’lim tamoyillarida ta’limning aniq, tarixiy tajribagaasoslanuvchi me’yoriy asoslari (qoidalari) o’z ifodasini topgan. Ta’lim tamoyillarini bilish o’quv jarayonini uning qonuniyatlarasi asosida tashkil etish, uning maqsadlarini asosli ravishda belgilash va o’quv materialini mazmunini tanlab olish, maqsadga muvofiq ta’lim shakli va metodlarini tanlash imkonini beradi. Shu bilan birga bu tamoyillar o’qituvchilar va talabalarga yaxlit jarayonning bosqchlariga amal qilish, o’zaro aloqalar va hamkorlikni amalga oshirishga imkon beradi.

Kasbiy pedagogik ta’lim tamoyillari o’zida tarixiylik xususiyatini namoyon etadi. Ta’lim nazariyasi vaamaliyoti rivojlanib borgani, ta’lim jarayonining yangi qonuniyatlarasi kashf etilishi bilan ta’limning yangi tamoyillari ham shakllanadi, eski ko’rinishlari o’zgardi. Bu ishlar bugungi kunda ham davom etadi. O’qitish va tarbiyalash qonuniyatlarini aks ettiradigan yaxlit pedagogik jarayonning umumiy tamoyillarini keltirib chiqarishga urinishlar ko’zga tashlanmoqda. Tamoyillar ta’lim jarayonining mohiyati, qoidalar esa uning alohida tomonlarini aks ettiradi. Ta’limni mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillaridan tashkil topgan tizim sifatida e’tirof etish mumkin: Kasbiy pedagogik ta’limning mazmunli tamoyillari. Ular ta’lim mazmunini tanlash bilan bog’liq bo’lgan qonuniyatlarni aks ettiradi va quyidagi g’oyalarni ifodalaydi: fuqarolik; ilmiyligi; tarbiyalovchi ta’lim; fundamentalligi vaamaliy yo`nalganligi (ta’limning hayot bilan, nazariyaning

amaliyot bilan bog`liqligi); tabiat bilan uyg`unligi; madaniyat bilan uyg`unligi; insonparvarligi. Fuqarolik tamoyili. Unga ko`ra ta`lim mazmunini, shaxsning sub`ektivligini rivojlantirish, uning ma`naviyligi va ijtimoiy etukligiga yo`naltirishda namoyon bo`lishi kerak. U ta`lim mazmunini insonparvarlashtirishni nazarda tutadi va fuqarolikni anglash, O`zbekiston Respublikasining ijtimoiy va siyosiy tuzilishi haqidagi tasavvurlar tizimi, o`zbek xalqi madaniyati psixologik xususiyatlari, uning mentalitet xususiyatlari, milliy siyosati va madaniyati kabi dolzarb masalalar haqidagi tasavvurlarining shakllanishi bilan bog`liq. Kasbiy pedagogik ta`limning ilmiyligi tamoyili ta`lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon sivilizasiyasi to`plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi. Bu tamoyil ta`lim vaqtida va o`qishdan tashqari vaqtda amalga oshiriladigan ta`lim mazmuni talabalarini ob`ektiv ilmiy dalillar, hodisalar, qonunlar, zamonaviy yutuqlar va rivojlanish istiqbollarini ochib berishga yaqinlashtirib, u yoki bu sohaning asosiy nazariya yoki konsepsiyalari bilan tanishtirishga yo`naltirilgan bo`lishini talab etadi. Kasbiy pedagogik ta`limning tarbiyalovchilik tamoyili yaxlit pedagogik jarayonda ta`lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta`lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko`zda tutadi. Ta`lim jarayonida tarbiyalashning samarali kechishi shaxsning intellektual rivojlanishi, birinchi navbatda, talabalarning qiziqishlari, idrok etish hamda individual qobiliyatlarining hisobgaolinishi bilan bog`liq. Mazkur holat an'anaviy didaktikada ta`limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog`liqligi kabi ifoda etiladi. O`qishda fundamentallik bilimlarning ilmiyligi, to`la va chuqur bo`lishini ko`zda tutadi. U odamdan yuksak intellektual salohiyat, fikrlash layoqatining tadqiqotchilik ko`rinishda bo`lishi, bilimlarini doimiy ravishda to`ldirib borish istagi va malakalarini talab etuvchi zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotga asoslangan. Fundamental bilimlar aniq bilimlariga qaraganda sekin eskiradi, shuningdek, inson vaxotirasiga emas, ko`proq uning fikrlash layoqatiga bog`liq bo`ladi. Ta`limning fundamentalligi bilimlar mazmunining muntazamligi, nazariy vaamaliy jihatdan o`zaro nisbatda bo`lishni talab etadi. Kasbiy pedagogik ta`limning tabiat bilan uyg`unligi tamoyilli. Ya.A.Komenskiy o`zining tabiatga uyg`un bo`lishi g`oyasini ifoda etib, tabiatda hayot bahordan boshlangani kabi ta`lim olish jarayoni uchun eng qulay davr bolalik ekanligini ta`kidlaydi. Ertalabki soatlar mashg`ulotlarni bajarishuchun juda qulay hisoblanadi. Talabalarga ularning yosh davrlarini inobatga olgan holda bilimlarning berilishi ushbu bilimlarning ular uchuntushunarli bo`lishini ta`minlaydi. Demak, tabiat bilan uyg`unlik g`oyasi asta-sekinlik, ketma-ketlik va mustaqil faoliyat kabi ta`lim tamoyilining asosi hisoblanadi. O`zbek pedagogi Abdulla Avloniy ham (1878-1934 yillar) ta`lim va tarbiyani yo`lga qo`yishda tabiatga uyg`un bo`lishi g`oyasining davomchisi bo`lgan. O`zining “Turkiy

guliston yohud axloq” nomli asarida shaxsning tabiiy mukammalligiga ishonch bildiradi. Allomaning fikrcha, ta’lim va tarbiyaning vazifasi shaxsning rivojlanishi uchun yordam beruvchi sharoitlarni yaratishdan iborat. Abdulla Avloniy shaxsni milliy madaniyat, vatanga muhabbat asosida tarbiyalash g`oyasining tarafidori bo`lgan, bu xususida allomaning asarlarida quyidagi fikrlar o`z ifodasini topgan: “.... odam tug`ilgan va o`sib ulg`aygan shaharni va shu shahar joylashgan mamlakatni bu odamning Vatani deb aytadilar. Biz turkistonliklar o`zimizning quyoshli diyormizni jonimizdan ham ortiq yaxshi ko`rishimiz kabi arablar o`z Arabistonini, ... eskimoslar esa o`zlarining shimolini yaxshi ko`radilar” deb yozadi. A.Avloniyning fikrcha, xalqparvarlikka asoslangan ta’lim va tarbiya yoshlarga vatanparvarlik namunalarini ko`rsatishga undashi kerak. Kasbiy ta’limda insonparvarlik tamoyilinibolaning shaxs sifatidagi qadr-qimmati, uning erkinligi hamda baxtli hayot kechirishini ta’minalash, uni rivojlantirishi, ijodiy imkoniyatlarini ro`yobga chiqarishi, unga hayotda o`z o`rnini topishda yordam ko`rsatishi va hokazolarni nazarda tutadi. “Insonparvarlik” va “odamiylik” so`zları yunoncha humanus “odamiylik” bir so`zdan kelib chiqqan. Insonparvarlik, odamiylik ma’naviy-axloqiy tushunchalardir. Insonparvarlik g`oyasi antik davr faylasuflari (Suqrot, Aflatun, Arastu va boshqalar) qarashlarida ilk bor ko`zga tashlanadi. Markaziy Osiyoda insonparvarlik g`oyalari Sharq Uyg`onish davrida keng rivojlandi. Abu Nasr Forobiyning fikrcha, shaxsni eng avval o`qimishli, saxovatli inson qilib tarbiyalash kerak, zero, salbiy nuqsonlar yoshlikdan paydo bo`ladi. Shu bois oilada ijtimoiy tarbiyani yo`lga qo`yish muhim ahamiyatga ega . O`zbekiston Respublikasida huquqiy, demokratik jamiyat barpo etilayotgan mavjud sharoidta uzluksiz ta’lim tizimi oldida barkamol, har tomonlama rivojlangan, erkin, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalash vazifasi turibdi. Mazkur vazifa ta’lim va tarbiya jarayonida shaxsga nisbatan insonparvarlik munosabatida bo`lish orqali ijobjiy hal etiladi. Shaxsga nisbatan insonparvarlik munosabatida bo`lish ularning taqdiri haqida qayg`urish, uning qobiliyatini ko`raolish, unga ishonish, shuningdek, shaxsning xatoga yo`l qo`yish, shaxsiy nuqtai nazarga ega bo`lish huquqini qadrlashni nazarda tutadi.

## 2.6. Kasbiy pedagogik ta’limning tashkiliy–metodik tamoyillari.

Ta’limni tashkil etish metodikasi ta’lim mazmunini shakllantirish kabi erkin tanlanishi mumkin emas. Bu borada muayyan ijtimoiy, psixologik va pedagogik talablarni inobatgaolish zarur. Bunday talablar ta’limning tashkiliy–metodik tamoyillari deb yuritiluvchi tamoyillar mazmunida o`z ifodasini topgan:

- Kasbiy ta’limning izchilligi, tizimliligi, ketma-ketligi;
- Kasbiy ta’limda onglilik va ijodiy faollik;
- Kasbiy ta’limda ko`rgazmalilik;

- Kasbiy ta'limning samaradorligi va ishonchliligi (mustahkamligi);
- Kasbiy ta'limning tushunariligi;
- guruhli va individual ta'lim birligi;
- Kasbiy ta'limning o'quv talabalar yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi;
- oqilona talabchanlik bilan shaxsni hurmat qilishning muvofiqliligi;
- Kasbiy pedagogik hamkorlik.

Kasbiy ta'limning izchilligi, tizimliligi, ketma-ketligi tamoyilibilish bosqchlarining ob'ektivligini anglatadi. Izchillik ta'lim mazmuni, uning shakli va usullari, o'quv jarayoni ishtirokchilari bo'lgan sub'ektlarning o'zaro munosabatlariga taalluqli. U alohida parsial (yunoncha partialis - qisman) va xususiy o'quv vaziyatlari, predmet va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik, aloqadorlik qonuniyatlarini asta-sekin o'zlashtirish asosida ularni yagona yaxlit o'quv jarayoniga birlashtirishga imkon beradi. Izchillik ta'lim jarayonining ma'lum tizim va ketma-ketlik asosida bo'lishini nazarda tutadi, zero, murakkab masalalarni oddiy masalalarni o'rghanmay turib hal etib bo'lmaydi. Muntazamlilik va ketma-ketlik u yoki bu o'quv materialini o'zlashtirish sur'ati, uning elementlari o'rtasidagi o'zaro mosligini tahlil qilishga imkon beradi. Ta'limning muntazamliligi va ketma-ketligi ma'lum fanlar bo'ycha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, borliqni yaxlit idrok etish o'rtasidagi qaramaqarshilikni hal etishga imkon beradi. Ushbu holatlar birinchi navbatda dastur va darsliklarni muayyan tizimda yaratish, fanlararo hamda fanlar chidagi bog'liqlikniga ta'minlash evaziga namoyon bo'ladi.

Onglilik va ijodiy faollik tamoyili. Uning asosini fanni o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'luvchi qoidalar majmuini shakllantirish tashkil etadi. Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish quyidagi omil va shartlarga bog'liq: ta'lim motivlari, talabalarning faollik darjasи, o'quv-tarbiyaviy jarayonning samarali tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan qo'llanuvchi ta'lim metodlari va vositalarining samaradorligi va boshqalar. Talabalarning faollikkari reproduktiv va ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Mazkur tamoyil talabalarning tashabbuskorliklari va mustaqil faoliyatlarini nazarda tutadi.

Ko'rgazmalilik tamoyili ta'lim jarayonini tashkil etish asosida yotuvchi muhim qoidalardan biri hisoblanadi. Ya.A.Komenskiy uni didaktikaning "oltin qoidasi" deb atagan. Unga binoan ta'limda inson sezgi organlaridan foydalanish kerak. "Agarda biz talabalarda haqiqiy vaaniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz umuman hamma narsaga shaxsiy kuzatish va sezib ko'rish bilan Ta'limga intilishimiz kerak – deb ta'kidlaydi u – agarda qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo'lsa, mayli ular baravariga bir

necha sezgilar bilan o`rganilsin”<sup>1</sup>. Tajribalar asosida o`rganilayotgan narsani namoyish etish va jarayon mohiyatini hikoya qilib berish o`zlashtirish darajasini birmuncha oshiradi. Xususan, axborotlarni eshitib qabul qilish samarasi 15 % foiz, ko`rib qabul qilish esa – 25% foizni tashkil etadi. Ta`lim jarayonida, ularni bir vaqtda ishtirok etishi natijasida ma`lumotlarni qabul qilish samaradorligi 65% foizgacha ortadi. Ko`rgazmalilikdan o`quv jarayoni barcha bosqchlarida foydalanish mumkin: yangi materialni o`zlashtirish, uni mustahkamlash, mashqlarni tashkil qilish hamda o`quvchilarning dastur materiallarini o`zlashtirishlarini tekshirish va baholashda. Kasbiy ta`limning samaradorligi va ishonchliligi tamoyili. An`anaviy didaktikada u mustahkamlik tamoyili kabi ifoda etiladi. Agarda o`qitish jarayoni ta`lim maqsadlariga erishishni ta`minlamasa, u holda ushbu jarayonni tashkil etish zaruriyati yuzaga kelmaydi. Shu bois ta`lim samarali, shuningdek, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo`lishi kerak. Kasbiy ta`limning ishonchliligi va mustahkamlilagini ta`minlashuchun o`quvchilar o`qish jarayonida o`quv-o`rganish harakatlarining quyidagi to`la siklini o`zlashtiraolishlari zarur: o`rganilayotgan materiallarni dastlabki qabul qilish, uni chuqurroq anglab yetish, eslab qolish, o`zlashtirilgan bilimlarini qo`llash bo`ycha ma`lum faoliyatni amalgaoshirish, ularni takrorlash va tizimlashtirish. Kasbiy ta`limning chuqurligi va mustahkamligi talabi didaktikada an`anaviy hisoblanadi va u yuzakilikka qarama-qarshi qo`yiladi. Chuqur, mustahkam bilimning asosiy belgisi eng fundamental g`oyalar, qoidalar, tushuncha, kategoriyalarni tushunish, chuqur o`zlashtirish, o`rganilayotgan materiallar mazmunini puxtaanglashdan iborat. Kasbiy ta`limning tushunarligi tamoyili talabalarning mavjud imkoniyatlarini hisobgaolish, jismoniy va psixik sog`lig`iga yomon ta`sir etuvchi intellektual va emosional qiyinchiliklardan voz kechishni talab etadi. Ta`limning tushunarli bo`lishi talabalarning yoshi, bilish imkoniyatlarini hisobgaolib o`qishning mazmunini to`g`ri aniqlash demakdir, ya`ni, har bir o`quv fani bo`ycha talabalar egallab olishi zarur bo`lgan bilim, amaliy ko`nikma va malakalari hajmini to`g`ri aniqlashdir. Bu tamoyil o`quv jarayonini talabalarda qiyinchiliklarni yengish istagini hosil qiluvchi va shaxsiy muvaffaqiyatlarining natijalaridan quvonish tuyg`usini yuzaga keltirishga yo`naltirilganligini ifodalaydi. Bu talabalarda ko`zga tashlanuvchi qattiq riskologik holat, shuningdek, o`quv masalalarini yechishdagi ishonchsizlikni yo`qotishga yordam beradi. Guruhli va individual ta`limning birligi tamoyilishaxsnинг, bir tomondan atrofdagilar bilan munosabatda bo`lish, ijtimoiy aloqalarni yo`lga qo`yishga intilishi, ikkinchi tomondan esa, yakka holda ta`lim olishga bo`lgan xohishini aks ettirishgaxizmat qiladi. Muomala faoliyatning alohida turi bo`lib, uni tashkil etish jarayonida

<sup>1</sup> Komenskiy Ya.A. Buyuk didaktika. Izb. ped. soch. V 2 tom. M. 1982. T.1.– b. 384.

boshqalar haqidagi tasavvur va tushuncha yuzaga keladi. Atrofdagilar bilan munosabatni yo`lga qo'yish o`zaroaloqalarning hosil bo`lishi va rivojlanishini, alohida bo`lish esa shaxsning ijtimoiylashuvi hamda rivojlanishini ta'minlaydi. An'anaviy ta'lim o`z mohiyatiga ko`ra guruhli hisoblanadi, zero, u 30-40 nafar talabalardan iborat o`quv guruhlarida tashkil etiladi. 100-200 nafar talabalardan iborat kurslarda esa ta'limga sarflanadigan harakatlarni kamaytirish maqsadida ma'ruzalar o`qish tashkil etiladi. Guruhli ta'lim munozara, muzokara tashkil etishuchun qulay sharoitga ega bo`lib, o`quv masalalarini echishning eng samarali yo`llarini birgalikda izlashni ta'minlaydi, o`zaro yordam ko`rsatishuchunsharoit yaratadi, talabalarning mas'uliyat hissini oshiradi. O`quv muassasalarida guruhli ta'limni tashkil etish jamoani shakllantirishning asosiy shakli sanaladi. Ta'limning talabailarning yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi tamoyil talabalarining yoshiga ko`ra va individual yondashuvni anglatadi. Yoshiga muvofiq yondashish talabalarining psixik xususiyatlari, shaxsiy rivojlanganlik darajasi, ma'naviy-axloqiy sifatlari, ijtimoiy etukligini baholay olishni nazarda tutadi. Agarda qo`yilayotgan talablar yoki ta'limning tashkiliy tuzilishi talabalarining yoshi imkoniyatlaridan ortda qolsa yoki ilgarilab ketsa, o`quv faoliyatining samarasi pasayadi. Individual yondoshish talabalarining murakkab iichki dunyosini o`rganish, yuzaga kelgan munosabatlar tizimini tahlil qilish va shaxsshakllanishi sodir bo`ladigan ko`p turdagи sharoitlarni aniqlashni talab etadi. Oqilona talabchanlik bilan talaba shaxsini hurmat qilishning birgaligi tamoyili pedagog tarbiyalanuvchini shaxs sifatida hurmat qilishi zarur. Oqilona talabchanlik maqsadga muvofiq bo`lsa, ta'lim-tarbiya jarayoni, shaxsning to`liq va barkamol rivojlanishini ta'minlay olsa samarasi ancha yuqori bo`ladi. Talabalarga nisbatan talabchanlik ularni tartibli, intizomli bo`lish, burchlarni o`z vaqtida bajarish ko`nikmalariga ega bo`lishlarini ta'minlashi lozim. Shaxsga hurmat insondagi ijobjiy xislatlarga tayanishni ko`zda tutadi. Hamkorlik tamoyili ta'lim jarayonida shaxsning ustuvor mavqeini ta'minlash, uning o`z-o`zini anglashini anglatadi. Bu tamoyil o`zaro munosabatlar jarayonida sub'ektlar o`rtasidagi aloqalarning dialog shakli, shaxslararo munosabatlar mazmunida esa empatiya (yunoncha «empathlia» – birgalikda tashvishlanish, ya`ni, boshqa odamning tashvishlarini tushunish) ning ustunligiga erishishni talab etadi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. “Kasbiy ta’lim” tushunchasiga ta’rif bering.
2. Kasbiy ta’lim (didaktik jarayon) jarayonining alohidaxususiyati nimalardan iborat? V.P.Bespalko formulasi misolida ifodalang.
3. Kasbiy ta’lim jarayoni tuzilmasi va vazifalarining mohiyatini yoritib bering.

4. Talabalar tomonidan bilimlarning egallanishini ta'minlovchi jarayonining asosiy bosqchlari nimalardan iborat?
5. Kasbiy ta'limning asosiy didaktik qonuniyatlarini ifoda etib bering (I.P.Podlasiy bo'ycha).
6. Kasbiy ta'lim tamoyili nimani anglatadi? Misollar keltiring.
7. Sharq Uyg'onish davri allomalari – Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino) ilgari surgan ta'limiy qoida va tamoyillarini ta'riflab bering.

### **III BOB. KASBIY TA'LIM MAZMUNI**

#### **3.1. Kasbiy ta'lismazmuni va didaktika**

Insonning faoliyatida o'qitish har doim juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Biroq uzoq vaqt davomida ta'limgazni nazariy tahlil qilish va o'rganish ishlari olib borilmadi, shuning uchun o'z nazariyasiga ega bo'lmadi. Faqatgina XVII asr bu sohada muhim o'zgarishlar olib keldi: aynan o'sha paytda ta'lismazmuni alohida nom oldi va tarixda birinchi didaktik faoliyatning ilmiy asoslangan tizimiga asos solindi.

**Didaktika (ta'lismazmuni)**: yunoncha «didaktikos» “o'rgatuvchi”, «didasko» esa – “o'rganuvchi” ma'nosini bildiradi) ta'limgazning nazariy jihatlari (ta'lismazmuni, ta'lismaqсади, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lismazmuni takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolar)ni o'rganuvchi fan. Bu tushunchani buyuk chek pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670 yillar) “Buyuk didaktika” (1657 yil) nomli mashhur asarida tilga oladi. Lekin Komenskiy “didaktika bu faqat ta'limgazning muhim masalalari: ta'lismazmuni, ta'limgazning ko'rgazmaliligi, ketma-ketligi kabi tamoyillari, sinf-dars tizimi borasida so'z yuritadi. **Didaktikaning predmeti, funksiyalari va vazifasi.** Kasbiypedagogika fani ta'lismazmuni va tarbiya jarayonini ularning yaxlitligi va birligi asosida o'rganadi. Ikki faoliyatning har birining mohiyatini aniq bayon etishuchun didaktika (ta'lismazmuni) va tarbiya nazariyasini ajratib ko'rsatadilar. Hozirgi davrda didaktika o'qitishning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogika sohasi sifatida tushuniladi. Umumiy didaktikadan tashqari xususiy didaktikalar yoki alohida fanlar bo'yicha ta'lismazmuni bo'sqichlarida u yoki bu fanlarni o'rganish va ta'lismazmuni berishning nazariy asoslarini belgilaydi. Har bir o'qituvchi didaktika asoslarini puxta bilishi va ularga tayangan holda faoliyatni tashkil etishi zarur. Didaktika predmetini aniqlash bo'yicha turli qarashlar ilgari surilgan. qarashlarning turlcha bo'lishi didaktikaning metodologik kategoriyalarini aniq ajratilmaganligi bilan bog'liq. Ko'pchilik olimlar ta'lismazmuni deb o'qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, metodlari va tamoyillarini ko'rsatadilar. Didaktika ta'limgazni ijtimoiy tajribani berish vositasi sifatida e'tirof etadi. Ta'lismazmuni yoshlarni hayotga tayyorlash amalga oshiriladi. Ta'lismazmuni faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi - talaba, talaba – o'quv materiali, talaba- boshqa talabalar o'rtaqidagi munosabatlar asosida yuzaga keladi. Pedagogik adabiyotlarda ulardan qaysi biri didaktika uchun asosiy hisoblanishi kerakligi borasida ham turli fikrlar keltiriladi hamda o'quvchining o'quv materialiga bo'lgan munosabati, ya'ni, bilimlarni o'rganish munosabatini

asosiy deb e'tirof etuvchi qarashlar soni nisbatan ko'p. Darhaqiqat, o'qish, o'rghanishi ta'lim jarayonining ajralmas xususiyatidir. Ta'limga psixologiya nuqtai nazaridan yondashilsa, ushbu munosabatning ustuvorligiga shubha qolmaydi. Biroq, ta'limga pedagogik, ya'ni, ijtimoiy tajribani berish, o'rgatish nuqtai nazaridan qaralsa faoliyat uchun asosiy sanaluvchi munosabat – ikki shaxs (talaba va o'qituvchi) o'rtasidagi munosabatlaretkchi o'rin egallashi lozim ekanligi anglanadi. Didaktika predmetini mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi yana bir qarash ta'lim-tarbiya jarayonini yaxlit o'rghanish zarurligini ilgari suradi. Ta'limning tarbiyaviy vazifalari talabaning bilimni o'zlashtirishlarini ta'minlabgina qolmay, shaxs xususiyati, uning rivojlanishi, ma'lum ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zlashtirishi, fe'l-atvori, xulqini tarbiyalashchun zarus shart-sharoitni yaratishdan iborat. Didaktikaga ta'limning mazmunli va jarayonlijihatlarini birgalikda o'rghanish xosdir. Amaliyotni qayta tashkil etish va takomillashtirish masalalarini nazarda tutgan holda didaktika ta'limni faqatgina o'rghanish ob'ekti sifatidagina emas, balki ilmiy asoslangan loyihalashtirish ob'ekti sifatida qaraydi.Umumiy didaktikaning predmeti dars o'tish (o'qituvchi faoliyati) va bilim olish (o'quvchining o'rghanish faoliyati)ning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi hisoblanadi.

Didaktikaning vazifalari quyidagilardan iborat: ta'lim jarayonlari va ularni amalga oshirishshartlarini ta'riflash va tushuntirish; ta'lim jarayonini yanada mukammal tashkil etish, ya'ni, ta'lim tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish; ta'lim jarayoni uchun xos bo'lgan umumiylarini qonuniyatlarni aniqlash, omillarini tahlil qilish va ta'riflash. Didaktika nazariy va bir vaqtning o'zida me'yoriy-amaliy fan. Didaktikaning ilmiy-nazariy vazifasi ta'limning mavjud jarayonlarini o'rghanish, uning turli jihatlari o'rtasidagi bog'liqliklar, ularning mohiyatini ochib berish, rivojlanish tendensiyalari va kelajagini aniqlashdan iboratdir. O'zlashtirilgan nazariy bilimlar ta'lim amaliyotini yo'naltirish, ta'limini jamiyat tomonidan qo'yilayotgan ijtimoiy talablarga muvofiq takomillashtirishga imkon beradi. Ta'lim mazmunini anglab olish, ta'lim tamoyillari, ta'lim metod va vositalarini qo'llash me'yorlarini aniqlash asosida didaktika amaliy-me'yoriy hamda tashkiliy-texnologik vazifani bajaradi. Didaktikada "idrok etish", "o'zlashtirishi", "mahorat", "rivojlanish" va boshqalar (psixologiya) hamda "boshqarish", "qayta aloqa" (kibernetika) kabi turdosh fanlarga xos bo'lgantushunchalar ham qo'llaniladi. Talabalarni kelajakka tomon undash. Talabalarning o'zlarini kelajakdagi yuqori darajadagi bilim salohiyatiga asoslangan kasblarini eggalab shaxsiy yo'llarini belgilay oladigan dars muhiti yaratish bu alohida talaba shaxsiga bo'lgan hurmat belgisidir. Tibbiy ta'lim muassasalaridagi talabalar hayolidagi shaxsiy kelajagini ko'rishga va unga tayyor bo'lishga undovchi maskandir. Agar o'quv dasturi talabalarga kelajakda ularni qanday

yutuqlar kutayotganini tasavvur qildira olsa, juda kata yutuqqa erishiladi. Masalan, Washington ta’limida o’qishni tamomlayotgan har bir bitiruvchidan yakuniy, so’nggi loyiha talab etiladi. Yakuniy loyihaning maqsadi talabalarning ta’lim muassasasi davomida olgan bilim ko`nikmalarini ko`rsata olishi va uni kelajakda qo’llay olish qobiliyatini tekshirish va bu yo’lda ularga turtki berishdir. Kelajakda olgan bilimlarini sohalarida kashf etishi mumkin. Yakuniy loyiha turli hil mashg’ulotlarni pog’onama-pog’ona haqiqiy dunyoga tadbiq qilish bilan amalga oshirishni talab etadi, bu loyiha biznes ko’rinishidagi so’rovnama, natijalarni sintez qiluvchi turli bitiruv amaliyoti, qiziqish yoki kelajakdagi kasbga yo`naltirilgan Chuqur izlanish bo`lishi mumkin. Loyiha so`ngida talabalar o`z ishlarini ommaga taqdim eta olishi kerak. Bu loyihalarni taqdim qilish jarayonining eng tasirlanarli jihat Shundaki talabalar bor kuch va etiborini, yillar davomida qo`lga kiritgan bilm salohiyatini shu loyihada qo’llay bislishini ko`rishdir. O’zlaining kelajakdagi kasbiga doir loyiha ustida ishlagan talabalar, loyiha yakunida o`z sohasiga oid nimadir taqdim qiladilar qobiliyatini ommaga namoyon qiladilar. Ko`pchilik talabalar yakuniy loyihalar tayyorlash jarayonida o`zlarining yangi qiziqishlarini va qirralarini namoyon etishadi. Natijada bitiruvchilar o`z tanlagen sohalarida yetuklikka erishadi. Xulosa. O’rnatilgan qatiy ta’lim dasturlariga qaramay o`qituvchilar har-bir talabaning o`zlashtirish imkoniyatini o’rganib borishi kerak. Barcha mashxur kashfiyotchilar turli hil kashfiyotlar qilsada, dunyonи o`zgartirib yuborishmagan, balki o`zlarining o`ziga hos yo’llarini tanlab olishgan va shunga qarab harakat qilishgan. O`qituvchi talabalarga hayotda o`z yo’llarini tanlab olishlariga turtki bo`lishi kerak va har bir talaba shaxsiga mos kela oladiga mashg’ulot o’ylab topishi kerak, toki dars mashg’uloti davomida talaba o`z shaxsini bir individual deb anglab yetsin.<sup>3</sup>

**Didaktik nazariya (konsepsiya)lar va ularning falsafiy asoslari.** Ta’lim jarayoni psixologik-pedagogik konsepsiyalar (ular aksariyat hollarda didaktik tizimlar ham deb ataladi) asosida tashkil etiladi. Didaktik tizim (yunoncha «systema» – yaxlit qismlardan tashkil topgan, birlashtirish) – ma’lum mezonlari asosida ta’lim jarayoning yaxlit holatini belgilash, ajratib ko`rsatish demakdir. U ta’limning maqsadi, tamoyillari, mazmuni, shakli, metod va vositalarining birligi asosida tashkil etilgan tuzilmalarning ichki yaxlitligini ifodalaydi. Tadqiqotchilar mavjud didaktik konsepsiya (tizim)larni umumlashtirib quyidagi guruhlarga ajratadilar:

- 1) an’anaviy;
- 2) progressiv;
- 3) zamonaviy.

---

<sup>3</sup>Jeff Halstead . Navigating the new pedagogy. R and Education, 2011.140-b.

Ta’lim nazariyasida Y.A.Komenskiy, I.Pestallosi va I.Gerbartlarning didaktik konsepsiyalari muhim ahamiyatga ega. An’anaviy didaktik tizimning yaratilishi nemis faylasufi, psixolog va pedagog I.F.Gerbart (1776-1841 yillar) nomi bilan bog’liq. U Y.A.Komenskiyning sinf-dars an’anaviy tizimini tanqidiy nuqati nazardan qayta asoslab, etika va psixologiyaning nazariy yutuqlariga tayangan holda ta’lim tizimini yaratdi. Progressiv (pedosentrik) tizim shaxsning bilim olishida faoliyatining asosiy rol o’ynashini e’tirof etadi. Mazkur tizim asosini D.Dyui tizimi, G.Kershteynning mehnat ta’limii, V.Lay nazariyalari tashkil etadi. Zamonaviy didaktik tizim. XX asrning 50-yillarida psixolog va pedagog B.Skinner qismlarga bo’lingan axborotlarni etkazish, bu jarayonni muntazam nazorat qilish asosida materialni o’zlashtirishda samaradorlikka erishish g’oyasini ilgari suradi. Mazkur g’oya keyinchalik dasturiy ta’lim deb ataladi. Keyinchalik N.Krauder nazorat natijalariga qarab o’quvchiga mustaqil ishlashuchun turli materiallarni taklif etadigan tarmoqlashtirilgan dasturlarni yaratdi. D.Dyuining nazariy g’oyalari muammoli ta’limning asosi bo’lib qoldi. Bugungi kunda muammoli ta’lim deb nomlanuvchi, ushbu g’oya o’qituvchi rahbarligi ostida muammoli vaziyatni yaratish va ularni hal etishda talabalarning faollik va mustaqilliklarini ta’minlashga erishishni nazarda tutadi. Muammoli ta’limning vazifasi faol o’rganish jarayonini rag’batlashtirish, talabalarda fikrlash, tadqiqotchilik ko’nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. L.V.Zankovning (1901-1977 yillar) rivojlantiruvchi ta’lim konsepsiysi XX asrning 50-yillarida keng tarqaldi. Uning g’oyalarini amalga oshirish ta’lim jarayoniga insonparvarlik g’oyasini singdirish, shaxsni barkamol rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi. Psixolog L.S.Vo’gotskiy (1896-1934 yillar) tomonidan 30-yillarda ilgari surilgan “Yaqin rivojlanish zonasi” g’oyasi ham muhim ahamiyatga ega. Unga ko’ra bola kattalar yordamida bilim olib, o’zi mustaqil bajara olmagan ishlarni bajara boshlaydi. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonunida ta’lim va tarbiyani insonparvarlik, demokratik g’oyalarga muvofiq tashkil etilishi e’tirof etilgan. Ta’limni insonparvarlashtirish ta’lim jarayonida o’quvchi shaxsini hurmat qilish, uning sha’ni, obro’si, qadr-qimmatini poymol etmaslik, mavjud iste’dodini rivojlantirishni nazarda tutadi. Demokratlashtirish esa pedagogik jarayonda rasmiyatchilikka yo’l qo’ymaslik, ta’lim dasturlarini tanlashda o’quvchilarning fikrlarini inobatga olishni ifodalaydi. Respublika uzluksiz ta’lim tizimi ijtimoiy buyurtmani bajarishga xizmat qiladi, barkamol shaxs va etuk mutaxassisni tarbiyalash vazifasini bajaradi.

### **3.2. Zamonaviy pedagogikada ta’lim paradigma (modeli)lari.**

Pedagogik paradigma (yunoncha «paradeigma» - misol, namuna) – Kasbiy pedagogika fani rivojining ma’lum bosqchida ta’limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e’tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko’rsatmalar to’plami bo’lib, u ta’limning konseptual modeli sifatida qo’llaniladi. Bugungi kunda ta’limning quyidagi paradigmalar keng tarqalgan:

1. An’anaviy – konservativ paradigma (bilim paradigmasi).
2. Rasionalistik (bixevoiristik) paradigma.
3. Fenomenologik (gumanistik) paradigma.
4. Texnokratik paradigma.
5. Ezoterik paradigma.

Ayni vaqtida ta’lim paradigmalarini belgilashga nisbatan uch xil yondaShuv mavjud:

1. Qadriyatli (aksiologik) yondashuv - madaniyat inson hayotining mazmuni sifatida tushuniladi.
2. Faoliyatli yondashuv asosan madaniyat moddiy va ma’naviy boyliklarini yaratishga yo’naltirilgan faoliyatning sinalgan usullari sifatida talqin etiladi.
3. Shaxsiy yondashuv - madaniyat muayyan shaxs timsolida namoyon bo’ladi.

Madaniyatga nisbatan turli yondashuvlarning mavjudligi bir qator paradigmalarining yaratilishiga zamin yaratadi.

Har bir paradigma muayyan ta’limiy muammolarni hal etishga yo’naltiriladi. Xususan: ijtimoiy institut sifatida o’quv muassasalarining vazifalari; ta’limning samarali tizimi; o’quv yurtlari oldida turgan eng muhim, ustuvor masala; ta’limning ijtimoiy ahamiyatli maqsadlari; muayyan bilim, ko’nikma va malakalarning qimmatli hisoblanishi.

Ayni vaqtida quyidagi paradigmalar mavjud:

1. Bilim olishning an’anaviy paradigmasi (modeli) (J.Majo, L.Kro, J.Kapel va boshqalar). Unga ko’ra ta’limning asosiy maqsadi - “Bilim, qanchalik qiyin bo’lmasin o’zlashtirish” shart. An’anaviy paradigma maktabning maqsadi yosh avlodga individual rivojlanishi hamda ijtimoiy tartibni saqlab qolishga yordam beruvchi madaniy meroslarning muhim elementlari – bilim, ko’nikma va malakalar, ilg’or g’oyalar va qadriyatlarni saqlab qolish hamda ularni yoshlarga yetkazish muhim ekanligini yoritadi. Bilim olish paradigmasining asosiy maqsadi: ta’lim olish, taraqqiyot va madaniyatning eng muhim elementlarini avloddan-avlodga yetkazish.
2. Rasionalistik (bixevoiristik) paradigma (P.Blum, R.Gane, B.Skinner va boshqalar). Rasionalistik paradigma diqqat markazida ta’lim mazmuni emas, balki

o'quvchilar tomonidan turli bilimlarni o'zlashtirilishini ta'minlovchi samarali usullari yotadi. Ta'limning rasionalistik modeli asosini B.Skinerning ijtimoiy injeneriya bixevoiristik (inglizcha *behavior* - xulqi) konsepsiysi tashkil qiladi. Ta'limning maqsadi – talabalarda G'arb madaniyati ijtimoiy qoidalari, talablari va ko'zlagan maqsadlariga mos keladigan moslashtiruvchi "xulqi repertuar"ni shakllantirishdir. Shu bilan bir vaqtida, "xulqi" atamasi bilan "insonga xos hamma ta'sirlanishlar – uning fikrlari, sezgi va harakatlari" ifodalanadi (R.Tayler). Bunda ta'limning asosiy metodlari, o'rgatish, trening, test sinovlari, individual ta'lim, tuzatishlari bo'lib qoladi. Buning oqibatida, ta'limningina emas, balki dars berishning ham ijodiy xarakterini aniqlash muammozi muhokama qilinmaydi .B.Blum taksonomiyasida shaxsni faqat o'zlashtiribgina qolmay, balki muvaffaqiyatli o'qishlari mumkin deb hisoblaydi. Talabaning optimal qobiliyatları ma'lum sharoitlarda, shaxsga ta'lim berish natijasi uning sur'ati bilan aniqlanadi. Olimning fircha, ta'lim oluvchilarning 95% foizi ta'lim muddatlariga bo'lgan cheklashlar olib tashlanganda o'quv kursining butun mazmunini o'zlashtirib olishga qodirlar. Ana shu nuqtai nazardan talabalar tomonidan bilimlarning muvaffaqiyatli o'zlashtirishini ta'minlovchi metodika ishlab chiqiladi, uning mohiyati quyidagchadir:

1. Butun guruh yoki kurs uchun to'la o'zlashtirish etaloni, mezonnini aniq belgilab olish asosida, o'qituvchi ta'lim yakunida erishilishi kerak bo'lgan aniq natijalarning ro'yxati va unga muvofiq keluvchi testlarni tuzadi.

2. O'quv birliklari, ya'ni, o'quv materiallarining yaxlit bo'limlari ko'rsatiladi, ularni o'zlashtirish natijalari aniqlanadi, yakuniy bahoga ta'sir ko'rsatmaydigan navbatdagi testlar tuziladi. Bu testlarning vazifalari – tuzatish, korreksiyalashdan iborat.

3. To'la o'zlashtirishga yo'naltirilgan har bir o'quv kurs materiallarini o'zlashtirish darajasini baholashuchun test sinovlarini o'tkazish. Bu o'rinda har bir talabaga baho va ta'lim maqsadlarining ahamiyatini tushuntirish muhim.

Predmetlarni bo'sh va o'rtacha o'zlashtiruvchi talabalarning qobiliyatlarini jadal rivojlantirish B.Blum konsepsiyasining asosiy mazmunini tashkil etadi. Turli mamlakatlarning (Avstriya, Belgiya, AQSh va boshqalar) ta'lim tizimlari tajribasi rasionalistik (bixevoiristik) paradigma g'oyalariga muvofiq ish ko'rilmaga 70 % talabalar yuqori natijalarni qayd etganliklarini ko'rsatadi. Yuqorida qayd etilgan ta'lim yo'nalishlari o'zida insonparvarlik g'oyalarini ifoda etmagan, ular shaxs dunyoqarashining rivojlanishi, shaxsning rivojlanishida shaxslararo munosabatlarning muhim o'rin tutishini nazarda tutmaydi.

**Gumanistik (fenomenologik) paradigmaga** ko'ra (A.Maslou, A.Kombs, K.Rodgers, L.S.Vo'godskiy va boshqalar) ta'lim oluvchi erkin shaxs, ijtimoiy munosabatlar sub'ekti sifatida o'ziga xos rivojlanish imkoniyatlariga ega. Ular

shaxsni rivojlantirish maqsadida uni Shaxslararo munosabatlar jarayoniga yo`naltiradi. Ta'limning fenomenologik (fenomen yunoncha «phainomenon» – hisoblangan, ya`ni, mashhur, alohida nodir odam) modeli talabalarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olib, ularning talab va qiziqishlariga hurmat bilan munosabatda bo`lishni ko`zda tutadi. Uning vakillari talabani nodir shaxs deb hisoblaydilar. Gumanistik paradigma doirasida faoliyat olib boruvchi har bir ta'lim tizimi ijodiy rivojlanadi va talaba hamda o`qituvchining erkinligi va ijodkorligini yoqlaydi. Gumanistik paradigma g`oyalari 1991 yildan keyin respublika uzlusiz Kasbiy ta'lim tizimiga joriy etila boshlandi. Paradigmaning diqqat markazida talabaning barkamol rivojlanishi, uning intellektual ehtiyojlari, “erkin fikrlaydigan Shaxsni tarbiyalash” masalasining ijobiy hal etilishi yotadi. Ayni vaqtida, respublika ta'lim muassasalarida qo`yidagi g`oyalarga amal qilinmoqda: **Ezoterik** paradigma (yunoncha «esoterikos» iichki, sirli, yashirin, faqatgina biluvchilar uchun mo`ljallangan insonning dunyo bilan o`zaro aloqalari yuksak darajalarini aks ettiradi). Modelning mohiyati haqiqat abadiy va o`zgarmas, doimiy ekanligini ta`kidlashdan iborat. Paradigma tarafdorlari haqiqatni bilib bo`lmasligi, unga faqatgina fahmlash asosida erishish mumkinligini ta`kidlaydilar. Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi koinot bilan muloqot, talabaning tabiiy kuchlarini ozod etish va rivojlantirishdan iborat. Shu bilan birga, talabaning himoyalash vazifasi muhimdir, u talabaning mavjud imkoniyatlarini uni ma`naviy, jismoniy, psixik jihatdan rivojlantirishga yo`naltiradi. Ilmiy-texnik, texnokratik paradigmaning asosiy maqsadi amaliyotni takomillashtirish asosida ta'lim oluvchilarga “aniq” ilmiy bilimlarni berish va ularning o`zlashtirilishini ta`minlashdir. Bilim - kuchdir, shu bois shaxs qimmati uning o`rganish, bilim olish, imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shaxs muayyan (o`rtacha, standartlashtirilgan) bilim yoki xulq-atvor egasi bo`lsagina qadriyat sifatida e`tirof etiladi degan g`oya ushbu paradigmaning asosini tashkil etadi. So`nggi yillarda noinstitusional paradigma rivojlna boshladi. U ta'limni ijtimoiy institutlar, ya`ni, tibbiy oliy ta'lim muassasalarida tashkil etish g`oyasini ilgari suradi. Bu ta'lim “tabiatda” - Internet, “ochiq ta'lim muassasalari” – kompyuterlar vositasida ta'lim dasturlariga (masofadan o`qitish) muvofiq o`qitish samarali deya hisoblaydi.

### **3.3. Didaktikaning asosiy kategoriyalari va didaktik tushunchalar tizimi.**

Muayyan fanga xos bo`lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to`plangan bilimlar aks etadi. Mavjud ilmiy tushunchalar ikki asosiy guruhgaga ajratiladi: falsafiy tushunchalar; xususiy ilmiy, ya`ni, muayyan fangagina xos bo`lgan tushunchalar. Didaktika uchun “umumiylar” va “alohida”, “mohiyati” va “hodisa”, “qarama-qarshilik”, “bog`liqlik” kabi falsafiy tushunchalar

ham muhim ahamiyatga ega. Didaktikada qo'llaniladigan umumiylilmiy tushunchalar orasida “tizim”, “tuzilma”, “vazifa”, “element” kabilalar alohida o'rin tutadi. Pedagogikaga xos didaktik tushunchalar sirasiga quyidagilar kiradi: **Kasbiy ta'lim** -talabalarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon; **dars** – bevosa o'qituvchi rahbarligida muayyan talabalar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli; **bilim olish** – idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni; **ta'lim jarayoni** – o'qituvchi va talabalar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. **O'quv fani** – ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan hamda o'zida muayyan fan sohasi bo'ycha umumiyl yoki mutaxassislik bilim asoslarini jamlagan manba. **Ta'lim mazmuni** – davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'ycha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati. Didaktikada “idrok etish”, “o'zlashtirishi”, “mahorat”, “rivojlanish” va boshqalar (psixologiya) hamda “boshqarish”, “qayta aloqa” (kibernetika) kabi turdosh fanlarga xos bo'lgantushunchalar ham qo'llaniladi. Didaktikaning tushunchali-terminologik tizimi muntazam yangilanib va to'ldirilib borilmoqda. Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat: dars, bilim olish, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, ta'lim jarayoni, ta'lim jarayonini tashkil etish, ta'lim turlari, shakllari, metodlari va vositalari, ta'lim natijasi. So'nggi paytlarda asosiy didaktik kategoriylar sirasiga ta'limning didaktik tizimi va ta'lim texnologiyasi kabi tushunchalarni ham kiritish taklifi ilgari surilmoqda. **1) bilim** –Shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui; **2) bilim olish** – idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni; **3) ko'nikma** – olingen bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi; **4) malaka** – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi; **5) ta'lim** – talabalarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon; **6) ta'lim metodlari** – ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui; **7) ta'lim mazmuni** – Shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati; **8) ta'lim vositalari** –

ta’lim samaradorligini ta’minlovchi ob’ektiv (darslik, o’quv qo’llanmalari, o’quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va sub’ektiv (o’qituvchining nutqi, namunasi, muayyan Shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar; **9) ta’lim jarayoni** – o’qituvchi va talabalar o’rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o’zlashtirishga yo`naltirilgan pedagogik jarayon; **10) ta’lim mazmuni** – davlat ta’lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma’lum sharoitda muayyan fanlar bo`ycha o’zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati; **11) ta’lim maqsadi** (o`qish, bilim olish maqsadi) – ta’limning aniq yo`nalishini belgilab beruvchi etakchi g`oya; **12) ta’lim tizimi** – yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish yo`lida davlat tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdagи o’quv-tarbiya muassasalari majmui. **13) ta’limni boshqarish** – ta’lim muassasalarining faoliyatini yo`lga qo`yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash; **14) ta’lim natijasi (ta’lim mahsuli)** – ta’lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o’quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi; **Didaktik nazariya (konsepsiya)lar va ularning falsafiy asoslari.** Ta’lim jarayoni psixologik-pedagogik konsepsiyalar (ular aksariyat hollarda didaktik tizimlar ham deb ataladi) asosida tashkil etiladi. Didaktik tizim (yunoncha «systema» – yaxlit qismlardan tashkil topgan, birlashtirish) – ma’lum mezonlari asosida ta’lim jarayoning yaxlit holatini belgilash, ajratib ko`rsatish demakdir. U ta’limning maqsadi, tamoyillari, mazmuni, shakli, metod va vositalarining birligi asosida tashkil etilgan tuzilmalarning ichki yaxlitligini ifodalaydi. Tadqiqotchilar mavjud didaktik konsepsiya (tizim)larni umumlashtirib quyidagi guruhlarga ajratadilar: an’naviy; progressiv; zamonaviy. Ta’lim nazariyasida Ya.A.Komenskiy, I.Pestallosi va I.Gerbartlarning didaktik konsepsiyalari muhim ahamiyatga ega. An’naviy didaktik tizimning yaratilishi nemis faylasufi, psixolog va pedagog I.F.Gerbart (1776-1841 yillar) nomi bilan bog’liq. U Ya.A.Komenskiyning sinfdars an’naviy tizimini tanqidiy nuqati nazardan qayta asoslab, etika va psixologiyaning nazariy yutuqlariga tayangan holda ta’lim tizimini yaratdi. I.F.Gerbart ta’lim tizimining asosiy belgisi quydagilardan iborat. Talabalarning intellektual rivojlanishini ta’minlash ta’limning asosiy vazifasi; shaxsni tarbiyalash esa oilaning vazifasidir. Progressiv (pedosentrik) tizim bolaning bilim olishida faoliyatining asosiy rol o’ynashini e’tirof etadi. Mazkur tizim asosini D.Dyu tizimi, G.Kershsteynning mehnat maktabi, V.Lay nazariyalari tashkil etadi. Zamonaviy didaktik tizim. XX asrning 50-yillarida psixolog va pedagog B.Skinner qismlarga bo`lingan axborotlarni yetkazish, bu jarayonni muntazam nazorat qilish asosida materialni o’zlashtirishda samaradorlikka erishish g`oyasini ilgari suradi. Mazkur g`oya keyinchalik **dasturiy ta’lim** deb ataladi. Keyinchalik N.Krauder

nazorat natijalariga qarab o`quvchiga mustaqil ishlashuchun turli materiallarni taklif etadigan tarmoqlashtirilgan dasturlarni yaratdi. D.Dyuining nazariy g`oyalari muammoli ta`limning asosi bo`lib qoldi. Bugungi kunda **muammoli ta`lim** deb nomlanuvchi, ushbu g`oya o`qituvchi rahbarligi ostida muammoli vaziyatni yaratish va ularni hal etishda talabalarning faollik va mustaqilliklarini ta`minlashga erishishni nazarda tutadi. Muammoli ta`limning vazifasi faol o`rganish jarayonini rag`batlashtirish, talabalarda fikrlash, tadqiqotchilik ko`nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. L.V.Zankovning (1901-1977 yillar) rivojlantiruvchi ta`lim konsepsiysi XX asrning 50-yillarida keng tarqaldi. Uning g`oyalarini amalga oshirish ta`lim jarayoniga insonparvarlik g`oyasini singdirish, shaxsni barkamol rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi. O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi yangi Qonunida (2020 yil 23 sentyabr) ta`lim va tarbiyani insonparvarlik, demokratik g`oyalarga muvofiq tashkil etilishi e`tirof etilgan. Kasbiy ta`limni insonparvarlashtirish ta`lim jarayonida talaba shaxsini hurmat qilish, uning sha`ni, obro`sni, qadr-qimmatini poymol etmaslik, mavjud iste`dodini rivojlantirishni nazarda tutadi. Demokratlashtirish esa pedagogik jarayonda rasmiyatçilikka yo`l qo`ymaslik, ta`lim dasturlarini tanlashda talabalarning fikrlarini inobatga olishni ifodalaydi. Respublikada Kasbiy ta`lim tizimi ijtimoiy buyurtmani bajarishga xizmat qiladi, barkamol shaxs va yetuk mutaxassisni tarbiyalash vazifasini bajaradi. Bunda ta`limning asosiy metodlari, o`rgatish, trening, test sinovlari, individual ta`lim, tuzatishlari bo`lib qoladi. Buning oqibatida, ta`limninggina emas, balki dars berishning ham ijodiy xarakterini aniqlash muammoi muhokama qilinmaydi.

## Nazorat uchun savollar

1. “Didaktika” tushunchasini ta`riflab bering.
2. Didaktikaning predmeti va ob`ekti nimalardan iborat?
3. Didaktikaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Didaktikaning asosiy kategoriyalari qaysilar?
5. Didaktik konsepsiyalardan qaysilar bilan tanishsiz?
6. Rivojlantiruvchi konsepsiyaning mohiyati nimadan iborat?
7. Rivojlantiruvchi ta`limning asosiy tamoyillari qaysilar?
8. Muammoli ta`limning mohiyati nimadan iborat?
9. “Ta`lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyatlari” tushunchasini siz qanday tushunasiz?
10. Zamonaviy didaktik tizimning o`ziga xos belgilari nimalardan iborat?
11. Pedagogik paradigma nima? Ta`limning asosiy paradigmalarini aytib bering.

## **IV BOB. KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARINI QO'LLASH**

### **4.1. Kasbiy ta'limdi rivojlantirishda olib borilayotgan ishlar**

Kasbiy ta'limdi rivojlantirishda bugungi kunda O'zbekistonda ko'plab xorijiy oily ta'limalar faoliyat yuritmoqdalar aynan Mustaqillikdan keyin 1995 yildan boshlab xorij oily ta'lim muassasalari faoliyati O'zbekistonda boshlandi, bugumga kelib 30 ga yaqin xorij oily ta'lim muassasalarida yoshlarmiz ilm olmoqda. Mahorat va layoqat shaxsning shunday sifatlariki, ular bo'lajak mutaxassisning hayotiy va mehnat muvvafaqiyatlarini belgilab beradi. Mustaqil Respublikamizda ta'limdi rivojlantirishning yangi bosqichida kasb ta'limdi rivojlantirish asosiy vazifasi sifatida jahon talablari darajasida yangilanib borayotgan ishlab chiqarishsharoitlariga moslasha oladigan, mamlakatimiz tibbiyotni buyuk davlat darajasnga ko'taradigan mutaxassislarni tayyorlash, va bu jarayonda asosiy omil sifatida beriladigan axborotlar hajmini emas, balki ijodiy yondoshuvni shakllantirish, mustaqil fikrlash va tadbiq qilish sifatlarini tarbiyalashga e'tibor qaratish lozim. shu sababli bugungi kunda barcha fan sohalari bo'yicha, jumladan kasb ta'limga oid darsliklar, o'quv qo'llanma va tavsiyalarning yangi avlodini yaratish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Kasbiy ta'limdi rivojlantirishda xorij tajribasini qo'lash, ommalashtirish, o'qitishning eng oson yo'llarini izlab topib yoshlarga tadbiq etish bugungi kunning eng zarur vazifasidur. Tibbiy oliy ta'lim talabalarining ta'lim-tarbiyasi, o'qishi hamda rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish jarayoni tizimli amalga oshirilmoqda. Tibbiy oily ta'lim muassasalarida mediatechnologiyalar asosida ta'lim berish, kasbiy ta'lim mezonlarini ishlab chiqish, kasb ta'limi muassasalari turlarini va ularni boshqarish tizimli asoslanadi. Kasbiy pedagogik nazariyalar to'g'risidagi bilimlarni, innovation texnologiyalarni loyihalash uslublarini umumlashtiradi. Kasbiy ta'limdi rivojlantirish pedagogikasi fani insonni kasbiy faoliyatga tayyorlash, yangi avlodni kasbiy tarbiyalash, malakali ishchi kuchini yangi talablar darajasiga moslab borishni ko'zda tutadi. Kasbiy ta'limdi rivojlantirishda, kasbiy pedagogika fani jahon miqyosida tan olingen eng ilgor metodlar va yo'nalishlar bilan boyib borilmoqda. Bugungi kunda o'zining keng tadbiqini kutib yotgan, fannshg boshqa sohalari bilan bog'liq ravishda ishlab chiqilgan yangi konsepsiylar va nazariyalar rivojlantirilmoqda. Kasbiy ta'lim pedagogikasi umumiy pedagogika fanining tarmog'i sifatida kasbiy - texnik ta'lim tizimining takomillashish jarayonida shakllanib boradi. U nisbatan yangi fan sohasi sanalib, bugungi kunda ko'plab tushunchalari shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Har qanday fan sohasida bo'lgani kabi kasbiy ta'lim pedagogikasi o'z kategoriyalari va

tushunchalariga, sifat ko'rsatkichlariga egaki, bular fanning asosini tashkil qiladi. Kasbiy ta'lim mazmuning vazifalari. Kasbiy ta'lim pedagogikasi fani boshqa fanlar bilan birgalikda kasbiy ta'limning turli tizimlarida quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin: Talabalarning yangi, yanada murakkab vazifalarni amalga oshirishlarini ta'minlashuchun ularning tibbiy kasbiy mahoratini oshirishi; kasbiy-texnik ta'limning yangi konsepsiyalarini amalga oshirish vosita va yo'llarini yaratishga e'tiborni qaratish, faol-ijodkor tibbiy mutaxassisni tarbiyalash; tibbiy pedagogik bilimlarni egallahsga yangicha yondoshuvlarni ishlab chiqish soha uchun tibbiy oliv ta'lim muassasalarining, ishlab chiqarish, fan va madaniyat sohasining mutaxassislarini jalb etgan holda yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlashni, shu jumladan xorijiy davlatlarda tayyorlash va qayta tayyorlash malakasinni tashkil etish, tibbiy ta'limi o'quv muassasalari uchun kasbiy ta'lim dasturlari, o'quv-uslubiy majmualarni yangi avlodini ishlab chiqish; tibbiyot akademiyasi talabalari tibbiy mehnat faoliyati ko'nikmalarini egallahslari uchun ixtisoslashtirilgan dasturlar ishlab chiqish va joriy etish; rivojlangan xorijiy davlatlar bilan qo'shma dasturlar yaratish, kasbiy tayyorlanadigan mutaxassislarga nisbatan ixtisos va kasbiy, malaka talablarining ro'yxatini ishlab chiqish. Kasb ta'limining ilm sifatidagi o'rnini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. XXI asrda ijtimoiy-tibbiy munosabatlar rivojida inson aql-zakovati va ma'naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun ham insonparvarlik asosidagi huqquiy, demokratik davlat erkin fuqarolik jamiyat qurilishining bosh tamoyili sifatida qabul qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga 2020 yil 5 avgustda yangi o'zgarishlarni olib kirilganligi kasbiy ta'lim davlatimizning ijtimoiy taraqqiyoti sohasida usutuvor vazifa deb e'lon qilinishi kasbiy pedagogika fani zimmasiga juda katta mas'uliyatli ulug'vor vazifalarni yukladi. Juda boy ilmiy, ma'naviy, madaniy, diniy merosimizni tiklanishi, ularni zamon ruhi talabi bilan uyg'unlashtirib faqat shaxsiy, milliy manfaat kasb etilib qolmasdan umumjahon ma'naviy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ulkan hissa bo'lib qo'shilmoqda. Har bir mustaqil fan o'zining predmeti va metodologik asoslariga egadir. Jumladan, kasbiy ta'lim mazmuni kasbiy pedagogika fani sifatida shakllanib o'zining predmetiga ega bo'ldi. Boshqa fanlar kabi kasbiy pedagogika ham fan sifatida paydo bo'lar ekan, u avvalo jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida paydo bo'ladi. shu sababli ta'lim-tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qarash lozim, chunki tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib jamiyatni, uning rivojlanishini tasavvur qilish qiyin. Kasbiy pedagogika fan sifatida boshqa fanlarga o'z ta'sirini ko'rsatib, bilim tizimining bir butunligini tashkil etadi. Kasbiy pedagogika fanining har bir ko'rinishi o'zining maxsus ko'rinishiga egadir. Bilim berishni falsafiy-metodologik bosqichi

malakaviy tibbiy pedagogikani umumiy ko‘rinishlarida samarali bilim berishdan iboratdir. O‘qitilayotgan kasbiy yo‘nalishni aniq muammolardan kelib chiqqan holda olib borilsa, samarali natijalarga olib keladi. So‘nggi yillarda fundamental bilim berishga alohida e‘tibor berilmoqda. Tibbiy-malakaviy o‘qitish tizimida fundamental bilim berish birinchi qadam bo‘lib, bu sohada erishilgan yutuqlar va tajribalar qo‘llanishi mumkin. Kasbiy pedagogikaning ilmiy o‘rnini aniqlashuchun uning ob‘ekti va predmetini ajratib olish kerak. Bizga ma‘lumki ilm bu haqiqatda sodir bo‘lgan jarayonlarni o‘rganish va isbotlashga yo‘naltirilgan ilmiy bilim yo‘nalishidir. Insonning kasbiy bilimi ijtimoiy, madaniy va ma‘naviy shakllanishlar orqali amalga oshiriladi. Ma‘lumot Madaniyat. Mentalitet. Kasbiy pedagogik faoliyatda 2 asosiy yo‘nalish mavjud. Bir tomondan bu faoliyat o‘qituvchining kundalik, o‘quv va tarbiyaviy ishlariga, o‘qituvchi va talaba orasidagi o‘zaro munosabatga, ta‘lim-tarbiya ishlarida talabaning bilim, malaka va ko‘nikmalariga bog‘liqdir. Kasbiy pedagogika fanining asosiy masalasi esa buta’limiy jarayonni samarali va sifatli ta‘minlashdir. Buning uchun esa aniq metod va tashkiliy shakllardan samarali foydalanish zarur. Ushbu metodda ma‘lum miqdorda erkinlik, pedagogik san‘at, pedagogik mahorat o‘z o‘rnini topgan bo‘lishi kerak. Kasbiy pedagogika fanining tarmoqlari: tibbiy pedagogika, umumiy pedagogika, maxsus pedagogika, harbiy pedagogika, kasbiy ta‘lim pedagogikasi, ijtimoiy pedagogika, qiyosiy pedagogika, fanlarni o‘qitish metodikasi, hamkorlik pedagogikasi, –oliy ta‘lim pedagogikasi, boshqaruva pedagogikasi, pedagogik texnologiya. Kasbiy pedagogika amaliyotning istiqbollarini bashorat qilish va amaliyotga joriy etishuchun kasbiy ta‘lim mazmuni aks etgan kasbiy pedagogika fani tizimidagi fanlarning o‘qitilishi holatini chuqur tahlil qilish zarur. Ijtimoiy jarayon, insonning voyaga yetishi, kamol topishi, o‘sish oilaviy sharoit, muhitga bog‘liqligini unutmaslik zarur. Masalan, V.A.Suxomlinskiy yozadi: «Odam ikki marta tug‘iladi»: birinchi marta tirik jon, ikkinchi marta fuqaro va faol fikr yurituvchi, harakat qiluvchi, mustaqil shaxs dunyoga keladi. Insonni aqliy qobiliyati umumiy rivojlanishining teng yarmi dastlabki 3-4 yoshida, 30 % foizi 4-8 yoshlik davrida, qolgan 20 % foizi esa 8-17 yoshlarida ro‘y beradi. K.D.Ushinskiy fikricha, 6 yoshli bolaning bir oy davomidagi jismoniy va aqliy kamoloti 10 yashar bolaning bir yillik o‘sishidan ustun turadi. 5 yoshdagagi bolada paydo bo‘lgan biron bir hissiyotni u ko‘pincha umrbod esidan chiqarmaydi. 7 yoshdagagi odat 70 yoshida ham saqlanadi. Bolada bilimga qiziqish 1,5-2 yoshdan boshlanadi. Olti yoshli bolalarni maktabga jalb qilish mumkinmi? Bola 6 yoshga to‘lmagan bo‘lsa, ya‘ni 3-4 oy yetmasa, bu holat bolani ijobiy o‘qishiga salbiy ta‘sir etadi; 6-7 yoshli bola har kuni, har soatda o‘sadi. Bu davr uchun bir hafta ham muhim omil hisoblanadi. Bundan keyin bolaning yoshi bir tekis rivojlanadi. Masalan: 10,11,13 va 14 yoshli; 15-16 yoshli

o'smirlarga umumiy psixologik xarakteristika berish mumkin, 6-7 yoshli bolalarga bunday qilib bo'lmaydi. - 6 yoshli bolani 7 yoshli boladan farqi nimada? - 6 yoshli bolani o'quvchi deb hisoblasa bo'ladimi? Bola 6 yoshdan maktabga borgani ma'qulmi yoki 7 yoshdan? Tarbiyaning vazifasi yoshlarni o'z-o'zicha fikrlashga o'rgatiishdan iborat bo'lmog'i darkor, - deb maslahat bergen I.P.Pavlov. Bolalarning rivojlanishi: bolalarni rivojlanishi har xil bo'ladi. Oddiy rivojlanish (normal), tez rivojlanish; sekin rivojlanish. Pedagogika tarixi – o'tmish ajdodlarimizning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlarini o'rganuvchi mustaqil fan. O'tmishda ta'lim-tarbiya qanday bo'lganligi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlarning o'zgarishi tufayli kasbiy pedagogik g'oyalar, tarbiya ishlarining mazmuni, usullarining yangilanib borganligini, o'tmishda ijod etgan olimlar: Abu Nasr Farobi, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Maxmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Umar Hayyom, Az-Zamahshariy va boshqa olimlarning pedagogik qarashlari, faoliyatlar natijasidan bilim olish mumkin. Bugungi kun talabi asosida Avesto, Qur'oni Karim, Hadisu-Shariflarda aks etgan pedagogik g'oyalarni ilmiy-metodik jihatdan ochib berilmog'i zarur. Eskini o'zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina ustoz, o'rgatuvchi-tarbiyalovchi bo'la oladi (Konfutsiy) Ta'lim-tarbiya, pedagogika va kasbiy pedagogika fani tarixini bilmasdan o'qituvchilik qilish mumkin emas. Pedagogika fani tarixini yaratish zamon talabi. Maxsus pedagogika – pedagogika faqat sog'lom shaxsning ta'lim-tarbiyasi bilan emas, balki nogiron bolalar (kar, ko'r, aqli zaif) ta'lim-tarbiyasini ham o'rganadi. Bunday pedagogikani maxsus pedagogika deb ataladi: Oligofrenopedagogika – aqliy jihatdan orqada qolgan bolalarga ta'lim-tarbiya beradi. Tiflopedagogika – ko'r bolalarni tarbiyalaydigan fan. Surdopedagogika – kar va soqov bolalarni tarbiyalaydigan fan. Nogiron bolalarga ta'lim-tarbiya berish o'ziga xos xususiyatga ega. Bu sohada maxsus tadqiqot ishlarini olib borilayotganligini inkor etmagan holda davr talablariga javob bera oladigan darslik, qo'llanmalar yaratilishini yanada takomillashtirish zarur. Nogiron bolalar nimani bilishi, nimani uddasidan chiqishi kerakligini kasbiy nuqtayi nazardan aniqlash lozim. Bu borada xotij tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Nima sababdan xorijda nogiron bolalar umumiy ta'lim bolalari bilan birga o'qishadilar. Bizda esa alohida. (Angliya, 2000y). Harbiy pedagogika – armiya sardorlari va askarlarini vatanimizning shon-sharafi va or nomusi uchun yetuk kurashchi, zamonaviy harbiy qurol-yarog'lardan samarali foydalana oladigan yoshlarni tarbiyalaydigan fan. Bu sohani takomillashtirishda Amir Temur, Mirzo Ulug'bek hamda umumjahondagi ilg'or g'oyalardan unumli foydalanish lozim. Kasbiy talim pedagogikasi – ta'lim-tarbiya oluvchilarga aniq yo'nalishdagi kasbiy ma'lumotlarni o'rgatuvchi fan. Ijtimoiy pedagogika – oila, bolalar va o'smirlarning maktabdan tashqari sharoitdagi ta'lim-

tarbiyasiga oid masalalarini o‘rganadigan fan. Ijtimoiy munosabatlar chiqurlashib borayotgan bir sharoitda mazkur pedagogika asoslarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan ishlab chiqish zarur. Tibbiy pedagogika – ikkiga bo’lib o’rganiladi. Kasbiy ta’lim nazariyasi va jismoniy jihatdan nogiron bolalarni bevosita ijtimoiy faoliyatga tayyorlash asoslarini o‘rgatuvchi soha, fan. Maxsus tayyorlangan mutaxassislar ishtirokida fan asoslarini, texnika va texnologiyaning rivoji nuqtai nazaridan yaratilishiga erishish maqsadga muvofiq. Bugungi mavzumizning asosini tashkil etuvchi Qiyosiy pedagogika – jahon mamlakatlari ta’lim-tarbiya tizimlari asosini qiyosiy o‘rganadi. Rivojlangan xorijiy davlatlar ish tarjribasini o‘rganib amaliyotga tadbiq etish, ta’lim tizimining rivojlanishiga asos bo‘ladi. Xorijiy davlatlar ta’lim tizimiga oid ma‘lumotlarning yetib kelishi, ta’lim tizimining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir etadi. Bu sohada alohida tadqiqot ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Ilg‘or pedagogik tajribani belgilovchi asosiy mezon nima? –O‘qituvchining pedagogik, metodik, didaktik talablarga javob berishi asosiy mezon sanaladi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchini o‘rni qaerda bo‘lmog‘i zarur? O‘qituvchiga qanday talablar qo‘yiladi? Kasbiy pedagogika fani tizimining rivojlanishida bu kabi muammolarga bo‘linish quyidagilar bilan izohlanadi: 1. Uzluksiz oily ta’lim mazmunining takomillaShuvi, yaratilayotgan o‘quv manbalarining mazmun va sifat jihatdan yuksak darajada bo‘lishiga qo‘yilayotgan talablar, maxsus tadqiqot ishlarining olib borilishini talab etadi. 2. Kasbiy ta’lim mazmunini kasbiy pedagogika fanlari ijtimoiy-madaniy hayot bilan bevosita bog‘liq. Shu bois jamiyatda ijtimoiy-madaniy sohalarning barchasiga amalga oshirilayotgan islohotlarni ijobiy yakun toptirish kasbiy pedagogika fani rivojini ta‘minlaydi. Bilimlarni o‘rganish, metod va vositalarni ishlab chiqish, shaxs ta’lim-tarbiyasini amalga oshirishdagi imkoniyatlarni kuchaytiradi. Ta’limiy xizmat ko‘rsatish raqobot bozorini shakllantirish, uning sifatini oshirish, axborotli texnologiya imkoniyatlarini hamda masofadan o‘qitishni ta‘minlash. Kasbiy ta’lim jarayonida uzluksiz ravishda mustaqil bilim olishni yo‘lga qo‘yish. Fanlar mazmunini to‘g‘ri, to‘liq va qiziqarli bo‘lishi, uzviylikni ta‘minlash. Kasbiy ta‘limni tashkil etish jarayoni. Kasbiy pedagogika umumiyligi pedagogika fanning tarmog‘i sifatida kasbiy - texnik ta’lim tizimining takomillashishi jarayonida shakllanib boradi. U nisbatan yangi fan sohasi sanalib, bugungi kunda ko‘plab tushuncha va ma‘lumotlar bilan boyib, rivojlanib kelmoqda. Har qanday fan sohasida bo‘lgani kabi kasbiy pedagogika o‘z kategoriya, tushuncha, va sifat ko‘rsatkichlariga egaki, bular fanning asosini tashkil etadi. O‘zbekistonda milliy g‘ya shakllanib bormoqda. Kasbiy pedagogika ilmidagi tushunchalar, ta‘riflar milliy mafkuraga mos, umuminsoniylik ruhida tushuntirilmog‘i maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Albatta ta’lim va tarbiyada umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy o‘ziga xoslik nisbati, muvozanati alohida ahamiyatga ega. Yana bir

tomondan ta‘lim nazariyasi, ta‘lim-tarbiya mazmunini, shaklini va uslublaripnng asosiy jihatlari Sharqda ishlab - chiqarilib, Ovrupo orqali o‘zgarib, rivojlanib yana Sharqqa qaytib kelganini va dunyo pedagogik jarayonini bir butunligini hisobga olinsa quyida keltiriladigan tuShuichalarda xususiy milliylikdan ko‘ra umuminsoniylik jihatlarining ko‘pligi ko‘zga tashlanib turadi. Yevropa olimlarining asarlarida kasbiy ta‘lim mazmuni. Buyuk chek pedagogi Y.A.Komenskiy «Kishilik jamiyatni ishlarini yaxshilash haqida hammaga ta’luqli maslahat» nomli 7 jildli katta asar yozadi (U hayot ekanligi vaqtida hammasi bo‘lib 2 jildi bosilib chiqdi, qolgan jildlari esa faqat 1935 yilda topiladi va Chexoslovakiyada chop qilinadi). Bu asarida «Hammani va hamma narsada har tomonlama tuzatish»ning insonparvarlik va demokratik dasturini belgilab chiqadi va kishilik jamiyatini isloh qilish rejasini ilgari suradi. «Buyuk didaktika» asarida «pan sofiya g“oyasini» (pan gerkcha — butun, hamma, sofiya — donolik, aqlilik) hamma narsani bilish, hamma uchun bilim berish» demakdir. Pan sofiyada u tabiat va jamiyat bilimlarining yig‘indisini beradi uning asarlarida o‘qitishni «Hammani har narsaga o‘rgatmoq kerak» degan fikr ko‘p marta takrorlanishini ko‘ramiz. Komenskiy o‘z asarlarida ta‘lim- tarbiyaning maqsadini ko‘rsatadi. Ta‘lim- tarbiyaning maqsadi kishini mangulik dunyosiga tayyorlashdan iboratdir. Buni uch xil tarbiya orqali amalga oshirish mumkin:

- 1.Aqliy tarbiya.
- 2.Axloqiy tarbiya.
- 3.Diniy tarbiya.

#### **4.2. Rivojlangan xorijiy davlatlardagi ta‘lim mazmuni.**

Germaniya va Fransiyada kasb talimining tuzilmasi. Dunyo kasbiy ta‘limini o‘rganmay turib, bu sohada yangi shakllarni tuzib bo‘lmaydi. Bu sohada bizga uzlucksiz ta‘lim tizimini olib boruvchi davlatlar tajribasi, ularning ishlab chiqqan ta‘lim standartlari juda zarurdir. Bugungi kunda Buyuk Britaniyada uzlucksiz ta‘lim va kasb ta‘limining yangi tizimi ishlab chiqildi. Bu tizim turli xil yo‘nalishlardagi mutaxassislarni kasbga taylorlash va keyinchalik Shu sohani davom ettirish nazarda tutilgan. Jahondagi ko‘plab mamlakatlarda oliy o‘quv yurtlari o‘rta umumiy ta‘lim tizimidan keyingi, navbatdagi ta‘lim bosqichi hisoblanadi. Oliy ta‘lim maktablarining ko‘pchiligidagi o‘qish muddati 2 yil yoki undan ko‘proq bo‘lib, uch siklda yoki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich ta‘limi 3-4 yil (yoki ko‘proq) davom etadi va bitiruvchilarga bakalavr diplomi beriladi (AQSH, Angliya, Yaponiya, Avstraliyada). Fransiyada birinchi bosqich oliy maktabni bitiruvchilariga metriz, Belgiyada lisans unvoni beriladi. Ikkinci bosqich oliy ta‘lim maktablariga birinchi siklni tugatgan bitiruvchilarning 10-25 % foizi qabul qilinadi. Masalan, bu ko‘rsatkich AQSHda -20%, Buyuk Britaniyada -

15%, Avstriyada-10%, Avstraliyada-7%, Yaponiyada -6% foizni tashkil qiladi. Bu davrda tanlangan yo‘nalish bo‘yicha ixtisoslashtirilmagan, umumiy, fundamental bilimlar o‘qitiladi (Angliya, Ispaniya. AQSH). GFR, Fransiya, Belgiya kabi mamlakatlarda esa ikkinchi bosqich oliy ta‘lim maktablari talabalari ancha mukammal va muayyan maqsadga yo‘naltirilgan bilimlarni egallaydilar. Lekin hali ular tor profildagi yuqori malakali mutaxassis unvonini olishuchun ikkinchi sikldagi o‘qishlarini yana ixtisoslashtirilgan kurslarda 1-2 yil davom ettirishlari lozim. Ta‘limning bunday tizimi o‘rtta va oliy ta‘lim maktablari faoliyatini muvofiqlashtirishga tanlangan soha bo‘yicha oliy ta‘limdagagi izchillikni ta‘minlashga samarali ta‘sir qiladi. Muayyan ixtisosliklar bo‘yicha maxsus imtihonlar 3 yillik amaliy ish faoliyatidan keyin ham topshirilishi mumkin. Oliy ta‘lim maktablarining ikkinchi bosqichida o‘qish 1-2 yil davom etadi. Bu siklni bitirgan talabalarga magistr unvoni beriladi. (AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Avstraliya). Fransiya va Belgiyada magistr unvoni ma‘lum mutaxassisliklarni Chuqur o‘rganuvchi kurslarning bitiruvchilariga ham beriladi. Magistrlik ta‘limining ûziga xos xususiyatlaridan biri - o‘quv dasturlarining individuallashtirilganligidir. Bunda o‘quv dasturlari talabalar va ularning ilmiy raxbarlari tomonidan tuziladi va kafedralar, dekanatlar tomonidan tasdiqlanadi. Magistraturani bitirgan yoshlar doktoranturaga kirish huquqiga ega bo‘ladilar. Oliy ta‘limning uchinchi bosqichi, bu –doktoraturadir. Doktoranturaga, asosan, ikkinchi bosqich oliy ta‘lim maktablarini muvaffaqiyatli bitirgan talabalar qabul qilinadi. O‘qish muddati mutaxassislik turiga ko‘ra 1-3 yil. Doktoranturaga birinchi sikl oliy ta‘lim maktablarini bitirganlar ham kirishi mumkin. Lekin bu holda o‘qish muddati 3-5 yilgacha uzaytiriladi. Birinchi sikl oliy ta‘limi qoidalariga binoan mutaxassislik bo‘yicha umumiy bilimlar berishga yo‘naltirilgan. Ta‘limni alohida ixtisoslarga bo‘lib tashkil qilish, odatda, 3-kursdan boshlanadi. Tor mutaxassislar bo‘yicha kadrlar tayyorlash faqat uchinchi sikldagina amalga oshiriladi. Ko‘p bosqichli oliy ta‘lim tizimining bunday o‘ziga xos xususiyatlari angloamerikancha va fransuzcha modellarda jahon bo‘yicha keng tarqalgan Birinchi sikl oliy o‘quv yurtlaridagi o‘qish muddati turli mamlakatlarda turlicha. Masalan, AQShda 4 yil, Buyuk Britaniyada 3 yil. Magistrlik darajasini olishuchun yana 2 yil o‘qish lozim (ayrim ixtisosliklar bo‘yicha 1-1,5 yil). AQShdagi qator muhandislik oliy maktablarida bakalavrlik diplomini 5 yillik ta‘limdan keyin olish mumkin. Tibbiyot sohasidagi birinchi doktorlik diplomini stomatologiya, veterinariya sohalari bo‘yicha olishuchun esa 8 yillik ta‘lim joriy qilingan. Yaponiyada esa bakalavrlik darajasini 4 yillik ta‘limdan so’ng olish mumkin tibbiyot mutaxassisliklari bundan mustasno, magistrlik darajasiga teng diplomni olishuchun yana 2 yillik ta‘lim dasturini o‘tash lozim. Germaniyada kasb ta“limi tizimi Germaniyada bir necha murakkab tuzilmaga ega bo‘lgan ta‘lim tizimi qabul

qilingan bo‘lib, ta‘lim oluvchilarni mutaxassislikka yo‘llashda 3 ta bosqichdagi maktablar tashkil etilib, ular o‘z faoliyatini boshlang‘ich ta‘limdan keyin davom ettiradi. O‘quv jarayonining turli jahbalarida o‘zining javobgarliklari bo‘lib, u turli bosqichlarda turlichadir. Germaniyada kasbiy ta‘limning tuzilmasi 1-bosqich: Kasbiy ta‘limga tayyorgarlikning birinchi yili (nazariy bilimlar berilib, ushbu kasbga yo‘naltiriladi). 2-bosqich: Talabalar nazariy va amaliy oiladosh kasblar bilan ham tanishib boradilar (tugatilganidan so‘ng, birinchi sinov olinadi). 3-bosqich: Mutaxassislashtirish jarayoni bo‘lib, u imtihon bilan tugallanadi. Bu tizimda ta‘lim oluvchilar nazariy va amaliy bilimlarga hamda kasblar haqida tushunchaga ega bo‘lishlari kerak. 1-2 bosqich keng ma‘noda ishchilar tayyorlab berib, ular oddiy ish jarayonlarini bajarib, murakkab jarayonlarda 3-bosqichga suyanadilar. Germaniyada esa oliy ta‘lim keng miqyosda biron kasbga yo‘naltirilgani bilan xuddi Rossiyadagidek anglo-amerikacha va fransuzcha modellardan farq qiladi. Bu yerda, hatto oliy ta‘limning sikllarga bo‘linishi ham mavjud emas. Ta‘lim jarayoni 4 yildan 6 yilgacha muddatda amalga oshirilib, bularning hammasi anglo-amerikacha va fransuzcha oliy ta‘lim tizimi talablariga unchalik mos kelmaydi. Olmon oliy o‘quv yurtlarida amalga oshiriladigan 5-6 yillik ta‘lim xalqaro standart normalariga ko‘ra anglo-amerikacha va fransuzcha oliy ta‘lim tizimining birinchi sikliga (bakalavr darajasiga) mos keladi, xolos. Shu sababli keyingi yillarda Germaniya oliy o‘quv yurtlarining diplomlari ahamiyatini ko‘tarish maqsadida oliy ta‘limning dastlabki bosqichini qisqartirish, ya‘ni 4 yillik qilib belgilash haqida takliflar kiritilyapti. Kasbiy talimning fransuz modeli Fransiyada maktabni bitirgach, kollejlarda o‘qitish tizimi hukmronlik qiladi. Bu esa o‘z navbatida erta kasb egallahdan asrab qoladi. Fransiyada boshlang‘ich ta‘lim asosan 11 yoshgacha bo‘lib, keyin o‘quvchi kollejda ta‘lim oladi. Undan keyingi ta‘limni o‘quvchi umumta‘lim yoki texnik liseylarda davom ettirishadi. Bugungi kunda texnik liseylar texnik bilimlarni berib, u asosida bakalavr unvonini olish mumkin. O‘quv muassasining ixtisosligiga qarab, bakalavrular fransuz tilini, Sotsiologiya asoslarini, matematika, tabiiy fanlar va texnologiya fanlarini yaxshi egallaydilar. Texnologiya yo‘nalishidagi bakalavrular chet tillarini, kompyuter va tijorat bilimlariga ega bo‘ladilar, barcha bakalavrular oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim olish huquqiga egadirlar. Malakali ishchi-xodimlarni tayyorlashda davlat va xususiy liseylar faoliyat ko‘rsatib, ularning hammasi davlat nazorati ostida bo‘ladi. Kasbiy ta‘limga o‘qish jarayonini ta‘lim vazirligi ishlab chiqib, uni moddiy ta‘mirlash javobgarligi davlat zimmasidadir. Umumiy kasbiy ta‘limda o‘qitish jarayoni Fransiyada bepuldir. Oliy ta‘limning fransuz modeli Fransiyadan tashqari Belgiya, Shveysariya, Avstriya, Norvegiya va boshqa mamlakatlarda joriy qilingan. Bu tizim talabalarni sinchiklab tanlash asosida qabul qilishni ko‘zda tutadi. Talabalar dastlabki 1-3 yilda umumiy dasturlar orqali ta‘lim olish bilan bir

qatorda bo‘lajak tor ixtisosliklarni tanlashda faol ishtirok etadilar. Ko‘p bosqichli fransuz oliy ta‘lim modelining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: 1. Fransuz universitetida ta‘limning dastlabki 2 yilda qator mutaxassisliklar uchun yagona o‘quv dasturlari mavjud. 2. Universitetning 2-kursini tugatib, tegishli guvohnoma olgan talaba Shu universitetning 3-kursida o‘zi tanlagan mutaxassislik bo‘yicha o‘qishni davom ettirishi yoki boshqa universitetga o‘tishi yoki o‘qishni elitar oliy o‘quv yurtlari (Grande Ecole – Katta mакtab, Ecole Normale – Oddiy mакtab)da davom ettirishi mumkin. 3. Universitetning 3-kursini bitirgan talabalar «lisans» diplomini oladilar. Bunday diplomni olgan talabalar o‘qishlarini 4-kursda davom ettirish yoki o‘qishni tashlab o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha amaliy ish bilan Shug‘ullanish huquqlariga egadirlar. 4-kursni tamomlagan talabalar esa «metriz» diplomini oladilar. 4. «Metriz» diplomi uning egasiga to‘liq oliy ma‘lumot olganligidan dalolat beradi. Fransiyada magistrlik diplomining yagona nusxasi yo‘q. Shuningdek, fransuz oliy ta‘lim tizimidagi ikkinchi sikl ta‘limning maxsus atamasi, nomi ham yo‘q. Ikkinchi sikl deyilganda, odatda, 4 yillik birinchi sikl oliy ta‘limdan so‘ng keladigan navbatdagi bosqich tushuniladi, xolos. Fransuzcha oliy ta‘lim modelining ikkinchi sikli 1-2 yillik ta‘limni o‘z ichiga olib, uni bitiruvchilar tanlagan mutaxassisliklari bo‘yicha chuqur bilimlarni o‘rganganliklari haqida maxsus ixtisos diplomini oladilar. 5. Mutaxassislikni bildiruvchi diplom (masalan, 2 yillik o‘qishdan keyin beriladigan texnologiya sohasidagi universitet diplomi) oliy ta‘lim tizimidagi 3 siklli ta‘lim tizimining birinchi bitirganlikdan dalolat beradi. Masalan, ixtisoslashtirilgan oliy o‘quv yurtining 5 yillik kursini bitirgan talaba muhandislik diplomini olsa, universitetning dastlabki 1 siklini tamomlagan talaba yana 3 yillik kursni bitirgandan so‘nggina shunday diplom egasi bo‘lishi mumkin. 6. Ixtisoslashtirilgan oliy o‘quv yurtlarida ma‘lum soha mutaxassislik diplomini beruvchi yoki doktoranturaga kirish huquqini beruvchi 1 yillik qayta tayyorlov kurslarining keng tarmog‘i faoliyat ko‘rsatadi. Oliy ta‘lim tizimini tashkil qilishdagi va tarkibidagi qator milliy xususiyatlar boshqa Yevropa mamlakatlarida ham mavjud: Daniya universitetlari 4 yillik oliy ta‘limdan so‘ng o‘z bitiruvchilariga asosiy daraja hisoblangan nomzodlik diplomini beradilar. Lekin bunday diplom muhandislik mutaxassislarini egalovchilarga 5 yillik ta‘limdan so‘ng, tibbiyot mutaxassislariga 8 yillik oliy ta‘limdan keyin beriladi. Magistr diplomini olishuchun yana 1-2 yil o‘qish lozim bo‘ladi. Oliy texnika maktabi bitiruvchilariga (3-4 yil) muhandislik ixtisosligi bo‘yicha diplom beriladi (lekin muhandis-quruvchi diplomini olishuchun 5 yil o‘qish lozim bo‘ladi). Irlandiyada gumanitar fanlar va tijorat sohasida 3 yillik, tabiiy fanlar va turli muhandislik mutaxassisliklari uchun 4 yillik, qishloq xo‘jaligi, stomatologiya, veterinariya sohalari uchun 5 yillik, tibbiyot bo‘yicha 6 yillik o‘quv dasturlarini o‘zlashtirib bakalavrlik darajasiga ega bo‘lish mumkin. Magistraturaga bakalavr

diplomi bilan kirilib, u yerdagi ta‘lim muddati quyidagi jihatlari bilan xarakterlanadi: gumanitar fanlar va tijorat – 1 yil; kasbiy pedagogik fanlar – 2 yil; muhandislik fanlari -1,5-2 yil; tabiiy fanlar (kimyo) va tibbiyot – 4-6 yil. Gresiyada oliy ta‘lim asosan 4 yillik bo‘lib, ayrim sohalar bo‘yicha o‘qish muddati bir oz uzunroq: muhandislik va stomatologiya – 5 yil, tibbiyot – 6 yil. 1. Xususiy oliy o‘quv yurtlarini tashkil qilish, ularni rivojlantirish borasidagi amaliy ishlar davlatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bunday yondashuv, ayniqsa, AQSh, Yaponiya va Fransiyada ko‘zga yaqqol tashlanadi. Oliy o‘quv yurtlari davlat tasarrufida bo‘lgan davlatlar alohida ajralib turadi. Bu davlatlarda xususiy oliy o‘quv yurtlari cherkov tasarrufida bo‘lib, ular 2-3% foizni tashkil qiladi. 3. Xususiy oliy o‘quv yurtlar tizimi keng rivojlanayotgan mamlakatlar va ularning mavjudligi davlat tasarrufidagi oliy o‘quv yurtlari obro‘siga putur yetkazmaydi. 4. Yuqorida barcha mamlakatlardagi xususiy oliy o‘quv yurtlar moliyaviy jihatdan davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. 5. Xususiy oliy o‘quv yurtini tashkil qilish - bu ko‘p sarmoya talab qiladigan tadbirkorlikdir. Bu borada to‘plangan tajribalarning dalolat berishicha, faqat iqtisodiy baquvvat ijtimoiy tashkilotgina o‘rtta darajadagi xususiy oliy ta‘lim maktabi faoliyatini tashkil qila oladi.

### **Nazorat savollari**

- 1.O‘zbekiston Respublikasi kasbiy ta‘limining rivojlanishini qanday bosqichlarga ajratib ko‘rsatish mumkin?
- 2.Kasbiy ta‘lim rivojlanish bosqichlarining asosiy xususiyatlarini tavsiflang
- 3.Kasbiy ta‘limning turli bosqichlari rivojlanishidagi tarixiy o‘xshashliklar nimada?
4. Kasbiy ta‘limning turli bosqichlari rivojlanishidagi farqlarini izohlang.
5. Rivojlangan xorijiy oily ta’limlar haqidagi fikringizni izohlang.
6. Rivojlangan xorijiy oily ta’lim haqida esse yozing.
7. Xorijiy xususiy va davlat OTM haqida to’liq ma’lumot bering.
- 8.O’zbekistonda faoliyat yuritayotgan xorij OTM haqida tavsif bering.( 2 tadan OTM misolida )

## V BOB. KASBGA O'QITISHDA TA'LIM OLUVCHILAR SHAXSI.

### 5.1. Ta'lism oluvchi shaxslarning pedagogik xususiyatlari.

Kasbga o'qitishda ta'lism oluvchi shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak. "**Individ**" nima? Bola ma'lum yoshga qadar "individ" sanaladi. Individ (lotincha "individium" so'zidan olingan bo'lib, «bo'linmas», «alohida Shaxs», «yagona» ma'nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir. **Individuallik** esa shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, uning namoyon bo'lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o'rghanish, uning yashashsharoitlaridan etarli darajada xabardor bo'lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi. Individual yondashuv shaxsning aqliy qobiliyatları, bilishga bo'lgan qiziqish hamda iste'dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega. Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi. Kasbga o'qitishda ta'lism oluvchilar shaxsi davlat ta'lism siyosatida insonni intellektual va ma'naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqni kafolatlaydi. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi. Rivojlanishning o'zi nima? Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskinining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbai qarama-qarshiliklarni o'rtasidagi kurashdan iboratdir. Shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta'lismotga asoslanadi. Ayni vaqtida inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatları ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birligida ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir

etadi. Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga etadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rinni egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shaxsnинг fazilatlarini to'g'ri ko'rish va xatosiz baholashchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etishuchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Tarbiya shaxsga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

## **5.2. Kasbga o'qitishda ta'lismi oluvchilar shaxsi tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar.**

Fanda, odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda. Insonning shaxs sifatida, rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi? yoki tabiiy omillar yetakchi o'rinni tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday? Fanda biologik yo`nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o'rindan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug`ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rmini belgilab bergen, deydilar. XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi. Xorij psixologiyasidagi yana bir ohim – bixevoirizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'lismot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir. Progrmatizm oqimi va uning vakillari D.D'yul, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni fašat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar. Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar. Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishi ijtimoiy omil omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixikrivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar. Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi. Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga etishida nasl (biologik omil), ijtimoiy

muhit bola yashaydigan sharoit, shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi. Kasbga o'qitishda ta'lim oluvchi Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar. Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga etadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o'z navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma'lum ijtimoiy tuzum mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin. Faylasuflar shaxsni tabiatning bir bo'lagi deb baholaydilar. Bu insondagi layoqat kurtaklari bo'lib, uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak, degan g'oyani ifodalaydi. amiyat taraqqiyoti shaxs rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Demak, shaxs bilan jamiyat o'rtaida ham uzviy aloqa mavjud. shunday qilib, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muhit, inson o'rtaсидаги murakkab aloqa ta'siri ostida ro'y beradi, inson ularga faol ta'sir etadi va shu yo'l bilan hayoti va o'z tabiatini o'zgartiradi. Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi. Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga etadi. Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin. To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzlusizdir. Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham etakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin. Kasbga o'qitishda ta'lim oluvchilar shaxsiga ta'sir etuvchi pedagogik va psixologik holarlarni tahlil etishimiz lozim

Kasbga o'qitishda ta'lim oluvchilar shaxs rivojlanishida faoliyatning o'mi. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani inson qanchalik mehnat qilsa, uning rivojlanishi shunchalik yuqori bo'ladi. Faoliyat o'zi nima? Faoliyat shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rnishi. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi. Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni to'g'ri tashkil etish lozim. Lekin ko'p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish

faoliyatlar cheklangan bo`ladi. O`smir va o`siprinlar faoliyatining asosiy turlariga o`yin, o`qish va mehnat kiradi. Ular yo`nalishiga ko`ra bilishga doir, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik hamda shaxsiy qiziqishga ko`ra tanlangan sohalardan iborat. Faoliyatning asosiy turi – muloqotdir. Faoliyat faol va passiv bo`lishi mumkin. O`smir faoliyati muhit va tarbiya ta'sirida faollashishi yoki susayishi mumkin. Inson shaxsining rivojlanishida uning butun vujudi bilan sevib, o`z imkoniyatlarini namoyon etib, mehnat qilish, o`zini shaxs sifatida ko`rsata olishi unda o`z faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Uning ijtimoiy mehnatdagi ishtirokida faollik ko`zga tashlanadi. Ta`lim jarayonidagi faollik o`quvchiga bilimlarni chuqur va mustahkam egallashga, o`z qobiliyatini namoyon etishga yo`llaydi. Bilishga bo`lgan faollik shaxsning intellektual rivojlanishini ta'minlaydi. Faollik ko`rsatishning asosini esa hamma vaqt ehtiyoj tashkil etadi. Ehtiyojlarning xilma-xilligi faoliyatning ham turlarini kengaytiradi. Shunga ko`ra, o`quvchining turli yosh davrlarida ularning faoliyati turlcha bo`ladi. Ta`lim muassasasida, hamma vaqt bir xil talab shaxs rivojlanishida ijobiy natija beravermaydi. Turli yosh davrlarida faoliyatning turlari va mohiyati o`zgarib turishi kerak. Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. Chunki har bir inson o`z mehnati, g`ayrati, intilishi bilangina faollashadi. O`qituvchi qanchalik yaxshi o`qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o`zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatlari kechmaydi. Zero, barcha ma`naviy-axlohiy kamchiliklarning asosiy sababi ham insonning o`z faoliyatini to`g`ri yo`lga qo`ymaganligidadir. Talaba shaxsiga hurmat. O`tgan davrlarda bo`lgani kabi, o`qituvchilar turli xil jamoatchi-iqtisodchi talabalar jamoasi bilan bog`liqdir. O`ziga hoslikdan faxrlanishning ma`nosini talabalarning kelib chiqishini bilishi va madaniy hilma xillikni hurmat qilishni talabalarga o`rgata olishdir. Talabarga ularning madaniyati va turli hil usumlari haqida malumotlarni bo`lishishga imkon berish nafaqat loyihalar va faoliyatlar o`rtasidagi moslikni mustahkamlaydi, balki bu sinfdoshlarni bir birini chuqurroq o`rganish tajribasi ekanligini isbotlaydi. Ko`plab o`qituvchilar bu g`oyani qabul qilishda muammolarga duch kelishlari mumkin. Talabalarning guruhdan tashqari kechadigan hayoti va faoliyati ular dars davomida o`rganadigan fanlari singari hayotda o`z o`rinlarini topishga hizmat qiluvchi asosiy omillardir. Sport, teatr to`garaklari, va bahs munozaralar, maktabdan tashqari darslar – bularning barchasi hayotiy mahoratni o`stirishchun muhim omildir. Bu faoliyatlarning barchasi vaqt talab qiladigan va shunga qaramay maktab topshiriqlari bilan vaqt masalasi bo`yicha muammo bo`lishi mumkin. O`qituvchi malum bir topshiriqni bajrish uchun talaba uchun noqulay vaqt belgilasa, shaxs tayinlangan vazifani amalga oshira olmasligi va bundan aziyat chekishi hamma uchun oydin. Garchi talaba uchun vaqtini, muddatni qadrlash muhim bo`lsada, o`qituvchining gohi-gohida talabalarga imkon berishi

ularning fanga va vaqt tushunchasiga bo`lgan hurmat hissini kuchaytiradi. Bundan tashqari, talaba kamchilik va salohiyati bilan bir biridan tubdan farq qiladi. Tabiiy fanlarda o`zining bor mahoratini ko`rsata olgan o`quvchi , ijtimoyi fanlarni o`zlashtirishda birmuncha qiyinchilliklarga duch kelishi mumkin. Bazi talabalar ta`lim sohasida barkamollikka erishadilar- bu pedagoglarning yutug`idir va buni ezozlashimiz keak. Qanday guruh talabalariga dars o`tishdan qatiy nazar pedagog talabalarning iqtidor doirasidagi sohalarida muvaffaqiyatga erishishlari uchun ularni ruhlantira olishi kerak; hoh bu ilmiy soha yoki mehanik soha bo`lsin. Talabalarning muvaffaqiyatiga etibor qaratib va uni qadrlagan holda kelajakda o`zları orzu qilgan kasb egasi bo`lishiga yordam beradi.<sup>4</sup> shuning uchun ham inson faoliyati uning rivojlanishi natijasi hamdir. Demak, shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik xislatlarini shakllantirish – uning shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi orqali faoliyatini rivojlanish muhim sanaladi.Rivojlanishning yosh va o`ziga xos xususiyatlari. Muayyan bir yosh davriga xos bo`lgan anatomik, fiziologik jismoniy va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta`lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta`siri kuchli bo`ladi. Shaxsning tarbiyasiga to`g`ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o`qitishchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki rvojlanayotgan shaxs organizimining o`sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlcha bo`ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniylar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o`tganlar.Bolaning o`ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlcha bo`lishi mumkin. Masalan, ko`rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg`ayrat yoki g`ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig`inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta`siri bo`lib, o`qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur. Bolaning individual – o`ziga xos xususiyatini bilishchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o`ziga xos xususiyatini o`rganish, metodikasini bilish muhim. Temperament lot. «temperamentum» «qismlarning bir-biriga munosabati» ma`nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir. Shuningdek, turli yosh davlarining o`ziga xos rivojlanish qonuniyatları ham mavjud. Bugungi meditexnologiyallar davri juda katta ta`sir etmoqda shaxs tushunchasiga. Masalan, 11 yosh bilan 17 yosh o`smirni tenglashtirib bo`lmaydi.

---

<sup>4</sup>Jeff Halstead . Navigating the new pedagogy. R and Education, 2011.134-b.

Shuning uchun shaxsning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo`linadi:

1. Go`daklik davri – chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha bo`lgan davr.
2. Bog`chagacha bo`lgan yosh davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha.
3. Maktabgacha bo`lgan yosh davri – 3 yoshdan 7 yoshgacha.
4. Kchik maktab yoshidagi o`quvchilar ( bolalar ) – 7 yoshdan 11,12 yoshgacha.
5. O`rta maktab yoshidagi o`quvchilar (o`smirlar) 14-15 yosh.
6. Katta yoshdagagi maktab o`quvchilari (o`sipinlar) – 16-18 yosh.

Kchik maktab yoshida o`yin faoliyatining o`mini endi o`qish faoliyati egallaydi. Bu juda qiyin o`tish davri bo`lib, bolaning bo`yi, og`irligi jihatdan uning tashqi ko`rinishi kam farq qiladi. Suyaklari qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Muskullari tez o`sishi tufayli serharakat bo`ladi. Bosh miyasi tez rivojlanadi. Jismoniy o`sishiga xos bu xususiyatlar tarbiyachidan ehtiyojkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va o`rganishga qiziquvchan bo`ladi. Shaxsqiziqishini qanoatlantiruvchi qiziqarli uchraShuv, sayr va tomosha va ekskursiyalarni tashkil etish zarur. Mazkur yosh davri o`quvchilariga emosionallik xos, ularning fikrlashi obrazli bo`ladi, his-tuyg`ulari mazmuni o`zgaradi. Ular odamlar bilan aloqa qilishga qiziqadilar. O`rta maktab yoshi o`smirlilik 12-15 yosh. O`smirlilikning murakkabligi anotomik-fiziologik va psixologik xususiyatdagi kuchli o`zgarishlar bilan bog`liqdir. Bolaning o`sishi tezlashadi. Bu davrni o`tish davri ham deyiladi. Bu davrda jinsiy etilish davri boshlanadi. Bu bolaning fe'l-atvoriga ta'sir etadi. O`smir hayotida mehnat, o`yin, sport va jamoat ishlari katta rol o`ynaydi. Ba`zilarining o`zlashtirishi pasayadi, intizomi bo`shashadi.

Hozirgi davr o`smirlarining ruhiyatida quyidagi holatlar ko`zga tashlanadi:

1. Intellektual rivojlanish – tafakkur qobiliyati, aqliy faoliyatni yuqori saviyada tashkil etishni talab etadi, bilishga qiziqishi ortadi. Bu davrda to`garaklar, studiya, seksiya, turli tadbirlar o`tkazish katta ahamiyatga ega. ularning kitob o`qishga qiziqishi ortadi.

2. O`z-o`zini anglash, baholash, tarbiyalashshakllanadi. U o`zini boshqalar bilan solishtira boshlaydi.

Ammo yuqoridagilar bilan bir qatorda, o`smir harakterida murakkab qarama-qarshiliklar ham mavjud bo`ladi. Bu o`smir faoliyati, xulqida yangi xislatlar – yosh xususiyatning yangidan boshlanishi sanaladi.

Lekin o`smirlarnig hammasida ham bilishga qiziqish darajasi yuqori emas, 38% foiz o`smir hech qaysi o`quv fanlarini o`qishga qiziqmaydi. Boshqalarining uchta yoki ikkita o`quv fani, aksariyat holatlarda esa bitta o`quv faniga qiziqishi aniqlangan. Kchik yoshdagagi o`smirlar qiziqishi o`qituviga bog`liq. Lekin ularning

qiziqishlari, shuningdek, kitob o`qishlari ham barqaror emas. Turli to`garaklarga 21% foiz o`smir qatnashadi, qolganlari sport yoki musiqa bilan shug`ullanadi. 40% foiz o`quvchida, sinfdan tashqari ishlarda qatnashishda ham barqarorlik yo`q. Eng muhim qiziqish – teleeshittirishlarga qaratilgan. TVni har kuni 88% foiz o`smir tomosha qiladi. Ular oddiy kunni o`z ixtiyorlari bilan qanday o`tkazadilar, degan savolga javob topishuchun o`tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni qayd etdi: 85% foiz o`smir vaqtini o`z holcha o`tkazadi, 70% foizi kino yoki televizor ko`radi, 50% foizi sport bilan shug`ullanadi, 45 % foizi uxbab yoki yotib dam oladi. Shuningdek, yomon baho olmaslik uchun maktabga boradigan o`smirlarning soni 15% foizni tashkil etadi. O`smirlarda biror narsaga erishishga nisbatan talab rivojlanadi. Ular tomonidan ijtimoiy talablarning bajarilishi asab tizimining rivojlanishiga ta`sir etadi. Shuninguchun mакtab hayoti “qiyin” vazifalarga to`liq bo`ladi. Bu yoshda o`smirlar kattalar oldida o`zining erkinligini namoyish etishga harakat qiladi. O`z-o`zini tarbiyalashga bo`lgan talab o`sadi. “Dangasa”, “qo`pol”, “bee’tibor”, “qobiliyatsiz” degan kattalarning baholarini ular og`rinib qabul qiladilar. O`smir yoshida, o`g`il va qiz bolalar o`rtasida farq kuchayadi. 14 yoshdan intellektual malakalar pasayadi. Shuning uchun bu davrda bolalar rivojlanishiga katta e’tibor berish lozim. O`z-o`zini tarbiyalash natijasida o`g`il bolalar kuchli, erkin, e’tiborli, jasur; qizlar esa – o`ta ko`nikuvchan, kamtar va jiddiy bo`la boshlaydilar. Shuning uchun o`smirga o`z vaqtini rejalashtirishda yordam berish zarur. 13-14 yoshgacha o`smirda burch hissi, mas’uliyatni his etish, vazminlik paydo bo`la boshlaydi. Muhimi, o`smir shaxsini hurmat hilish, kamsitmaslik, katta bo`lib qolganligini tan olish zarur. Katta maktab yoshi – o`siprinlik davri 15-18 yosh. Bu davr o`siprinlarning ilk balog`atga yetgan davridir. Mazkur davrda jinsiy yetilish tugaydi. Ularda mustaqillik sezila boshlaydi. O`siprin yoshlari hayotga kelajak nuqtai nazaridan qaray boshlaydilar. Madaniy darajasini orttirishga intilish kuchaya boradi, his-tuyg`ularida ham o`zgarish yuz beradi. O`z-o`zlarini tarbiyalashga kirishadilar. Ideal tanlash va unga ergashish kuchayadi. Bu davrda, ular o`rtasida munozaralar o`tkazish yaxshi natija beradi. O`siprinlar o`z guruhiga intiladi. Shuning uchun ham o`siprinning barcha intilishlari ma'lum maqsadga yo`naltirilgan bo`lishi zarur. Ularda o`quv fanlarini tanlashga nisbatan ehtiyoj kuchaya boradi. O`siprinlik bu a`shliy faoliyatning ham rivojlanish davri sanaladi. Ular o`z fikrlarini mustaqil ifodalashga harakat qilib, shaxs xislatlarini namoyish eta boshlaydilar. Shunda o`qituvchilar va katta yoshlilar ularning hali g`o`r fikrlari va dunyoqarashlarini to`g`ri yo`naltirishlari muhim. Zero, bu davrda o`z-o`zini anglash, ma`naviy-axloqiy, ijtimoiy xislatlari tez shakllanadi. Bunga uning faoliyati, jamoada va jamoat joylarida o`zini tutishi, odamlar bilan tez muloqotga kirishishi ham turtki bo`ladi. O`zini kattalardek his etish, o`ziga xosligini namoyon etish, boshqalarning diqqatini o`ziga qaratishga harakat qiladi. Axloqiy

muammolarni o`z qarashlari nuqtai nazaridan hal eta boshlaydi. Hayot mohiyati, baxt, burch, shaxs erkinligini o`z qiziqishlari bilan o`lchaydilar. Shu bois ularga katta yoshlilarning beg`araz, to`g`ri yo`nalish berishlari o`ta muhim. Mazkur davrda yoshlar xulqi ham tarkib topa boshlaydi. Bunda shaxsning jamoadagi mavqeい, jamoa shaxslari bilan muomala-muloqoti muhimdir. Albatta, bu borada, ta`lim muassasasida faoliyat ko`rsatayotgan yoshlar ijtimoiy harakati ta`siri katta ahamiyatga ega. Chunki o`siprin-yoshlar mustahil hayot ostonasida bo`lib, ularning bu hayotga to`g`ri qadam qo`yishi uning jamiyatning faol fuqarosi bo`lishining muhim shartidir.

### **5.3. Kasbga o`qitishda ta`lim oluvchi shaxsi. Shaxsning ijtimoyilashuvi.**

Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi. Bugungi globallashuv texnik asr shaxsni ijtinmoiylashuv jarayonini tezlashtirib yubordi. Agar ijtimiylashuv shu tarzda davom etsa bolalar yoshidagi shaxstushunchasi o`z-o`zidan o`zgarib ketadi. Chunki ta`lim jarayonida bolalarga jamiyatda birga yashash bilan bog`liq bo`lgan holat va hodisalar o`rgatiladi. Bu jarayonda shaxs jamiyatga «kirishadi» va u bilan o`zaro munosabatda bo`ladi. Ular ma'lum ijtimoiy tajriba (bilim, qadriyat, axloqiy qoida, ko`rsatma) orttiradilar, ya`ni, ijtimoiylashadilar. Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jarayon. Chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallr, axloqiy me`yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o`rganib mazkur jamiyatda yashash, uning a`zosi bo`lish imkoniyatiga ega bo`ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta`sir etadi. Bu ta`sir ta`lim vositasida amalga oshadi. Ikkinchini tomondan, shaxsning shakllanishiga turli g`oyalar, ijtimoiy muhit ta`sir ko`rsatadi. Odamlar ijtimiy me`yorlar va axloqiy qoidalarni bilan munosabatga kirishadilar va uni o`rganadilar. Ijtimoiylashuv jarayoni iichki qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan inson jamiyat talablariga mos kelishi, unga «kirishib» ketishi, jamiyat rivojlanishidagi salbiy jihatlarga, shaxsning individual rivojlanishiga to`sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak. Lekin hayotda ba`zan aksi ham bo`ladi: to`liq ijtimoiylashgan, jamiyatga kirishib ketadigan, ammo muhitda ba`zi salbiy holatlarga qarshi kurashishda faollik ko`rsatmaydigan odamlar ham mavjud. Bu holat ko`p jihatdan butun jamiyat, tarbiya muassasalari, o`qituvchilar hamda ota-onalarga ham taalluqli. Tarbiyada qarama-qarshilik insonparvarlik g`oyasi yordamidagina bartaraf etilishi mumkin. Shaxsga bo`lgan hurmat darajasi. Har bir shaxsning o`zlashtrish qobiliyati va tezligi boshqalarnikidan tubdan farq qiladi. Agar darsning izchilligi va saviyasi o`quvchi bilim salohiyatiga muvofiq tarzda bo`lsa sinfning ko`pchilik talabalari har bir bo`lim yakunidagi berilgan ta`lim standardlariga javob bera olishi kerak. Shunga

qaramay ba'zi talabalar hattoki biror bo'lim yoki bob yakunlanayotgandagina yakunlanayotgan mavzu haqidagi tushunchalari endi "uyg'onayotgan" bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda qisqa hulosaviy nazorat tekshiruvlaridagi o'zgarmas darajalar, keljakdagi kasbiy mahoratlarida o'sishi mumkin.

Agar ushbu darajalash tizimi o'zgruvchan bo'lsa, yoki talaba bir bo'lim yoki bob yakunlangandan keyin zaruriy mahoratni namoyish qila olsachi? Agar ular buni ma'lum bir o'rtacha vaqtda bajarsa, yoki bo'lim yakunlangandan so'ng orqaga qaytib bilim darajasi salohiyatini aks ettiruvchi bahosini o'zgartirishi kerakmi? Agar o'qituvchilar talaba shaxsini qadrlashni va ularning qobiliyatlarini nazorat qilishni hohlasa ular bor kuchlari bilan harakat qilishlari uchun talabarga har qanday imkoniyatni berishlari kerak. Bu esa baholash standardning asosiy tarkibiy qismi hisoblanishi kerak. Sentyabr va Yanvar oylaridagi yil bo'yi jamlangan ballarni qo'shib o'rtacha bahoni chiqargandan ko'ra o'qituvchilar talabalarning chorak yakunidagi bilim darajalarini aniqlagani maqulroq. Namuna tariqasida, agar bir talaba o'rganilayotgan bo'lim davomida o'zlashtira olmasa va bu iqtidorni keyinroq namoyon qilsa, uning dars davomida olgan bahosi yakuniy baholanishiga ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Oshkora tuzilgan va tartibga solingan baholash mezoni shaxsning o'qishga bo'lgan ishtiyoqi va o'z kelajagini yarata olishiga bo'lgan ichonchini mustahkamlaydi. Yil yakunidagi o'rtacha baho ko'rsatkichining eski mezoni talabalarning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini pasaytiradi: avvalgi egallangan past baholar keyinroq ham baholanishga ta'sir ko'rsatsa qattiq ishlashdan naf ko'rmanган talabalarda yil yakunida o'zlashtirish o'sish o'rniga pasayadi. Har bir kishi turli hil tezlikda o'zlashtirishi tufayli baholanishning yangicha mezoni- yil boshidagi past baholar yil yakunidagi yuqori ballarga ta'sir qilmaslik o'rganuvchilarda o'qishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytiradi.<sup>5</sup> Kasbga o'qitishda ta'lim oluvchi haxs zero, 2020 yil 23 sentyabr O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi yangi qonunida» da ham ta'kidlab o'tilganidek, uzlusiz ta'limni tashkil etish, rivojlantirish hamda ta'limning ijtimoiylaShuviga erishish dolzarb masaladir. Ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni shakllantirish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabilar muhim ijtimoiy talablar hisoblanadi.

### Nazorat uchun savollar:

- 1.«Individ», «Shaxs», «individuallik» tushunchalarini sharhlang.
2. Kasbga o'qitishda sta'lim oluvchi haxsga hamda rivojlanish va shaxs rivojlanishini ta'riflang.

<sup>5</sup>Jeff Halstead . Navigating the new pedagogy. R and Education, 2011.138-b

3. Kasbga o'qitishda sta'lim oluvchi shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar haqida nimalarni bilasiz?
4. Kasbga o'qitishda ta'lim oluvchi shaxs faoliyati haqida so'zlab bering.
5. Kasbga o'qitishda sta'lim oluvchi haxsning yosh xususiyatlarini tavsiflang.
6. Kasbga o'qitishda sta'lim oluvchi haxsning ijtimoiylashuvini qanday tushunasiz?

## **VI BOB. KASBIY TA'LIMDA TARBIYAVIY ISHLAR MOHIYATI.**

### **6.1. Tarbiya jarayonining mazmuni.**

Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining muhim tarkibiy qismi bo`lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o`rganadi. Hayotga yangcha siyosiy va iqtisodiy nuqati nazaridan yondashish o`sib kelayotgan yoshavlod tarbiyasi bilan bog`liq jarayonni ham qaytadan ko`rib chiqishni taqozo etmoqda. Tarbiya nazariyasi Sharq mutafakkirlari vaxalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o`z qoidalarini asoslashuchun falsafa, Sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya kabi fanlarning ma'lumotlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo`limlari: pedagogikaning umumiylaschlari, ta`lim nazariyasi hamdaxalq ta`limi tizimini boshqarish bilan uzviy bog`liq.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajribaasosidashaxsnii har tomonlama o`stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo`lida har tomonlama voyagaetkazish, unda ijtimoiy ong vaxulq-atvorni tarkib toptirishga yo`naltirilgan faoliyat jarayonidir. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyati turlcha bo`lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Tarbiya g`oyasi turlcha ifodalangan bo`lsada, ammo yo`naltiruvchanlik xususiyati hamdaob`ektiga ko`ra yakdillikni ifodaetadi. Tarbiya xususida taniqli o`zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: «Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot - yo falokat, yo saodat – yo falokat masalasidur»<sup>6</sup>. Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xussusiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy ishdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo`lishi avlodlar tarbiyasiga ko`p jihatdan bog`liq. O`zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni qo`lga kiritgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub islohotlar olib borilmoqda. Islohotlarning asosiy g`oyasi respublikaning riojlanish va taraqqiyot yo`li deb e`tirof etilgan demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatning barpo etishuchunxizmat qiladi. Demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatning barpo etish vazifasi o`sib kelayotgan yoshavlod zimmasiga yuklanadi.

**Tarbiya** - Shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirishuchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo`lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta`sir etish imkonini beradi. Tarbiya jarayoni o`qituvchi va talaba (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o`rtasida tashkil etiluvchi hamdaaniq maqsadga yo`naltirilgan

<sup>6</sup> Avloniy, Abdulla. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent, O`qituvchi, 1992.

hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg`ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo`lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishgaxizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo`ladi. Tarbiya jarayonidashaxslarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to`g`ri uyuştirish g`oyat muhimdir. Faoliyat jarayonidashaxs tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta`sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo`ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj vaxohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta'siri shaxsning ularga munosabatiga bog`liqligini ko`rsatadi. Tarbiya jarayoniga o`qituvchi rahbarlik qiladi. U talabalar faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchunshart-sharoit yaratadi. Ijtimoiy jarayonda faol ishtirok etishorqali talabalarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi ortib boradi. Faoliyat talabalar jamoasi manfaati va istagi asosida uyuştirilsa, bu jarayondashaxsning tengdoshlari va o`zini o`zi anglash jarayoni yuzaga keladi. Shaxs o`z xulqi, xatti-harakati uchun jamoaoldida javobgarlikni sezishga erishgach, ijrochi emas, balki umumiy ishning faol qatnashchisi bo`lib qoladi. Tarbiyani samarali yo`lga qo`yishuchun uning harakatlantiruvchi kuchi, tarbiya jarayonining manbaini yaxshi bilish va hisobgaolish muhimdir. Bu tarbiya jarayonidagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklardan iborat. Tarbiyada talabalarning tarbiyalanganlik darajasini ham hisobgaolish kerak bo`ladi. Bu jihat unutilsa, muayyan qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Faoliyat jarayonida hosil bo`lgan malaka vaodatlar axloq me`yorlariga rioya qilishi engillashtiradi. Demak, tarbiyachi shaxsshaxsining tez rivojlanadigan davri – talabalik yillarida uning ongiga turli faoliyat (o`qish, mehnat, ijtimoiy ishlar, o`yin, sport, badiiy havaskorlik) yordami bilan maxsus ta`sir etish muhimdir. Aks holdaxulq me`yorlari, axloq talablarini yaxshi tushunmay qolishi natijasidashaxs ijtimoiy munosabatlarda beqaror, tasodifiy ta`sirga beriluvchan bo`lib qolishi mumkin. Tarbiya yaxlit jarayonda amalgaoshirilib, uning tarkibiy qismlari ayni bir vaqtida, faoliyatning biror turi asosida namoyon bo`ladi. Umumiy pedagogika jarayonida tarbiya muhim o`rin tutadi. Shaxsni shakllantirish, boshqarish, nazorat xarakteriga ega bo`lib, bu borada belgilangan vazifalar tasodifiy harakatlar orqali emas, balki oldinda belgilangan va puxtao`ylangan rejalar asosida hal etib boriladi. Tarbiya jarayonida uning maqsadi, shakl va metodlari, shaxsning o`zini-o`zi tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o`rin tutadi. Tarbiya mazmuni ijtimoiy tuzum buyurtmasi asosida belgilanib, uning amalgaoshishi uchun ma'lum shart-sharoitlarning mavjudligi talab etiladi. Ushbu g`oyalar yaxlit tarzda quyidagchaaks etadi: Har qanday ijtimoiy jamiyatda yoshavlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiya maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo`nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi

kunda O`zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi komil shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

## **6.2. Tarbiya jarayonining natijasi.**

Tarbiyaning natijasi yuksak ma`naviy vaaxloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalashdir. Bu jarayon ikki tomonlama bo`lib, uyuşhtirish va rahbarlik, shuningdek, talaba shaxsining o`zi tomonidan faollik ko`rsatilishini taqozo etadi. Bu jarayonda pedagog etakchi rol o`ynaydi. Chunki u ijtimoiy tarbiyaning umumiy maqsadlari mohiyatini tushunadi, maqsad yo`lidaamalgaoshiriladigan vazifalar tizimidan yaxshi xabardor, tarbiya shakl, metod va vositalarini asosli, ilmiy tarzda tanlab oladi va tarbiya jarayoniga tatbiq etadi. Tarbiya jarayonining mohiyatini tarbiyaga har tomonlama yondashish bilan muvaffaqiyatli tarzda, ilmity tahlil qilish mumkin. Shaxs tarbiyaning natijasi sifatidashakllanadigan ijtimoiy mavjudotdir. Shaxsning ko`pdan-ko`p xislatlari bir-biridan ajratilgan emas, balki o`zaro mustahkam bog`langan. Tarbiya jarayonidashaxsning shaxsiyati ayrim-ayrim emas, balki yaxlit ravishda rivojlanadi. Shaxs o`sib va rivojlanib borgani sari tarbiya vazifalari murakkablashib, chuqurlashib, tabahalashib boradi. Har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash unga izchil ravishda aqliy, g`oyaviy-siyosiy, axloqiy, mehnat, estetik, jismoniy, ekologik, iqtisodiy hamda huquqiy tarbiya berish, talabalarning ongi, xulq-atvori va faoliyatining birligi, shuningdek, tarbiya jarayonini tashkil etishning yakka, guruhli vaommaviy shakllarini qo`shib olib borilishini ta`minlaydigan pedagogik tizimlarni vujudga keltirish va bu tizim g`oyalariga amal qilishni talab etadi. Ijtimoiy tarbiya jarayoni shaxsning ijtimoiy fazilatlarini shakllantirish, uning atrof-tevarak, jamityat, odamlar hamda o`ziga nisbatan munosabatlari doirasini vujudga keltirish va uni kengaytirishga qaratilgan. Shaxs ishtirok etadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi qanchalik keng, xilma-xil va chuqur bo`lsa, uning ma`naviy dunyosi shunchalik boy bo`ladi. O`z tabiatiga ko`ra tarbiya jarayoni ko`p omilli xarakterga ega. Ya`ni, shaxsining qaror topishi oila, ta`lim muassasasi, jamoatchilik, ijtimoiy muhit, shuningdek, vaziyatlar xilma-xilligi, bevosita va bilvosita ta`sirlar ostida ro`y beradi. Tarbiya jarayonining natijalari odatda bir xil xarakterdabo`lmaydi. Bu narsa talabalarning psixologik (individual, tipologik), fiziologik va jismoniy xususiyatlari, ularning hayotiy va ma`naviy tajribasi, shaxsiy pozisiyasiga bog`liq. Tarbiya jarayoni, odatda, o`z-o`zini tarbiyalash, o`z-o`zini qayta tarbiyalash, shaxsning atrof-muhitdagi u yoki bu hodisalar bilan salbiy aloqasi natijasida vujudga keladigan munosabatlar va ularning xususiyatlarini bartaraf etish bilan olib boriladi. O`zini o`zi tarbiyalash shaxsni o`zida ijtimoiy qadrga ega bo`lgan fazilatlarni hosil qilish va takomillashtirishga hamda salbiy xislatlarni bartaraf etishga qaratilgan iichki faoliyat sifatida ta`riflanadi. O`z-o`zini

qayta tarbiyalashshaxsning o`zidagi salbiy odatlar, harakteridagi zararli sifatlarni yo`qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyati jarayonidir. Shaxs xulqidagi «og`ish»lar oiladagi nosog`lom muhit, ota-onaning tarbiyada yo`l qo`ygan xatolari, o`qituvchi faoliyatidagi kamchiliklar asosida vujudga keladi. qayta tarbiyalash jarayonida salbiy xulqni hosil qilgan sabab, sharoit o`zgartiriladi, qayta tarbiyalashda maktab vashaxsning ta`sirini oila, shu jumladan, ota-ona ham ma`qullashi lozim. Demak, qayta tarbiyalash talabaning o`zigagina emas, balki uning ota-onasiga ham qaratilishi lozim.

### **6.3. Ijtimoiy tarbiyaning asosiy vazifalari.**

Ijtimoiy tarbiyani tashkil etish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Ushbu vazifalar ijtimoiy tarbiya maqsadidan kelib chiqib belgilanadi. Mustaqil O`zbekiston Respublikasidaayni vaqtida yoshavlodni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda:

- a) yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o`z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja vaamal birligi hissini uyg`otish;
- b) talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyatidan ogoh etish, chuqur bilim va tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash, ularning ongini boyitish;
- v) umuminsoniy axloq me`yorlari (odamiylik, kamtarlik, o`zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat, alodatni yoqlash, insonparvarlik, axloqsizlikka nisbatan nafrat va hokazolar)ning mohiyatini anglash, talabalarda muomalaodobi, yuksak madaniyatni qaror toptirishga erishish;
- g) talabalarda huquqiy vaaxloqiy me`yorlarga hurmat ruhida yondashish hissi va fuqarolik tuyg`usi, ijtimoiy burchga mas`ullikni qaror toptirish;
- d) tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasidagi mas`uliyatni tarkib toptirish;
- j) vatanparvarlik va baynalminallik tuyg`usini shakllantirish, o`zga millat vaxalqlarni hurmat qilish, ularning huquq va burchlarini kamsitmaslik tuyg`usini qaror toptirish;
- z) mustaqil davlat – O`zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to`g`ri va xolisona baho berishga o`rganish;
- i) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, uning sha`ni, or-nomusi, qadr-qimmati, huquq va burchlarini hurmat qilishga o`rgatish va boshqalar.

O`zbekiston Respublikasidaolib borilayotgan ijtimoiy tarbiyaning umumiyl vazifalari anashulardan iborat. shu bilan birga ijtimoiy tarbiya yo`nalishlari – axloqiy, aqliy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy, huquqiy va siyosiy tarbiyaning xususiy maqsadidan kelib chiqqan holda bir qator vazifalar amalgaoshiriladi. Chunonchi, axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida – talabalarni ijtimoiy-axloqiy

me'yorlar mazmunidan xabardor etish, ulargaaxloqiy me'yorlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini tushuntirish, ularda ijtimoiy-axloqiy me'yorlar (talab va ta'qiqlar)ga nisbatan hurmat hissini qaror toptirishasosidaaxloqiy ong va madaniyatni shakllantirish; aqliy tarbiyani yo'lga qo'yish chog'ida - talabalarni ilm-fan, texnika va texnologiya borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, yangilik va kashfiyotlardan boxabar etish, ularga ijtimoiy va tabiiy fanlar asoslari xususidagi bilimlarni berish tarzida tafakkurni shakllantirish, dunyoqarashini rivojlantirish; jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida – talabalarni o'z sog'liqlarini saqlash va mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy jihatdan to`g'ri rivojlanishi hamda uning ishchanlik qobiliyatini oshirish borasida g`amxo'rlik qilish tuyg`usini yuzaga keltirish, ulardayangi harakat to`rlari borasida ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish, talabalarning yoshi, jinsiga muvofiq keladigan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, sabot, mehnat, chidam, iroda vaxarakterni qaror toptirish) asosiy harakat sifatlarini rivojlantirish, ularda shaxsiy gigienani saqlashga nisbatan ongli munosabatlarni tarbiyalash; estetik tarbiyani olib borish jarayonida – talabalarda estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatları, estetik ehtiyojlari va go'zallikni sevish, go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantirish, estetik madaniyatni shakllantirish; ekologik tarbiyani olib borish chog'ida – talabalarga ekologik bilimlar berishasosida shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamdaaloqadorligini talabalargatushuntirish, ularda ekotizimning inson, insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni va mohiyati borasidagi tushunchalarni qaror toptirish, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, tabiatni asrash to`g`risida g`amxo'rlik qilish kabi tuyg'ularni qaror toptirish, shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirish; iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida – talabalarga iqtisodiy bilimlarni berishasosida mammalakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, bozor infrastrukturasi qoidalariga amal qilish, ichki bozorni to`ldirish, kchik va o'rta biznesni yaratish borasidagi faoliyat jarayonida ishtirok etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, inson mehnati bilan bunyod qilingan moddiy boyliklarni asrash, ularni ko'paytirish borasida qayg'urish tuyg'ularini qaror toptirish, iqtisodiy madaniyatni shakllantirish; huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida talabalarga Davlat Konstitusiyasi, davlat haqidagi ta'limot, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirish, ular ogiga ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi tushunchalarni singdirish, huquqiy munosabatlar mohiyati yuzasidan tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlash, ularda huquqiy ong, shuningdek, huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, huquqiy madaniyatni shakllantirish; g'oyaviy-siyosiy tarbiyani tashkil etish jarayonida – talabalarga siyosiy bilimlarni berish,

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, fuqarolik jamiyatasi asoslari, milliy davlat tuzilishi, davlat organlari faoliyati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining iichki va tashqi siyosati mazmunini o'rganishni ta'minlashasosida talabalarda siyosiy faoliyat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish, siyosiy madaniyatni shakllantirish va hokazolar.

#### **6.4. Tarbiya tamoyillari.**

Tarbiya mazmunidaoldinga qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda sifatlari mohiyati aks etadi. Tarbiya mazmuni shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, kishilik munosabatlari mohiyati va darajasi, shuningdek, jamiyat mafkurasi g'oyalari asosda belgilanadi. Zamonaviy tarbiya mazmunida quyidagi tamoyillar yotadi:

1. Tarbiya maqsadining aniqligi. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqilligining dastlabki yillaridayoq respublikada, amalgaoshirilishi ko'zda tutilayotgan tarbiya maqsadi aniq belgilab olindi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'qrисida»gi yangi qonuni hamda g'oyalari ga ko'ra ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi – erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo'lgan komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga etkazishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish yo'lidagi asosiy vazifa - bu shaxsda umumiyligi madaniyat unsurlari, ya'ni, shaxsning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, siyosiy hamda mehnat madaniyatini tarbiyalashdan iborat.

2. Shaxslar va kattalarning birgalikdagi faoliyati. O'qituvchilarining shaxslar bilan ma'nnaviy madaniyatini shakllantirishning eng yaxshi namunasini izlash, shu asosida tarbiyachi ishining hayotiy meyor va qadriyatlarini aniqlash talabanining tarbiya jarayonidagi faolligini ta'minlashgaolib keladi. Dunyoqarashi hali to'la-to'kis shakllanmagan shaxslar uchun kattalarning hayotiy tajribalari, ularning shaxsiy namunalari tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega.

3. O'z-o'zini anglash. Tarbiya insonda e'tiqod, demokratik qarashlar va hayotiy pozisiyaning shakllanishigaolib keladi. Tarbiya mazmunining eng muhim unsurlaridan biri – bu insonning hayotiy o'z-o'zini anglashi, uning o'z shaxsiy hayoti va faoliyatining sub'ekti sifatida e'tirof etilishi bilan tavsiflanadi. Inson kamolotida fuqarolik, kasbiy vaaxloqiy o'z-o'zini anglash jihatlari muhim ahamiyatga egadir.

4. Tarbiyaning shaxsga yo'naltirilganligi. Mazkur g'oya ta'lif muassasasi amaliyotining markaziy nuqtasida tarbiyaviy ishlar dasturi, tadbirlar, ularning shakl, metod va vositalari emas. Balki talaba turganligini anglatishgaxizmat qiladi. Tarbiya jarayonida uning Shaxsiyxususiyatlari, qiziqishlari, o'zigaxos xarakteri,

o`z qadr-qimmatini anglash tuyg`ulari rivojlantirilib borilishi zarur.

5. Ixtiyoriylik. Tarbiyalanuvchilarning iroda erkinligisiz tarbiya g`oyalari mohiyatini qaror toptirish mumkin emas. Tarbiya jarayoni, agar u oqilona tashkil etilsa, bir vaqtning o`zida ham talaba, ham o`qituvchi ma`naviyatining boyitilishigaxizmat qiladi. Agar tarbiyachi talabaning qiziqishi, faoliyat, o`rtoqlik va fuqarolik burchini anglash, mustaqillikka intilish tuyg`ularini ko`ra vaanglay olsagina uning irodali ekanligi ayon bo`ladi. Tarbiyalanuvchining irodali bo`lishi ta`minlangan sharoitda uning shaxsiga ta`sir ko`rsatishga yo`naltirilgan faoliyat jarayonida samaraga erishiladi. Jamoa yo`nalishi. Tarbiyaviy ishlar mazmunida jamoaga nisbatan ijobjiy munosabatni qaror toptirish yotadi. Jamoa yordamidashaxsni har tomonlama kamoloti, uning dunyoni anglash, uni to`laqonli talqin etish, insonparvarlik va o`zaro hamkorlik tuyg`ularini yuzaga kelishi va rivojlanib borishi kabi holat amalgaoshiriladi. Zamonaviy pedagogik jarayonda tarbiyalanuvchiga: inson aqliy, estetik, axloqiy, jismoniy, siyosiy-g`oyaviy, iqtisodiy, ekologik hamda diniy tarbiya olishi lozimligini uqtirishining o`zagina kam samara beradi. Talaba uchun yuqorida qayd etilgan tarbiya yo`nalishlarining nimauchun kerakligi, ularning insonga nima beraolishi kabi masalalar qiziqarlidir. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tarbiya tizimida muammoning manashu jihatni biringchi o`ringa qo`yilmoqda. Yuqorida qayd etilgan g`oyalarni to`g`ri tashkil etilgan pedagogik jarayonda – etuk fuqaro, malakali mutaxassis hamda barkamol oila sohibini tarbiyalab voyagaetkazishchunxizmat qilishi lozim.

## **6.5.Tarbiya qonuniyatları.**

Ijtimoiy tarbiya maqsadi hamda vazifalarini amalgaososhirishchun tarbiya jarayonining o`zigaxos qonuniyatlarini anglab olish muhim ahamiyatga ega. Tarbiya jarayoni o`zigaxos xususiyatlarga ega. Uning eng muhim xususiyati aniq maqsadga yo`naltirilganligidir. Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni o`qituvchi va talabalar o`rtasidagi muayyan maqsadga erishishga qaratilgan samarali hamkorlik demakdir. Zero, tarbiya jarayonida o`qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyatları tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi. Yagona maqsadga erishish yo`li zamonaviy tarbiya jarayonining maqsadini tavsiflaydi. Tarbiya jarayoni ko`p qirrali jarayon bo`lib, unda tarbiya mohiyatini yoritishgaxizmat qiluvchi ichki va tashkil (sub`ektiv vaob`ektiv) omillar ko`zga tashlanadi. sub`ektiv omillar shaxsning chiki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlari mazmunini anglashga yordam bersa, ob`ektiv omillar shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarni ijobjiy hal etishuchunsharoit yaratadi. Tarbiya faoliyatining mazmuni, yo`nalishi vashakli obektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, shaxsni shakllantirish borasida shunday muvaffaqiyatga erishiladi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqt

o`qituvchi faoliyati, balki talabaning yosh va psixologik shaxsiy xususiyatlari, o`yifikrlari, hayotiy qarashlari hami muhim o`rin tutadi. Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur`atda yoki yaqqol ko`zga tashlanmaydi. O`zida insoniy sifatlarni namoyon etaolgan shaxsni tarbiyalab voyagaetkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Shaxsning muayyan vaqtning o`zida, turli-tuman qarashlar mavjud sharoitda harakat qilishi tarbiya jarayonini murakkablashtiradi. Ta`lim muassasalaridaolib borilayotgan tarbiya shaxsongi, dunyoqarashini shakllantirishda muhim o`rin tutadi. Binobarin, yoshlik yillarida insonning asab tizimi yuqori darajada ta`sirchan hamda beqaror bo`ladi. Shu bois tarbiya muvaffaqiyati ayni talabalik yillarida shaxsga to`g`ri tarbiya berish lozimligini talab etadi. Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning uzluksizligi sanaladi. Ta`lim muassasasidaolib borilayotgan tarbiya jarayoni bu – o`qituvchi va talabalarning birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. Talabalarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo`naltirilgan, bir-birini to`ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi faoliyat alohidaahamiyat kasb etadi. Shu bois oila, ta`lim muassasalari, jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning uzluksiz o`tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir. Talabalarga nisbatan ta`lim muassasasining ta`sirini susaytirmaslik maqsadida sinfdan, maktabdan tashqarida va ta`til davrida ham tarbiyaviy ishlarni tashkil etishgaalohida e`tibor beriladi. Ana shu maqsadda bir qator tarbiyaviy ishlar olib boriladi. Ayni vaqtida, respublikada, talabalarning ta`lim muassasalaridan uzoqlashtirmaslik maqsadida qo`shimcha ta`lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. qo`shimcha ta`lim muassasalarida talabalar xususiy fanlar hamdaxorijiy tillarni mukammal o`zlashtirishlari, texnik va badiiy yo`nalishlar bo`ycha bilim olishlari, amaliy faoliyat ko`nikma va malakalariga ega bo`lishlari mumkin. qo`shimcha ta`lim muassasalarida tashkil etilayotgan turli yo`nalish va mavzulardagi uchravshuvar, ko`rgazmalar, ko`riklar, suhbatlar talabalarning tafakkurini boyitishda, ularda mustahkam xarakter va irodani tarkib toptirishda muhim o`rin tutmoqda.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati – bu uning yaxlit holda tizimli tashkil etilishidir. Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni va metodlarini birligi shaxsnishakllantirish g`oyasini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bizga ma'lumki. Shaxs ma'naviy-axloqiy sifatlarni navbatma-navbat emas, balki yaxlit tarzda o`zlashtira boradi, shu bois pedagogik ta`sir ham yaxlitlik, tizimlilik xarakteriga ega bo`lishi lozim. Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati bir qator muhim pedagogik talablargaamal qilish, o`qituvchi va talabalar o`rtasidagi hamkorlikni qaror toptirishni talab etadi. Tarbiyaning yana bir xususiyati shundan iboratki, bu jarayon ikki tomonlamaaloqaxususiyatiga ega bo`lib, undashaxsning o`zi ham faol ishtirok

etadi. Ikki tomonlamaaloqa ikki yo`nalishda, ya`ni, o`qituvchining talabaga ko`rsatadigan ta`siri (to`g`ri aloqa) hamda talabaning o`qituvchiga nisbatan munosabati (teskari aloqa) tarzida tashkil etiladi. Tarbiyaning pedagogik texnologiya nazariyasi g`oyasiga muvofiq, endilikda talaba tarbiya jarayonining ob`ektigina bo`lib qolmasdan, sub`ekti sifatida ham faoliyat ko`rsatadi. Shuninguchun o`qituvchi talabaning ichki imkoniyatlari, unga nisbatan bo`layotgan tashqi ta`sirlar vaaxborot manbalarini inobatgaolishi zarur. Agarda mazkur talab unutilsa, shaxsni tarbiyalash qiyinlashadi yoki barcha urinishlrl samarasiz yakun topadi. Manashundan tarbiya jarayonining yana bir xususiyati – tarbiyada qarama-qarshilikning mavjudligi kelib chiqadi. Ushbu qaram-qarshiliklar talabalarga o`z tushunchalariga muvofiq paydo bo`lgan dastlabki sifatlar o`rtasida yoki talabalarga qo`yiladigan talablar bilan ularni bajarish imkoniyatlari o`rtasidagi ziddiyatlarning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi. Undan tashqari bu qarama-qarshiliklar ko`pinchashaxsning ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq bo`lmaslidan, o`qituvchi va tarbiyachilarining talabalar yosh, psixologik, fiziologik xususiyatlari (fe'l-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy hamda fiziologik jihatdan sog`lomligi)ni yaxshi bilmasliklari oqibatida kelib chiqadi. Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda mavzuga quyidgchaxulosa qilish mumkin:

1. Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajribaasosida Shaxsni har tomonlama o`stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni bo`lib, har qanday tuzum va zamonda ijtimoiy munosabatlar mazmunini aniqlash, ularni tashkil etishasosi bo`lib kelgan.

2. Yosh avlod tarbiyasi turli makon va zamonda muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ijtimoiy tarbiyani yo`lga qo`yish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Tarbiyaning maqsad va vazifalari ijtimoiy tuzum mohiyati, taraqqiyot darjasи, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, jamiyat fuqarolarining dunyoqarashi, intilishlari, orzu-niyatlari asosida belgilanadi.

3. Tarbiya jarayonining xususiyatlarini chuquranglash va ularni inobatgaolgan holda tarbiyani tashkil etisholdinga qo`yilgan maqsadga erishish, shuningdek, bu boradagi vazifalarni ijobiy hal etish imkonini beradi.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo`l) tarbiya maqsadiga erishishning yo`li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg`ulari vaxulqiga ta`sir etish usullari. Amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg`ulari va xulqiga ta`sir etish usullaridir. Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga biron ta tarbiyachining kuchi etmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o`zining imkoniyatiga ko`ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o`zining xususiy qarashlarini ifoda etishasosida umumiy metodikani

boyitadi. Metodning ijobiy va salbiysi bo`lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo`lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqati nazaridan baholash mumkin. Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog`liq.

## **6.6. Tarbiyaning maqsad vazifalari va usullari**

Tarbiya maqsadi va mazmuni metodlarni to`g`ri tanlashga imkon beradi. Maqsad qanday bo`lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo`lishi zarur. Tarbiyaning mazmuni shaxsning shakllanishiga qo`yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to`ldirilgan bo`lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog`lash g`oyat muhimdir. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqli. YOSH xususiyatlari muayyan bir yosh davriga xos bo`lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlardir. Aytaylik, mas`uliyat tuyg`usini boshlang`ch ta`lim, o`rta ta`lim va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalarida ta`lim olayotgan talabalarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqchda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi. Xalq pedagogikasida tarbiya metodlari. Xalq pedagogikasi o`zbekona axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o`zida mujassamlashtirgan. Xalq pedagogikasida turlcha tarbiya metodlari hamda vositalaridan foydalaniladi. Bu metod va vositalar nihoyatda rang-barang bo`lib, ko`p jihatlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Binobarin, ushbu metodlar ilmiy pedagogikaning shakllanishiga ham o`z ta`sirini o`tkazgan. Xalq pedagogikasida qo'llanilgan xilma-xil tarbiya metodlarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin.

1. Tushuntirish (hikoya qilish, o`rgatish).
2. Mashqlantirish (odatlantirish, mashq qildirish).
3. Namuna (maslahat berish, uzr so`rash, yaxshiliklar haqida so`rash, o`rnak bo`lish).
4. Nasihat qilish, o`git (undash, ko`ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istik bildirish, ma'qullah, rahmat aytish, duo qilish, oq yo`l tilash va hokazolar).
5. Qoralash va jazo (ta`kidlash, ta`na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayplash, uyaltirish, qo`rqitish, nafratlanish, ont-qasam chirish, urish, kaltaklash va hokazolar).

Agar e'tibor berilsa, yuqoridagi beshta metod umumiylar yaxlitlikni ifodalaydi. Oldin shaxsga umumiylar jarayonning mohiyati tushuntiriladi.

Xalq pedagogikasi namunalari, tarbiya metodlari va tarbiyaviy ta'sirlar muayyan vositalar yordamida qo'llanilgan. Mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, hasharlar, turli gurunglar (choyxona, to'y marosimlari), sayillar, oilaviy an'analar (tug'ilgan kun, fuqarolik pasporti, umumi o'rta, o'rta maxsus hamda oliy ma'lumotga egalik to'g'risidagi attestat va diplom, shuningdek, davlat mukofotlarini olish kabi holatlarni nishonlash) va musobaqalar o'ziga xos tarbiya vositasisanaladi. Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari sanaladi. Bu guruh usullarining mohiyati shundaki, ular orqali talabalar ongiga jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy g'oya va maqsadlar singdiriladi. Yoshlar dunyoqarashini shakllantirish, ularning hayot mazmunini tushunib olishlariga ko'maklashishchun ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar qo'llaniladi. Talabalarda g'oyaviy onglilik va ijtimoiy faollik, ya'ni, davlatning iichki va xalqaro siyosati mazmunini tushunish va idrok qilish ko'nikmalarini tarbiyalash lozim. Tushuntirish ijtimoiy ongni shakllantirishda eng ko'p ishlataligan usuldir. Tushuntirishning vazifasi talabalarni yuksak madaniyatli, milliy g'urur tuyg'usiga ega bo'lib voyaga etishlarini tarbiyalashga yordam berishdan iborat. Tushuntirishda talabalarga mamlakat fuqarosining davlatga nisbatan muayyan huquq va burchlar asosida bog'langanligi borasida ma'lumotlar beriladi. Bunda davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi hamda Konstitusiyasiga sadoqat ruhida tarbiya berishning ahamiyati katta. Shu sababli davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi hamda Konstitusiyasining mohiyati tushuntirildi.

**Suhbat.** Talaba shaxsini g'oyaviy va ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirchan usul hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf talabalari uchun dolzarbligi, talabalarda ma'naviy-axloqiy ishonch uyg'otishning suhbat mazmuniga bo'lgan munosabatlari va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish zarur. Suhbat quyidagi mavzularda uyushtirilishi mumkin:

a) yetik mavzular (ijtimoiy ma'naviy-axloqiy me'yorlar, jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy munosabatlar, jamoa orasida o'zini tutish qoidalari va boshqalar);

b) estetik mavzular (tabiat go'zalligi, shaxslararo munosabatlar, inson go'zalligi);

v) siyosiy mavzular (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari, xalqaro munosabatlar va boshqalar);

g) ta'lim va bilishga oid mavzular (koinot, hayvonot va o'simliklar dunyosi, elektronika va boshqalar).

Suhbatlarning, shuningdek, ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil etish, huquqiy, ekologik, iqtisodiy va gigienik mavzularda ham tashkil etilishi o`zining ijobjiy natijalarini beradi. Suhbat davomida talabalarga ularning o`z fikrlarini erkin ifoda etishlari hamda mustaqil fikrlashlariga imkon beruvchi savollar bilan murojaat qilish juda muhimdir. Bu borada babs-munoazaralarning ahamiyati katta.

**Hikoya.** Talabalar odatda hayot va turli adabiyotlardan olingan aniq misollar bilan boyitilgan hikoyalarni katta qiziqish bilan tinglaydilar. Ularga axloq me`yorlari, xalq o`tmishi, tabiiy boylar, qahramonlar hayoti va jasorati, shuningdek, tarix, adabiyot va san`at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot namunalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari - radio, televidenie, gazeta va jurnallar sahifalarida e`lon qilingan ma`lumotlar ham talabalar uchun qimmatli material bo`ladi. Suhbat ham, hikoya ham talabalarning yoshiga mos mavzularda ular tushunadigan so`zlar vositasida adabiy tilda o`tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Suhbat yoki hikoya mavzusining talabalar tomonidan belgilanishi, ularning samarali kechishini ta`minlaydi, buning natijasida talabalar ilgari surilayotgan mavzuga befarq qaramaydilar.

**Namuna.** Talabalar o`z atrofidagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko`rishlari va ibrat olishlari nihoyatda muhim. O`qituvchining shaxsan o`zi namuna bo`lishi, ayniqsa, yoshlarga katta ta`sir ko`rsatadi. Ular o`qituvchining darsda va hayotda o`zini qanday tutishini, atrofdagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o`z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar. Namunada xalq pedagogikasi g`oyalaridan ham foydalaniladi. Ota-onalar o`z farzandlarini hamisha katta hayotiy tajribaga ega, dunyoqarashi va bilim doirasi keng kishilardan ibrat olishga da`vat qilib kelganlar. Masalan, «qush uyasida ko`rganini qiladi». Juda oddiy xulosa. Shu oddiy xulosa ostida qancha fikrlar jamlanib yotgavnligini hamisha ham fahmiga boravermaymiz. Bu bilan xalq xalq «uyingda tartibli bo`l, aks holda shaxsng ko`chada tartibsiz bo`ladi», «shaxs oldida birovlarining g`iybatini qilma, shaxsng g`iybatchi bo`ladi», demoqchi.

**O`z-o`zini tarbiyalash metodlari.** Talabada o`z-o`zini tarbiyalashga, ya`ni, o`z ustida ongli, bartartib ishlashga ehtiyoj paydo bo`lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblash mumkin. Tarbiya jarayonida o`z-o`zini tarbiyalash metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi. O`z-o`zini tarbiyalash metodlari talabalarning o`zini o`zi idora qilishlari, turli talabalar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta`minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo`llaniluvchi usullardir. O`z-o`zini tarbiyalash talabalarning o`zini o`zi idora qilish va talabalarning turli organlari faoliyatida faol ishtirok etishni ta`minlash, ularning ijtimoiy mavqeini oshirishning ta`sirchan vositasidir. Talabalar o`qish, tarbiya va dam olishda o`z-o`zini tarbiyalash usullaridan

foydalananadilar, bu usullar talabalarni o`z-o`zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi.

**O`z-o`zini tahlil (nazorat) qilisho`z shaxsi**, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.O`z-o`zini tahlil (nazorat) qilishuchun talaba o`zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy fazilatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarning kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

**O`z-o`zini baholash**mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o`z shaxsiga baho berishga yo`naltirilgan faoliyat usuli. Talabaning qobiliyatini o`z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O`z-o`zini baholash qiyin, lekin talabani bunga etarli tayyorlash mumkin. Shu bois talaba irodali bo`lishi, o`z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olishuchun sababli asos bo`lishi, ya`ni, tarbiyalanishni xohlashi, o`zini o`rtoqlari, atrofdagilarning ko`zi bilan ko`rish va o`z-o`zini takomillashtirishga intilishi lozim.O`z-o`zini baholash talaba uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o`ziga chetdan turib xolisona baho berish, o`zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

**Izohlash**— tarbiyalanuvchiga hissiy-og`zaki ta`sir etish usuli. Izohlashning hikoya va tushuntirishdan farqlanadigan muhim belgisi muayyan guruh yoki alohida shaxsga yo`naltirilganligidir. Ushbu metodni qo`llash sinfning talabalarining umumiy yoki jamoa a`zolarining shaxsiy xususiyatlarini bilishga asoslanadi. Boshlang`ch sinf talabalari bilan ish olib borishda izohlashning elementar usul va vositalari qo`llaniladi: «shunday harakat qilish kerak», «hamma hunday qiladi». O`smirlar bilan ishlaganda ma`naviy-axloqiy tushunchalarining ijtimoiy ahamiyati va ma`nosini izohlash zarur. Izohlash quyidagi holatlarni yuzaga keltirishuchun qo`llaniladi:

- 1) yangi ma`naviy-axloqiy sifatlar yoki xulq ko`nikmalarini tarkib toptirish va mustahkamlash;
- 2) tarbiyalanuvchilarining sodir etilgan muayyan hodisa (masalan, sinf talabalari ommaviy ravishda darsga kelmaganlari)ga to`g`ri, ongli munosabatni hosil qilish.

Amaliyotda izohlash ishontirishga tayanadi. Ishontirish vositasida talaba ruhiyatiga sezilarsiz holda ta`sir etiladi. Mazkur metoddan boshqa metodlarning ta`sirini kuchaytirish uchun ham foydalilanadi.

**Munozara** tarbiyalanuvchilarga hissiy-og`zaki ta`sir ko`rsatish asosida ularda ma`naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo`naltirilgan bahs-munozara usuli bo`lib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, estetik va huquqiy mavzular («Did haqida bahs», «Mashhur bo`lish yo`llari», «Biz madaniyatli kishilarmizmi?» va hokazolar)da o`tkaziladi. Munozara turli nuqtai nazarlar to`qnashgan vaziyatda

talabalarda ma'lum hodisaga nisbatan ishonch hosil qilishga yordam beradi. Munozara asosida turli qarashlar yotadi. Bahs ijobiy natija berishi uchun puxta tayyorgarlik ko'rish maqsadga muvofiq.

**O'rgatish** tarbiyanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir. O'rgatish bir necha izchil harakatlar yig'indisidir. O'qituvchi bu harakatlarni ko'rsatib berishi, tushuntirishi, kuzatishi lozim.

Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xili mavjud:

- 1) faoliyatda mashq qilish;
- 2) kun tartibi mashqlari;
- 3) maxsus mashqlar.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy hamda jamoa faoliyatini tashkil etish va o'zaro munosabatni yo'lga qo'yish odatlarini tarbiyalashga qaratilgandir. Kun tartibi mashqlari belgilangan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog'liq istak va harakatlarni boshqarish, ish va bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanish odatiga o'rgatadi. Maxsus mashqlar madaniy xulq ko'nikma va malakalarini hosil qiladi, mustahkamlaydi. Topshiriq talabalarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladigan usul. Talabalarning topshiriqlarni jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega.

**Pedagogik talab** turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida talaba tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Pedagogik talab ma'lum harakatlarni rag'batlantiruvchi yoki to'xtatuvchi hamda talabani oqilona harakatlarni bajarishga undovchi xarakterga ega bo'lishi mumkin.

**Rag'batlantirish** tarbiyanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usulidir. O'qituvchi har bir shaxsda ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarni anglash olishi zarur. Har qanday rag'batlantirish mavjud pedagogik talablarga muvofiq bo'lishi, ketma-ket bo'lmasligi zarur, shuningdek, talabani yoki uning xatti-harakatlarini haddan oshirib maqtash, boshqa talabalarga taqqoslash, ularni kamsitmaslik, talabchanlikni bo'shashtirmaslik kabi shartlarga muvofiq qo'llaniladi.

Jazolash tarbiyanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo ham talabaning individual xatti-harakatlari va umumjamoaning faoliyati uchun qo'llaniladigan eng so'nggi tarbiya usuli.

**Tanbeh berish** – eng muhim jazo chorasi. O'qituvchi talabaga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo'yish mumkin.

**Ogohlantirish** – sodir etilishi mumkin bo’lgan muayyan xatti-harakatlarning oldini olish maqsadida qo’llaniladi.

**Hayfsan berish** – talabaning ma’lum xatti-harakatlarini qat’iy choralar asosida baholash. Agar tanbeh va ogohlantirish kutilgan natijani bermasa, talaba belgilangan intizomni buzaversa, uning aybi qay darajada bo’lishi va intizomni qanday sharoitda buzganligini inobatga olib unga hayfsan e’lon qilish mumkin.

**Uyaltirish** - talabaning ma’lum xatti-harakatlariga jamoa yoki uning tarbiyasi uchun mas’ul bo’lgan sub’ektlar (ota-onalar, vasiylar, jamoatchilik vakillari va boshqalar) oldida baho berish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus va sharm-hayodir. Odamda insonda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo’lsa, avvalo, o’zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat Shunchalik kuchli bo’ladi. Shaxslarni tarbiyalashda shu his-tuyg’ularni ehtiyotkorlik bilan o’stirish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish va qizirtiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o’z o’rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin. Jazo puxta o’ylab qo’llanilishi lozim, aksincha, jahl ustida jazolash mumkin emas. Jazolar yakka xarakterda, ya’ni, birgina usulni qo’llash asosida bo’lsin, talabaning aybiga mos, muvofiq bo’lishi, tez-tez qo’llanilmasligi, jazolanuvchida jazoning to’g’ri belgilanganligiga nisbatan shubha tug’ilmasin va ular o’z ayblarini sezsin. Jamoada muhokama qilish va jamoa tomonidan qo’llab-quvvatlangan jazo berilsa, uning ta’sir kuchi yanada oshadi. Barcha holatlarda ham jazo tarbiyanuvchining jismoniy va ruhiy azob-uqibatlariga solmasligi, uni tahqirlamasligi, sha’nini erga urmasligi kerak. Xulosa qilib aytganda yuqorida ta’riflangan tarbiyaning umumiyligi metodlari talabalarga pedagogik ta’sir ko’rsatish sohalarini qamrab olmaydi. Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib borar ekan, unga muvofiq ravishda tarbiya jarayoni ham takomillashib boraveradi. Bu guruhlar o’z navbatida bir qator tarbiya elementlarini tashkil etadi. Chunonchi, shaxs ongini shakllantirish metodlariga: hikoya, tushuntirish, izohlash, ma’ruza, etik suhbat, ishontirish, nasihat, yo’riqnama, munozara, ma’ruza, namuna; faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulqni shakllantirish metodlariga mashqlantirish, odatlantirish, pedagogik talablar, jamoat fikri, topshiriq, tarbiyalovchi vaziyat; xulq va faoliyatni rag’batlantirish metodlariga: musobaqa, rag’batlantirish va jazolash kiradi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

- 1.Tarbiya metodlarini sanang va ularga ta’rif bering.
- 2.Tarbiya metodlaridan hikoya, suhbat, namuna hamda ma’ruza qanday hollarda qo’llaniladi?
- 3.Xalq pedagogikasi qanday tarbiya metodlariga ega?
- 4.Rag’batlantirish va jazolash metodlari haqida gapirib bering.
- 5.Tarbiya jarayonining mohiyatini qisqacha tavsiflang.
- 6.Tarbiya maqsadi nimadan iborat?

- 7.Tarbiya jarayonining o`ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
- 8.Tarbiya jarayonida qanday vazifalar hal etiladi?

## **VII BOB. KASBIY TA'LIM USULLARI, SHAKLLARI VA VOSITALARI**

### **7.1. Kasbiy ta'lism usullarining rivojlanish tarixi**

Didaktik g'oyalar (tizimlar) tarixiy taraqqiyot jarayonida yangi g'oyalar bilan boyib davr talabiga mos keluvchi tizimlarga aylanadi. Didaktik tizimlarning ketma-ketligi o'qitish nazariyasi va amaliyotining umumiy qonuniyatidir. Kasbiy ta'lism turlari (yunoncha «species» alohida, o'ziga xos xususiyatga ega) o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirishga nisbatan turlcha yondashuvdir. Pedagogik tizimlarning asosiy turlari quyidagilardir:

- arxaik (ibrido);
- qadimgi (Shumer, Misr, Xitoyda eramizdan avvalgi uchinchi ming yillik);
- avestiy (Baqtriya, Sug'diyona, Xorazmda – eramizdan avv. VII-VI asrlar);
- yunon (Ellins, rim-yunon, rim – eramizdan avv. V-I asrlar);
- o'rta asr (dogmatik, sxolastik V-XVI asrlar);
- yangi (tushuntirish, tushuntirish-ko'rgazmali, dasturlashtirilgan, masofali o'qitish muammoli-dasturlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan innovation);
- xorijiy (tushuntirish, tushuntirish-ko'rgazmali, dasturlashtirilgan, muammoli-dasturlashtirilgan, kompyuterli o'qitish, masofali, Internet yordamida o'qitish va shu kabilar).

Avesto g'oyalariga ko'ra shakllangan pedagogik tizim eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda, Markaziy Osiyo xududida zardushtiylik dini yuzaga kela boshlaganda tashkil topdi. "Avesto" zardushtiylik muqaddas manbai bo'lib, u o'z davrining ensiklopediyasi hisoblagan. "Avesto" g'oyalariga binoan yoshlarni o'qitish hamda tarbiyalash quyidagilardan iboratdir:

- 1) diniy va ma'naviy tarbiyalash;
- 2) jiemoniy tarbiya;
- 3) o'qish va yozishga o'rgatish.

Yoshlarni tarbiyalashda ona yerga, atrof-muhit, tabiatga muhabbat hissini uyg'otish muhim yo'nalish hisoblangan. "Avesto"da barkamol shaxs obrazi haqida aniq tasavvurlar ifoda etilgan. Muntazam o'qitishning ilk turi qadimgi yunon faylasufi Suqrot (eramizdan avvalgi 469-399 er. avv. yillar) va uning talabalari tomoni-dan keng qo'llagan yordamchi savollarga javob topish metodi hisoblanadi. Bu metod suqrotcha suhbat metodi nomini olgan. O'qituvchi (faylasuf) talabada qiziqish, bilishga intilishni uyg'otadigan savoldan foydalanadi, mulohaza yuritish asosida talabani voqeа-hodisalarning mohiyatini idrok etishga undaydi. O'qituvchining mulohazasi ko'pincha ritorik savollarni muhokama qilish bilan to'ldirilib turiladi. Suqrotcha suhbatlar bir yoki bir necha talabalar ishtirokida

tashkil etiladi. Dogmatik o`qitish – jamoa asosida idrok etish faoliyatining ilk turi bo`lib, o`rta asrlarda keng tarqalgan. O`rta asrlarda, G`arbiy Yevropada, dogmatik o`qitishda lotin tili, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa arab tili etakchi o`rin tutgan. Musulmon pedagogik konsepsiyasi sezilarli intellektuallik xususiyatiga ega bo`lgan. Komillikka bilimlaridan faol foydalana oladigan odamgina erishishi mumkin deb hisoblangan. “Haqiqiy g`oyalar” (Abu Ali Ibn Sino. «Donishnoma» «Bilimlar kitobi»), haqiqiy bilimlarni o`zlashtirishga ikki to`sinq xalaqit qiladi: so`zlarining aniq va fikrlarining tushunarli emasligi. Mazkur kamchilikni bartaraf etishda logika alohida o`rin egallaydi. Musulmon mamlakatlarida bolani o`qitish va tarbiyalashda u tomonidan qur'onning arab tilida yod olinishi bilim eshallashning asosiy shart hisoblangan. Bundan tashqari XV-VII asrlarda, bir qator maktablarda fors tili ham o`rgatilgan. Asosiy ta`limni bolalar maktablar – boshlang`ch maktabda olganlar (muqaddas kitobni o`qish va talqin qilish mashg`ulotlari, o`qish, yozish va hisobga o`rganganlar). Dogmatik o`qitishda talabalarning asosiy faoliyatları tinglash, o`qish, yod olish, eslab qolish va matnni so`zma-so`z takrorlashdan iborat bo`lgan. Oliy ta`lim madrasalarda berilgan. Mavarounnahrdagi eng yirik o`quv maskanlari sirasiga Samarqand, Buxoro, Urganch va G`ijduvondagi madrasalarni kiritish mumkin. Bu ma`rifiy markazlarining rivojlanishi XV-VII asrlarga to`g`ri kelgan. Madrasalarda, o`qitish fors tillarida olib borilgan. Talabalar majburiy tarzda arab tilini ham o`rganganlar. O`quv rejasiga grammatika, qur'on, Hadis, ritorika, logika, metafizika, geologiya, adabiyot, huquqshunoslik kabi fanlar kirgan. O`qitish asosan og`zaki shaklda olib borilgan. Biroq talabalar foydalangan o`quv adabiyotlari asta-sekin ancha ko`p qirrali, turli-tuman bo`lib boradi. Maktab ta`limi erkaklar uchun mo`ljallangan. Ammo har bir badavlat oila qiz bolani o`qitishuchun uyga o`qituvchini taklif etgan.

Dogmatik o`qitish o`rniga asta-sekin o`quv jarayonida ko`rgazmalilikni keng jalb etish natijasida tushuntirish, tushuntirish-namoyish etish kabi ta`lim shakllari qo`llanila boshlandi. Ayni vaqtda, Respublika hududida, faoliyat yuritayotgan zamonaviy ta`lim muassasalarida ta`limning eng muhim quyidagi uch turidan foydalanilmoqda: tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta`lim (u an'anaviy yoki axborot beruvchi ta`lim ham deb ataladi); muammoli o`qitish; dasturlashtirilgan ta`lim yoki kompyuterli o`qitish. Bugungi kunda o`rta asrda keng qo`llanilgan ta`lim turlari – dogmatik va sxolastik o`qitish elementlari ham saqlanib kelinmoqda. Tushuntiruvchi-namoyil etuvchi ta`lim nomidan mohiyati anglanib turibdi. Ko`rgazmalilik asosida tushuntirishning asosiy metodlari tinglash va eslab qolish sanaladi. Tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta`lim turi vaqtini tejash, o`qituvchi va talabalarning kuchlarini asrash, qiyin bilimlarni tushunishni osonlashtirish, ta`lim jarayonini ancha samarali boshqarishni ta`minlaydi. Biroq muayyan kamchilikka ham ega, ya`ni, “tayyor” bilimlarni berish va talabalarni

bilimlarni o`zlashtirishda mustaqil hamda mahsuldor fikrlashdan ozod etish, o`quv jarayonini individuallashtirish, differensasiyalashtirish imkoniyatlarining kamligi. Muammoli o`qitishda o`quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni mustaqil egallash, talabalarning ijodiy fikrlashlari va idrok etish faoliyatlarini rivojlantirish yo`li bilan ta`lim tashkil etiladi. Uning texnologiyasi turli-tumanligi bilan ajralib turmaydi, chunki talabalarni faol idrok etish faoliyatiga jalb etish bir necha bosqchlardan iborat bo`ladi. Ular ketma-ket tartibda va kompleks amalga oshirilishi kerak. Bunday o`qitishda muammoli vaziyatni yaratish muhim bosqch hisoblanadi. Bunday vaziyatda fikrlash jarayonida qiyinchilik his etiladi. O`quv muammosi bir qadar qiyin, lekin talabalarning kuchi etadigan bo`lishi kerak. Muammoni ilgari surish bilan bиринчи bosqch yakunlanadi. Muammoni hal etishning keyingi bosqchida talabalar savol bo`ycha mavjud muammoni ko`rib chiqadilar, tahlil qiladilar, javob topishuchun ularning etarli emasligini aniqlaydilar va yetishmayotgan axborotni topishga intiladilar. Uchinchi bosqch muammoni echishuchun zarur bo`lgan bilimlarni turli usullar bilan egallahga qaratilgan. U hayoliga birdan fikr kelishi bilan yakunlanadi (“Men nima qilishni bilaman!”). Shundan keyin muammoni hal etish, olingan natijalarini tekshirish, dastlabki gipoteza bilan solishtirish, olingan bilimlar, malakalarni tizimlashtirish va umumlashtirish bosqchlari keladi. Muammoli topshiriqlar savollar, o`quv masalalari, amaliy vaziyatlardan iborat bo`lishi mumkin. Muammoli savolda izlash va javoblar turli variantlari ko`zda tutiladi, ya`ni, oldindan tayyor javob bu erda mumkin emas. Muammoli savolga misool: “Nima uchun temirdan yasalgan mix suvda cho`kadi, temirdan yasalgan kema esa cho`kadi?”.

## **7.2. Ta`lim pedagogik tizimlarining rivojlanish tendensiyasi.**

Dunyoda shunday ta`lim tizimi yuzaga kelganki, uni ko`pchilik “qo`llab turuvchi, ta`minlovchi, yordamchi o`qitish” deb ataydilar. U odamni kundalik muammolarni hal etishga tayyorlashga asoslangan bo`lib, shaxsning faoliyati va hayot tarzini qo`llab turishuchun mo`ljallangan. Ayni vaqtida “innovation” (yangilik kiritish) ta`limni tashkil etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Mazkur ta`limning quyidagi o`ziga xos xususiyatlar mavjud:

1) bu oldindan ko`ra bilish, ya`ni, talabanini avvalgi va hozirgi tajribasi asosida o`qitish emas, balki uni uzoq kelajakni mo`ljallashga o`rgatishdan ibora bo`lib, talaba ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatda taxmin qilish, ko`zlash, modellashtirish va loyihalashtirish amalga oshira olishi zarur.

2) talabaning hamkorlikda ta`lim olish va muhim qarorlarni qabul qilish (lokal va xususiydan tortib dunyoni, madaniyat, sivilizasiya rivojlanishini hisobga olishdan global muammolarni hal etish)da faol ishtirot etishini ta`minlash. Keyingi yillarda masofaviy ta`lim (lotincha distantsia – masofa) – masofadan turib o`qitish

keng rivojlanmoqda. Masofaviy o'qitish – ta'lism texnologiyasi bo'lib, unga ko'ra talaba qaerda va qanday holatda bo'lishidan qat'iy nazar muayyan ta'lism muassasasi ta'lism dasturini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu maqsadni amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalari: darsliklar va boshqa bosma nashrlar, o'rganilayotgan materialni kompyuter telekommunikasiyalari orqali uzatish, videotasmalar, munozaralar va seminarlar o'tkazish, regional va milliy televidenie hamda ravdio orqali o'quv dasturlarini namoyish etish, kabelli televidenie va ovozli pochta, ikki tomonlamali videokonferensiyalar, telefon orqali qayta aloqa bilan bir tomonlama videotranslyasiya va boshqalarning xizmatiga tayaniladi. Masofali o'qitish o'qituvchilarga vaqtini tejashta qulaylik yaratadi, asosiy faoliyatidan ajralmagan, jumladan uzoq rayonlarda yashovchilarga o'qish imkonini yaratadi, o'quv fanlari erkin tanlanadi, fan, ta'lism va madaniyat mashhur namoyondalari bilan munosabatlar imkonini beradi. Talaba va o'qituvchilarning faol o'zaro munosabatlari, mustaqil ishlashni faollashtirish va talabalarning mustaqil bilim olish ehtiyojlarini qoniqtirishga xizmat qiladi.

### **7.3. Ta'lismi tashkil etishshakllari va ularning didaktikada rivojlanishi.**

Jahon pedagogik fani va amaliyotida ta'lismi tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqchi ta'lismi tashkil etishga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ayni vaqtida ta'lismning quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi: individual, individual-guruhli, guruh-dars, Maruza-seminarli va guruhdan tashqari, auditoriyadan tashqari, maktab va maktabdan tashqari. Ular talabalarni qamrab olishi, talabalar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o'qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko'ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi:

- 1) individual;
- 2) guruh-darsli;
- 3) ma'ruza-seminarli.

Qadim zamonlarda mavjud bo'lgan o'qitishning eng qadimgi shakli ta'limming individual shakli hisoblanadi. Hayotiy tajribalarni ajdoddlardan avlodlarga uzatish ibtidoiy jamiyatda yuzaga kelgan. Yozuv paydo bo'lishi bilan qavm boshlig'i turli belgilar yordamida o'zining tajribalarini yoshlarga o'rgatgan. O'qituvchi va talabaning bevosita va individual aloqasiga misol sifatida repetitorlikni ko'rsatish mumkin. O'qishni tashkil etishning individual shakli antik davr va o'rta asrlarda yagona usul bo'lgan, undan ba'zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanilib kelingan. Individual ta'lim bir qator afzalliklarga ega, shuninguchun bu usuli bizning davrimizgacha repetitorlik shaklida saqlanib qolgan. Uning usutunligi o'quv faoliyati mazmuni, metodi va suratini to'la individualashtirish, aniq bir masalani hal etishda uning har bir harakati va

operasiyalarini kuzatib borishga imkon berishidan iborat. Individual ta’lim o’qituvchining yuqori pedagogik malakaga ega bo’lishini talab etadi.

Individual o’qitishning ustunliklari bilan bir qatorda bir qator kamchiliklariham mavjud bo’lib, ular quyidagilardan iborat:

- 1) vaqtning tejamli emasligi;
- 2) o’qituvchi ta’sirining cheklanganligi (o’qituvchining vazifasi talabaga topshiriq berish va uni bajarilishini tekshirishdan iborat);
- 3) boshqa talabalar bilan hamkorlikda ishslash imkoniyati cheklanganligi (bu holat ijtimoiylashishi jarayoniga salbiy ta’sir ko’rsatadi);
- 4) jamoada ishslash tajribasining shakllanmasligi.

Mazkur sabablar XVI asrdan boshlab individual o’qitish usulining ahamiyati pasayib, uning o’mini ta’limning individual-guruhli shakli egallashiga imkon berdi. Ta’limning individual-guruhli shaklidagi Evropada, XVI asrda keng foydalana boshladilar. Markaziy Osiyo davlatlarida bu usuldan qadim davrlarda ham foydalanganlar. Bunga Avesto davri misol bo’la oladi, bu davrda talabalar uchun asosiy o’quv qo’llanma zardushtiylikning muqaddas manbai “Avesto” (eramizdan avvalgi VII-XVI asrlar) bo’lib kelgan. Avesto davri jamiyatidagi maktablarda individual o’qitish jamoali o’qitish bilan birga olib borilar edi. O’qituvchi “Avesto” kitoblaridan birini ochadi va talabalar navbatma-navbat kelib ovoz chiqarib o’qiydilar, keyin esa hamma birgalikda o’qilganni takrorlaganlar, mashqlarni maxsus taxtachalarda yozganlar. Aqliy mashqlar o’qituvchining talaba bilan erkin suhbati davomida olib borilgan. Jismoniy tarbiyalash individual va jamoali mashg’ulotlar shaklida amalga oshirilgan. Jismoniy tarbiyaning maqsadi yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashdan iborat bo’lgan. Otda yurish, ov qilish, qilchdan foydalanishni bilish, suvda suzish, yugurish, nayza otish va Shu kabilar harbiy tayyorgarlikning majburiy turlari hisoblangan. Ta’lim olish jarayoni kun chiqqandan kun botgungacha davom etgan, uy vazifalari mavjud bo’lmagan<sup>1</sup>. XV va XVI asrlar davomida, Yevropada ishlab chiqarishning rivojlanishi kuzatildi. Ushbu o’zgarishlar yoshlarga ta’lim berishning ommaviy shakli yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Ulardan biri bolalarni guruhli (jamoali) ta’lim sanaladi. U g’arbiy Rossiya (hozirgi Belorussiya va Ukrainianing g’arbiy qismlari) birodarlik<sup>7</sup> maktablarida ilk bor qo’llanilgan va o’qish guruh-darsli shaklining asosi bo’lib qolgan. Bu tizimlar XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan “Buyuk didaktika” asarida nazariy jhatdan asoslab berildi va ommaviy lashtirildi. Olim pedagogikaga o’quv yili, o’quv kuni, dars, mashg’ulotlar orasidagi tanaffus, o’quv ta’tillarikabi tushunchalarni kiritdi. quyosh it yulduzlari turkumida bo’lganida

<sup>1</sup> Avesto. qadimgi Sharq adabiyoti. – Moskva, MDNM, 1984, -s. 352.

<sup>7</sup> XVI-XVII asrlarda xarbiy Rusiyada birodarlik va diniy-ma’rifatparvarlik deb ataluvchi tashkilotlar paydo bo’ladi.

bolalarni dam olishga yuboradilar («ta’til» lotinchada – kunlarning eng qizigan davri deganini bildiradi). Sinf-dars tizimi garchi 350 yil avval asoslangan bo’lsada, bugungi kunda ham keng ko’lamda qo’llanilib kelinmoqda. Sinf-dars tizimining mazmuni o’quv ishlarini tashkil etish o’ziga xos shakli sifatida, quyidagilarda iborat:bir xil yoshdagi va taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo’lgan talabalar guruhni tashkil etadi. Bu guruh maktabda o’qishning umumiyl davriga asosan doimiy tartibini saqlab qoladi; guruh faoliyati yagona yillik reja va dastur asosida, doimiy dars jadvali bo’ycha tashkil etiladi, buning natijasida bolalar maktabga yilning bir vaqt va oldindan belgilangan kun soatlarida kelishlari kerak bo’ladi.; mashg`ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi; dars odatda bir fan yoki mavzuga bag’ishlangan bo’ladi, shu bois talabalar guruhda bitta material ustida ishlaydilar; darsda talabalarning ishiga o’qituvchi rahbarlik qiladi, u o’z fani bo’ycha o’qish natijalari, har bir talabani alohida bilimini baholaydi va yil oxirida talabani keyingi guruhga o’tishi haqida qaror qabul qiladi. Sinf -dars tizimi K.D.Ushinskiy tomonidan yanada rivojlantiriladi. U bu shaklning hamma ustunliklarini ilmiy asoslab berdi. Dars, ayniqsa, uning tashkiliy qurilishi va tipologiyasining ixcham nazariyasini yaratdi. K.D.Ushinskiy har bir darsning bir-biri bilan ketma-ket bog`langan quyidagi uchta qismini ajratib ko`ratadi:

1) Ilgari o’rganilgan bilimlar asosida yangi bililarni anglashni amalga oshirish va talabalarda materialni jadal qabul qilishga maqsadli ko’rsatmani yaratishga qaratiladi. Darsning bu qismi K.D.Ushinskiyning fikrcha darsga go’yoki “eshik” hisoblanadi.

2) asosiy masalani hal etishga yo’naltiriladi va darsning muhim, markaziy qismi hisobalanadi.

3) amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasash va bilim, ko’nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratiladi.

Darsni tashkil etish ilmiy asoslarini ishlab chiqishga A.Disterveg ham katta hissa qo’shdi. U o’qituvchi va talabaning faoliyatiga taalluqli o’qitish tamoyillari va qoidalari tizimini ishlab chiqdi, talabalarning yoshi imkoniyatlarini hisobga olishni zarurligini asoslab berdi.

Ta’limning guruh-dars tizimi alohida o’quv fanlarini o’qitish metodikasi va didaktikasiga oid asarlarida uning afzallik va kamchiliklarini ko’rsatib berdi. Afzalliklari: yaxlit o’quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli ketishini ta’minlovchi aniq tashkiliy tizim; jarayonlarning oddiy boshqarilishi: muammoning jamoa bo’lib muhokama qilinishi, masalaning echimini birgalikda izlash jarayonida bolalar o’rtasida o’zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati; o’qituvchining talabalar va ularning tarbiyasiga doimiy emosional ta’sir ko’rsatishi; ta’limning emosionalligi (zero, o’qituvchi bir vaqtning o’zida talabalarning katta guruhi bilan ish olib boradi), o’quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini

kiritishuchunsharoitning yaratilishi, bilimsizlikdan bilimlarni o`zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi. Kamchiliklari: tizimning asosan bilimlarni o`rtacha darajada o`zlashtiruvchi talabalar uchun mo`ljallanganligi, bo`sh o`zlashtiruvchi talabalar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o`zlashtiruvchi talabalar qobiliyatlarining rivojlanish sur`atining ortga surilishi; o`qituvchi uchun o`qitish mazmuni va o`qitish sur`atlari hamda metodlari bo`ycha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olishdga qiyinchilikning yuzaga kelishi; katta va kchik yoshli talabalar o`rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida, aqliy rivojlanishida farqi bo`lgan talabalarni o`qitishda individuallashtirishga ahamiyat qaratish masalasi ayniqsa dolzarb xususiyat kasb etdi. Shunga mos ravishda tanlab o`qitishshakli yuzaga keldi (AQShda Batov, Yevropada Maingeyms tizimi). Yevropa va AQShda, XX asr boshida talabalarning individual, faol, mustaqil o`quv ishlarini ta'minlashga qaratilgan ko`plab ta'lim tizimlarining samaradorligi sinab ko`rilgan. 1905 yili Dalton shahrida (Massa Chusets shtati) o`qituvchi Yelena Park Xerst tomonidan birinchi bor qo'llanilgan ta'limning individuallashtirilgan tizimi ular orasida eng radikal hisoblangan. Bu tizim dalton-reja nomi bilan pedagogika va maktab tarixiga kirdi. U ba'zan laboratoriya yoki ustaxonalar tizimi deb ham ataydilar. Bu tizimning mazmuni quyidagilardan iborat: o`quv faoliyatining muvaffaqiyati maktabda ishslash sur`atining har bir talabaning imkoniyatlari, ularning qobiliyatlariga moslashtirilishiga bog`liq: ta'lim faoliyati ustun turadigan o`qishni an'anaviy tashkil etish talabaning mustaqil o`quv faoliyatining markaziy hisoblanishi, o`qituvchi vazifasining faoliyatni odob bilan tashkil etishdan iboratligi, guruh laboratoriylarining ustaxonalar bilan almashtirilishi, darslarning bekor qilinishi, o`qituvchining yangi materialni tushuntirmasligi, talabaning laboratoriya yoki ustaxonalarda o`qituvchidan olingan topshiriq asosida mustaqil shug`ullanishlari va zarur bo`lgan paytda o`qituvchidan yordam so`rashlari. Mazkur tizim bir qator kamchiliklariga ko`ra keskin tanqi dga uchragan. XX asr 20-yillarda maktab ishlari Ilmiy tekshirish instituti ta'limning loyihali tizimini targ`ib qila boshladi. Uni amerikalik U.Kilpatrick ishlab chiqqan. O`qitish bu tizimining mazmuni talabalarning o`zları loyiha ishlari mavzuni tanlab olishlaridan iborat. U mavjud haqiqiy hayot bilan bog`langan bo`lishi va o`quv guruhi ixtisoslashishlariga qarab (yo`nalishlari) ijtimoiy-siyosiy, xo`jalik-ishlab chiqarish yoki madaniy-turmush tomonlarini aks ettirishi kerak bo`lgan. 60-yillarda Tramk rejasi juda mashhur bo`ldi. Uni amerikalik professor pedagog Lyuyd Tramk ishlab chiqqan. O`qitishni tashkil etishning bu shakli katta auditoriyalarda (100-150 odam) mashg`ulotlarni, 10-15 kishilik guruhlarda va talabalarning individual ishlarini birgalikda olib borishni taklif etadi. Turli xildagi texnik vositalardan foydalanib umumiyl

ma’ruzalarni olib borishga o’quv vaqtining 40 % iajratiladi. Kchik guruhlarda mashg’ulotlarga (seminarlar) – 20 % i kabinet va laboratoriyalarda individual mustaqil ishlarni bajarishga 40 % i ajratiladi. 70-yillarda o’qishni tashkil etish noan’anaviy shakllarini izlash davom ettiriladi. Tajriba va sinov mакtablarini izlash birinchi navbatda guruh-dars tizimini modernizasiyalashtirish fikri bilan bog’liq bo’lgan. Izlanishlar asosiy masalasi – o’qishni individuallashtirish edi. Birinchi universitetlar paydo bo’lishi bilan ta’limning ma’ruza-seminar tizimi yuzaga kela boshlaydi. U yaratilgan paytdan beri ular deyarli hech bir katta o’zgarishlarga ega emas. Ma’ruza, seminar, amaliy va laboratoriya ishlari, konsultasiya va tanlagan kasbi bo’ycha amaliyot hozirgacha leksion-seminar tizim sifatida o’qishning asosiy shakllaridan biri bo’lib kelmoqda. Leksion-seminar tizimi o’zining sof ko’rinishida oliy va oliy maktabdan keyingi ta’lim amaliyotida qo’llaniladi.

#### **7.4. Darsda talabalar o’quv faoliyatini tashkil etish zamonaviy shakllarining turlari.**

Turli dars tuzilmalaridan yanada samaraliroq foydalanish yo’llarini izlashda darsda talabalar o’quv faoliyatlarini tashkil etishshakllari alohida ahamiyatga ega bo’lmoqda. Pedagogik adabiyotlar va mакtab amaliyotida asosan uchta shundayshakllari qabul qilingan – ommaviy, guruhli va individual. Ta’limning ommaviy shakli guruhdagi jami talabalarning o’qituvchi rahbarligi ostida birgalikda harakatlarini ko’zda tutadi. Guruhli shaklida esa talabalar 3-6 kishidan iborat guruhlar yoki juftliklarda ish olib boradilar. Guruhlar uchun topshiriqlar bir xil yoki turlcha bo’lishi mumkin. Individual shakli har bir talabaning alohida mustaqil ishlashini ko’zda tutadi. O’qitish frontal shaklida, o’qituvchi bir vazifa ustida ishlayotgan butun guruh o’quv faoliyatini boshqarib boradi. U talabalarning hamkorliklarini ta’minlaydi va hamma uchun bir bo’lgan ish sur’atini belgilaydi. Frontal ishslashning pedagogik samaraliligi ko’p jihatdan o’qituvchining butun guruhni nazorat qila bilishiga va Shu bilan bir vaqtida har bir talabaning ishini ko’zdan qochirmsligiga bog’liq bo’ladi. Agarda o’qituvchi ijodiy jamoali ishslash muhitini yarata olsa, talabalar diqqatini va faolliklarini ta’minlab tura olsa samarasini yana oshadi. Ammo frontal ishslash individual farqlarni hisobga olmaydi, u o’rta talabaga mo’ljallangan. Shuning uchun ba’zi talabalar berilgan ish sur’atidan ortda qoladilar, boshqalari esa zerikib, qiynalib ketadilar.

O’qish guruhli shaklida o’qituvchi guruh talabalari guruhlari o’quv-o’rganish faoliyatlarini boshqaradi. Talabalarni zvenoli, brigadali, birlashtirish-guruhli va differensiyalangan guruhlarga taqsimlash mumkin. O’qish zvenoli shakli talabalar doimiy guruhi o’quv faoliyatini tashkil etishni ko’zda tutadi. Birlashtirish-guruhli shaklida guruhni odatda katta umumiyligi topshiriqni har biri

faqatgina bir qismini bajaradigan guruhlarga ajratishni ko`zda tutadi. Differensiyalashgan-guruhli ta`lim shakli doimiy guruhlar ham, bir xildagi o`quv imkoniyatlariga ega va o`quv ko`nikmalari bir xil darajada shakllangan talabalarni birlashtirishini ko`zda tutadi. Guruhli shakllariga talabalarning juft bo`lib ishlashlarini ham kiritiladi. O`quv guruhlari faoliyatlarini o`qituvchi o`zi bevosita hamda o`z yordamchilari – talabalar fikriga qarab tayinlangan zvenolar va brigadar orqali boshqaradi. Individual ta`limtalabalarining boshqa talabalar bilan bevosita aloqalarini ko`zda tutmaydi. O`z mohiyatiga ko`ra guruh jamoasi yoki muayyan guruhlar bilan ishlashdan tubdan farq qilmasa-da, biroq talaba o`zining shaxsiy imkoniyatlariga muvofiq o`qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni mustaqil bajaradi. Bu maqsad yo`lida maxsus tayyorlangan kartochkalardan foydalanish mumkin. Darsda o`qituvchiining e'tibori bir necha talabaga qaratilsa, bu vaqtida qolgan talabalar mustaqil ishlasalar ta`limning bunday shakli individual-guruhli shakl deb ataladi. Zamonaviy ta`lim amaliyotida ko`proq ikki tashkiliy shakl:: ommaviy va individual shakllardan foydalaniladi. Ayni vaqtida guruhli va juftli o`qishshaklidan amaliyotda ancha keng foydalaniladi. Ta`limning ommaviy shakli ham, guruhli shakli ham jamoaviy hisoblanmasa-da, lekin ayrim pedagoglar ularni ommaviy ta`lim deb ko`rsatishga harakat qiladilar. Jamoaviy ishlash faqatgina differensiyalashgan guruhli ishlar asosidagina tashkil etiladi. O`quv ishlarini tashkil etishning jamoaviy shakli o`qituvchi va talabalarning dinamik yoki o`zgaruvchan tartibli juftliklarida kechayotgan munosabatlaridir. Ta`lim maqsadlari va foydalanshning qulayligi nuqtai nazaridan ta`lim shakllari quyidagcha darajalanadi:: asosiy, qo`shimcha va yordamchi ta`lim.

### **7.5. Dars mashg`uloti- ta`limni tashkil etishning asosiy shakli.**

Dars ta`lim jarayonining yaxlitligi nuqtai nazaridan ta`limning asosiy tashkiliy usuli hisoblanadi. Unda guruh-dars tizimining xususiyatlari aks etadi, unda talabalarni ommaviy qamrab olish, tashkiliy tartib va o`quv ishlarining muntazamligi ta`minlanadi. Dars iqtisodiy jihatdan foydalidir. Talabalar hamda guruh jamoasining individual xususiyatlarini bilishi o`qituvchi uchun har bir talaba faoliyatiga rag`batlantiruvchi ta`sir ko`rsatishga imkon beradi. Dars doirasida ommaviy, guruhli va individual ta`lim shakllarini birlashtirish imkoniyati uning rad etib bo`lmaydigan ustunligi hisoblanadi. Dars bevosita o`qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan talabalar guruhi bilan olib boriladigan ta`lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir talaba xususiyatlarini hisobga olish, barcha talabalarning mashg`ulot jarayonida o`rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatları va ma`naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirishuchun qulay sharoitlarni yaratiladi. Dars ta`limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi o`ziga xos belgilarga ega, chunonchi:

talabalarning doimiy guruhi, talabalar faoliyatiga ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o'rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish (bu belgilari darsning faqat mazmunini emas, balki o'z xususiyatini ham aks ettiradi). Darsning tuzilishi oddiy va ancha murakkab bo'lishi mumkin. Bu o'quv materialining mazmuni, darsning didaktik maqsadi, talabalar va jamoa sifatida guruhning xususiyatlariga bog'liq. Zamonaviy didaktikada dars quyidagi turlari ajratib ko'rsatilgan: aralash darslar; yangi ma'lumotlar, aniq hodisalar bilan tanishish bo'ycha yoki umumlashtirishlarni anglab etish va o'zlashtirish maqsadiga ega darslar; bilimlarini mustahkamlash va takrorlash darslari; o'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish asosiy maqsadiga ega darslar; malaka va ko'nikmalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari; bilimlarni tekshirish va tekshirish ishlarini o'rganish darsi; o'z tuzilishi bo'ycha oddiy bo'lgan, ya'ni bitta asosiy didaktik maqsadga ega bo'lgan dars turlari (o'rta va katta guruhlarda qo'llashuchun mos keladi). Kombinasiyalashgan darsning taxminiy tuzilishi: uy vazifalarini tekshirish va talabalar bilan savol-javob, yangi materialni o'rganish, o'zlashtirishini dastlabki tekshirish, mashq misollari davomida yangi bilimlarini mustahkamlash, ilgari o'rganilganlarni suhbat ko'rinishida takrorlash, talabalar bilimlarini tekshirish va baholash, uyga vazifa berish. Talabalarning yangi materiallar bilan tanishish darsi yoki yangi bilimlarni berish (o'rganish) darsi nisbatan keng doiradagi savollarni o'z chiga olgan va uni o'rganishga ko'p vaqtini talab qiluvchi, talabalarga tanish bo'lman yangi material uning mazmuni bo'lgan ta'lim jarayoni. Bunday darslarda uning mazmuni, aniq maqsadi va talabalarning mustaqil ish bajarishga tayyorgarliklariga qarab, ba'zi hollarda yangi materialni o'zi bayon etadi. Boshqa hollarda esa – o'qituvchi rahbarligi ostida talabalarning mustaqil ishlari olib boriladi, uchinchi holda – unisi ham bunisidan ham foydalilaniladi. Yangi material bilan tanishish darsining tuzilishi: yangi materialni o'rganishuchun asos bo'lgan avvalgi materialni takrorlash. O'qituvchining yangi materialni va darslik bilan ishlashni tushuntirishi, bilimlarni tushunishlarini tekshirish va dastlabki mustahkamlash, uyga vazifa berish. Bilimlarni mustahkamlash darslarida o'quv ishining asosiy mazmuni ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkam o'zlashtirish maqsadida ularni ikkinchi bor tushunib olish hisoblanadi. Talabalar o'z bilimlarini yangi manbalar bo'ycha anglab oladilar va chuqurlashtiradilar yoki ularga ma'lum bo'lgan qoidaga yangi masalalar yechadilar, ilgari olgan bilimlarini og'zaki va yozma takrorlaydilar yoki ilgari o'rganganlarini yanada chuqurroq va mustahkam o'zlashtirish maqsadida ulardan alohida masalalar bo'ycha axborot beradilar. Tuzilishi bo'ycha bunday darslar quyidagi bosqchlardan o'tishni ko'zda tutadi: uy vazifasini tekshirish, og'zaki va yozma mashqlarni bajarish, topshiriqni bajarishni tekshirish, uyga vazifa berish. Ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlashdarslari bilimlarni

mustahkamlash darslari bilan bog`liqdir. Bu jarayon bir necha maxsus darslar jarayonida amalga oshiriladi. Boshqa darslarda yangi mavzularni o`rganishda davom ettiriladi. Shu bilan birga avvaliga mashqni bajarish ishlari bolalar tomonidan o`qituvchi yordamida va ular topshiriqni qanday tushunganlarini daslab jiddiy tekshirish bilan bajarilsa, keyinchalik esa qaerda qanday qoida qo`llanilishini talabalarning o`zları belgilaydilar. Ular turli vaziyatlarda malaka va ko`nikmalarini qo`llash, shu jumladan, hayotiy amaliyotida qo`llashni o`zlashtirib olishlari kerak. Umumlashtiruvchi darslari (bilimlarini umumlashtirish va tizimlashtirishlar) ilgari o`tilgan materialdan eng muhim savollari qayta takrorlanadigan va tizimlashtiriladigan, talabalar bilimlarida mavjud kamchiliklari to`ldiriladigan va o`rganilayotgan kursning muhim g`oyalari ochib beriladigan darslar hisoblanadi. Umumlashtiruvchi darslar mavzu, bo`lim va o`quv kurslarining yakunida o`tkaziladi. Kirish va yakunlash darsning tarkibiy elementi hisoblanadi. Takrorlash va umumlashtirishning o`zi hikoya, qisqacha xabarlar, darslikni o`qib berish yoki o`qituvchining talabalar bilan suhbatlashishi shaklida o`tkazilishi mumkin. Tekshirish (nazorat) darslari o`qituvchiga talabalarning ma`lum sohadagi bilim, malaka va ko`nikmalari shakllanganlik darjasini, o`quv materialini egallashdagi kamchiliklarni aniqlash, shuningdek, navbatdagi topshiriqlarning bajarish yo`llarini belgilab olishga yordam beradi. Tekshirish darslari talabadan ushbu mavzu bo`ycha uning hamma bilim, ko`nikma va malakalarini qo`llashini talab etadi. Tekshirish og`zaki hamda yozma shaklda ham amalga oshirilishi mumkin. Yuqorida ifodalangan hamma darslarning majburiy elementi tashkiliy va yakuniy bosqch hisoblanadi. Tashkiliy bosqch maqsadlarni qo`yish va ularni talabalar tomonidan qabul qilishsharoitlari ta`minlash, ishsharoitini yaratish, o`quv faoliyati motivlarini dolzarblashtirish va materialni idrok etish, anglash, eslab qolish yuzasidan beriladigan ko`rsatmalarni shakllantirishni ko`zda tutadi. Darsga yakun yasash bosqchida maqsadlarga erishish qayd etiladi, ularga erishishda barcha yoki yakka talabalarning alohida ishtiroki belgilanadi, ishlari baholanadi va istiqbollarini belgilanadi. Ta`limning tashkiliy shakli sifatida dars dinamik hodisadir. U pedagogik jarayonning yaxlitligini ta`minlaydi va ta`limiy-tarbiyaviy-rivojlantirish vazifalarini ijobiyl echimini topishga imkon beradi. Dars rivojlanishining asosiy tendensiyalari darsga bo`lgan talablarda o`zining aniq ifodasini topadi. Zamonaviy darslar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:

- fanning ilg`or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o`quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish;
- darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta`minlash;

- talabalarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o`zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- talabalar anglab etadigan fanlararo bog`liqliklarni o`rnatish;
- ilgari o`rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, talabalarning rivojlanish darajasiga tayanish;
- shaxsning har tomonlama rivojlantirishni motivasiyalash va faollashtirish;
- o`quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqchlarining mantiqiyligi va emosionalligi;
- pedagogik vositalardan samarali foydalanish;
- zarur bilim, ko`nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat rasional usullarini shakllantirish;
- mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish;
- har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejulashtirish, tashxis va taxmin qilish.

Har bir dars quyidagi uchta asosiy maqsadga erishishga yo`naltiriladi: o`qitish, tarbiyalash, rivojlantirish. Ana shularni hisobga olib darsga umumiylablar didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablarda aniq ifodalanadi. Didaktik (yoki ta`lim)iy talablarga har bir darsning ta`lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakli, metodlari va ko`rinishlaridan mos ravishda foydalanish, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondoshish, jamoaviy faoliyat usullari bilan birga talabalar mustaqil faoliyatlarini turli shakllaridan birga foydalanish, operativ qayta aloqani ta`minlash, amaliy nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, ilmiy mo`jal va darsni mahorat bilan o`tkazishni ta`minlash kabilar kiradi. Darsga nisbatan qo`yiladigan tarbiyaviy talablar o`quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo`lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo`yish, faqat o`quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, talabalarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mas`uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e`tiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish, talabalarga diqqat-e`tiborli munosabatda bo`lib, pedagogik odob talablariga amal qilish, talabalar bilan hamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo`lishdan iborat. Barcha darslarda doim amalga oshirilib boriladigan rivojlantiruvchi talablarga talabalarda o`quv-o`rganish faoliyati ijobiy sifatlari, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollik shakllantirish hamda rivojlantirish,

talabalarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o`rganish, hisobga olish, “rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish”, “o`zib ketish” darajasidagi o`quv mashg`ulotlarini tashkil etish, rivojlanishidagi yangi o`zgarishlarni rag`batlantirish, talabalarning intellektual, emosional, ijtimoiy rivojlanishlaridagi «sakrash»larni oldindan ko`ra bilish, boshlanayotgan o`zgarishlarni hisobga olish asosida o`quv mashg`ulotlarini operativ qayta qurish kabilar kiradi. Nostandard darslar. XX asr 70-yillari o`rtalarida, milliy maktablarda talabalarning mashg`ulotlarga qiziqishlarining pasayish xavfi aniqlandi. Muammoni bartaraf etish maqsadida nostandard darslarning tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratildi. Nostandard dars an'anaviy tuzilishdagi improvizasion o`quv mashg`ulotidir. Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish nostandard darslarning o`nlab turlari mavjudligini ko`rsatdi. Ular orasida “berilish” darsi, amaliy o`yinlar, matbuot konferensiyalari, ijodiy hisobotlar, musobaqalar, KVN turidagi o`yinlar, tanlov, teatrlashtirilgan darslar, binar, kompyuterli darslar, fantaziyalar, “sudlar”, haqiqatni izlash, “paradokslar”, auksionlar, dialoglar va boshqalar ko`zga tashlanadi.

**O`qituvchining darsga tayyorgarligi.** Darsning samaradorligi uning puxta tayyorlanganligi va samarali tashkil etilganligi bilan bog`liq. Yaxshi rejalshtirilmagan, etarlcha o`ylab chiqilmagan, shoshilinch tuzilgan va talabalar imkoniyatlari moslashtirilmagan dars sifatli bo`la olmaydi. Darsga tayyorgarlik aniq sharoitlarda eng yuqori yakuniy natijaga erishishni ta`minlovchi o`quv tarbiyaviy jarayonni tashkil etilishini ta`minlash, kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishdir. O`qituvchining darsga tayyorgarligida quyidagi uchta bosqch ko`zga tashlanadi: tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish (rejalshtirish). Shu bilan birga o`qituvchi amaliy materiallarni yaxshi bilishi, o`z fanini erkin olib borishga erishishi lozim. Darsga tayyorgarlik asosini bo`lajak mashg`ultning algoritmlari, samaradorligi bog`liq bo`lgan omillar va holatlarni hisobga olishni ta`minlovchi qadamlarni ketma-ket tartib bilan bajarish tashkil etadi. Algoritmni amalgalash oshirish aniq sharoitlarni diagnostika qilish bilan boshlanadi. Tashxis didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir. Unda talabalarning imkoniyatlari, ularning faoliyatları va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatları, bilimdonlik darajasi, o`quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, dars tuzilishi, yangi axborotni o`zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirish, bilim, ko`nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo`ladi. Bashoratlash bo`lajak darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma`qulini tanlab olish. Loyihalashtirish (rejalshtirish) talabalarning o`quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo`lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqchi hisoblanadi. Loyiha (boshqarish dasturi) qisqa va aniq, erkin tuzilgan, pedagog o`zi uchun boshqarish jarayoni muhim vaziyatlari (kimdan va

qachon so'rash, qaerda mavzuni kiritish, mashg'ulot keyingi bosqchiga qanday o'tish, oldindan ko'zda tutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelganida jarayonni qaysi sxema bo'ycha qayta o'zgartirish)ni belgilab olishga imkon beruvchi hujjatdir. Boshqarish dasturi darsning an'anaviy rejasidan boshqarish ta'sir ko'rsatishlarini aniq va tushunarli belgilab olish bilan farq qiladi.Ta'limning yordamchi shakllari.Ta'limning yordamchi shakllari: to'garak, praktikum, seminar, konferensiya, maslahat (konsultasiya), fakultativ mashg'ulot, o'quv ekskursiyalari, talabalarning mustaqil uy ishlari va boshqalar sanaladi. Talabalarning mustaqil uy ishlari ma'lum didaktik vazifalarni bajaradi. Chunonchi, darsda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, guruhda ishlab chiqilgan o'quv materialini kengaytirish va chuqurlashtirish, mashqlarni mustaqil bajarish ko'nikmalarini shakllantirish, dasturli material doirasiga kiruvchi hajmda individual topshiriqlarni bajarish asosida mustaqil fikrlashini rivojlantirish, individual kuzatishlar, tajribalar, gerbariy, tabiiy namunalar, otkritkalar, rasmlar, gazeta va jurnal lavhalari statistik ma'lumotlar kabi o'quv qo'llanmalarini toplash va tayyorlash va boshqalar. Darslarda pedagogning talabalar tomonidan uy vazifalarining halol bajarishlariga kam e'tibor berayotganliklari, ularni guruhda tekshirishga uninmasliklari, yaxshi o'zlashtirayotgan talabalarni rag'batlantirib bormasliklari ta'lim amaliyotda keng tarqalgan kamchilik hisoblanadi. Uy vazifalarini tushuntirib berishga ko'pincha vaqt etmaydi, ular shoshilinch beriladi. Pedagoglar kamdan-kam hollarda, talabalar uy vazifasini bajarayotganda duch keladigan qiyinchiliklarini ko'rsatib beradilar, ularni bartaraf etish yo'lini esa ko'rsatmaydilar. Natijasida mustaqil uy vazifalarining bajarilishi samarasiz bo'lib qoldi. Fan to'garaklari yo'nalishi, mazmuni, ish metodi, o'qish vaqt va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Ular talabalarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.. To'garaklar o'qishni hayot bilan aloqasini kuchaytiradi, fanlararo bog'liqlikni rivojlantiradi. Fan to'garaklarida talabalarning ishlari o'quv jarayonini faollashtiradi, o'qish sifatini oshirishga yordam beradi.Ta'limning yordamchi shakllariga ekskursiyalarham kiradi. Ular ommaviy, guruhli va kchik guruhi bo'lishi mumkin. O'quv ekskursiyalari alohida fanlar hamda bir qancha fanlar bo'ycha ham rejalashtiriladi. Ekskursiyani muvaffaqiyatli o'tkazishuchun o'qituvchi unga puxta tayyorlanishi: ob'ekt va mashrut bilan oldindan tanishib chiqishi, to'la rejani ishlab chiqishi, talabalarni bo'lajak topshiriqlarni bajarishga jalb eta olishi kerak. Ekskursiya rejasida mavzu va maqsad, ob'ekt, u bilan tanishish tartibi, talabalar idrok etish faoliyatlarini tashkil etish, topshiriqni bajarishuchun zarur bo'lgan vositalar va uskunalar, yakun yasash ko'rsatiladi. Ekskursiyani o'tkazish metodikasi mavzu, didaktik maqsad, talabalarning yoshi, ularning rivojlanishi hamda ekskursiya ob'ektiga bog'liq bo'ladi.Maslahat

(konsultasiya - o'quv suhbati)ga talablar ko'pincha talabalarning ma'lum o'quv materiali yoki topshirig'i ustida mustaqil ishlashi sababli yuzaga keladi. Bunda ko'proq talaba savol beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultasiya talabalarga o'quv materialini egallahsha qiyinchiliklarni engishga yordam beradi. Konsultasiya davomida o'qituvchi talabalar faoliyatini u yoki bu masalani to'g'ri tushunishga mustaqil keladigan, ular uchun qiyin topshiriqni tushunib oladigan qilib, o'r ganilayotgan materialni mohiyatini ochishga o'r ganadigan qilib yo'naltiradi. Konsultasiya o'qituvchiga talabalar bilimlaridagi kamchiliklarni aniqlash, alohida e'tibor berishni talab etuvchi vaziyatlarga ularning diqqatini jalg etishga imkon beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultasiya talabalarda o'zini nazorat qilish, bilimlarga tanqidiy ko'z bilan qarashni tarbiyalaydi. O'qimishlilik darajasini to'g'ri aniqlashga yordam beradi. Mashur mutaffakir Suqrot so'z ustasi sifatida mashhurdir. Tinglovchilar, talabalarga mutaffakir olim ma'ruzasini maroqli o'qib o'z tinglovchilarini ma'ruzasini tushunganlik darajasini aniqlash maqsadida puxta va ko'p mantiqli savollar berib mushohada qilar edi. Buyuk mutaffakir rahbarligida ko'p bilim sirlarini o'z shogirdlarini ta'lim usullarini o'zlashtirish borasida izlanishlar olib borib talabalar hurmatini qozondi. Suqrotning ma'nolarni anglash borasida Muhokama – usulidan ko'proq foydalanadi. Suqrotning so'rov usulidan maqsadi, talabalarni ko'proq fikrlashga o'rgatadi, tushunishga undaydi, talaba tushunib yetishi uchun oddiy yo'llarini tanlaydi. Savollarni teran tuzadi. Talabalardan kutilgan natija olmasa u bilimlar qayta oddiy usullarda o'tilib o'zlashtirilardi. Kutiladigan natijaga qarab, o'qituvchi talabani tushungunigacha savollar tayyorlana veradi. Suqrotning bu metodi talabalarni fikrlash va tafakkurini oshirishga qaratilgan. Bu metodlarvaqt sinovidan o'tgan samara beruvchi usullardandir. Suqrotning savollarni tuzish usuli talabalarni bilim olishlariga samarali hisoblanadi, lekin bu usul ko'pincha yangi tushunchalarni o'zlashtirishga qaratilgan Soptent usuliga asoslangan. Falsafa guruhida shaxsiy tajriba sifatida bulishi ham mumkin. Tarix guruhida esa anglash mumkin ma'lum bir voqeani fan qilish maqsadida ham bo'lishi mumkin. Suqrotning bu usullari shakli mazmuniga ko'ra so'rov strategiyasidan foydalanish oldin bo'lishi ham mumkin. Suqrotning bu usulidan auditoriyada talabalarni faoliyati bilan bog'lab kundalik mushohada yuritishda ham foydalanish mumkin. Masalan: Matematika fani o'qituvchisi oxirgi tushunchani yechish jarayonida to'g'ri javob berishadi. Talabalar matematik masalalarni yechishda savol so'rsalar, ularga to'g'ri javob berish o'qituvchining funksiyasiga kiradi. Matematika o'qituvchisining bunday yondaShuvi talabalarning bilim darajasini aniqlashga va ularning sekin asta yangi tushunchalarni tushunib olishga undaydi. Bunda o'qituvchi talabasini qayerda bilimi sayozligini bilishga yordam beradi va muhim savollarni berish orqali, o'z talabalarini fandagi bilimlariga moslashtirib borishga yordam beradi. Talaba o'z tengqurlaridan orqada

qolda u talaba bilan individual shug'ullanishi unga oddiy usullar bilan tushuntirishi qoloq talabaning mustaqil fikrlash orqali bilimga undaydi. Suqrotning usullari rangbarangligi bilan ajralib turadi, bir biri bilan farqli ravishda ajralib turadi. Bu esa talabaning faoliyati davomida savol bersa uning savoliga savol orqali javob beriladi. Javobga yaqin savol berib talabani tushunchasini orttiriladi. Oldin o'rgatilgan bilimlarga hayot tajribasidan kelib chiqib tushunchalarga urg'u beriladi va shunga asoslanib talaba javobni o'zi yechishga erishadi. Suqrotning seminar darslarida guruhda "Baliq ko'zasi" usuliga qatnaShuvchi talabalar o'qituvchi tomonidan o'rta ga tashlangan savol bo'yicha o'zaro g'oyalar, muzaokaralar va tortiShuvar olib borishadi. Suqrotning bu seminar darsida 4-5 talaba o'rta ga o'tiradi, qolgan talabalar ularni aylana shaklida o'rab turushadi. Hech kim o'tirmagan qo'shimcha joy o'rtada bo'sh bo'lishi kerak. Markazdagi o'rindiqlardagi talabalar o'qituvchi berga Suqrot savollariga talabalar chalkashib ketmasligi uchun o'qituvchi talabalarni muzokaralarga to'g'ri yo'naliш berib turadi. Suqrotning bu seminar usulida faqat markazdagi talaba gapirishga haqli, qolgan o'rab turgan talabalar muzokarani qayd qilib borishadi. Agar talaba izox bersa yoki muzokarani davom ettirmoqchi bo'lsa u markazdagi bo'sh o'rini egallashi kerak bo'ladi va o'z fikrini bildiradi. «Ta'lim metodlari dastlab pedagog ongida, muayyan yo'naliшdagi faoliyatning umumlashma loyihasi tarzida namoyon bo'ladi. Mazkur loyiha amaliyatga o'qituvchi va talabalar faoliyatining o'zaro tutashuvi, o'qitish va o'qishga qaratilgan aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metod boshqa shakllarda namoyon bo'lmaydi, buning boisi ta'lim metodi o'zida, umumiш holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi». Tabiiyki, umumiш holda erishilgan natija har doim ham o'qituvchining dars boshida belgilagan maqsadiga mos kelavermaydi. Ta'lim maqsadi o'qituvchi va talabalar faoliyati asosida, shuningdek, ta'lim vositalari yordamida natijalanadi, ushbu jarayonda aniq maqsadga yo'naltirilgan mexanizm ishga tushadi. Ta'lim tizimlari maqsadga erishish jarayonida bosh xalqa aynan qanday va qaysi mexanizm asosida hamda mavjud tarkibiy unsurlarni qanday ishga solish mumkinligini ifodalashga xizmat qiladi. «Ta'lim metodi» atamasi bilan birga ko'p hollarda «metodik usul» (sinonimlari – pedagogik usul, didaktik usul) tushunchasi ham qo'llaniladi. U ta'lim metodining tarkibiy qismi, uning muhim unsuri, metodni joriy qilishdagi alohida qadam sifatida ta'riflanadi. Har bir ta'lim metodi muayyan ta'lim usullarini chog'ishtirish orqali joriy etiladi. Metodik usullarni xilma-xilligi ularni tasniflashga imkon bermaydi, biroq o'qituvchi faoliyatida tez-tez qo'llaniladigan usullarni ajratib ko'rsatishmumkin: Har bir metod ma'lum ta'limiy vazifani muvaffaqiyatli hal etish, qolganlari esa birmuncha samarasiz bo'lishi mumkin. Universal ta'lim metodlari mavjud emas, shu bois

darsda turli ta’lim metodlaridan yoki ularning majmuasidan foydalanish mumkin. Ta’lim metodlarini tanlash quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

- didaktik maqsad asosida;
- ta’lim mazmuni asosida;
- talabalarning o’quv ko’nikmalarini egallash va rivojlanish darajasi asosida;
- o’qituvchining tajribasi va kasbiy tayyorgarlik darajasi asosida.

O’qituvchi tomonidan qo’llanilayotgan ta’lim metodlari majmuasi boshlang’ch guruhlardan yuqori guruhlarga o’tish asosida o’zgarib hamda murakkab xususiyat kasb eta boradi. Ushbu jarayonda ayrim metodlarni qo’llash chastotasi oshsa, ayrim metodlarni qo’llashga bo’lgan ehtiyoj kamayadi. Ta’lim metodlaridan foydalanish ko’lami, holati o’qituvchining kasbiy tayyorgarligi va mahorati darajasiga bog’liq holda o’zgaradi. Didaktikada munozaralarga sabab bo’layotgan yana bir muhim ob’ekt ta’lim metodlarining tasnifidir. «Ta’lim metodlari tasnifi ularning ma’lum belgilari bo’ycha tartibini ifodalovchi tizimdir. Hozirgi vaqtida o’nlab ta’lim metodlari ma’lum», - ekanligini ta’kidlagan holda I.P.Podlsiy fikrini quyidagcha davom ettiradi, - «Biroq bugungi kunda etakchi sanaluvchi didaktik g’oya yagona va o’zgarmas metodlar majmuini yaratishga intilish samarasiz ekanligini tushunishga yordam beradi. O’qitish – favqulodda harakatchan, dialektik jarayon. Metodlar tizimi ham bu harakatlanishni aks ettiradigan darajada jo’shqin bo’lishi, metodlarni qo’llash amaliyotidagi doimiy o’zgarishlarni hisobga olishi kerak»<sup>1</sup>. Ta’lim metodlarini tanlash muammozi uzoq davrdan buyon tadqiq qilib kelinmoqda. Biroq tadqiqotlar soni ko’p bo’lsada, bu borada yagona to’xtamgan kelinmagan. Ushbu o’rinda, ta’lim amaliyotida qo’llanilib kelayotgan metodlar tizimi (tasnifi)ga to’xtalib o’tamiz. Mualliflar tavsiya etilayotgan metodlarni quyidagi chizma bo’ycha qo’llash maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydilar:

1. Materialni og’zaki bayon qilish (hikoya, tushuntirish, mакtab ma’ruzasi). Talabalar tomonidan bilimlarni o’zlashtirish o’qituvchining tushuntirishini faol qabul qilish va puxta o’ylash evaziga amalga oshiriladi. Bilimlarni uzatish vositasi sifatida o’qituvchi nutqi muhim ahamiyatga ega. Bu o’rinda o’qituvchining talabalar faoliyatiga rahbarligi mavzuni qo’yish, rejani e’lon qilish, talabalar faoliyatini boshqarishdan iborat bo’ladi.

2. Suhbat. Talabalar tomonidan bilimlarni o’zlashtirish jarayoni: ular e’tiboriga havola etilayotgan savolning mohiyatini anglash, mavjud bilimlar va tajribani safarbar qilish, savolga oid ob’ektlarni o’zaro taqqoslash, puxta o’ylash va savollarga to’g’ri javob tayyorlashdan iborat.O’qituvchining rahbarligi: mavzuni

---

<sup>1</sup>Подласый И.П. Педагогика, Кн. 1. – Москва, ВЛАДОС, 1999. – с. 475-476.

qo'yish, savollarni ifodalash, berilgan javoblarni tuzatish, to'ldirish va umumlashtirish kabi holatlarda namoyon bo'ladi. Suhbat metodi yordamida bilimlarni o'zlashtirishda talabalar mavjud bilimlari va tajribalariga tayanadilar.

3.Darslik (umuman, kitob) bilan ishslash (umumlashma va xulosalarni anglash, ularni xotirada saqlashga xizmat qiladi). Bilimlarni o'zlashtirish manbai bo'lib bosma matn xizmai qiladi. O'qituvchining rahbarligi esa topshiriqni ifodalash, faoliyat maqsadini belgilash, talabalarga darslik bilan ishslashning yangi usullarini o'rgatish, o'zlashtirilgan bilimlarning tushunilish va mustahkamlik darajasini tekshirish kabi ko`rinishlarda aks etadi.

4.O'qituvchilarning kuzatuvi (guruhdan va guruhdan tashqari (shu jumladan, sayohat va ekskursiyalar) jarayonlarda). Talabalarning o'quv predmetlari bo'ycha o'zlashtirish holati va hodisalarni kuzata borib, turli fan o'qituvchilarining ko'rsatmalari bo'ycha ularni qismlarga taqsimlab har bir talabaning o'ziga xos, o'xhash va muhim jihatlarini aniqlashga yo'naltiriladi. Bilimlarni o'zlashtirish manbai bo'lib muayyan predmet (yoki jarayon), tajriba, model, xaritalar xizmat qiladi. O'qituvchining rahbarligi kuzatish vazifasini belgilash, uni ma'lum shaxs zimmasiga yuklash, ob'ektni belgilash, umumiylah barlikni olib borish, qismlarga ajratish, asosiyalarini aniqlash va umumlashtirishdan iboratdir.

5.Laboratoriya ishlari. Mazkur jarayonda aniq vazifa, ya'ni, ma'lum sharoitda muayyan hodisalarni kuzatish yuklanadi. Talabalar hodisalarni kechish jarayonini kuzatadilar va tahlil qiladilar. Bilimlar manbai kuzatilayotgan hodisalar va ularning kechish jarayonidir. O'qituvchi vazifa mohiyatini ifodalaydi, talabalarni nazariy bilimlar bilan qurollantiradi, umumiylah jarayon va bosqchlarni kuzatish yo'llari hamda yakuniy xulosa chiqarishni o'rgatadi.

6. Mashq (aqliy va faoliyatli mashqlar). Talabalar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish jarayonining o'ziga xosligi, nazariy asoslar o'zlashtirilgach, ayrim materiallardagi o'xhash harakatlarning ko'p bora takrorlanishi kuzatiladi. Bilimlar manbai: o'zlashtirilgan bilimlar va xususiy tajriba sanaladi. O'qituvchi mashqni bajarishchun joy hamda vaqt ni belgilaydi, topshiriqni ifodalaydi, uni bajarish bosqchlarning borishini nazorat qiladi, boshqaradi, shuningdek, yakuniy natijalarni tekshiradi.

7. Ijodiy mashq. Ushbu metod o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, o'ziga xoslik masalaning mohiyatini Chuqur anglash, uni bajarishga nisbatan mustaqil yondashish, dalillarni saralash va o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni ijodiy bajarish jarayonida bilimlarni qo'llash va kengaytirish kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bilimlar manbai va materiali sifatida avval egallangan ijodiy ishlari tajribasi, mavjud bilimlar, kuzatuvlar, shaxsiy tajriba, o'qilgan hikoya, ijtimoiy-foydali ishlarni boshqarish kabilalar qayd etiladi. O'qituvchining rahbarligi: nazariy materiallarni o'zlashtirilishini ta'minlash, mavzuni ifodalash, ijodiy ishlari

xarakterini belgilash, ularning bajarilishini nazorat va tahlil qilish, sintezlash, xatoni ko`rsatish hamda to`g`rilashdan kabi holatlarda namoyon bo`ladi<sup>1</sup>. Keltirilgan tasnif «bilimlar manbai» bo`ycha tizimlashtirilgan metodlar – og`zaki, ko`rgazmali va amaliy metodlarni u yoki bu darajada o`zida mujassamlashtiradi.

Ushbu metodlar, mualliflarning ta'kidlashlarcha, bir-biridan talabalarning ta'lismazmuni turlarini o`zlashtirishda amalga oshadigan bilish faoliyatları xarakteri va talabalarning xilma-xil faoliyatlarını tashkil etuvchi o`qituvchi holati ... bo`ycha farqlanadi<sup>1</sup>. Izohli-tasvirli ta'lismetodlari (boshqa nomlanishi axborotli-repsepsiya)ning mohiyati: odatda nazariy bilimlar tayyor holda uzatiladi, talabalar esa ularni qabul qiladilar (repsepsiya). Bu yo`lda turli ta'lismositalari (shu jumladan, ko`rgazmali vositalar)dan foydalaniladi. O`zlashtirilgan bilimlarning mustahkam bo`lishiga ularni ko`a marta takrorlash evaziga erishiladi. Mazkur metod ta'limga barcha bosqchlari, asosan, boshlang`ch guruhlarda o`qish va yozish, arifmetik harakatlarni amalga oshirish ko`nikmalarini o`zlashtirishda muhim o`rin tutadi. O`qituvchi bilimlarning bir qismini talabalarga ma'lum qiladi, qolganini esa talabalar bilish topshiriqlarini echish jarayonida savollarga javoblar topish asosida o`zlashtiradi, o`zlarini bilimlarni mustaqil egallashadi. O`qituvchi tomonidan qo`yilgan masalani bir necha qarashlarga ajratilishi, ularni bajarishda talabalarning ketma-ketlikka rivoja etishlari muhim metodik jihat sanaladi. Shu bois mazkur metod qisman izlanuvchan metod ham deb ataladi. Muammoli ta'lismositasining asosiy tushunchalari «muammoli vaziyat», «muammo», «muammoni topish» kabilar hisoblanadi. Chizmadan anglanadiki, muammoli vaziyat bu metodning dastlabki ko`rinishi hisoblanib, o`zida sub`ektning aniq yoki qisman tushunib etilgan muammoni ifodalaydi, uni bartaraf etish yangi bilimlar, usullar va harakat ko`nikmalarini o`zlashtirishni taqozo etadi. Agar talabada qiyinchiliklarni yo`qotish yo`llarini izlab topishuchun boshlang`ch ma'lumotlar bo`lmasa, shubhasiz, muammoli vaziyat echimini u qabul qilmaydi, ya`ni, muammoning echimi uning ongida aks etmaydi. Fikrlash muammo mohiyatini tushunib etilishi, ifodalanishi, mavjud bilim va ko`nikmalar majmuasi va izlanish tajribasi asosida muammoli vaziyatni qabul qilish bilanoq boshlanadi. Bu holda muammoli vaziyat muammoga aylanadi. Har bir muammo muammoli vaziyatni o`zida namoyon etadi, biroq, barcha muammoli vaziyat muammoga aylanavermaydi. Mazkur metoddan foydalanish jarayonida muammo echimini topishga yordam beruvchi yo`nalishlar ko`rsatilmaydi va chegaralanmaydi. Bu xususiyat muammoli masalaga xosdir. Muammoda echimning qandaydir parametrlari ko`rsatilsa, u muammoli masala hisoblanadi.

<sup>1</sup> Данилов М.А., Есипов Б.П. Дидактика. – Москва, Изд-во АПН РСФСР, 1957.

<sup>1</sup> Дидактика средней школы //Под ред. М.Н. Скаткина. – Москва, Просвещение, 1982. – с. 207.

Har qanday muammoli topshiriq ma'lum muammoni, demak, muammoli vaziyatni ham qamrab oladi. Biroq, yuqorida ta'kidlanganidek, barcha muammoli vaziyat muammo bo`la olmaydi. Inson har doim muammoli masalalarni hal etadi. Agar uning oldida muammo paydo bo`lsa, uni muammoli masalaga aylantiradi, ya`ni, uning echimi uchun o`zidagi bilimlar tizimiga tayanadi va ma'lum ko`rsatishlarni belgilab oladi. Muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda u boshqa ko`rsatkchlarni qidiradi va shu muammo bo`ycha yangi variantlardagi masalalarni loyihalaydi. Ta'lim jarayonida muammoli metodni qo'llashda Tadqiqotchilik o`qitish metodini qo'llashda, o`qituvchi talabalar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo`lgan masalani aniqlab oladi, talabalar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o`zlashtirib oladilar va uning echimi bo`ycha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi. O`rnatalgan masalani yechish davomida talabalar ilmiy bilish metodlarini o`zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko`nikmasi, tajribasini egallaydilar. Evristik va tadqiqotchilik metodlari talabalardan ijodiy xususiyat kasb etuvchi yuqori darajadagi bilish faoliyatini tashkil eta olish ko`nikma va malakalariga ega bo`lishni taqozo etadi. Buning natijasida talabalar mustaqil ravishda yangi bilimlarni o`zlashtira oladilar. Ular odatda yuqori guruh talabalarining o`zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda ma'lum holatlarda qo'llaniladi. Ushbu metodlardan boshlang`ch guruhlarda foydalanish amaliyotchi-o`qituvchilarning fikrlariga ko`ra bir muncha murakkab hisoblanadi. Biroq uzluksiz ta'lim tizimiga Shaxsga yo`naltirilgan ta'limni faol joriy etishga yo`naltirilgan ijtimoiy harakat amalga oshirilayotgan mavjud sharoitda ushbu yo`nalishdagi loyihalarni tayyorlash o`ziga xos dolzarb ahamiyatga ega bo`lib bormoqda. Shunga qaramasdan bu tasnif maktab amaliyotida birmuncha keng tarqalgan va pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan. Shuningdek, buyuk didakt I.Ya.Lerner asarlari asosida ilmiy tadqiqot<sup>1</sup> ham amalga oshirilgan. Didaktikada ta'lim metodlarining binar (ikki)li va ko`pbinarli omil asosida tizimlashtirishga bo`lgan urinishlarni ham kuzatish mumkin. huningdek, V.F.Palamarchuk va V.I.Palamarchuklar ta'lim metodlarining uch o`lchovli modelini taklif qilishgan. Unda bilimlar manbai, talabalarning bilish faolligi va mustaqillik darjasini hamda o`quv-bilishning mantiqiy yo`li yaxlit tarzda chog`ishtiriladi.

S.G.Shopavlenko ta'lim metodlari tasnifini to`rt belgi asosida asoslovchi quyidagi tetroeddir yondaShuvni taklif etadi:

- 1) mantiqiy-mazmunli;
- 2) manbali;
- 3) mazmunli;

<sup>1</sup> Меретукова В.Р. Инновационные идеи в дидактических трудах И.Я.Лернера. Дисс. ... канд.пед.наук (13.00.01). – Москва, 2003.

4) tashkiliy boshqaruvchi.

I.P.Podlaso'y birmuncha keng tarqalgan ta'lim metodlari tasnifiga yaqinlashar ekan, quyidagi fikrni ta'kidlaydi: «Boshqa bir qator ta'lim metodlari tasnifi ham mavjud. Ta'lim metodlari turli shakllar hamda xilma-xil ta'lim vositalari yordamida joriy etiladi. Ta'lim shakllari ta'lim jarayonining tashkiliytuzilmaviy ko'rinishidir. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida quyidagi ta'lim shakllaridan samarali foydalanib kelinmoqda: ma'ruza, seminar, amaliy mushg'ulot, uchrashuv, taqdimot, sayohat, o'quv konferensiyasi va boshqalar. Ta'lim jarayonida ta'limning samaradorligini ta'minlovchi muhim elementlardan biri sifatida ta'lim vositalari e'tirof etiladi. Ta'lim vositalari sirasiga quyidagilar kiradi: texnik hamda axborot qurilmalari (dioproektor, kinedoskop, uskunalar, radio, televidenie, kompyuter, audio hamda video magnitafonlar), laboratoriya jihozlari (kolbalar, probirkalar, kimyoviy reaktivlar, mikroskop), xarita, maketalar, diagrammalar, plakatlar, rasmlar, chizmalar va hokazolardan foydalaniladi.

N.S.Sayidahmedov tomonidan asoslangan ta'lim metodlari tasnifi asosida didaktik jarayon nazariyasi yotadi<sup>2</sup>. Ma'lumki, didaktik jarayon har qanday pedagogik texnologiyaning asosi sifatida o'zida quyidagi uchta komponentni mujassamlashtiradi:

- 1) motivation bosqch;
- 2) o'quv faoliyati;
- 3) boshqaruv.

Demak, didaktik jarayon tuzilmasiga mos holda ta'lim metodlarini quyidagi uch guruhg'a ajratish mumkin:

- I. O'qish va mehnatga rag`batlantiruvchi hamda motivlashtirish metodlari.
- II. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari.
- III. O'quv-bilish faoliyatini boshqarish metodlari.

Shunday qilib, taqdim etilayotgan ta'lim metodlari tizimi nazariy-amaliy jihatdan asoslangan va mazkur tizim yaxlit o'quv-tarbiya jarayonini qamrab oladi. Ushbu tizim bir qarashda akademik Yu.K.Babanskiy tomonidan asoslangan ta'lim metodlari tizimiga o'xshash. Biroq, Yu.K.Babanskiy tasnifiga ko'ra ta'lim jarayoniga nisbatan kibernetik yondashuv maqsadga muvofiq, unga ko'ra har qanday murakkab faoliyat, shu jumladan, ta'limiy faoliyat ham quyidagi uchta tarkibiy qismdan iboratdir:

- 1) tashkiliy;
- 2) rag`batlantiruvchi;
- 3) nazorat.

Ana Shu asosida ta'lim metodlari quyidagcha guruhanadi:

---

<sup>2</sup>Сайидахмедов Н.С. Метод обучения и коллектив механизированному труду в хлопководстве. – Тошкент, Ўқитувчи, 1991. – с. 112.

1. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va bajarish metodlari.
2. O'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirish va motivlash metodlari.
3. Nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlari.

Didaktik jarayon nazariyasi asosida ko`rilgan o`qish metodlarining tasnifi kchik guruhlar tarkibi, soni va unga kiritilgan metodlar nomenklaturasi hamda funksiyalari bilan kibernetik yondashuvli tizimdan tubdan farqlanadi va o'quvtarbiya jarayonining metodik jihatdan birmuncha yuqori darajasini ta'minlaydi<sup>1</sup>.

### **7.6. Ta'lif metodlarining mohiyati va mazmuni.**

Qayd etib o'tilganidek, ta'lif metodlari tizimida og'zaki bayon qilish metodlari muhim o'rinni tutadi.

**Og'zaki** mashqlardan ta'lif jarayonida keng foydalilanadi. Ular talabalarning umumiyligi madaniyati, mantiqiy fikrlashi hamda bilish qobiliyatini rivojlantirish bilan bog'liqidir. Shuningdek, og'zaki mashqlarning nutq boyligini oshirish va xorijiy tillarni o'rganishdagi ahamiyati beqiyos.

**Hikoya**– o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi. Metodning samarasini ko'p jihatdan o'qituvchining nuqt mahorati, so'zlarni o'z o'rnida, ifodali bayon qilishi, shuningdek, talabalarning yoshi, rivojlanish darajasini inobatga olgan holda yondashuviga bog'liq. Shu bois hikoya mazmuni talabalarning mavjud bilimlariga tayanishi, ularni kengaytirishga xizmat qilishi zarur. Hikoyaning axborotlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir. Hikoya qilinayotgan materialni samaralash maxsus reja asosida amalga oshiriladi. O'qituvchi har bir darsda uning maqsadini aniq belgilab oladi, undagi asosiy tushunchalarga alohida urg'u berishga e'tiborni qaratadi. Hikoya hisha (5-10 daqiqa), shu bilan birga talabalarda his-hayajon va mavzuga nisbatan qiziqishni uyg'otishi kerak. Bu holat hikoyani boshqa ta'lif metodlari (xususan, namoyish yoki muammoli bayon etish va hokazolar) bilan birga solishtirganda ro'y berishi mumkin.

**Suhbat**– savol va javob shaklidagi dialogik ta'lif metodi bo'lib, u fanga qadimdan ma'lum, xatto undan o'z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan. Suhbat ta'lif jarayonida ko'p funksiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiysi talabada faollikni yuzaga keltiradi. Suhbat o'qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqchma-bosqch egallashga imkon beradi. Suhbat – faoliyatni endigina boshlagan o'qituvchi uchun murakkab ta'lif metodi hisoblanadi, binobarin, savollarni tayyorlash, ularning ketma-ketligini

---

<sup>1</sup> Сайдахмедов Н.С. Система методов обучения учащихся механизированному труду в хлопководстве. Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Москва, 1983, - с. 18.

ta'minlash ko'p vaqt talab etadi, uni tashkil etishda esa barcha talabalarning diqqatini jalg etish talab qilinadi. O'qituvchi oddiy savollar berishi, talabalarga ular yuzasidan bat afsil o'ylashchun vaqt ajratishi, talabalarning javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, zarur o'rnlarda ularni sharhlashi lozim. Shu bois suhbatda bilish deduktiv yoki induktiv yo'l bilan amalga oshadi. Deduktiv suhbat talabalarga oldindan ma'lum bo'lgan qoidalar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, talabalar tahlil yordamida xususiy xulosalarga keladilar. Suhbatning induktiv shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlil asosida umumiyl xulosaga kelinadi. Suhbat ko'proq talabalarni yangi bilimlar bilan tanishtirish, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash, nazoratni tashkil etish hamda o'zlashtirilgan bilimlarni tashxislashda ijobjiy natijalarni beradi. Suhbat turli ko'rinishlarda, ya'ni, kirish, yakuniy, individual va guruhli suhbat tarzida tashkil etiladi. Kategorizm (qisqa bayonli) suhbat – talabalarning boshlang'ch bilim darajasi hamda ularning yangi o'quv metodikasini o'zlashtirishga tayyorlarligini aniqlashchun tajribali o'qituvchilar tomonidan dars avvalida yohud o'rganilgan materialni mustahkamlashchun dars so'nggida qo'llaniladi. Evristik suhbat yangi bilimlarni muammoli tarzda egallashga yo'naltiriladi. Bunda savollar shunday ketma-ketlikda berilishi zarurki, natijada ularga «ha» yoki «yo'q» tarzidagi javoblarni olish emas, aksincha, talabalarni mustaqil fikrlash, ularda faollikning yuzaga kelishini ta'minlash, ularni tahlil qilishga undash, dalillarni ilgari surishga erishish imkoniyati yaratilsin. Evristik suhbat jarayonida talabalar bilimlarni o'zlarining tirishqoqliklari va mustaqil fikr yuritish layoqatiga egaliklari bois o'zlashtira olsinlar.

**Tushuntirish** o'quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo'llaniladi. Undan odatda, nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o'rganishda foydalaniladi. Tushuntirish jarayonida o'quv materialining bir qadar qiyin unsurlari ko'zga tashlanadi va shu asosda materialning mohiyati ochib beriladi. Tushuntirish samarasi ko'p hollarda o'qituvchining ko'rgazmali vositalardan oqilona foydalanishiga bog'liq bo'ladi.

**Ma'ruza** – yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish metodi sanalib, uning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: qat'iy mantiqiy ketma-ketlik, uzatilayotgan axborotlarning ko'pligi, bilimlar bayonining tizimliligi. Ma'ruza mazmunini murakkab tizimlar, hodisalar, ob'ektlar, jarayonlar, ularning sababli-oqibatli bog'lanishlari, qonun va qoidalar tashkil etadi. Shu bois ma'ruza maktab sharoitida yuqori guruhlardagina qo'llaniladi. Chunki u butun dars jarayonini qamrab olishi mumkin. Ma'ruza metodi tushuntirish va suhbatning asta-sekin kengayib borishidan vujudga keladi va bir vaqida talabalarni qisqacha yozib olish (konspektlash)ga o'rgata boradi. Ushbu

metodlardan foydalanish zaruriyati ko`rsatmalilik tamoyiliga amal qilish maqsadga muvofiq ekanligida ko`rinadi. Inson miyasining 30 % foiz hajmini ko`rishni, faqat 3 foizigina eshitishni ta'minlovchi neyronlar tashkil etadi. Pedagogik-psixologik yo`nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo`ladiki, shaxs tomonidan o`zlashtirilayotgan bilimlarning 85 foizi ko`rish reseptorlari yordamida o`zlashtiriladi. Demak, o`zbek xalqi tomonidan ko`p bora qo'llaniladigan «Yuz marta eshitgandan bir marta ko`rgan yaxshi» maqoli ilmiy asosga ega ekan.

**Namoyish metodi** o`rganilayotgan ob'ekt harakat dinamikasini ochib berishda qo'l keladi va ayni chog`da predmetning tashqi ko`rinishi va ichki tuzilishi haqida to`laqonli ma'lumot berishda keng qo'llaniladi. Tabiiy ob'ektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko`rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o`zaro munosabatlari)ga e'tibor qaratiladi, so`ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o`rganishga o`tiladi. Ko`rsatish ko`p holatlarda o`rganilayotgan ob'ektlarning sub'ekti yoki chizmasi yordamida kuzatiladi. Tajribalar namoyishi esa guruh taxtasiga chizish yoki o`qituvchining maxsus jihozlar yordamida ko`rsatib berishi hisobiga amalga oshadi, bunda ushbu tajriba asosida yotuvchi tamoyillarni tushunish osonlashadi. Predmetlar, hodisa yoki jarayonlarni tabiiy holatda namoyish qilish yanada ko`proq didaktik samara beradi, biroq, bunday namoyishni amalga oshirish har doim ham mumkin bo`lavermaydi. Shu bois o`qituvchilar tabiiy predmetlarni namoyish qilishda sun'iy muhitga murojaat qilishadi (masalan, hayvonlar bilan hayvonot bog`ida, turli o'simliklar bilan esa issiqxonalarda tanishish) yoki sun'iy ravishda yaratilgan ob'ektlar (maket, model, mulyaj, skelet va boshqalar)dan foydalaniladi. Bu metod yordamida o`qituvchi talabalarni mustaqil ravishda ob'ektlarni o`rganish, zaruriy o`lchov ishlarini olib borish, aloqadorlikni o`rnatish, Shuningdek, hodisalarning mohiyatini anglab etishga bir so`z bilan aytganda faol bilish jarayoniga yo`naltirishi lozim. Namoyish samarasi ko`p jihatdan o`qituvchining bilish jarayoni mohiyatan talabalarning yoshiga mos holda to`g`ri tanlanishi hamda mumkin qadar ularning diqqatini namoyish etilayotgan predmetning muhim jihatlariga yo`naltirishiga bog`liqdir.

**Tasvir (illyustrasiya)** metodi namoyish metodiga chambarchas bog`liq bo`lsada, didaktikada alohida o`rganiladi. Illyustrasiya narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko`rinishlari – chizma, port, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko`rsatishni taqozo etadi. Namoyish va tasvir metodlari o`zaro bog`liqlikda bir-birini to`ldirgan holda qo'llaniladi. Agar hodisa va jarayonni talaba yaxlit holda qabul qilishi zarur bo`lsa namoyishdan foydalanish, agar hodisa mohiyati hamda uning unsurlari o`rtasidagi bog`lanishlarni anglash talab etilsa illyustrasiyaga murojaat qilinadi. Tasvirning

samarasi ko`pincha o`qituvchi tomonidan ko`rsatuv texnologiyasi qay darajada o`zlashtirilganligiga bog`liq bo`ladi. Ko`rsatmalardan foydalanishning bilish jarayonidagi didaktik ahamiyati o`rganilayotgan ob`ekt mohiyatini to`laqonli yorita olishi bilan belgilanadi. Aslida illyustrasiyalar oldindan tayyorlanib, dars jarayonida zarur o`rinlarda kerakli hajmda ko`rsatiladi, aks holda ular sonining oshib ketishi talabalarni hodisa mohiyatini anglashda chalg`itadi. Ayrim hollarda tarqatma materiallar (fotosurat, jadval, tabiiy ob`ektlar va boshqalar) yoki texnik vositalar xizmatidan foydalanishga to`g`ri keladi. Ko`rgazmali metodlardan foydalanishda samaradorlikka erishishuchun quyidagi shartlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir: ko`rgazmalilikning talabalar yoshi va rivojlanish darajasiga mos kelishi; namoyish etilayotgan ob`ektlar barcha talabalarga yaxshi ko`rini turishi; namoyishda uning boshlang`ch bosqchi va asosiy jarayon (holat)larning ajralib turishi; tajribalar namoyishi maket, jihoz, quollar yoki tajriba sxemasini chizib ko`rsatish asosida tashkil etilishi; namoyish va illyustrasiya o`quv materialining mazmuni bilan uyg`un bo`la olishi lozim.

**Amaliy ishlar metodi** – o`zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar echimini topishga yo`naltirilgan jarayonda qo`llashni taqozo etadi. Bunda nazariy bilimlarni amaliyatda qo`llash ko`nikmasi hosil qilinadi. Mashq - aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko`nikmalarini egallash yo`lidagi ko`p marta takrorlanishlar bo`lib, mashqsiz ko`nikma hamda malakalarni shakllantirish mumkin emas. Mashqlar og`zaki, yozma, gradikaviy (texnik jarayonlar mohiyatini ifodalash), ijtimoiy-foydali, jismoniy va boshqa turlarga bo`linadi. Yozma mashqlar – ta`limning tarkibiy qismi sifatida zaruriy ko`nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida qo`llaniladi. Diktant, insho, masala, misol, shuningdek, referat yozish va tajriba mohiyatini yoritish ham yozma mashqlar sirasiga kiradi. Grafikaviy ishlar ham yozma ishlar bilan o`xshash jihatlarga ega bo`lib, ulardan asosan texnik jarayonlar (jumladan, geografiya, fizika, matematika, chizmachilik, rasm hamda texnologik ta`lim)da keng ko`lamda foydalilanadi. Mashqlarning bajarilish samarasini quyidagi shartlar hisobga olinganda birmuncha yuqori bo`ladi: mashqlarni bajrishga nisbatan ongli yondashish; bajarish qoidasini bilish; vaqt bo`ycha takrorlanishning to`g`ri taqsimlanishi. Mashqni bajarishni tashkil etish quyidagi bosqchlardan iborat: o`qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi; topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko`rsatishi; o`qituvchi nazorati ostida talabalar tomonidan o`quv harakatining dastlabki bajarilishi; zarur ko`nikma va malakalar shakllanguncha o`quv harakatlarning ko`p bora takrorlanishi. Ayrim holatlarda talabalar ovoz chiqarib o`quv harakatlarini takrorlashlari va bajarishlari lozim bo`ladi. Ular izohli mashqlar deb nomlanadi va bajariladigan harakatlarning mohiyatini anglagan holda ko`nikma va malakalarni egallahsga imkon beradi.

**Laboratoriya ishlari** talabalarning jihoz, maxsus uskuna, qurol hamda turli texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalarni o`tkazish metodlari bo`lib, ular ko`proq tabiiy fanlar asoslarini o`rganishda qo`llaniladi. Bu metod talabalarning asbob-uskunalar bilan ish ko`rish, o`lchash ishlarini amalga oshirish va ularning natijalariga ishlov berish kabi ko`nikmalarini tezkor shakllantirishga imkon beradi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma va jihozlar, shuningdek, materiallar hamda vaqt ni sarflash, ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi. Biroq bu harakatlar talabalarning yuqori darajadagi faolligi asosida mustaqil ravishda tajriba va o`lchash ishlarini tashkil etish bilan takomillashtirilib boriladi. Laboratoriyadan amaliy ishlarning farqi shundaki, bu metod talabalarning mavjud nazariy bilimlarni amaliy masalalar echimini topishga yo`naltirilgan faoliyatini tashkil etishga xizmat qiladi. U talabalarning bilimlarini chuqurlashtirish, bilish faoliyatini nazorat qilish hamda yo`l qo`yilgan kamchiliklarni tuzatish borasidagi ko`nikmalarini shakllantirish kabi funksiyalarini bajaradi. Amaliy mashg`ulotlarda talabalarning bilish faoliyati quyidagi besh bosqchda tashkil etiladi:

1. O`qituvchining tushuntirishi, faoliyat mohiyatini nazariy jihatdan anglash bosqchi.
2. Ko`rsatma, yo`l – yo`riq berish bosqchi.
3. Sinov bosqchi (bu bosqchda ikki-uch nafar talaba amaliy harakatlarni bajaradi, qolgan talabalar esa ularning faoliyatini kuzatadi).
4. Faoliyat (harakat)ni bajarish (har bir talaba topshiriqni mustaqil ravishda bajaradi, ayni o`rinda topshiriqni bajarishga qiylangan talabalarga alohida e`tibor qaratilib, ularga yordam ko`rsatiladi).
5. Nazorat bosqchi (bu bosqchda talabalarning ishlari qabul qilinadi va baholanadi; ishning sifati, materialning maqsadga muvofiq tanlanganligi, vaqt nutqai nazardan tezkorlik, topshiriqni bajarish tizimining to`g`riligi va samaradorligi kabi holatlarga alohida e`tibor beriladi).

Zamonaviy ta`lim tizimida talabalar tomonidan o`zlashtirilgan nazariy bilimlar negizida amaliy ko`nikma va malakalarni shakllantirishda didaktik o`yinlardan foydalanishga alohida e`tibor qaratilmoqda.

**Didaktik o`yin** o`rganilayotgan ob`ekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida talabaning bilishga bo`lgan qiziqishi va faollik darajasini rag`batlantiruvchi o`quv faoliyati turi. Ayni vaqtida o`yin ham ijtimoiy faoliyat ko`rinishi sanaladi. Hozirgi vaqtida o`qituvchilar qo`lida barcha o`quv fanlari bo`ycha didaktik o`yinlarning ishlanmalari mavjud, ayniqsa, boshlang`ch ta`lim bo`ycha yaratilgan o`quv dasturlarda turli didaktik o`yinlarning ro`yxati etarli darajada ko`rsatilgan. Ta`limning globallashuvi ta`limiy va rivojlantiruvchi xarakteriga ega va yo`nalishi jihatidan xilma-xil bo`lgan kompyuter o`yinlarining

maktab amaliyotiga jadal kirib kelishini ta'minlamoqda. Didaktik o'yinlar talabalarga ijtimoiy-foydali mehnat hamda, o'qish ko'nikmalarini faol o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning ahamiyati uning natijasi bilan emas, balki jarayonning mazmuni va uning kechishi bilan belgilanadi. O'yinlar bolalarni ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi, ularning turli psixologik zo'riqishlarini kamaytiradi. Didaktik o'yinlardan foydalanilganda talabalarning manfaatdor bo'lishlari ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan taqdirdagina ularni taqdirlash mumkin. Aksincha, metodik jihatdan puxta asoslanmagan hamda shunchaki tashkil etilgan o'yin ijobiy natija bermaydi.

**Ta'lim metodlarini tanlash.** Pedagogika fanida, o'qituvchilarning amaliy tajribasini o'rghanish va umumlashtirish asosida ta'lim metodlarini tanlashga o'quv-tarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bog'liq muayyan holatda vujudga keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim: zamonaviy didaktikaning etakchi g'oyalari, ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning umumiyligi maqsadlari; o'rganilayotgan fan mazmuni va metodlari, mavzularining o'ziga xosligi; xususiy fanlar metodikasining o'ziga xosligi va umumdidaktik metodlarni saralashga qo'yiluvchi talablarning o'zaro aloqadorligi; muayyan dars materialining maqsadi, vazifalari va mazmuni; u yoki bu mavzuni o'rghanishga ajratilgan vaqt; talabalarning yosh xususiyati, bilish imkoniyatlari, darjasи; talabalarning darsga tayyorgarlik darjasи; o'quv muassasalari, auditoriyalarning moddiy ta'minlanganlik darjasи, jihozlar, ko'rsatmali qurollar, texnik vositalarning mavjudligi; o'qituvchining imkoniyatlari, nazariy va amaliy jihatdan kasbiy tayyorgarlik darjasи, pedagogik mahorati, shaxsiy sifatlari; o'quv muassasalarida fanlararo hamkorlikning o'rnatilganligi. O'qituvchi bu holatlarni inobatga olib, u yoki bu ketma-ketlikda og'zaki, ko'rgazmali yoki amaliy metodlarni, reproduktiv yoki mustaqil ishlarni boshqarish metodlarini nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlarini tanlash borasida aniq echimlar qabul qiladi.

### Nazorat uchun savollar:

1. Zamonaviy ta'limning asosiy turlarini ta'riflab bering.
2. "Kasbiy ta'limning tashkiliy tizimi" tushunchasi mohiyatini tushuntirib bering.
3. Kasbiy ta'limning individual shakli afzalliklari nimadan iborat?
4. Sinf-dars tizimining afzalliklari nimalardan iborat?
5. Zamonaviy darsga qanday talablar qo'yiladi?
6. Talabalar bilish faoliyatining individual, guruhli, frontal shakllaridan foydalanimutaxassislik fani bo'yicha dars rejasi va konspektini ishlab chiqing.

7. Har bir darsda talabalar faoliyatini nazorat qilishni amalga oshirish va baholash kerakmi? Agarda zarur deb hisoblasangiz mumkin bo`lgan metodik variantlarini ko`rsatib bering.

## **VIII BOB. KASBIY TA'LIMDA ZAMONAVIY DARS TURLARI. TALABALARING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH**

### **8.1. Kasbiy ta'limdi zamonaviy dars turlari**

Jahon pedagogik fani va amaliyotida ta'limdi tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqchi ta'limdi tashkil etishga o`z ta'sirini o'tkazadi. Ayni vaqtda ta'larning quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi: individual, individual-guruhli, guruh-dars, leksion-seminarli va guruhdan tashqari, auditoriyadan tashqari, maktab va maktabdan tashqari. Ular talabalarni qamrab olishi, talabalar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o'qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko'ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi: individual; guruh-darsli; ma'ruza-seminarli. Qadim zamonlarda mavjud bo'lgan o'qitishning eng qadimgi shakli ta'larning individual shakli hisoblanadi. Hayotiy tajribalarni ajdodlardan-avlodlarga uzatish ibtidoiy jamiyatda yuzaga kelgan. Yozuv paydo bo'lishi bilan qavm boshlig'i turli belgilarni yordamida o'zining tajribalarini yoshlarga o'rgatgan. O'qituvchi va talabaning bevosita va individual aloqasiga misol sifatida repetitorlikni ko'rsatish mumkin. O'qishni tashkil etishning individual shakli antik davr va o'rta asrlarda yagona usul bo'lgan, undan ba'zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanilib kelingan. Individual ta'lim bir qator afzalliklarga ega, shuninguchun bu usuli bizning davrimizgacha repetitorlik shaklida saqlanib qolgan. Uning usutunligi o'quv faoliyati mazmuni, metodi va suratini to`la individualashtirish, aniq bir masalani hal etishda uning har bir harakati va operasiyalarini kuzatib borishga imkon berishidan iborat. Individual ta'lim o'qituvchining yuqori pedagogik malakaga ega bo'lishini talab etadi. Individual o'qitishning ustunliklari bilan bir qatorda bir qator kamchiliklari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat: vaqtning tejamli emasligi; o'qituvchi ta'sirining cheklanganligi (o'qituvchining vazifasi talabaga topshiriq berish va uni bajarilishini tekshirishdan iborat); boshqa talabalar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi (bu holat ijtimoiylashishi jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi) jamoada ishlash tajribasining shakllanmasligi. Mazkur sabablar XVI asrdan boshlab individual o'qitish usulining ahamiyati pasayib, uning o'rmini ta'larning individual-guruhli shakli egallashiga imkon berdi. Ta'larning individual-guruhli shaklidagi Yevropada, XVI asrda keng foydalana boshladilar. Markaziy Osiyo davlatlarida bu usuldan qadim davrlarda ham foydalanganlar. Bunga Avesto davri misol bo'la oladi, bu davrda talabalar uchun asosiy o'quv qo'llanma zardushtiylikning muqaddas manbai "Avesto" (eramizdan avvalgi VII-XVI asrlar) bo'lib kelgan. Avesto davri jamiyatidagi maktablarda individual o'qitish jamoali o'qitish bilan birga olib borilar edi. O'qituvchi "Avesto"

kitoblaridan birini ochadi va talabalar navbatma-navbat kelib ovoz chiqarib o`qiydilar, keyin esa hamma birgalikda o`qilganni takrorlaganlar, mashqlarni maxsus taxtachalarda yozganlar. Aqliy mashqlar o`qituvchining talaba bilan erkin suhbat davomida olib borilgan. Jismoniy tarbiyalash individual va jamoali mashg`ulotlar shaklida amalga oshirilgan. Jismoniy tarbiyaning maqsadi yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashdan iborat bo`lgan. Otda yurish, ov qilish, qilchdan foydalananishni bilish, suvda suzish, yugurish, nayza otish va shu kabilar harbiy tayyorgarlikning majburiy turlari hisoblangan. Ta`lim olish jarayoni kun chiqqandan kun botgungacha davom etgan, uy vazifalari mavjud bo`lmagan. XV va XVI asrlar davomida, Yevropada ishlab chiqarishning rivojlanishi kuzatildi. Ushbu o`zgarishlar yoshlarga ta`lim berishning ommaviy shakli yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Ulardan biri bolalarni guruhli (jamoali) ta`lim sanaladi. U g`arbiy Rossiya (hozirgi Belorussiya va Ukrainianing g`arbiy qismlari) birodarlik maktablarida ilk bor qo`llanilgan va o`qish sinf-darsli shaklining asosi bo`lib qolgan. Bu tizimlar XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan “Buyuk didaktika” asarida nazariy jhatdan asoslab berildi va ommaviylashtirildi. Olim pedagogikaga o`quv yili, o`quv kuni, dars, mashg`ulotlar orasidagi tanaffus, o`quv ta`tillarikabi tushunchalarni kiritdi. quyosh it yulduzlari turkumida bo`lganida bolalarni dam olishga yuboradilar («ta’til» lotinchada – kunlarning eng qizigan davri deganini bildiradi). Sinf-dars tizimi garchi 350 yil avval asoslangan bo`lsada, bugungi kunda ham keng ko`lamda qo`llanilib kelinmoqda. Sinf-dars tizimining mazmuni o`quv ishlarini tashkil etish o`ziga xos shakli sifatida, quyidagilarda iborat:

- bir xil yoshdagi va taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo`lgan talabalar guruhni tashkil etadi. Bu guruh maktabda o`qishning umumiyy davriga asosan doimiy tartibini saqlab qoladi;
- guruh faoliyati yagona yillik reja va dastur asosida, doimiy dars jadvali bo`ycha tashkil etiladi, buning natijasida bolalar mакtabga yilning bir vaqtiga oldindan belgilangan kun soatlarida kelishlari kerak bo`ladi.;
- mashg`ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi;
- dars odatda bir fan yoki mavzuga bag`ishlangan bo`ladi, Shu bois talabalar guruhda bitta material ustida ishlaydilar;
- darsda talabalarning ishiga o`qituvchi rahbarlik qiladi, u o`z fani bo`ycha o`qish natijalari, har bir talabani alohida bilimini baholaydi va yil oxirida talabani keyingi guruhga o`tishi haqida qaror qabul qiladi.

Sinf-dars tizimi K.D.Ushinskiy tomonidan yanada rivojlantiriladi. U bu shaklining hamma ustunliklarini ilmiy asoslab berdi. Dars, ayniqsa, uning tashkiliy qurilishi va tipologiyasining ixcham nazariyasini yaratdi. K.D.Ushinskiy har bir darsning bir-biri bilan ketma-ket bog`langan quyidagi uchta qismini ajratib

ko'ratadi:ilgari o'rganilgan bilimlar asosida yangi bililarni anglashni amalga oshirish va talabalarda materialni jadal qabul qilishga maqsadli ko'rsatmani yaratishga qaratiladi. Darsning bu qismi K.D.Ushinskiyning fikrcha darsga go'yoki "eshik" hisoblanadi. Asosiy masalani hal etishga yo'naltiriladi va darsning muhim, markaziy qismi hisobalanadi. Amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasash va bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratiladi. Darsni tashkil etish ilmiy assoslarni ishlab chiqishga A.Disterveg ham katta hissa qo'shdi. U o'qituvchi va talabaning faoliyatiga taalluqli o'qitish tamoyillari va qoidalari tizimini ishlab chiqdi, talabalarning yoshi imkoniyatlarini hisobga olishni zarurligini asoslab berdi. Ta'limning guruh-dars tizimi alohida o'quv fanlarini o'qitish metodikasi va didaktikasiga oid asarlarida uning afzallik va kamchiliklarini ko'rsatib berdi. Afzalliklari: yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli ketishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizim; jarayonlarning oddiy boshqarilishi: muammoning jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning echimini birgalikda izlash jarayonida bolalar o'rtasida o'zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati; o'qituvchining talabalar va ularning tarbiyasiga doimiy emosional ta'sir ko'rsatishi; ta'limning emosionalligi (zero, o'qituvchi bir vaqtning o'zida talabalarning katta guruhi bilan ish olib boradi), o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritishuchunsharoitning yaratilishi, bilimsizlikdan bilimlarni o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi. Kamchiliklari: tizimning asosan bilimlarni o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi talabalar uchun mo'ljallanganligi, bo'sh o'zlashtiruvchi talabalar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchi talabalar qobiliyatlarining rivojlanish sur'atining ortga surilishi; o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'ycha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olishdga qiyinchilikning yuzaga kelishi; katta va kchik yoshli talabalar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida, aqliy rivojlanishida farqi bo'lgan talabalarni o'qitishda individuallashtirishga ahamiyat qaratish masalasi ayniqsa dolzarb xususiyat kasb etdi. Shunga mos ravishda tanlab o'qitishshakli yuzaga keldi (AQShda Batov, Yevropada Maingeyms tizimi). Yevropa va AQShda, XX asr boshida talabalarning individual, faol, mustaqil o'quv ishlarini ta'minlashga qaratilgan ko'plab ta'lim tizimlarining samaradorligi sinab ko'rilgan. 1905 yili Dalton shahrida (Massachusetts shtati) o'qituvchi Yelena Park Xerst tomonidan birinchi bor qo'llanilgan ta'limning individuallashtirilgan tizimi ular orasida eng radikal hisoblangan. Bu tizim dalton-reja nomi bilan pedagogika va maktab tarixiga kirdi. U ba'zan laboratoriya yoki ustaxonalar tizimi deb ham ataydilar. Bu tizimning mazmuni quyidagilardan iborat: o'quv faoliyatining muvaffaqiyati matabda ishslash sur'atining har bir talabaning imkoniyatlari,

ularning qobiliyatlariga moslashtirilishiga bog`liq: ta`lim faoliyati ustun turadigan o`qishni an'anaviy tashkil etish talabaning mustaqil o`quv faoliyatining markaziy hisoblanishi, o`qituvchi vazifasining faoliyatni odob bilan tashkil etishdan iboratligi, guruh laboratoriyaning ustaxonalar bilan almashtirilishi, darslarning bekor qilinishi, o`qituvchining yangi materialni tushuntirmasligi, talabaning laboratoriya yoki ustaxonalarda o`qituvchidan olingen topshiriq asosida mustaqil Shug`ullanishlari va zarur bo`lgan paytda o`qituvchidan yordam so`rashlari. Mazkur tizim bir qator kamchiliklariga ko`ra keskin tanqi dga uchragan. XX asr 20-yillarida maktab ishlari Ilmiy tekshirish instituti ta`limning loyihami tiziminitarg`ib qila boshladi. Uni amerikalik U.Kilpatrik ishlab chiqqan. O`qitish bu tizimining mazmuni talabalarning o`zлari loyiha ishlari mavzuni tanlab olishlaridan iborat. U mavjud haqiqiy hayot bilan bog`langan bo`lishi va o`quv guruhi ixtisoslashishlariga qarab (yo`nalishlari) ijtimoiy-siyosiy, xo`jalik-ishlab chiqarish yoki madaniy-turmush tomonlarini aks ettirishi kerak bo`lgan. 60-yillarda Tramk rejasi juda mashhur bo`ldi. Uni amerikalik professor pedagog Lyuyd Tramk ishlab chiqqan. O`qitishni tashkil etishning bu shakli katta auditoriyalarda (100-150 odam) mashg`ulotlarni, 10-15 kishilik guruhlarda va talabalarning individual ishlarini birgalikda olib borishni taklif etadi. Turli xildagi texnik vositalardan foydalanib umumiylar olib borishga o`quv vaqtining 40 % iajratiladi. Kchik guruhlarda mashg`ulotlarga (seminarlar) – 20 % i kabinet va laboratoriyalarda individual mustaqil ishlarni bajarishga 40 % i ajratiladi. 70-yillarda o`qishni tashkil etish noan'anaviy shakllarini izlash davom ettiriladi. Tajriba va sinov maktablarini izlash birinchi navbatda guruh-dars tizimini modernizasiyalashtirish fikri bilan bog`liq bo`lgan. Izlanishlar asosiy masalasi – o`qishni individuallashtirish edi. Birinchi universitetlar paydo bo`lishi bilan ta`limning ma`ruza-seminar tizimi yuzaga kela boshlaydi. U yaratilgan paytdan beri ular deyarli hech bir katta o`zgarishlarga ega emas. Ma`ruza, seminar, amaliy va laboratoriya ishlari, konsultasiya va tanlagan kasbi bo`ycha amaliyot hozirgacha leksion-seminar tizim sifatida o`qishning asosiy shakllaridan biri bo`lib kelmoqda. Leksion-seminar tizimi o`zining sof ko`rinishida oliy va oliy ta`limdan keyingi ta`lim amaliyotida qo`llaniladi.

## **8.2. Darsda talabalar o`quv faoliyatini tashkil etish zamonaviy shakllarining turlari.**

Turli dars tuzilmalaridan yanada samaraliroq foydalanish yo`llarini izlashda darsda talabalar o`quv faoliyatlarini tashkil etishshakllari alohida ahamiyatga ega bo`lmoqda. Pedagogik adabiyotlar va maktab amaliyotida asosan uchta shundayshakllari qabul qilingan – ommaviy, guruhli va individual. Ta`limning ommaviy shakli guruhdagagi jami talabalarning o`qituvchi rahbarligi

ostida birgalikda harakatlarini ko'zda tutadi. Sinf shaklida esa talabalar 3-6 kishidan iborat guruhlar yoki juftliklarda ish olib boradilar. Sinflar uchun topshiriqlar bir xil yoki turlcha bo'lishi mumkin. Individual shakli har bir talabaning alohida mustaqil ishlashini ko'zda tutadi. O'qitish frontal shaklida, o'qituvchi bir vazifa ustida ishlayotgan butun guruh o'quv faoliyatini boshqarib boradi. U talabalarning hamkorliklarini ta'minlaydi va hamma uchun bir bo'lган ish sur'atini belgilaydi. Frontal ishslashning pedagogik samaraliligi ko'п jihatdan o'qituvchining butun guruhni nazorat qila bilishiga va shu bilan bir vaqtida har bir talabaning ishini ko'zdan qochirmasligiga bog'liq bo'ladi. Agarda o'qituvchi ijodiy jamoali ishslash muhitini yarata olsa, talabalar diqqatini va faolliklarini ta'minlab tura olsa samarasini yana oshadi. Ammo frontal ishslash individual farqlarni hisobga olmaydi, u o'rta talabaga mo'ljallangan. Shuning uchun ba'zi talabalar berilgan ish sur'atidan ortda qoladilar, boshqalari esa zerikib, qiynalib ketadilar. O'qish guruhli shaklida o'qituvchi guruh talabalarini guruhlari o'quv-o'rganish faoliyatilarini boshqaradi. Talabalarni zvenoli, brigadali, birlashtirish-guruhli va differensiyalangan guruhlarga taqsimlash mumkin. O'qish zvenoli shakli talabalar doimiy guruhi o'quv faoliyatini tashkil etishni ko'zda tutadi. Birlashtirish-guruhli shaklida guruhni odatda katta umumiyligi topshiriqni har biri faqatgina bir qismini bajaradigan guruhlarga ajratishni ko'zda tutadi. Differensiyalashgan-guruhli ta'lim shakli doimiy guruhlar ham, bir xildagi o'quv imkoniyatlariga ega va o'quv ko'nikmalari bir xil darajada shakllangan talabalarni birlashtirishini ko'zda tutadi. Guruhli shakllariga talabalarning juft bo'lib ishlashlarini ham kiritiladi. O'quv guruhlari faoliyatlarini o'qituvchi o'zi bevosita hamda o'z yordamchilari – talabalar fikriga qarab tayinlangan zvenolar va brigadar orqali boshqaradi. Individual ta'limtalabalarning boshqa talabalar bilan bevosita aloqalarini ko'zda tutmaydi. O'z mohiyatiga ko'ra guruh jamoasi yoki muayyan guruhlar bilan ishslashdan tubdan farq qilmasa-da, biroq talaba o'zining Shaxsiy imkoniyatlariga muvofiq o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni mustaqil bajaradi. Bu maqsad yo'lida maxsus tayyorlangan kartochkalardan foydalanish mumkin. Darsda o'qituvchiining e'tibori bir necha talabaga qaratilsa, bu vaqtida qolgan talabalar mustaqil ishlasalar ta'limning bunday shakli individual-guruhli shakl deb ataladi. Zamonaviy ta'lim amaliyotida ko'proq ikki tashkiliy shakl:: ommaviy va individual shakllardan foydalilanadi. Ayni vaqtida guruhli va juftli o'qishshaklidan amaliyotda ancha keng foydalilanadi. Ta'limning ommaviy shakli ham, guruhli shakli ham jamoaviy hisoblanmasa-da, lekin ayrim pedagoglar ularni ommaviy ta'lim deb ko'rsatishga harakat qiladilar. Jamoaviy ishslash faqatgina differensiyalashgan guruhli ishlar asosidagina tashkil etiladi. O'quv ishlarini tashkil etishning jamoaviy shakli o'qituvchi va talabalarning dinamik yoki o'zgaruvchan tartibli juftliklarida kechayotgan munosabatlaridir. Ta'lim

maqsadlari va foydalanshning qulayligi nuqtai nazaridan ta'lim shakllari quyidagcha darajalanadi asosiy, qo'shimcha va yordamchi ta'lim.

### **8.3. Dars mashg'uloti- ta'limni tashkil etishning asosiy shakli.**

Dars ta'lim jarayonining yaxlitligi nuqtai nazaridan ta'limning asosiy tashkiliy usuli hisoblanadi. Unda sinf -dars tizimining xususiyatlari aks etadi, unda talabalarni ommaviy qamrab olish, tashkiliy tartib va o'quv ishlarining muntazamligi ta'minlanadi. Dars mashg'uloti-iqtisodiy jihatdan foydalidir. Talabalar hamda guruh jamoasining individual xususiyatlarini bilishi o'qituvchi uchun har bir talaba faoliyatiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Dars doirasida ommaviy, guruhli va individual ta'lim shakllarini birlashtirish imkoniyati uning rad etib bo`lmaydigan ustunligi hisoblanadi. Dars mashg'uloti-bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan talabalar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir talaba xususiyatlarini hisobga olish, barcha talabalarining mashg'ulot jarayonida o'r ganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatları va ma'nnaviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirishuchun qulay sharoitlarni yaratiladi. Dars ta'limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi o'ziga xos belgilarga ega, chunonchi: talabalarining doimiy guruhi, talabalar faoliyatiga ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o'r ganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish (bu belgilari darsning faqat mazmunini emas, balki o'z xususiyatini ham aks ettiradi). Darsning tuzilishi oddiy va ancha murakkab bo`lishi mumkin. Bu o'quv materialining mazmuni, darsning didaktik maqsadi, talabalar va jamoa sifatida guruhning xususiyatlariga bog'liq..

Zamonaviy didaktikada dars quyidagi turlari ajratib ko'rsatilgan:

- aralash darslar;
- yangi ma'lumotlar, aniq hodisalar bilan tanishish bo'ycha yoki umumlashtirishlarni anglab etish va o'zlashtirish maqsadiga ega darslar;
- bilimlarini mustahkamlash va takrorlash darslari;
- o'r ganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish asosiy maqsadiga ega darslar;
- malaka va ko'nikmalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari;
- bilimlarni tekshirish va tekshirish ishlarini o'r ganish darsi;
- o'z tuzilishi bo'ycha oddiy bo'lgan, ya'ni bitta asosiy didaktik maqsadga ega bo'lgan dars turlari (o'rta va katta guruhlarda qo'llashuchun mos keladi). Qo'yi kurslarda talabalarini hisobga olib o'quv ishlari turli xillaridan foydalanishga, yangi bilimlarni berishni avval ilgari o'r ganilganni mustahkamlash, takrorlash bilan birga olib borishga to`g'ri keladi. Hatto tekshirish darslari ham bu erda

ko`pincha ishlar boshqa turlarini o`z chiga oladi: materialni og`zaki etkazish. qiziqarli hikoyani o`qish. Darsning aynan mana shu turi aralash (kombinasiyalashgan), yoki murakkab tuzilishli deb ataladi. Kombinasiyalashgan darsning taxminiy tuzilishi: uy vazifalarini tekshirish va talabalar bilan savol-javob, yangi materialni o`rganish, o`zlashtirishini dastlabki tekshirish, mashq misollari davomida yangi bilimlarini mustahkamlash, ilgari o`rganilganlarni suhbat ko`rinishida takrorlash, talabalar bilimlarini tekshirish va baholash, uygaz vazifa berish. Talabalarning yangi materiallar bilan tanishish darsi yoki yangi bilimlarni berish (o`rganish) darsi nisbatan keng doiradagi savollarni o`z chiga olgan va uni o`rganishga ko`p vaqtini talab qiluvchi, talabalarga tanish bo`lmagan yangi material uning mazmuni bo`lgan ta`lim jarayoni. Bunday darslarda uning mazmuni, aniq maqsadi va talabalarning mustaqil ish bajarishga tayyorgarliklariga qarab, ba`zi hollarda yangi materialni o`zi bayon etadi. Boshqa hollarda esa – o`qituvchi rahbarligi ostida talabalarning mustaqil ishlari olib boriladi, uchinchi holda – unisi ham bunisidan ham foydalaniladi. Yangi material bilan tanishish darsining tuzilishi: yangi materialni o`rganishuchun asos bo`lgan avvalgi materialni takrorlash. O`qituvchining yangi materialni va darslik bilan ishlashni tushuntirishi, bilimlarni tushunishlarini tekshirish va dastlabki mustahkamlash, uygaz vazifa berish. Bilimlarni mustahkamlash darslarida o`quv ishining asosiy mazmuni ilgari o`zlashtirilgan bilimlarni mustahkam o`zlashtirish maqsadida ularni ikkinchi bor tushunib olish hisoblanadi. Talabalar o`z bilimlarini yangi manbalar bo`ysha anglab oladilar va chuqurlashtiradilar yoki ularga ma'lum bo`lgan qoidaga yangi masalalar echadilar, ilgari olgan bilimlarini og`zaki va yozma takrorlaydilar yoki ilgari o`rganganlarini yanada chuqurroq va mustahkam o`zlashtirishmaqsadida ulardan alohida masalalar bo`ysha axborot beradilar. Tuzilishi bo`ysha bunday darslar quyidagi bosqchlardan o`tishni ko`zda tutadi: uy vazifasini tekshirish, og`zaki va yozma mashqlarni bajarish, topshiriqni bajarishni tekshirish, uygaz vazifa berish. Ko`nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlashdarslari bilimlarni mustahkamlash darslari bilan bog`liqdir. Bu jarayon bir necha maxsus darslar jarayonida amalga oshiriladi. Boshqa darslarda yangi mavzularni o`rganishda davom ettiriladi. Shu bilan birga avvaliga mashqni bajarish ishlari bolalar tomonidan o`qituvchi yordamida va ular topshiriqni qanday tushunganlarini daslab jiddiy tekshirish bilan bajarilsa, keyinchalik esa qaerda qanday qoida qo`llanilishini talabalarning o`zlarini belgilaydilar. Ular turli vaziyatlarda malaka va ko`nikmalarini qo`llash, shu jumladan, hayotiy amaliyotida qo`llashni o`zlashtirib olishlari kerak. Umumlashtiruvchi darslari (bilimlarini umumlashtirish va tizimlashtirishlar) ilgari o`tilgan materialdan eng muhim savollari qayta takrorlanadigan va tizimlashtiriladigan, talabalar bilimlarida mavjud kamchiliklari to`ldiriladigan va o`rganilayotgan kursning muhim g`oyalari

ochib beriladigan darslar hisoblanadi. Umumlashtiruvchi darslar mavzu, bo`lim va o`quv kurslarining yakunida o`tkaziladi. Kirish va yakunlash darsning tarkibiy elementi hisoblanadi. Takrorlash va umumlashtirishning o`zi hikoya, qisqacha xabarlar, darslikni o`qib berish yoki o`qituvchining talabalar bilan suhbatlashishi shaklida o`tkazilishi mumkin. Tekshirish (nazorat) darslari o`qituvchiga talabalarning ma'lum sohadagi bilim, malaka va ko`nikmalari shakllanganlik darajasi, o`quv materialini egallashdagi kamchiliklarni aniqlash, shuningdek, navbatdagi topshiriqlarning bajarish yo'llarini belgilab olishga yordam beradi. Tekshirish darslari talabadan ushbu mavzu bo`ycha uning hamma bilim, ko`nikma va malakalarini qo'llashini talab etadi. Tekshirish og`zaki hamda yozma shaklda ham amalga oshirilishi mumkin. Yuqorida ifodalangan hamma darslarning majburiy elementi tashkiliy va yakuniy bosqch hisoblanadi. Tashkiliy bosqch maqsadlarni qo'yish va ularni talabalar tomonidan qabul qilishsharoitlari ta'minlash, ishsharoitini yaratish, o`quv faoliyati motivlarini dolzarblashtirish va materialni idrok etish, anglash, eslab qolish yuzasidan beriladigan ko`rsatmalarni shakllantirishni ko`zda tutadi. Darsga yakun yasash bosqchida maqsadlarga erishish qayd etiladi, ularga erishishda barcha yoki yakka talabalarning alohida ishtiroki belgilanadi, ishlari baholanadi va istiqbollari belgilanadi. Ta'limning tashkiliy shakli sifatida dars dinamik hodisadir. U pedagogik jarayonning yaxlitligini ta'minlaydi va ta'limiy-tarbiyaviy-rivojlanirish vazifalarini ijobiy echimini topishga imkon beradi. Dars rivojlanishining asosiy tendensiyalari darsga bo`lgan talablarda o`zining aniq ifodasini topadi. Zamonaviy darslar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:

- fanning ilg`or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o`quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish;
- darsda mashg`uloti-barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta'minlash;
- talabalarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o`zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- talabalar anglab etadigan fanlararo bog`liqliklarni o`rnatish;
- ilgari o`rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, talabalarning rivojlanish darajasiga tayanish;
- shaxsning har tomonlama rivojlanirishni motivasiyalash va faollashtirish;
- o`quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqchlarining mantiqiyligi va emosionalligi;
- pedagogik vositalardan samarali foydalanish;

- zarur bilim, ko`nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat rasional usullarini shakllantirish;
- mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish;
- har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejulashtirish, tashxis va taxmin qilish.

Har bir dars quyidagi uchta asosiy maqsadga erishishga yo`naltiriladi: o`qitish, tarbiyalash, rivojlantirish. Ana shularni hisobga olib darsga umumiylablar didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablarda aniq ifodalanadi.

Didaktik (yoki ta'lim)iy talablarga har bir darsning ta'lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakli, metodlari va ko`rinishlaridan mos ravishda foydalanish, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondoshish, jamoaviy faoliyat usullari bilan birga talabalar mustaqil faoliyatlarini turli shakllaridan birga foydalanish, operativ qayta aloqani ta'minlash, amaliy nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, ilmiy mo'ljal va darsni mahorat bilan o'tkazishni ta'minlash kabilalar kiradi.

Darsga nisbatan qo`yiladigan tarbiyaviy talablar o`quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo`lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo`yish, faqat o`quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, talabalarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mas`uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e'tiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish, talabalarga diqqat-e'tiborli munosabatda bo`lib, pedagogik odob talablariga amal qilish, talabalar bilan hamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo`lishdan iborat. Barcha darslarda doim amalga oshirilib boriladigan rivojlantiruvchi talablarga talabalarda o`quv-o`rganish faoliyati ijobiy sifatlari, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollik shakllantirish hamda rivojlantirish, talabalarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o`rganish, hisobga olish, “rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish”, “o`zib ketish” darajasidagi o`quv mashg`ulotlarini tashkil etish, rivojlanishidagi yangi o`zgarishlarni rag`batlantirish, talabalarning intellektual, emosional, ijtimoiy rivojlanishlaridagi «sakrash»larni oldindan ko`ra bilish, boshlanayotgan o`zgarishlarni hisobga olish asosida o`quv mashg`ulotlarini operativ qayta qurish kabilalar kiradi.v Nostandart darslar. XX asr 70-yillari o`rtalarida, milliy maktablarda talabalarning mashg`ulotlarga qiziqishlarining pasayish xavfi aniqlandi. Muammoni bartaraf etish maqsadida nostandart darslarning tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratildi. Nostandart dars an'anaviy tuzilishdagi improvizasion o`quv mashg`ulotidir. Pedagogik

adabiyotlarni tahlil qilish nostandard darslarning o`nlab turlari mavjudligini ko`rsatdi. Ular orasida “berilish” darsi, amaliy o`yinlar, matbuot konferensiyalari, ijodiy hisobotlar, musobaqalar, KVN turidagi o`yinlar, tanlov, teatrlashtirilgan darslar, binar, kompyuterli darslar, fantaziyalar, “sudlar”, haqiqatni izlash, “paradokslar”, auksionlar, dialoglar va boshqalar ko`zga tashlanadi.

## **IX BOB. O'QITISH JARAYONIDA TALABALARING BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH.**

### **9.1. Ta'lism jarayonini tashxislash**

Tashxisning mohiyati haqida gapirishdan oldin tashxisni umumiy yondashuv hamda tashxis-lashni amaliy pedagogik faoliyat jarayoni sifatida farqlab olaylik.

**Tashxis** – bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demak. Tashxissiz didaktik jarayonni sama-rali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas. Ta'lism olganlikni tashxislash orqali erishilgan natijalar va ta'-lim olganlik ajratib olinadi. Shuningdek, ta'lism olganlik tashxislash vaqtida belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi sifatida ham qaraladi. Didaktik tashxislashning maqsadi o'quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarni uning mahsuli bilan bog'liq holda o'z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat. Yuqoridagilardan ma'lum bo`ladiki, tashxis ta'lism oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini an'anaviy tekshirishga nisbatan kengroq va chuqurroq ma'no kasb etadi. Ta'limi baholash yoki tekshirish faqat natijalarni qayd etadi, biroq ularning kelib chiqishini izohlamaydi. Tashxis natijalarni ularga erishish yo'llari va vositalari, usullari bilan aloqadorlikda baholaydi, ta'lism mahsulining shakllanish jarayonlari va bosqchlarni aniqlaydi. Tashxislash nazorat, tekshirish, baholash, statistik ma'lumotlar toplash, ularni tahlil qilish, dinamika, tendensiyalarni aniqlash, voqealarning keyingi rivojini taxminlashni o'z chiga oladi, texnologiyaning ancha qadimiy usullaridir. Nazorat va baholash muktabamaliyoti rivojining doimiy hamrohi bo`lib kelgan. Shunga qaramay, bugun ham baholashning mazmuni, texnologiyalari haqida qizg'in munozaralar davom etmoqda. Avval bo`lgani kabi pedagoglar baho nimani qayd etishi lozimligini aniqlashga urinmoqdalar. Ular baho nimani ko`rsatishi lozimli-gi: ta'lism oluvchi o'zlashtirishning qat'iy belgilovchisi – sifat ko`rsatkichi bo`lishi kerakmi, yo aksincha, u yoki bu ta'lism tizimining ustunligi va kamchiliklarining ko`rsatkchi bo`lishi kerakmi degan masalada bahslashib kelmoqda. Ta'limi baholashda ziddiyatli qarashlarning tug'ilishini buyuk pedagog Ya.A.Komenskiy ham ta'kidlab o'tgan edi. U pedagoglarni o'zları ega bo`lgan baholash huquqidan aql bilan foydalanishga chaqirgan. Ta'lism oluv-chilarga nisbatan nazoratning ob'ektiv bo`lishiga erishish didaktik tizim-larning asosida yotadi. Olimlarning ta'kidlashcha, demokratlashgan ta'lism tizimida yuzaki (formal) nazorat bo`lmasligi lozim, didaktik nazorat o'qitishning o'ziga xos metodi sifatida aniq ifodalangan ta'lism beruvchi, rivojlantiruvchi yo`nalganlikga ega bo`lishi, o`z-o`zini nazorat qilish bilan birlashishi, eng avvalo, ta'lism oluvchining o`zi uchun zarur va foydali bo`lishi lozim. Ta'lism tizimini demokratlashtirish bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat

va baholashdan emas, balki baho yordamida o'qishga undashning eskirgan shakllaridan voz kechishni talab qiladi. Talabalarning o'quv mehnatini rag'batlantirishning yangi usullarini izlash, ta'lim va tarbiya soha-sida kuch to`plab borayotgan shaxsiy foyda tamoyili yangcha yondashuvlarni belgilab beradi. Tashxislash tizimida baho rag'batlantirish vositasi sifatida bir qator afzalliklarga ega bo`ladi. Birinchi navbatda, baholovchi fikrlar (ballar) qo'llanishi mumkin bo`lgan tashxislash natijalari shaxsning o'z darajasini belgilashga ko`maklashadi, bu esa raqobatli ta'lim sharoitlarini yaratishda muhim omil sanaladi. Ta'lim (shuningdek, nazorat)ning ixtiyoriyligi tamoyili bilan boyitilgan baho o`tmishda ko`plab talabalar uchun majburiy ta'limning zaruriy vositasidan shaxsiy reyting – insonning jamiyatdagi mavqeい ko`rsatkchini tadrijiy aniqlash usuliga aylanadi.

**Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olish, ularning vazifalari.** Ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri - nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o`ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. O`qituvchi nazorat va hisobga olishni to`g`ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o`qituvchi talabaning o'quv materiallarini o`zlashtirish darajasini aniqlab borishi lozim.

**Nazorat** (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko`nikma va malakalari darajasini aniqlash, o`lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o`lchash esa **tekshirish** deb ataladi.

**Tekshirish** – nazoratning tarkibiy qismi bo`lib, uning asosiy didaktik vazifasi o`qituvchi va talabalar o`rtasida aks aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quv materialini o`zlashtirish haqida ob'ektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o`z vaqtida aniqlashdir. Tekshirishning maqsadi nafaqat talabaning bilim darajasi, sifati, balki uning o'quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat. Talabalarning bilim va malakalarini tekshirish qo`yida ko`rsatilgan mantiqiy ketma-ketlikda olib borilishi kerak: Tekshirish tizimidagi birinchi bo`g`in ta'lim oluvchilarining bilim darajasini oldindan aniqlash hisoblanadi. Odatda, u o'quv yili boshida talabalar tomonidan avvalgi o'quv yilida o`zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida o`tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o'quv yilining o`rtasida yangi bo`lim (kurs)ni o`rganishga kirishilganda ham o`tkazilishi mumkin va o`rinli bo`ladi. Bilimlarni tekshirishning ikkinchi bo`g`ini har bir mavzuni o`zlashtirish jarayonidagi joriy tekshirishdir. Joriy tekshirish ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o`zlashtirish darajasini tashxislash imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi o`rgatishdir. Bunday tekshirishning shakl va metodlari turlcha bo`lib, ular o'quv materiali mazmuni, murakkabligi, talabalarning yoshi va tayyorgarligi, ta'lim bosqchi va maqsadlari, muayyan pedagogik sharoitlarga bog`liq bo`ladi. Takroriy tekshirish bilim, ko`nikma va

malakalarni tekshirishning uchinchi bo`g`ini sanalib, joriy tekshirish kabi mavzuli bo`lishi mumkin. Yangi mavzuni o`rganish bilan birga talabalar avval o`rganilganlarni takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko`maklashadi, biroq o`quv ishlari bosqchini tavsiflash, bilimlarni o`zlashtirish mustahkamligi darajasini tashxislash imkonini bermaydi. Ushbu tekshirish tashxisning boshqa turlari va metodlari bilan birga qo`llanilsagina kutilgan samarani beradi. Tizimning to`rtinchi bo`g`ini talabalar bilim, ko`nikma va malakalarini yaxlit bo`lim yoki kursning alohida mavzusi bo`ycha davriy tekshirishhisoblanadi. Mazkur tekshirishning maqsadi – kursning turli qismlarida o`rganilgan o`quv materialining strukturaviy elementlari o`rtasidagi o`zaro aloqalarni o`zlashtirish sifatini tashxislash. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi – tizimlashtirish va umumlashtirish. Tekshirishni tashkil etishda beshinchi bo`g`in ta`lim oluvchilarning, ta`lim jarayonining barcha bosqchlarida egallangan bilim, ko`nikma va malakalarini yakuniy tekshirish va hisobga olishdir. O`zlashtirishning yakuniy hisobi har bir chorak va o`quv yili oxirida o`tkaziladi. U olingan baholarni qo`sib, o`rtacha arifmetik ballni mexanik tarzda chiqarishdangina iborat bo`lmasligi lozim. Bu, avvalo, mazkur bosqchda belgilangan maqsadga muvofiq tarzda amaldagi ta`lim olganlik darjasini (sifati)ni tashxislashdir. Tekshirishdan tashqari nazorat o`z chiga baholashni (jarayon sifatida) va bahoni (natija sifatida) ham oladi.

**Baholash** deb bilim, ko`nikma va malakalarni o`quv dasturida ko`rsatilgan etalon (ko`rstakch, qolip, o`lchagch)lar bilan solishtirishni aytamiz.

**Baho** deb baholashning ball shaklida ko`rsatilgan son jihatdan o`lchamiga aytildi. O`zlashtirish tabellari, sinf, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholar shartli belgililar, kod signallari, xotiralash belgilari va hokazolar baho ko`rini-shida qayd etiladi. Talabalarning o`zlashtirish darjasini baholashchun nazorat yakunlari (natijalari) asos bo`ladi. Bunda talabalar ishining ham sifat, ham miqdor ko`rsatkchlari hisobga olinadi. Miqdor ko`rsatkchlari ko`proq ballar yoki foizlarda, sifat ko`rsatkchlari esa a`lo, yaxshi, qoniqarli va hokazo baholovchi fikrlar yordamida qayd etiladi. Har bir baholovchi fikrga oldindan kelishilgan (belgilangan) ball, ko`rsatkch (masalan, o`rin – 1, 2, 3, 4 va hokazo) tayinlanadi. Bunda baho o`lchash va hisoblashlar natijasida olinadigan son emas, balki baholovchi fikrga yuklangan ma`no ekanini unutmaslik muhim. Baholarni son sifatida qo`llashga berilib ketishning oldini olishuchun bir qator mamlakatlarda baholar harfli (A, V, S, D va hokazo) ifodaga ega. Bahoni amalda egallangan bilim, ko`nikma va malakalar bilan davlat ta`lim standartiga ko`ra o`zlashtirilishi belgilangan bilim, ko`nikma va malakalar umumiylajmi o`rtasidagi nisbat sifatida tushunish (ta`riflash)dan ta`lim darajasining miqdoriy mazmuni

kelib chiqadi. O`zlashtirish (ta`lim samaradorligi) ko`rsatkchi  $B=A/T \times 100\%$  nisbat asosida hisoblanadi. Bunda:

B – o`zlashtirish (ta`lim samaradorligi) bahosi;

A – amalda o`zlashtirilgan bilim va malakalarning hajmi;

T – o`zlashtirishchun taklif etilgan bilim va malakalarning to`liq hajmi.

Ko`rinib turibdiki, o`zlashtirish ko`rsatkchi (baho) bu o`rinda 100% – axborotni to`liq o`zlashtirish va 0% – uning umuman mavjud emasligi o`rtasida bo`ladi. Ma'lumki, baholash funksiyasi ta`lim darajasini qayd etish bilangina cheklanmaydi. Baho – pedagog ixtiyoridagi o`qishni, ijobjiy moti-vasiyani rag`batlantirishning va shaxsga ta`sir ko`rsatishning yagona vositasi. Aynan xolis (ob`ektiv) baholash ta`sirida, talabalarda adekvat o`z-o`zi-ni baholash, shaxsiy muvaffaqiyatlarga tanqidiy munosabat yuzaga keladi. Shu bois bahoning ahamiyati, vazifalarining xilma-xilligi talabalar o`quv faoliyatining barcha jihatlarini aks ettiradigan va ularni aniqlashni ta`minlaydigan ko`rsatkchlarni izlab topishni talab etadi. O`qituvchi o`qitish bilan bir vaqtida talabalar o`rganilayotgan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlashga harakat qilishini va uni amalda qo'llash malakalarini egallashini hisobga olib borishi kerak.

**Hisobga olish** – bu o`qitishning muayyan bir davrida talabalar va o`qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash. Hisobga olish natijasida o`qituvchi ham, talabalar ham o`zlarining keyingi bajaradigan ishlarining shaklini va mazmunini belgilaydi. O`zlashtirishni hisobga olish talabalarning bilish faoliyatini rag`batlantirib, ma'lum bir harakatlarni bajarishchun uning irodasini tarbiyalaydi. Shuningdek, o`zlashtirishni hisobga olish o`qituvchining faoliyatni ham tashkil etadi. O`qitish metodlari va shakllarining tabora takomillashuvi natijasida baho o`qituvchining pedagogik mahorati ko`rsatkchiga aylanmoqda va o`qituvchining o`z malakasini oshirib borishida muhim ahamiyatga ega bo`lmoqda. To`g`ri tashkil etilgan hisobga olish natijasida o`qituvchi talabalar o`zlashtirishini aniq baholay oladi, ularning o`z bilimlarini takomillashtirishga intilishini yuzaga keltiradi, aqliy va ahloqiy rivoj-lanishiga ta`sir etadi. Talabalar o`zlashtirish natijalarini hisobga olishda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim:

1) o`quv dasturi asosida mavzu va bo`limni o`rganishda talabalar bilim, ko`nikma va malakalarini har tomonlama nazorat qilish;

2) har bir yakunlangan mavzu bo`ycha talabalar faoliyati to`g`risida to`liq xulosa chiqarish;

3) o`rtacha arifmetik ma'lumotlarga tayanibgina talabalar o`zlashtirish darajasini baholamaslik;

4) talabalar mavjud bilimlariga aniq, batafsil ma'lumot (tavsif) berishchun ularning bir necha o`quv yilidagi statistik o`zlashtirish ma'lumotlarga asoslanib tahlil etish.

Demak, o'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi. Nazorat qilish vazifasi talabalar bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash va baholashdan iborat. Bu o'quv materiallarini o'rganishning keyingi bosqchiga o'tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi hamda o'qituvchining o'quv metodlarini va usullarini to'g'ri tanlaganini nazorat qiladi. Nazorat qilish vazifasi o'quv materiallarini o'rganishning maqbul yo'llarini topish bilan bog'liqdir. O'qitish vazifasi talabalar bilimini tekshirishda aniq ko'rindi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshirishda o'quvchilarning o'tilgan mavzuni takrorlashga, ular uchuntushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni bilib olishlariga imkon tug'iladi. Chunki guruhdagi boshqa talabalar javob berayotgan talabalar fikrlarini diqqat bilan tinglashadi va avval egallangan bilimlarni mustahkamlab, qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitishadi. O'rtoqlarining javoblariga qo'shimcha qilishga yoki yechilmay qolgan savollarga javob berishga shaylanish orqali o'rganilgan mavzuni aniqlashtirishga harakat qiladi. Nazoratning tarbiyalash vazifasishundan iboratki, o'quvchilar tek-shirishga tayyor bo'lishuchun darslarni o'z vaqtida tayyorlaydilar, bo'sh vaqt-laridan unumli foydalinishga harakat qiladilar, intizomga o'rganadilar. Shuningdek, tekshirish va baholash talabalar o'z bilimlari va qobi-liyatlarini o'zi mustaqil aniqlashiga ham yordam beradi. O'zidagi kamchiliklarni ko'ra olishga va uni tugatish yo'llarini izlashga ko'maklashadi. Lekin talabalar bilimini baholashda o'qituvchi nohaqlikka yo'l qo'ysa, talabalar bilan o'qituvchi o'rtasida ziddiyat kelib chiqadi. Uy vazifalarining esa haddan ziyod ko'p bo'lishi ham talabalar yuzaki dars tayyorlashiga olib keladi. Eng asosiysi, o'zlashtirishni hisobga olish, shaxsning ijobjiy fazilatlarini shakllantirish, yaxshi o'qishga xohish uyg'otish, o'quv ishlariga vijdonan yondashish, javob berishga tayyorlanishda mustaqil bo'lish hamda bilish faoliyatini chuqurlashtirishga qaratilmog'i lozim. Agar nazoratning o'qitish va tarbiyalash vazifalari to'g'ri amalga oshirilsa, shaxsning tafakkurini rivojlantirishga, his-tuyg'ulari va axloqiy sifatlarini tarbiyalashga imkon tug'iladi. Bu esa o'z-o'zidan nazoratning rivojlantiruvchi vazifasi sanaladi.

## **9.2. Ta'lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari.**

Pedagogikada talabalar ta'lim olganligini tashhislash va nazorat qilish tamoyillarining tizimi ishlab chiqilgan. Ulardan eng muhimlari xolislik (ob'ektivlik), tizimlilik (sistemalilik), ko'rgazmalilik (oshkorlik) sanaladi.

**Xolislik (ob'ektivlik)** tashxis testlari (topshiriqlari, savollari), tashxis jarayoni mazmunining ilmiy assoslanganligi, pedagogning barcha ta'lim oluvchilarga do'stona munosabati hamda bilim, malakalarni baholashning aniq ko'rinishda belgilangan mezonlaridan iborat. Amalda tashxisning xolisligi

qo'yilgan baholar nazorat metodlari va vosi-talaridan, tashhis o'tkazgan o'qituvchidan qat'iynazar hamma vaqt mos kelishini anglatadi.

**Tizimlilik (sistemalilik)** tamoyilining talabi shundan iboratki, tashhislash nazoratini ta'lim jarayonining barcha bosqchlarida – bilim-larni boshlang'ch idrok etishdan to amalda qo'llashgacha bo'lgan bosqchlarida olib borish kerak. Tizimlilik barcha ta'lim oluvchilar o'quv muassasida bo'lgan birinchi kundan boshlab oxirigacha muntazam tashhisga jalb etilishini anglatadi. Ta'lim oluvchining bilimi va egallashi lozim bo'lgan barcha jihatlarni ishonchli tekshirishuchun ta'lim nazoratini tez-tez o'tkazish kerak. Tizimlilik tamoyili tashhis o'tkazishga bir butun yondashuvni talab etadiki, bunda nazorat, tekshirish, baholashning turli shakllari, metodlari, vositalari uzviy o'zaro bog'lilikda va birlikda qo'llaniladi, bir maqsadga xizmat qiladi. Bu kabi yondashuv tashxisning ayrim metodlari va vositalarini mutloqlashtirishga yo'l qo'ymaydi.

**Ko'rgazmalilik (oshkoraliq)** tamoyili avvalo barcha ta'lim oluvchilarni aynan bir hil mezonlar bo'ycha ochiq sinovdan o'tkazishni anglatadi. Tashhis jarayonida belgilanadigan har bir o'quvchi reytingi ko'rgazmali, qiyosiy xarakterga ega. Oshkoraliq tamoyili, shuningdek, baholarni e'lon qilish va motivasiyalashni talab etadi. Bahlo mo'ljal (orientir) bo'lib, ta'lim oluvchilar unga muvofiq o'zlariga qo'yiladigan talablar va pedagogning xolisligi haqida fikr yuritadi. Tamoyilni amalga oshirishning zarur sharti tashhislash natijalarini e'lon qilish, ularni manfaatdor shaxslar ishti-rokida muhokama va tahlil qilish, no'qsonlarni tugatishning istiqbolli rejalarini tuzish hisoblanadi.

**Talabalar o'quv faoliyatini nazorat qilish turlari, shakl va metodlari.** Hozirgi davr pedagogik amaliyotida talabalar o'quv faoliyatini nazorat qilishning qo'yidagi turlaridan foydalaniladi: joriy nazorat; oraliq nazorat; yakuniy nazorat.

**Joriy nazorat** o'qituvchi tomonidan talabalar har bir o'quv ishini muntazam nazorat qilishni hamda ularning o'r ganlilgan mavzularni o'zlashtirish bo'ycha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini tekshirishni o'z chiga oladi. Bilim darajasini tekshirish fanning har bir mavzusi bo'yicha kundalik ballar qo'yib borishni nazarda tutadi. Joriy nazorat o'qituvchini har bir talabalarning o'quv faoliyati bo'ycha tezkor ma'lumotlar bilan ta'minlaydi, o'qitish jarayonini boshqarishda yaxshi natija beradi, o'zlash-tirmagan talabalarni o'z vaqtida aniqlaydi, o'zlashtirmaslikni bartaraf etish bo'ycha choralar belgilaydi.

**Oraliq nazorat** - bu talabalar tomonidan mazkur fanning muayyan bob yoki bo'limlarining o'zlashtirilganini tekshirish. Oraliq nazoratni o'qituvchi dars jadvali asosida darsda o'quv materialining o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda o'tkazadi. Oraliq nazorat o'tkazishdan oldin talabalar ogohlantiriladi. Har bir oraliq tekshirish alohida-alohida shkala asosida baholanadi.

**Yakuniy nazorat** – choraklik, yarim yillik, yillik va davlat attesta-siyasi sinovlari singari turlarga bo`linadi. Yakuniy nazorat og`zaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarishmetodlari asosida o`tkaziladi. Nazoratning shakli o`quv ishini tashkil etishshakliga bog`liq bo`ladi. O`qituvchi uni mavzudan kelib chiqib tanlaydi. Nazoratning asosiy **beshshakli** mavjud:

**nazoratning ommaviy (frontal) shaklida** o`qituvchi talabalarga materialning ma'lum bir hajmi bo`ycha savol beradi, talabalar unga qisqa javob qaytaradi. Mazkur so`rash ko`pchilik talabalarni nazorat qilishni ta'minlaydi va butun guruhni faollashtiradi. Ammo bu nazoratni talabalarning bilim darajasini har tomonlama aniqlashuchun qo'llab bo`lmaydi.

**Nazoratning guruhli shaklida** talabalarning ma'lum bir qismi nazorat qilinadi. O`qituvchi tomonidan talabalar guruhiga vazifa beriladi va uni shu guruh bajaradi. Lekin masalani hal qilishda boshqa talabalar ham qatnashishi mumkin. Guruh ishlayotgan paytda qolgan talabalar bo'sh qolmaydi, ular o'rtoqlarining bajargan ishlarini baholashuchun o'z ustilarida ishlab o'tiradi.

**Nazoratning individual shaklidan** har bir talabaning bilim, ko`nikma va malakasi bilan mukammal tanishishuchun foydalaniladi. Nazoratning bu shaklida odatda talabalar javob berishuchun yozuv taxtasi oldiga chaqiriladi.

**Nazoratning kombinasiyalangan (biriktirilgan)shakli** individual nazoratni ommaviy va guruhli shakllar bilan birlashtirishni taqozo etadi. Bu nazoratni hajmi katta mavzularni barcha talabalardan so`rash kerak bo`lgan vaqtida foydalanadi. Har bir talabaga alohida topshiriq beriladi va bir vaqtda birnecha talabalarni tekshirish mumkin bo`ladi, o`z-o`zini nazorat qilishshakli ta'lim jarayonidaichki aks aloqaning bo`lishini ta'minlaydi. Nazoratning bu shakli psixologik mezonlarga asoslanadi. Uning samaradorligi o`qituvchining kasbiy mahoratiga bog`liq bo`ladi. Talabalar o`quv faoliyatini nazorat qilish **metodlari** qo`yidagilar: **og`zaki tekshirish, yozma tekshirish, amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish, uy vazifalarini tekshirish.** **Og`zaki tekshirish.** Bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholash-ning ancha keng tarqalgan an'anaviy usullaridan biridir. Og`zaki tekshirishning mohiyati shunda ko`rinadiki, o`qituvchi o`quvchi-larga o`rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, savollar beradi va ularni javob berishga undaydi. Ana shu tarzda ularning o`zlashtirish darajasini aniqlaydi. Og`zaki tekshirish talabalar bilimlarini tekshirishni savol-javob usuli asosida amalga oshiriladi. Ushbu usul ayrim hollarda suhbat usuli deb ham ataladi. Og`zaki tekshirishda o`qituvchi o`rganilayotgan mavzuni alohida qismlarga ajratadi va ularni har biridan talabalarga savollar beradi. Biroq talabalarning nutqini o`stirish hamda ularning chuqur va mustahkam bilimga ega bo`lishlari uchun ulardan shu yoki oldingi mavzuni butunlay esga tushirishni talab qilish mumkin.

**Yozma tekshirish** – talabalar bilim, ko`nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo`lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Mazkur usulning mohiyati shundaki, o`qituvchi alohida mavzu yoki o`quv dasturining ma'lum bo`limini o`tib bo`lganidan so`ng oz vaqtning chida barcha talabalarni tekshirishi mumkin. Yozma tekshirish nazorat ishi, insho, bayon, diktant va b. yordamida olib boriladi. Ammo o`qituvchi va talabalar o`rtasida bevosita aloqaning yo`qligi sabali, uning fikrlashini kuzatish imkonni bo`lmaydi.

**Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish.** Bajarilayotgan amaliy harakatlari (sport, mehnat harakatlari)ning to`g`riligini kuzatish yoki olingen natijalarga tayanishdan iborat bo`lishi mumkin. Amaliy tekshirish tabiiy-matematik sikldagi fanlardan talabalar o`zlashtirishini hisobga olishda keng foydalaniladi. Bu usul yordamida talabalar olgan bilimlarini amaliyotda qo`llay olish malakasi aniqlanadi.

**Uy vazifalarini tekshirish.** Talabalar o`zlashtirishini nazorat qilishchun ularning uyga berilgan vazifalarini bajarishini tekshirish katta ahamiyatga ega. Uy vazifalarini tekshirish o`qituvchiga talabalarlarning o`quv ishiga bo`lgan munosabatini, o`rganilgan materialni qanchalik egallaganligini, uy vazifalarini bajarishdagi mustaqillik darajasini aniqlashga imkon beradi. Ma'lumki, bugun ta`lim tizimida reyting nazoratidan keng foyda-lanilmoqda.

**Reyting deganda** baholash, tartibga keltirish, klassifikasiyalash, bironta hodisani oldindan belgilangan shkala bo`ycha baholashtushuniladi. Reyting nazorati talabalar ma'lum bir fandan reytingini aniqlaydi.

**Shkalalash** – aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish. Reyting nazoratida talabalar o`quv faoliyatini nazorat qilishning yuqorida keltirilgan metodlari bilan birga test usulidan ham samarali foydalanilmoqda. Test so`rovidan nafaqat talabalar bilim, ko`nikma va malakalari darajasini aniqlash, balki 1993 yildan buyon O`zbekiston Respublikasida abiturientlarni oliy o`quv yurtlariga tanlov asosida qabul qilish jarayonida va o`quv jarayonlarida ham samarali foydalanib kelinmoqda. Test – aniq maqsad asosida, muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko`rsatkchlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi. Pedagogik amaliyotda testning bir qator afzalliklari ko`zga tash-lanadi. Ular quyidagilardir: nazorat uchun vaqtning kam sarflanishi; nazariy va amaliy bilim darajasini ob`ektiv sharoitda aniqlash imkonining mavjudligi, bir vaqtning o`zida ko`p sonli talabalar bilan nazoratni tashkil etish mumkinligi; bilim natijalarining o`qituvchi tomonidan qisqa muddatda tekshirilishi; barcha talabalarga bir xil murakkablikdagi savollar berilib, ular uchun bir xil sharoitning yaratilishi. Ta`lim tizimi uzluksiz ravishda islohotlarni amalga oshirishni talab etadigan sohadir. Ta`lim tizimida islohotlarni amalga oshirish jarayonida

talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash ham yangcha mazmun kasb etdi. Davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqilganligi, yangi o'quv dasturining amaliyatga joriy etilganligi, erkin va mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga nisbatan yuqori talabning qo'yilayotganligi, ta'lim amaliyotiga pedagogik texnologiyalar olib kirilayotganligi, talabalarini tibbiy kasbiga muvaffaqiyatli yo'llash maqsadida psixologik va pedagogik diagnostika barcha turdag'i ta'lim muassasalarida keng ko'lama amalga oshirilayotganligi kabi holatlar ko'zga tashlanayotgan bir vaqtida talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini eng samarali shakl, metod va vositalar yordamida nazorat qilish hamda baholash muhim ahamiyatga ega. Talabalar bilimini baholashning besh balli baho;lash tizimi joriy etildi.

### **9.3. Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari.**

Talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari hamma vaqt bahs talab mavzu bo'lib kelgan. Chunki u turli adabiyotlarda turlcha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalariga, shuningdek, guruhdagi talabalar o'zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi. Shuningdek, baholash mezonlarini ishlab chiqishda talabalar og'zaki javob berishlari, ko'nikma va malakalariga alohida-alohida yondashiladi. Masalan, Gistalogiya dars mashg'ulotidan baholash mezonlariga talabalarni og'zaki javoblari, amaliy topshiriqlarni bajara olishlari va amalda mavjud bilimlarini namoyish eta olishlari inobatga olinadi. Buni «4» baho misolida aniqlashtiramiz. og'zaki javob berishda «4» baho qo'yiladi, agar: a) o'rganilayotgan mavzu yuzasidan to'g'ri javoblar bersa; b) material mantiqiy ketma-ketlik-da aniq bayon etilsa; v)o'qituvchi talabi bilan tuzatilgan ikki-uchta unchalik ahamiyatga ega bo'limgan xatolarga yoki ba'zi to'liq bo'limgan javoblarga yo'l qo'ysa. Yozma topshiriqni bajarishda «4» baho qo'yiladi, agar: a)masalani yechishda va izohlashda muhim xato bo'lmasa; b)topshiriqni bajarish va izoh-lashda muhim ahamiyatga ega bo'limgan bir-ikki xatoga yo'l qo'yilsa yoki bitta izohning mohiyati ochib berilmagan bo'lsa. Amaliy bilimlarni namoyish etishda «4» baho qo'yiladi, agar: a)ishni to'liq, muhim xatolarsiz bajarsa, natija chiqara olsa; b)ishni bajarishda, tajribani tugallashda ikki-uch muhim bo'limgan xatolarga yo'l qo'ysa.Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa chiqarish mumkin: **«5» baho qo'yiladi, agar:** a) talabalar dasturdagi materialni to'liq o'zlashtirib olgan bo'lsa; b) o'rganilgan mavzu bo'ycha asosiy fikrlarni ochib bera olsa; v) egallangan bilimlarni amalda erkin qo'llay olsa; g) o'rganilgan mavzuni bayon qilishda, yozma ishlarda xatolarga yo'l qo'ymasdan, ma'lumotlarni

tushuntirib bera olsa. «**4**» **baho qo`yiladi, agar:** a) talabalar o`rganilgan mavzuning mohiyatini bilsa; b) o`qituvchining savollariga qiynalmasdan javob bera olsa; v) egallangan bilimlarni amaliyatda qo`llay olsa; g) og`zaki javob berishda jiddiy xatolarga yo`l qo`ymasdan, o`qituvchining qo`shimcha savollari bilan xatolarini to`g`rilay olsa hamda yozma ishda uncha jiddiy bo`lmagan xatoga yo`l qo`ysa qo`yiladi. «**3**» **baho qo`yiladi, agar:** a) talabalar o`rganilgan mavzuni o`zlashtirgan, lekin mustaqil tushuntirib berishda o`qituvchining aniqlashtiruvchi savollariga ehtiyoj sezsa; b) savollarning mantiqiy tuzuilishini o`zgartirib berganda, javob berishga qiynalsa; v) yozma ishda xatolari bor bo`lsa. «**2**» **baho qo`yiladi, agar:** a) talabalar o`rganilgan mavzu haqida tushun-chaga ega, biroq mavzuni o`zlashtirmagan, b) yozma ishda qo`pol xatolarga yo`l qo`ysa qo`yiladi.

### **Nazorat savollari.**

1. Talabalar o`zlashtirish natijalarini hisobga olishda nimalarga e'tibor berish lozim?
2. Ta'lif jarayonida nazorat qilish va hisobga olishning vazi-falari nimalardan iborat?
3. Ta'lif olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillariga ta'rif bering?
4. O`quv faoliyati natijalarini nazorat qilishning qanday turlari mavjud.
5. Nazoratning shakllari haqida ayting
6. Talabalar bilim, ko`nikma va malakalarini baholash mezonlarini tushuntirib bering.

## X BOB. KASB TA'LIMIDA INNOVATSIYALAR

### 10.1. Kasbiy ta'limda innovatsiyalar

Bizning mamlakatimizda pedagogik innovatsiyani yaratilishi va rivojlanishi keng jamoatchi pedagoglar harakati tez rivojlanishi, moderinizatsiya qilinishi, standartlarni takomillashtirilishi va dasturlarni yangilanishiga bo'lgan katta ehtiyoj tug'ildi. Yangiliklarni izlash, yaratish, qo'llanishlari jadallahib bordi. Shu sababli yangi bilimlarga bo'lgan talab, "yangilik", "innovatsiya" va "innovatsion jarayonlar" paydo bo'ldi va u tushunchalarni izohlash, anglash zaruriyatini keltirib chiqardi. Innovatsion jarayon boshqa sifatli holatga eskirib qolgan hamda vaziyat va ahamiyatlarini qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq bo'ladi. Bir darajali qator yangiliklar yig'indisi (umumiyligi) innovatsion yaxlitlikni tashkil etadi. Innovatsion aoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, tom ma'noda ta'lim jarayoniga kirib keladi. Shu sababli ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonlarga kiritish to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

1. Muammoni tahlil asosida aniqlash;
2. Mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash;
3. O'zgarish va yangiliklarni rejalashtirish;
4. O'zgarishlarni amalga oshirish.

Yangilik kiritish iichki mantiq va yo'nalishlarga ega bo'lib, u yangilik g'oyasi (fikrini) tug'ilishdan to uni foydalana boshlanishigacha bo'lgan harakterlarni rivojlantirishham innovatsion ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat mantig'ini belgilaydi. Shu o'rinda yangilikni ilk turi haqida gapirish mumkin. Birinchi marta yaratilgan yangilik. Bu yangilik ixtiroga teng, ya'ni yangi o'rnatilgan yangi haqiqat demakdir. Avval mavjud bo'lgan nazariyani yanada takomillashtirib, zamonaviylashtirib, shukunning talabiga moslashtirishdan iboratdir.

**Innovatsion didaktikaning predmetini** yangilikni o'rgatish, o'rganish, yangilash, uni mazmunini boyitish tashkil etadi. Bunda ishtirok etayotgan barcha komponent bir – birlari bilan shunday o'z real aloqadaki, ulardan birortasini chetda qoldirish mumkin emas. Shu boisdan ham "pedagogik texnologiya", "didaktik texnologiya", "ta'lim texnologiyasi" atamalaribidanbir qatorda "innovatika", "innovatsion pedagogika", "innovatsiya", "innovatsion faoliyat", "innovatsion jarayon" atamalari mustahkam o'rin olib bormoqda. Yuqorida sanab o'tilgan tarzda o'rgatish, o'rganishda ta'lim mazmunini innovatsion asosda tashkil etish asosiy o'rin tutadi.

**Birinchibosqich-** tayyor metodik tavsiyanomalar olib qo'llaniladi.

**Ikkinchibosqich-** mavjud tizimga ayrim masalalar (modifikatsiyalar) metodlar kiritiladi.

**Uchinchi bosqich-** yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari va shakllari to'la ishlab chiqiladi.

**Turtinchi bosqich-** O'qituvchi o'qitish va tarbiyalashning o'z kontseptsiyasini va metodikasini ishlab chiqadi.

Hozirgi kunda shunday tizimni yaratish yo'lida bir qator izlanishlar, sa'y – xarakatlar amalga oshirildi. Jumladan, vazirlik, viloyat, tuman xalq ta'limi boshqarmalari tarkibida takomillashtirilgan Davlat ta'lim standartlarini monitoringini olib boradigan bo'limlar faoliyat ko'rsatmoqda. Bu tashkil etilgan yangi bo'g'inlar quyidagi ishlarni olib borishga yo'naltirilgan:

ta'lim sohasidagi yangi o'quv me'yoriy hujjatlarning bajarilishi nazoratini yuritish; ta'limni boshqarish mahalliy organlari va o'quv muassasalarining umumiylashkiliy pedagogik ishlari qatori pedagogik innovatsiyalarning samaradorligini tahlil qilib borish; Pedagogik tajriba – sinov ishlarining borishini analistik taxlili, umumlashtirish, ommalashtirish va tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash; Pedagogik innovatsion texnologiyalarni to'plash, nazorat qilish va joriy etish ishlarini, o'quv ishlarini tashkil qilish, shunga oid seminar, treninglar, qisqa muddatli o'quvlar tashkil etish choralarini ko'rish; Innovatsion texnologiyalarni yaratish, izlash, topish haqida tegishli ma'lumotlar jamg'arma bankini yaratish, to'plash, tahlil qilish, tanlash, ta'lim muassasalariga joriy etish bo'yicha ishlarni tashkil etish. Innovatsiyalar jamg'armasini eng avvalo "**izlash, to'plash" jarayonini** amalga oshiriladi. Monitoring bo'limlari:

- Davlat ta'lim monitoring ma'lumotlaridan;
- Xalq ta'limi pedagoglarini qayta tayyorlash va malakalarini oshirish institutlaridan;
- Respublika ta'lim markazidan;
- Internet xabarlaridan oladilar.

Innovatsion ilg'or texnologiyalar to'planib, o'rganish, qayta ishslash maqsadida ularni kompyuterda, kartoteka va maxsus yig'ma materiallar banklari tuziladi.

**Innovatsion faoliyatda o'qituvchi va talabalarning munosabatlari:** O'qituvchi bilimni tashuvchi, yetkazuvchi emas, talabanio'qishi, bilim olishida yordamchi, maslahatchi, tashkilotchi rahbarga aylanadi; O'qituvchi konstruktorlash, loyixalash, atgoritmlash, modullashtirish, atroflicha fikrlash sharoitida ish yuritadi; O'quv jarayoni ikki tomonlama faol ish yuritishga o'rganishga odatlantiriladi; Talabani o'zini- o'zio'qitish, faollikda, yakka, juft, kichik, katta guruhlarda ishslashga muxit yaratishi, O'quv jarayonini individuallashtirish kerak. Shu holatlarda o'quv mazmunini, DTS talablarini to'la o'zlashtirish kafolatlanadi.

Loyiha (lotincha projectus – oldinga tashlangan) – tasvir, asoslanma, aniq hisob kitob, chizmalar shaklida aks ettirilgan g'oya, ma'lumotning mohiyatini ochib beruvchi, ularni amalga oshirishning aniq yo'llarini belgilab beruvchi g'oyalar, fikrlar, obrazlardir.

**O'quv loyihasi** – ahamiyatga molik nazariy yoki amaliy muammolarni ta'lim oluvchilar tomonidan amalga tadbiq qilishning tadqiqotchilik, izlanuvchanlik, ijodkorlik ish turidir. O'qitishni loyihalash esa ta'limning umumiyligi maqsadi, mazmuni o'quv maqsadlari o'qish, o'qitish, o'zlashtirishni baholash, tuzatishlar kiritishdir. Demak, o'qitish jarayonini loyihalash uchun ijtimoiy buyurtma sifatida ta'limning umumiyligi maqsadlari asosida, o'quv maqsadlarini, buning uchun o'qish va o'qitishni, o'zlashtirishni rejalahtirgan holda, o'qish natijalarini kafolatlash tizimini ishlab chiqish lozim. Shunday qilib, pedagogik fanlarni o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirishda o'quv mazmuni aniq manbalar asosida o'zlashtirish natijalarini kafolatlashuchun, o'quv maqsadlari oydinlashtiriladi va o'quv mashg'ulotlari loyihalashtiriladi. Buni qayta takrorlanadigan, tiklanadigan tuzilma deb qaraydigan bo'lsak, unda o'quv jarayoni ma'lum modullar, birliklardan iborat bo'ladi, ular umumiyligi holda ushbu modullar, birliklarning qo'shilishi asosida yagona va yaxlit mazmunga keltiriladi. Bunga eng muhimi, takrorlanadigan, qaytariladigan va tuzatishlar kiritilgan, ilmiy asoslangan teskari aloqanining mavjudligidir. Ma'lumki, o'quv jarayoni 3 ta bir-biri bilan bog'liq o'qitishning tarkibiy qismlaridan tashkil topgan.

1. Motivlar. (M)
2. Talabaning o'qish faoliyati. (O'F)
3. O'qituvchining boshqaruvchilik faoliyati. (B)

shunday qilib, o'quv jarayonini quyidagi formula tarzida ifodalash mumkin.  
$$O'J = M + O'F + B$$

Mana shu formula asosida maqsad oydinlashtiriladi, texnologiyalar belgilanadi, faoliyat yo'lga qo'yiladi va amalga oshiriladi. Buni oldindan rejalahtirish yoki o'quv jarayonini loyihalashtirish deyiladi. Pedagogik fanlarni o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirishning bu qismi amalga qo'llanilganda ta'limning tabiatga uyg'unlik qoidasiga asoslansa, ya'ni o'qituvchining tabiiy xususiyatlari-qiziqlishi, istak, xohishi, ehtiyoji, qobiliyati, aqliy kuchlari hisobga olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirishda mazkur holat hisobga olinishi darkor. Pedagog olim Malla Ochilovning ta'rificha pedagogik fanlarni o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirishni shunday tavsiflagan. "Ta'lim jarayonida interfaol metodlarning

muvaffaqiyati, ta'limni rejalashtirilgan maqsadga erishishni kafolatlaydigan o'quv biluv jarayonini loyihalashtirishdir". Muallifning fikricha o'quv mashg'ulotlarini loyihalashda o'qituvchi ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, dastur, Dars mashg'ulotilik, ijodiy faoliyatga yo'naltiruvchi topshiriqlar mazmunini o'qituvchi talabaning oldingi ish faoliyati mazmuni, kelajakdagi amalga oshiriladigan faoliyati inobatga olinadi. O'quv jarayonini loyihalashda talabalarning belgilangan maqsad sari harakatlanishi uzluksiz nazorat qilishni e'tibordan chiqarmaslik kerak. Shunday qilib, ta'lim jarayonining qurilmasi, uni loyihalashning: a) ta'lim maqsadlari va natijalarini belgilashni; b) natijalar asosida (diagnostikalash orqali) nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqishni; hamda o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi dars mashg'uloti mashg'uloti mazmunini ishlab chiqish bosqichlarini amalda qo'llashni nazarda tutadi.

## **10.2. Dars mashg'uloti mashg'uloti loyihasi va uni amalga oshirish modeli.**

Hozirga qadar ko'pgina ta'lim muassasalarida dars mashg'uloti mashg'uloti loyihasini tuzish, ta'lim maqsadini belgilash yoki ta'limni tashkil etish yo'llari kabi elementlar vaqt sinovidan o'tdi. Dars mashg'uloti mashg'uloti loyihasining har bir elementida ma'lum bir malakalarni shakllantirish maqsadi bo'lib, ularni bir qancha ta'lim metodlari talablari va amaliy ishlar vositasida amalga oshiriladi. Dars mashg'uloti mashg'uloti loyihasida quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

1.Vaqtni to'g'ri belgilash - Talabalar diqqatini jalb qiluvchi faoliyatni aniqlash. Tarqatma materiallar, xattaxtada yozib qo'yiladigan savollar , qo'yiladigan muammolar va hokazo. 2.Maqsadni belgilash - talabalar bugun nimani o'rganadi va natijada qanday ishni bajara oladi (malaka). Ular professor-o'qituvchilarga bugungi o'rganganlari asosida ma'lum bir faoliyat turini bajarib ko'rsata olishlari lozim. Bu vazifani qanday bajarishni professor-o'qituvchini o'zi belgilaydi. 3.Kirish - professor- o'qituvchi talabalar o'rganishi lozim bo'lgan materialni belgilaydi, konsepsiyanı ishlab chiqadi va malakalarni qanday qulay egallash yo'llarini ko'rsatadi, mavzu mazmunini qisqacha tavsiflaydi. 4.Modellashtirish (namoyish qilish) professor-o'qituvchi o'rganilayotganlarni va natijada talabalar egallashi lozim bo'lgan ko'nikmani grafik shaklda ko'rsatadi yoki namoyish qiladi. 5. Amaliy boshqaruv - professor-o'qituvchi talabalar faoliyatini boshqaradi. Ularning malaka egallashlari uchun qadamma - qadam rahbarlik qiladi. Talabalarni eshitish, ko'rish sezgilarini ishga soladi va faoliyatga kirishishlari uchun imkoniyat yaratadi. 6.Tushunchalarni tekshirish - professor-o'qituvchi turli savollar yordamida talabalarning qanchalik tushunganlarini dars mashg'uloti davomida tekshirib, olg'a borish mumkinmi yoki yuqligini aniqlaydi. Agar olg'a borish mumkin bo'imsa orqaga qaytib bajariladigan ishlarni belgilaydi. 7.Mustaqil

amaliyot - professor-o'qituvchi talabalarni o'zlarini tekshirib ko'rishlari uchun imkoniyat yaratadi. Talabalar mustaqil o'zları o'rganganlarını tekshirib ko'radilar. 8.Dars mashg'uloti mashg'ulotini tugallash – dars mashg'uloti mashg'ulotini xulosalash oldidan talabalar o'zi bajargan ishlarini, o'rganganlarini professor-o'qituvchiiga so'zlab berish, namoyish qilish orqali ko'rsatadilar.

**Loyihalash metodi** – pedagogik jarayonni loyihalash texnologiyasining asosi sifatida. Loyihalar predmet va uning yo'nalishiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Loyihalarda pedagog tomonidan ketma-ket amalga oshiriluvchi va tashhisning qo'yilishi bilan yakunlanuvchi tahliliy faoliyat; oldindan ko'ra bilish va loyihalash kabi ijodiy faoliyatlar namoyon bo'ladi. Tashhis, oldindan ko'ra bilish va loyihalash har qanday pedagogik vazifani hal etishning ajralmas uchligi hisoblanadi. Loyihaning maqsadi oldindan qog'ozda taqvim-reja, qisqacha yozma bayon sifatida aks ettiriladi. Strategik, taktik va operativ vazifalarning samarali hal etilishi loyihalash texnologiyasining sifatiga bog'liq. Pedagogik jarayonni loyihalashda pedagogning faoliyati, pedagogik vositalarni qo'llash mazmuni va imkoniyatigina hisobga olinmasligi kerak. U asosan alohida talaba guruhi tomonidan tashkil etiluvchi faoliyat mazmunini yoritishi zarur. Loyihalashta'limning ijtimoiy, pedagogik maqsadlarga tayangan holda, pedagogik jarayonni aks ettiruvchi umumiyligi strategiya hisoblanadi. Loyihalashda o'quv rejasi, dasturlari, dars mashg'uloti mashg'ulotilik, metodik tavsiyalar va boshqa o'quv qo'llanmalar muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik maqsad pedagogik jarayonni tashkil etishga tayyorlanish bosqichida pedagogik vazifa sifatida qabul qilinadi. Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati turli vazifalar mohiyatining bir yo'la yoki birin-ketin anglanishiga bog'liq. Pedagogik faoliyat uchun umumiyligi bo'lgan vazifalarni belgilab olish muhimdir. Pedagogik jarayonning ma'lum bosqichi mohiyatini aniq ifodalaydigan bosqichli vazifalar (alohida olingan bosqich vazifalari)ni, nihoyat xususiy (vaziyatli) pedagogik vazifalarni aniq belgilab olish maqsadga muvofiq: Agar pedagogik vaziyat yetarli darajada to'g'ri anglanmasa, u holda pedagogik vazifalarning hal etish yo'llari ham to'g'ri belgilanmaydi. Endigma kasbiy faoliyatni boshlagan o'qituvchi tajribasizligidan pedagogik vaziyatnini to'g'ri anglash, vazifalarni to'g'ri belgilash malakasiga ega bo'lmaydi, shu sababli ular o'zlaricha yo'l tutadilar va pedagogik vazifani darhol hal etmoqchi bo'ladilar, natijada jiddiy xatoga yo'l qo'yiladi. Ayrim holatlarda tajribali pedagoglar ham pedagogik vaziyatni to'g'ri anglashga e'tiborsiz qaraydilar. Natijada pedagogik faoliyatda nomutanosibligi vujudga keladi: pedagog o'z faoliyatining pedagogik maqsadlarni hal etilishini ta'minlay olish-olmasligini o'ylab o'tirmay, talabani faollashtiradi, ko'rgazmali qurollardan foydalanadi, bilimlarni nazorat qiladi. Pedagogik faoliyatning yana bir nomutanosiblik tomoni Shundaki, ko'pchilik pedagoglar pedagogik vazifalarni

ikkinchi darajali, funksional, o'tkinchi vazifalarga almashtiradilar va faqat ulargagina o'z diqqatlarini qaratadilar. Pedagogik vazifani anglash mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish va tashhis qo'yishuchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumotlarning tahlili vaziyat o'rnini aniqlashdan tashqari, butun pedagogik jarayonda tarbiyachi, tarbiyalanuvchi va ular o'rtasidagi munosabat hamda ta'lim mazmuni, samarali vosita va pedagogik shart-sharoitlar kabi asosiy tarkibiy qismlarni aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Ma'lumotlarning tahlili pedagogik jarayon mohiyati, jamoa va alohida talaba harakatlari holatini aniq vaziyatlarda rejali o'rghanish kabi ilmiy dalillarga ega bo'lishga yordam beradi. Ushbu dalillar amaliy faoliyat asosini tashkil etadi. Mavjud dalillar pedagog faoliyat jarayonining kechishi va kutilgan natijaning kafolatlanishini tashhislashga imkon beradi. Bizning nazarimizda mazkur o'rinda "tashhis" tushunchasining mohiyatini yoritib o'tish maqsadga muvofiqdir.

### **10.3. Ta'lim jarayonini loyihalashning asosiy tamoyillari.**

**Markazlashtirish tamoyili** texnologik jarayonda talaba faoliyati modelini loyihalashning bosh elementi sifatida ifodalanadi. Ta'lim jarayoni tuzilmasida asosiy tizimlashtiriluvchi ta'lim mazmuni va talaba faoliyati texnologik jarayon hisoblanib, uning mazmunini talabaning ijtimoiy tajriba asoslarini o'zlashtirib olishga yo'naltirilgan o'quv faoliyati tashkil etadi. Har bir o'quv fani bo'yicha ta'lim mazmuni umumiyligi ta'lim maqsadi va vazifalariga muvofiq belgilanadi. Faoliyatli yondashuv nuqtai nazaridan umumiyligi o'rtaligida mazmunini tashkil etuvchi har bir unsur (element) sub'ekt faoliyatining turlaridan biriga muvofiq kelishi kerak. Sub'ekt faoliyatining turlari, o'z navbatida, aniq modellar yig'indisi sifatida umumlashgan faoliyat modellarini orqali ifodalanishi zarur. Talaba faoliyati modeli tizimlashtiriluvchi element bo'lib, talabaning yaxlit faoliyati mazmunini aniqlashga xizmat qiladi. Markazlashtirish tamoyili loyihalashni quyidagi tartibda amalga oshirishni talab etadi: faoliyat modellarini maqsadga muvofiq yaratish, shuningdek, ularni talaba tomonidan o'zlashtirish usullari, vositalarini tanlash (texnologik operatsiyalar), o'quv faoliyatini boshqarish usullari (o'qituvchi faoliyati)ni asoslash.

**Refleksivlik tamoyili** - sub'ektning o'ziga, shaxsiy faoliyatiga va bilimiga baho berishi, o'zgalarning u haqidagi fikrlari va ular o'rtasidagi hamkorlik faoliyatiga oid munosabatlarni tavsiflaydi. Loyihalash jarayonida o'qituvchiga doimo ta'lim jarayoni, uning aniq va ideal sharoitlari, talabaning bilishga bo'lgan ehtiyojlari, ularni to'ldirish imkoniyatlari, shaxsiy sifat va qobiliyatlarini, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish imkoniyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq. Refleksivlik tamoyili yaratiladigan ta'lim jarayonining loyihasini ta'lim jarayoni

ishtirokchisi – sub'ektning ehtiyojlari va imkoniyatlarini tahlil qilish asosida uzluksiz tuzatib, to'ldirib borishni talab etadi.

**Natijaviylik tamoyili** – pedagogik shart-sharoitlarning qulayligi, oz vaqt va kuch sarflash evaziga samarali natijalarga erishishni tavsiflaydi. Natijaviylik-ijtimoiy tajriba faoliyat modellari mazmuni, texnologik operatsiyalar, ularni o'zlashtirish, boshqarish uslublarini tanlash, o'quv faoliyatining muvofiqligi, ta'lism-tarbiya vositalari, texnologik jarayonda sub'ektning qisqa vaqt va kuch sarflashi vositasida belgilangan maqsadga erishishni nazarda tutishi lozim.

**Ko‘p omillilik tamoyili.** Har bir ta'lism jarayoni bir qator ob'ektiv va sub'ekтив omillar ta'sirida amalga oshadi. Ular sirasiga o'qituvchi va talabaning ijtimoiy-iqtisodiy hayot sharoitlari, ta'lism muassasalari atrofidagi ijtimoiy ishlab chiqarish va tabiiy iqlim muhiti, o'quv muassasasining o'quv-moddiy bazasi, o'qituvchilarning kasbiy malaka darajasi, ta'lism muassasasi yoki ma'lum sinfdagi ma'naviy-psixologik muhit, talabaning o'quv imkoniyatlari, sinfning intellektual salohiyati, jamoaning shaxslararo munosabatlari kiradi. Ta'lism jarayonini loyihalashda o'qituvchi ana shu omillarni hisobga olishi zarur.

**Talaba shaxsini ta'lism jarayoniga moslashtirish tamoyili.** Talaba OTM ostonasiga qadam qo'yganidan boshlab uning faoliyat ko'lami (o'z-o'ziga xizmat, mehnat, dam olish tarzida) kengayadi. Bu kabi faoliyat ko'nikmalarini egallashi natijasida ijtimoiy tajribaga ega bo'lib boradi. Shuninguchun ta'lism jarayonining samarali bo'lishi, uni loyihalashda ta'lism mazmuni va boshqa faoliyat modellari hisobga olinishi, ularni talaba kundalik hayot faoliyatida egallab borishi ta'minlanishi zarur. Ayni vaqtida umumiylar ta'lism muassasalarida shaxsni rivojlanirish va uni ijtimoiy hayotga moslashtirish muayyan qonuniyatlargacha muvofiq psixolog va sotsiologlarning ishtiroklari (psixopedagogik tashhis xulosasi) asosida amalga oshiriladi.

**Ta'lism jarayonida tabiiy rivojlanish va ijtimoiylaShuv tamoyili.** Tabiiy jarayonlar mohiyatini bilish ta'lism jarayonini samarali, talabaning yosh xususiyatlari, senzitiv rivojlanish davrlari, rivojlanishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish imkonini beradi. Tamoyilning mazmuni ta'lismi ijtimoiylashtirish, talaba tomonidan ijtimoiy tajribani individual qonuniyatlar asosida o'zlashtirilishi bilan izohlanadi. O'qituvchi faoliyatini tashkil etishda e'tibor birinchi navbatda faoliyat usullari va jarayonlarining o'zaro muvofiq bo'lishiga qaratiladi. Bu holat me'yoriy talab sifatida qabul qilinadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lism talabaga o'quv materialining mazmunini, vazifa yoki topshiriqlarni, faoliyat usullari hamda uslublarini tanlash imtiyozini beradi. Tanlash imkoniyati talabani qaror qabul qilish, mustaqil izlanish va javobgarlikni his qilishga undaydi. Shu bois o'quv faoliyatining muqobil

modellarini ishlab chiqish va ularni talabaga taklif etish maqsadga muvofiq. Loyihalashda talabani o‘quv faoliyatiga yo‘naltiruvchi usullar, mustaqil ta’lim shakli, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘zini hurmat qilish imkoniyatlarini aniqlash zarur. Texnologik jarayonni boshqarishda o‘qituvchining faoliyati texnologik operatsiyalar tarzida tashkil etiladi. Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan barcha vositalar o‘zaro bog‘liq moddiy (dars mashg’uloti mashg’ulotilik, o‘quv qo‘llanmalari, ko‘rgazmali hamda namoyishli vositalar, laboratoriya jihozlari va h.o.lar) va ma’naviy (teskari aloqa, o‘qituvchi yoki talaba namunasi, xattiharakatlari, nutqi va boshqalar) kabi guruhlarga ajratiladi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi loyihasini amalga oshirishda uning shaxsiy sifatlari, ya’ni, kasbiy mahorati, motivatsiya, pedagogik qobiliyat, xarakter, temperament, ruhiy holati, o‘z-o‘zini anglashi va hokazolar namoyon bo‘ladi, ta’lim jarayonini loyihalashda o‘qituvchi loyihachi va bajaruvchi sifatida loyihani amalga oshirishning qulay yo‘lini tanlaydi.

**Axborot ta’minotini loyihalash tamoyillari** ta’lim jarayoni loyihasida axborot ta’minoti shakllantirishga xizmat qiladi.

**Ijtimoiy-iqtisodiy ta’minotni loyihalash tamoyili iqtisodiy** maqsadga muvofiqlikni ta’minlashni anglatadi. Ta’lim jarayonini ijtimoiy-iqtisodiy loyihalash ta’lim menedjerining vazifasidir. Barcha ta’lim muassasalari faoliyatini loyihalashda ta’lim jarayoni ishtirokchilar, jamiyat hamda davlat (ijtimoiy buyurtma)ning ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olish, ularni to‘ldirishi zarur.

**Loyihalash metodi asosida o‘qitishni tashkil etishda o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar va ta’limning modulli tizimining tutgan o‘rni.** Har qanday pedagogik texnologiya asosini ilmiy jihatdan loyihalangan didaktik jarayon – o‘quv-bilish faoliyati tuzilmasi tashkil etadi. Ana shu jarayonni ajratilgan vaqt doirasida amalga oshirish o‘qituvchining kasb mahoratiga bog‘liq. Asosiy kanal (1) yordamida o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha o‘quv elementlarining mazmuni o‘qituvchi tomonidan talabaga yetkaziladi. Bu vaqt davomida yangi bilimlarini qabullash, o‘zlashtirish va mustahkamlash mulohazalari, o‘quv- bilish faoliyatini boqarish amalga oshirildi. O‘quv vaqtining asosiy qismi (70 % foizgacha) talabaining o‘z-o‘zini boshqarish jarayoniga sarf bo‘lmog‘i lozim. Talaba o‘zlarida o‘zlashtirilmagan o‘quv elementlarini qo‘shimcha axborotlar manbaidan olishadi. Bunday sharoitni OTM o‘qituvchisi o‘z fani bo‘yicha auditoriyada yaratishi uning ijodiy mahoratini belgilab beradi. Qo‘shimcha boshqariluvchan axborotlar manbai kitob (dars mashg’uloti mashg’ulotilik, qo‘llanma, ma’ruzalar matni, monografiya va b), O‘TV (o‘qitishning texnik vositalari), kompyuterlar xizmat qiladi. Talabadan axborotlar o‘qituvchiga teskari aloqa (3-kanal) asosida uzatiladi. Bunda o‘qitish jarayoni natijasi to‘g‘risida o‘qituvchi to‘liq ma’lumot oladi. Bugun o‘qitish tizimida assiment aynan shu vazifani o‘tishi uchun joriy etilgan.

O‘qituvchida talabaning o‘zlashtirish darajalari to‘g‘risida aniq ma’lumotlar bo‘lsagina u o‘quv-bilish faoliyatini samarali boshqarishi, ta’limiy axborotlarning texnologik harakatlarini korreksiyalashi mumkin bo‘ladi. Bir xil o‘quv fondi va bir sharoitida nima uchun talaba A materiallarini yaxshi o‘zlashtiryapti, talaba V esa aksincha, sust o‘zlashtiryapti, degan savolga o‘qituvchi javob topishi, buning uchun u o‘z faoliyatini tuzatishi, ya’ni asosiy o‘quv materiali asosida talabaga o‘zatilayotgan axborotlar mazmunining optimal tuzilmasini rejorashtirishi lozim. Ana shu maqsad uchun 2-kanal ishga tushadi. Fanning aniq mavzusi bo‘yicha belgilangan maqsadlari (taktik) va butun fan bo‘yicha egallanishi zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar tizimi (strategik) oldindan belgilanadi. Demak, o‘qitish jarayoni natijalari oldindan aniqlansagina pedagogik texnologiyaning asosiy prinsipi – yakuniy natijaning kafolatlanishi ta’minlanadi. Shunday qilib, karalayotgan texnologik jarayon tuzilmasining samaradorligini oshirishchun:talabaga uzatilayotgan o‘quv axborotlarining mazmunini optimal miqdorda aniqlash; talabaning bilish faoliyatini samarali boshqarish va tashkil etish;axborotlarni talaba tomonidan o‘zlashtirishning individual o‘zi-o‘zini boshqarish jarayonlari imkoniyatlaridan foydalanish; axborotlarni o‘zlashtirish darajalarini nazorat qilishni tashkil etish. Didaktik jarayonning har bir bosqichiga mos keladigan yoki didaktik jarayon nazariyasiga asoslangan o‘qitish metodlari tasnifi pedagogika fanida 1983 yil ishlab chiqildi va pedagogik amaliyotga joriy etildi. Ular uch guruh metodlaridan iborat: 1-guruh – o‘qish va mehnatga rag‘batlantiruvchi va motivatsiya metodlari; 2-guruh – o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari; 3-guruh – o‘quv -bilish faoliyatini boshqarish metodlari. Didaktik jarayon samaradorligini yoki pedagogik texnologiya maqbulligini belgilovchi omillardan yana biri o‘qitishshakllarini o‘quv faoliyati bosqichlariga mos holda to‘g‘ri tanlash va ularni oqilona chag‘ishtirish prinsipi hisoblanadi.

- 1-element: tinglovchi, talaba;
- 2-element: ta’lim-tarbiya maqsadi;
- 3-element: o‘quv-tarbiya jarayonining mazmuni;
- 4-element: didaktik jarayon;
- 5-element: tashkiliy shakllar; (didaktik jarayonni tashkil etishda o‘qituvchi o‘quv-bilish faoliyatining tashkiliy shakllarini (5-element) ham ta’lim mazmuniga mos holda tanlay olishi kerak. Pedagogikada loyihalashshartlaridan biri ham “tashkiliy shakllar”ni to‘g‘ri tashkil etish sanaladi. Pedagogikada o‘qitishning tashkiliy shakli deganda tinglovchi(tinglovchi)lar o‘qitish jarayonida qo‘ylgan tashqi shart-sharoitlar yig‘indisi tushuniladi. Ma’lumki, ta’lim tizimida bilish faoliyati auditoriyada (ma’ruza, semenar, laboratoriya, o‘quv maslahati, sinov, imtihon) va auditoridan tashqarida (uyda, kutubxonada tayyorgarlik, loyihalash,

tadqiqotchilik, to‘garak va boshqa) tashkil etiladi). 6-element: pedagog loyihachi ham, uni amaliyatga joriy etuvchi ham pedagog (6-element) hisoblanib, malakali mutaxassis tayyorlashdek muhim ijtimoiy (davlat) buyurtmasini bajaradi. Xo‘s, pedagogning pedagogik tizimda tutgan o‘rni nimadan iborat? 1. O‘qituvchi davlat buyurtmasiga mos keladigan ta’lim-tarbiya maqsadini (2-element) tashxislanuvchan holda aniq va ravshan belgilashi kerakki, natijada ajratilgan vaqt ichida unga erishishni ta’minlaydigan didaktik jarayonni tuzish va joriy etish to‘g‘risida xulosa qilish mumkin bo‘lsin. 2. O‘qituvchi belgilangan ta’lim maqsadiga to‘g‘ri keladigan o‘quv-tarbiyaviy jarayon mazmunini (3-element) saralashda fanning abstraksiya pog‘onalarini ( $\beta$ ) va o‘zlashtirish darajalariga ( $\alpha$ ) mosligini inobatga olishi zarur. 3. O‘qituvchi pedagogik tizimning tarkibiy elementi sifatida didaktik jarayonni (4-element) tuzish talablari bilan tanish bo‘lishi va uning eng maqbul variantini har bir dars mashg’uloti mashg’uloti mavzusiga bog‘liq holda loyihalashi kerak).

### **Nazorat savollari**

1. Innovatsion jarayonlarning yaratilish bosqichlarini izohlab bering..
3. Yangi dasturlar, standartlar, darsliklarning innovatsion harakterini tavsiflang..
4. Innovatsiyalarni yaratish, to’plash, tanlash, qo’llash tizimini yaratilishini izohlang..
5. O‘qituvchi innovatsion faoliyatining shakllanish bosqichlarini yaratilishi haqidagi tavsifini izohlang..
6. Pedagogik innovatsiyani tatbiq etish to’zilmasini tavsiflang.
7. Loyihalash mexanizmini izohlang.
8. Innovatsion jarayonlarni boshqarish algoritmi haqidagi fikrlaringiz, izohlang.

## **XXI BOB. TIBBIY TA'LIMDA O'QITISHNING NOAN'ANAVIY METODLARI**

### **11.1. Noan'anaviy metodlar tasnifi**

Bugungi kunda o'qitishning noan'anaviy zamonaviy metodlari ta'limgarayonida keng qo'llanilmoqda. O'qitishning noan'anaviy zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'limgodalarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tumantalabalar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish talabalarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ustoz murabbiylar tomonidan talabalarning qiziqishini orttirib, ularning ta'limgarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, babs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va talabalarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bu metodlar noan'anaviy interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham ataladi. Noan'anaviy interfaol metodlar deganda talabalarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'limgarayonining markazidatalabalar bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda O'qituvchi talabalarni faol ishtirok etishga chorlaydi. Talabalar butun jarayon davomida ishtirok etadi. Talabalar markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'limgarayonida yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rghanish;
- talabalarning yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini talabalarning ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- talabalarning tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rghanilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

### **11.2. Noan'anaviy ta'limgodalarini**

**"Kichik guruhlarda ishslash" metodi** –talabalar ni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o'quv materialini o'rghanish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish. Ushbu metod qo'llanilganda tibbiytalabalar kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi roliga bo'lishga, bir-biridan o'rghanishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi. "Kichik guruhlarda ishslash" metodi qo'llanilganda O'qituvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtini tejash imkoniyatiga ega

bo‘ladi. Chunki O‘qituvchi bir vaqtning o‘zida barcha talabalarni mavzuga jalgan etadi va baholay oladi

**“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Talabalar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. O‘qituvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

**“Kichik guruhlarda ishlash” metodining afzalligi:**

o‘qitish mazmunining yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;  
muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;  
vaqtini tejash imkoniyati mavjud;  
barchatalabalar jalgan etiladi;  
o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

**“Kichik guruhlarda ishlash” metodining kamchiliklari:**

ba’zi kichik guruhlarda kuchsiztalabalar bo‘lganligi sababli kuchli talabalarning ham past baho olish ehtimoli bor; barcha talabalarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi; guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin; guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

**“Davra suhbat” metodi** – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidantabalalar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir. “Davra suhbat” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har birtalabalarning bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida Ustoz murabbiylar mavzuni boshlab beradi vatalabalar dan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har birtalabalar o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan talabalarni barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa talabalarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

**Davra stoli tuzilmasi**

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har birtalabalarga konvert qog‘ozni beriladi. Har birtalabalar konvert ustiga ma’lum bir

mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidigitalabalarga uzatadi. Konvertni olgantalabalar o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidigitalabalarga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi.

### **"Davra suhbati" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.
2. O'qituvchi talabalarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har birtalabalarga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda nechatalabalar bo'lsa, shunchadan "Javoblar varaqalari"ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo'yiladi. Talabalar konvertga va "Javoblar varaqalari"ga o'z ismi-sharifini yozadi.
4. Tibbiy talabalar konvert ustiga mavzu bo'yicha o'z savolini yozadi va "Javoblar varaqasi"ga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi.
5. Konvertga savol yozgantabalalar konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidigitalabalarga uzatadi.
6. Konvertni olgan tibbiytalabalar konvert ustidagi savolga "Javoblar varaqalari"dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidigitalabalarga uzatadi.
7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgantabalarning o'ziga qaytib keladi. Savol yozgantabalalar konvertdagi "Javoblar varaqalari"ni baholaydi.
8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqalitalabalar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali talabalarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda talabalar o'zlarini bergan savollariga guruhdagi boshqatalabalar bergan javoblarini baholashlari va ustoz murabbiylar ham talabarni ob'ektiv baholashi mumkin.

**"Bahs-munozara" metodi**- biror mavzu bo'yichatalabalar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir. Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini talabalarning biriga topshirishi yoki O'qituvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har birtalabalarni munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotgandalabalar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak. "Bahs-munozara" metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak: barchatalabalar ishtirot etishi uchun imkoniyat yaratish; "o'ng

qo‘l” qoidasi (qo‘lini ko‘tarib, ruxsat olgandan so‘ng so‘zlash)ga rioya qilish; fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati; bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi; bir-birlariga o‘zaro hurmat.

### **Metodning bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta’lim beruvchi talabalarga muammo bo‘yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g‘oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun talabalardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ustoz murabbiylar talabalarga o‘z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta’lim beruvchi talabalar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g‘oyalarni guruahlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo‘yilgan muammoning eng maqbul echimi tanlanadi.

“FSMU”-(fikr, sabab, misol, umumlashtirish) metodi munozarali masalalarni hal etish hamda o‘quv jarayonining bahs-munozarali o‘tkazishda qo‘llaniladi, chunki bu metod talabalarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash, o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi. Bu metod yangi mavzuni chuqur o‘rganishdan avval talabalarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, o‘zlashtirish, umumlashtirish, talabalarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini yozma shaklda, dalil va isbotlar bilan ifodalashga undaydi.

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya talabalardagi umumiyl fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyg‘a vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

### **Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- talabalarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:
  - talabalarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.



**FSMU** tahlili talabalarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

#### **Namuna.**

**Fikr:** “Kasbiy pedagogika va psixologiya fanidan davlat ta’lim standartlari talablarini xalqaro andozalar asosida takomillashtirish va sertifikatlashtirish ta’lim samaradorligining eng muhim omillaridan biridir”.

**1-Topshiriq:** Kasbiy pedagogika va psixologiya fanining eng muhim tarkibiy vazifasi”.

Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU texnologiyasi orqali tahlil qiling.

#### **2-Topshiriq:?**

**Metodning maqsadi:** **Xulosalash metodi.** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda talabalarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

## Metodni amalga oshirish tartibi:



Talabalarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



Mashg'ulotning maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



Har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



Navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, o'qituvchi tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotl bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

### Namuna:

#### Pedagogika va psixologiya fanidan Davlat ta'lif standarti

Sobiq standart		Yangi standart	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi

### Xulosa:

**SWOT metodi. Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostonart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Namuna: Pedagogika va psixologiya fanida "Xulosalash" metodning SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Pedagogika va psixologiya fanida "Xulosalash" metodidan foydalanishning kuchli tomonlari	
W	Pedagogika va psixologiya fanida "Xulosalash" metodidan foydalanishning kuchsiz tomonlari	
O	Pedagogika va psixologiya fanida "Xulosalash" metoddan foydalanishning imkoniyatlari (iichki)	
T	To'siqlar (tashqi)	



**Namuna:** An'anaviy va noan'anaviy ta'lim shakllarini "SWOT-tahlil" metodida tahlil qiling.

<b>S</b>	An'anaviy darsda o'qituvchi, talabalarga ko'p ma'lumot bera olmaydi	Zamonaviy noan'anaviy darsda kamroq ma'lumot beriladi, biroq ular talabalar ongiga singdirib beriladi
<b>W</b>	O'qituvchi asosan a'lochi, qiziquvchi talabalar bilan gaplashadi, ya'ni darsda oz sonli talabalar qamrab olinadi	Zamonaviy noan'anaviy ta'limda darsda ko'p sonli talabalar qamrab olinadi
<b>O</b>	An'anaviy darsda faqat o'qituvchi reja asosida va tayyorlab kelgan ma'lumotlari atrofida gaplashiladi	Zamonaviy noan'anaviy darsda muhokamajarayonida yangi-yangi masalalar, muammolar yuzaga chiqishi, g'oyalartug'ilishi mumkin
<b>T</b>	O'qituvchi uchun asosiy to'siq – dasturdan chiqib keta olmaslik, talaba uchun qiziqmasa ham o'qituvchini eshitib o'tirish majburiyati	Keng muhokama uchun vaqtning chegaralanganligi, talabalarni mavzudan chetga burishga intilishlari

**Insert metodi. Metodning maqsadi:** Mazkur metod talabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmlarni o'zlashtirilishini engillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod talabalar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi; yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matntalabalarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi; ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan

tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishslashda talabalar yoki talabalarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

<b>Belgilari</b>	<b>1-matn</b>	<b>2-matn</b>	<b>3-matn</b>
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“–” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, talabalar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

**Pinbord metodi.** Pinbord (inglizchadan: pin – mahkamlash, board – yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o‘quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat. Muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashtirish (klassifikatsiya)ni amalga oshirishga, jamoa tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi. O‘qituvchi taklif etilgan muammo bo‘yicha o‘z nuqtai nazarini bayon qilishni so‘raydi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki ommaviy aqliy hujumning boshlanishini tashkil qiladi (rag‘batlantiradi). Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng optimal (samarali) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2 ta so‘zdan ko‘p bo‘limgan) sifatida alohida qog‘ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar.

O‘qituvchi bilan birgalikda flipchart (maxsus doska va maxsus qog‘oz yopishtirish imkonini beradigan skotch) yordamida fikrlar jamlanadi, klassifikatsiya qilinadi, muhokamada esa optimal echimlar bo‘yicha aniqlanadi.

Guruh namoyondalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:

- 1) yaqqol xato bo‘lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;
- 2) bahsli bo‘lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;
- 3) fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo‘lgan belgilarini aniqlaydilar;
- 4) shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni (qog‘oz va varaqlaridagi) guruhlarga ajratadilar;

5) ularning o‘zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko‘rsatadilar: jamoaning yagona yoki qarama-qarshi pozitsiyalari ishlab chiqiladi

### Pedagogika va psixologiya fanining

afzalligi	kamchiligi

		Muhim belgilar, tavsiflar		
O‘rganilayotgan mavzu mohiyatini yorituvchi jihatlar		1-belgi (tavsif)	2-belgi (tavsif)	3-belgi (tavsif)
1-jihat				
2-jihat				
...				

**Namuna:**

	Muhim belgilar, tavsiflar		
	1-belgi (tavsif)	2-belgi (tavsif)	3-belgi (tavsif)
“Assesment”			
“Insert”			
“Tushunchalar”			
“Brifing”			
“Bahs-munozara”			
“Muammoli vaziyat”			

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo’shimcha ma’lumot
Loyihalashtirish		
Tashxis		
Assisment		
Kompetentsiya		
Dars mashg’uloti mashg’uloti		
Innovatsion loyiha		
Zamonaviy o’qituvchi		
Loyihaning asosiy produkti		

**Izoh:** Ikkinci ustunchaga talabalar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo’shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

**“Muammoli vaziyat” metodi** - talabalarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi talabalarning bilim darajalariga mos kelishi kerak.

Ular qo‘yilgan muammoning echimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, talabalarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” metodi qo‘llanilgandatalabalar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning echimini topishni o‘rganadilar.

### **“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ustoz murabbiylar mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ustoz murabbiylar talabalarga muammoni bayon qiladi.

2. Ustoz murabbiylar talabalarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

3. Ustoz murabbiylar o‘qituvchi talabalarni kichik guruhlarga ajratadi.

4. Kichik guruhlар berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni echishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni echish yo‘llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlар muammoli vaziyatning echimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil echimlar jamlanadi. Guruh o‘qituvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni echish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

### **“Venn diagrammasi” strategiyasi**

Strategiya talaba (talaba)larda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiyligi mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

Strategiya talaba (talaba)lar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

**Hamkorlikda o‘qitish metodi.** Hamkorlikda o‘qitishning asosiy g‘oyasi – biror narsani birga bajarish emas, balki hamkorlikda o‘qish, o‘rganishdir!

Hamkorlikda o‘qitishningsamaradorligi:

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o‘z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi. Bu ko‘nikmalar hamkorlikda o‘qiyotganlarda bir-biri bilan raqobatqilayotgan yoki individual o‘qiyotganlarga qaraganda yaxshiroq

rivojlangan. Xattoki, hamkorlikda bajarilgan yozma ishlar chiqur mazmunga egaligi bilan farqlanadi.

2.Ijodiyqobiliyatlar rivojlanadi. Hamkorlikda o‘qiyotgan guruh a’zolari betakror g‘oyalarni ko‘proq ishlab chiqadi, turli maqsadlarga erishishda va dars jarayonida paydo bo‘lgan har xil o‘quv masalalarining yangi yechimlarini topishd ajodiy qobiliyatlar rivojlanib boradi.

3.Bir vaziyatdaoligan bilimlar boshqa vaziyatda qo‘llanishiga ko‘maklashadi. Bugun guruh bajargan topshiriqni ertaga har talaba mustaqil bajara olishi mumkin.

4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi. Hamkorlik bilimlarga ko‘proq qiziqish uchun ham sharoitlar yaratadi. Mashg‘ulot o‘tkazish usuli qanchalik takomillashgan bo‘lsa, talabalarning o‘rganilayotgan masalaga qiziqishi va faolli ortib boradi.

5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko‘proq vaqt sarflanadi. Hamkorlikda o‘qiyotganlar topshiriqlarni bajarish uchun raqobat qilayotgan yoki individual o‘qiyotganlarga nisbatan ko‘proq vaqt sarflaydilar.

Hamkorlikda o‘qitishning asosiy afzallikkari:hamkorlikda o‘qiyotgan talabalar bir-birining muvaffaqiyatiga ko‘maklashadi; yordam va madad beradilar va yordamni qabul qiladilar, gap faqat o‘qish to‘g‘risida emas, balki insoniy, do‘stona munosabat to‘g‘risida ketayapti; axborot va “moddiy resurslar”, ya’ni topshiriqni bajarish uchun zarur bo‘lgan barcha narsalar bilan almashadi; o‘rtoqlari bergen ma’lumotlarni o‘zlashtiradi va qo‘llashga harakat qiladilar. Og‘zaki tushuntirishlar, axborotni o‘ylab ko‘rish va umumlashtirish, o‘z bilimlari va ko‘nikmalarini boshqalarga uzatish – bularning hammasi bilimlarni tartibga solish, ularni yaxshiroq anglab o‘zlashtirish va umumiylar maqsadga erishishga shaxsiy ulushini qo‘sishga olib keladi; talabalar bir-biri bilan muzokara olib borishga va dalillar keltirishga o‘rganadi. Intellektual maydonidagi konfliktlar qiziquvchanlikni rivojlantiradi, bilimlarni o‘zlashtirish va ularni qayta anglash, o‘rganilayotgan muammoga chuqurroq kirishishga undaydi hamda boshqa ko‘p foydali sifat va ko‘nikmalarini shakllantiradi;talabalar yaxshiroq o‘qishga intilishda bir-biriga ko‘maklashadi. O‘qishda o‘rtoqlariga yordam berayotgan talaba o‘zi ham sezilarli darajada yaxshiroq o‘qiydi; bir-biriga ta’sir etadi. Hamkorlikda o‘qiyotgan guruh a’zolari o‘rtoqlariga ta’sir etishning har qanday imkoniyatidan foydalanadilar va o‘z navbatida ta’sir uchun ochiqlar;aniq ifodolangan motivasiyaga ega. Bilimlarni o‘zlashtirishga intilish umumiylar maqsadga erishishga qaratilgan hamkorlikdag‘i mehnat tufayli kuchayadi;o‘zaro ishonch sharoitini yaratadi va talablarni yuqori darajada ushlab turadi. Guruh a’zolari o‘z o‘rtoqlariga ishonadilar va o‘zlarini o‘rtoqlari ishonchini qozonadigan tarzda tutadilar, bu katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun sharoitlar yaratadi. O‘zaro ishonch – har birining yuqori yutuqlari

uchun yaxshi asos. Hamkorlikdagi o‘qish tamoyillari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: guruhga bitta topshiriq; bitta rag‘bat: guruh barcha ishtirokchilari hamkorlikdagi ish bahosi (umumiyl natijaga erishish uchun barcha guruh a’zolari sarflaydigan kuchi baholanadi) va akademik natijalari yig‘indisidan tashkil topgan bitta baho oladi, ya’ni guruh (komanda) muvaffaqiyati har bir ishtirokchining hissasiga bog‘liq; har birining o‘z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a’zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas’uliyati; hamkorlikdagi faoliyat: guruhiy muzokara, hamkorlik, o‘zaro yordam berish kabi o‘zaro harakat usullari asosida tashkil topadi; muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar: har bir o‘qiyotgan o‘z shaxsiy yutug‘ini takomillashtirish, shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda o‘qishga berilgan bo‘lishi zarur, chunki u boshqalar bilan teng baholanadi.

### 1-bosqich

Guruh ish joyini tayyorlash – stol va o‘rindiqlar shunday joylashtiriladiki, bunda Ustoz murabbiylar auditoriyada erkin harakatlana olsin, har bir guruh a’zosi bir joyda bo‘lishlari va bir-birlarini ko‘rishlari va eshitishlari kerak, zarur o‘quv qo‘llanmalar barchaga etarli bo‘lishi kerak.

### 2-Asosiy bosqich

**1.** Talabalarni guruhlarga taqsimlash – tanlangan kichik guruhlarga birlashtirish yo‘li asosida talabalarni guruhlarga bo‘ladi.

**2.** O‘quv topshiriqlarini tarqatish – muammoli vaziyatni taklif qiladi, talabalar bilan birgalikda uni echish yo‘li va tartibini muhokama qiladi, guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni taqdim etish shaklini ma’lum qiladi. Har biri va butun guruhning natijalarini baholash mezonlarini tushuntiradi.

**3.** O‘quv topshiriqlarni bajarish bo‘yicha yo‘riqnomani tushuntirish. Guruhlar bo‘yicha ishni bajarish uchun zarur materiallarni tarqatadi. Topshiriqni baajarishda qanday qo‘srimcha materiallaridan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. Guruhlarda ishslash qoidalarini eslatadi.

Doskada guruhli ishni bajarish bo‘yicha yo‘riqnomani yozadi yoki tarqatadi.

**4.** Ta’lim oluvchilar bilan qaytar aloqani amalga oshirishtalabalar bilan guruhli ishni bajarish bo‘yicha yo‘riqnomani muhokama qiladi; hammalari uni tushunganlariga ishonch hosil qiladi.

**5.** Guruhlarda o‘quv topshiriqni bajarish jarayonini tashkil etish – o‘quv topshiriqni bajarish bo‘yicha ishni boshlanishi haqida e’lon qiladi; Guruh ishini nazorat qiladi. Guruh ishini rejalashtirish, vazifalarni guruh a’zolari o‘rtasida taqsimlash, vazifani bajarish bo‘yicha yakka tartibda ishslash, yakka tartibda topilgan echimlarni muhokama qilish, guruh uchun umumiyl echimni ifodalash, guruh ishi natijalarini taqdimotini tayyorlash, aniq topshiriqni baajarish uchun zarur bo‘lgan alohida bo‘lib ishslashga, ko‘nikmalarni shakllantirishga e’tiborini

qaratadi. Ish borishini sharhlaydi, yutuqlarni baholaydi, ayrim aniq, va samimiy tanbeh qiladi.

**6.** Guruh ishi taqdimotini tashkil qilish – bajarilgan ish natijalari to‘g‘risida ma’lumot berish uchun guruh vakillarini tayinlaydi. Baholash mezoni va ko‘rsatkichlarini eslatadi.

### 3-Nazorat –yakuniy bosqichi

Yakun yasash – natijalar tekshiruvini o‘tkazadi: guruhning har bir ishtirokchisi bilan gaplashadi; Guruh ishini tahlil qiladi, topshiriq bajarilishining yakunini qiladi, erishilgan maqsad to‘g‘risida xulosalar chiqaradi

### **Nazorat savollari**

1. Noan’anaviy interfaol metodlar talabalarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonini izohlang..
2. Noan’anaviy interfaol metodlarni ta’lim jarayonida kullashda misollar keltiring..
3. “Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlarini izohlang.
- 4.“Bahs-munozara” metodini o‘tkazishda amal qilish kerak bulgan nazariy yondaShuvsalar.
5. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim shakllarini “SWOT-tahlil” metodi asosida tahlil qilib bering..

## **XII BOB. TESTOLOGIYA VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

### **12.1. Testologiya haqida tushuncha**

Testologiya asoslari fanining maqsadi va vazifalari, testlarning ta'rifi, tasnifi, metodologik asoslari. O'quv motivlari kishida kizikish, ehtiyoj, intilish, mayil, uygotishni uz ichiga oladi. Talabada motivlarni shakllantirish individuall xususiyatlariga, tashkiliy shakllarga, ukituvchining mahoratiga boglik. Motivlar kuchli yoki kuchsiz bulishi mumkin. O'qish motivatsiyasini paydo bulishiga kungina omillar ta'sir kursatadi. Bulardan biri tashki omil. Ish urinliiga xakikiy rakobatda golib bulgan kadrlarni tanlov orkali kabul kilishi eng katta omillardan biridir. Chunki bu holda talabalar uzlari xohlagan mexnat bilan band bo'lish va shu urin uchun raqobatda yengib chiqish maqsadida bilimlarni puxta egallahga harakat qiladilar. Bundan tashqari jamiyatda yaxshi kadrlarga talabning yuqori bo'lishi, ularni ragbatlantirishning samarali tizimlarini ishlab chiqish ham motivatsiyani kuchayishiga yordam beradi. Iichki omillar ham albatta talabalarda motivlarni vujudga kelishida va shakllanishida o'z o'rniga ega. Bularga misol qilib talablarning o'qishiga qarab stependiyalarning belgilanishi, o'quv dasturlarining va amaliy ahamiyatini oshirilishi, o'quv jarayonini talabalarning ehtiyojlariga moslashtirilishi kabi omillarni belgilash mumkin. O'zlashtirish faoliyatini tashkil etish ta'lim maqsadlaridan kelib chiqadi. Agar uzlashtirishni birinchi darjasidagi maksad kilib kuyilgan bulsa, reproduktiv uzlashtirish darjasidagi bilan kifoyalanib qolinadi. Agar maqsad sifatida 3-4 daraja olingan bo'lsa, unda uzlashtirishning maxsuldar shakliga o'tishi talab etiladi. O'zlashtirish natijalari maqsadan kelib chiqqan holda tekshiriladi. Agar uzlashtirish koefitsenti ( $K_{QI}$ ) ga yetkazilsa (bu 0,7-0,8) ya'ni 75-85 % o'zlashtirishni anglatadi. O'zlashtirish faoliyati har bir darajada tekshirilib o'zlashtirish koefitsenti aniqlangach keyingi o'zlashtirish darajasiga o'tish mumkin. O'zlashtirish faoliyatini tashkil etishda mavzuning harakterli xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'lum texnologiyalar tanlanadi, ushbu texnologiyalar belgilangan o'quv maqsadlariga mos tushishi lozim. Bilish faoliyatini boshqarish. Motivlarni mavjudligi va o'quv faoliyatini tugri tanlaganligi hali o'quv jarayonini muvaffaqiyatini ta'minlay olmaydi. Bunday natijaga erishish uchun jarayonini tugri tashkil etish va boshqarish talab etiladi. O'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish deganda algoritmik ketma-ketlik asosida quyidan yuqoriga qarab harakatlanish tushuniladi. Ya'ni uzlashtirishning birinchi darajasidan izchil ravishda ikkinchi va uchinchi darajalariga o'tishni ta'minlash lozim. O'zlashtirish darjasidagi koefitsent bilan o'lchanadi. Har bir o'zlashtirish darjasidagi 0,5 dan 1ga yetganda keyingi yuqorirok darajaga o'tishga imkon yaratiladi. O'quv jarayonini to'g'ri boshqarish deganda o'zlashtirish ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda birinchi darajadan ikkinchi darajaga va ikkinchi darajadan uchinchi darajaga

uzluksiz o'tib borish tushuniladi. Agar bugungi kunda o'quv jarayonini har bir qismini qay darajada ekanligini tahlil qilsak o'quv jarayoniga haqqoniy baho bera olamiz. 1. Bugungi kunda talabalarda yetarli darajada motivatsiya uyg'otilmaydi. Bunga ham tashqi, ham iichki sababalar ta'sir ko'rsatadi. 2. O'zlashtirish jarayoni 1 va 2 darajadagi reproduktiv tipda kolib ketadi. Oliy ta'lim tizimida esa yuqori malakali kadrlarni tayyorlash uchun 3-4 darjadagi maxsuldor texnologiyalarga etib borish talab etiladi. Demak uzlashtirish jarayonini ham yetarli darajada deb ayta olmaymiz. Ilgor pedagogik texnologiyalar kam qo'llaniladi. 3 O'quv jarayonini boshqarish masalasi ham qoniqarli emas. O'quv jarayonida psixogen yondoshuv rivojlanmagan, o'quv jarayoni talabalarga moslashtirilmagan va natijada o'quv jarayonini boshkarish sust. Ushbu fikrlardan kelib chiqgan holda hozircha oliy ta'lim tizimida anchagina kamchiliklar mavjud degan xulosa kilish mumkin. Testologiya – (inglizcha so'zdan olingan bo'lib, test — sinov), yunoncha logos — bilim) so'zları birikmasidan iborat. Testologiya fanlararo fan bo'lib, ilmiy asoslangan va sifatlari diagnostik o'lchov metodikasi haqidagi fan sanaladi. Testologiya fanining ob'ekti:

1. Test topshiriqlarini tuzish jarayoni;
2. Test topshiriqlarini amaliyotga joriy etish va o'tkazish jarayoni;
3. Test topshiriqlaridan olingan natijalarni umumlashtirish jarayoni sanaladi.

Testologiyani qo'llashda umumiylar xususiyatlari:

testlar tuzish metodikasi, samaradorlik, variativlik, ishonchlilik, har bir fan sohasining o'ziga xos xususiyatlari, fanning ta'lim mazmuni, testlarning mantiqiy tuzilishi, test sinovining o'tkazilish maqsadi, kasbiy va umumta'lim bilimlarni nazorat qilish va baholash tartibi va o'lchovi e'tiborga olinadi. Test metodining keng tarqalishi, rivojlanishi va takomillashuviga uning quyidagi afzalliklari: Test topshiriqlari tadqiqot maqsadiga muvofiq respondentlarning bilim, ko'nikma va malakalariga aniq baholash imkonini beradi; Ijtimoiy so'rovlarda ishtirok etgan ko'psonli respondentlarning fikr va mulohazalarini aniqlash va umumlashtirish imkoniyati mavjud; Tahsil oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash va baholash jarayoni ob'ektiv amalga oshiriladi, baholovchi tomonidan sub'ektivizmga yo'l qo'yish oldini oladi. Turli guruh respondentlaridan olingan ma'lumotlarni qiyosiy-statistik tahlilini o'tkazishga zamin tayyorlashi kabilar zamin yaratadi. Insonlar o'ratisidagi psixologik farqlarni aniqlash XIX asr psixologiyasiga oid bo'lib, uni birinchilar qatorida F.Galton ishlatalishga harakat qilgan. U "kvalimetriya", ya'ni o'lhash degan tushunchani fanga kiritdi. Pedagogikada test asosida o'lhashni o'rganuvchi fan testologiya deb ataladi. 1864 yili binrinchi marta pedagogik test Dj.Rays tomonidan orfografiya uchun ishlab chiqildi. T.Stoun tomonidan arifmetika fani uchun test ishlab chiqildi. 1902 yili E.Torondayk pedagogik testlarning nazariy asoslarini ishlab chiqadi. 1961 yili

AQSHda 2000 dan ortiq standart testlar ishlab chiqildi. Jahon test kompaniyasi tashkil topdi (Educational Testing Service). 1925 yili Rossiyada "Maktab ishlari metodikasi" institutida test komissiyasi tashkil etildi. 1926 yili birinchi standar testlar yaratildi. 1936 yili "test" metodi burjuaziya elementi sifatida qabul qilinib, undan voz kechilgan. V 60- yillarda Rossiya pedagoglari yana testlarga murojat etishni boshladilar. XX asrning boshida Amerikalik olim V.A.Makkoll psixologik va pedagogik testlarni ajratadi 1915-1930 yillarda Amerikada testologiya fani juda tez taraqqiy etadi va maktabdagi barcha fanlardan milliy testlar ishlab chiqiladi. Test topshiriqlariga qo'yiladigan asosiy talab, har bir test topshirig'i: muayyan mazmun, tarkib, yaxlitlik va struktura; topshiriqni bajarish tartibi, qoidasi, topshiriqni bajarish natijasida tahsil oluvchining egallashi mumkin bo'lgan bali; test natijalarini umumlashtirish bo'yicha ko'rsatmalardan iborat bo'lishi zarur. Test topshiriqlarining yaxlitligi u bir mavzu, bob, bo'lim yoki kurs mazmunini qamrab, ularni nazorat qilish imkoniyatiga ega ekanligida ko'zga tashlanadi. Testlarni tavsifi: Standart testlar. Nostandart testlar. Pedagogik testlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra: gomogen va geterogen testlarga ajratiladi. Gomogen testlar bu qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, o'ziga xos shaklga ega bo'lib, tahsil oluvchilarning muayyan mazmun yuzasidan tayyorgarlik darajasi, bilim, ko'nikma va malakalarini sifatli va samarali nazorat qilish va baholashga mo'ljallangan bitta o'quv kurs bo'yicha tuzilgan topshiriqlar tizimi sanaladi. Geterogen testlar bu qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, o'ziga xos shaklga ega bo'lib, tahsil oluvchilarning muayyan mazmun yuzasidan tayyorgarlik darajasi, bilim, ko'nikma va malakalarini sifatli va samarali nazorat qilish va baholashga mo'ljallangan bir nechta o'quv kurs bo'yicha tuzilgan topshiriqlar tizimi. Testlar harakteriga ko'ra: Integrativ testlar (Integrativ testlar integral mazmun, shakl, qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, ta'lim muassasasining bitiruvchisining tayyorgarlik darajasi haqida umumlashgan yakuniy xulosa chiqarishga imkon beradigan test topshiriqlari sanaladi). Adaptiv testlar (Adaptiv testlar avtomatlashtirilgan, tahsil oluvchilarga nisbatan individual yondoshish imkonini beradigan, topshiriq mazmuni, bajarish tartibi, qoidasi, shu topshiriqni bajarish natijasida tahsil oluvchining egallashi mumkin bo'lgan bali va test natijalarini umumlashtirish bo'yicha ko'rsatmalardan iborat bo'ladi.) Adaptiv testlarning asosiy guruhini piramidal adaptiv testlar tashkil etib, qo'llanish maqsadiga ko'ra: o'rtacha og'irlilikdagi, tahsil oluvchining tanlashiga ko'ra aralash, topshiriqlar bankidan faqat qiyin darajali bo'lishi mumkin. Adaptiv testlar ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning modul-kredit paradigmasida muvaffaqiyatli qo'llanishi mumkin. Buning uchun pedagog bitta mavzu, bob, bo'lim, kurs mazmuni bo'yicha turli qiyinchilik darajadagi bir necha variantli test topshiriqlarini tuzish va amalda qo'llash mahoratiga ega bo'lishi lozim. Mezonli-mo'ljal olish testlari (Mezonli-

mo'ljal olish testlari tahsil oluvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasi, mazkur kursning o'qitilish sifati, pedagogning pedagogik mahorati, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi)

## 12.2. Test topshiriqlari mazmunini tanlash prinsiplari

Test topshiriqlari mazmuni sinov maqsadiga mosligi prinsipi. Nazorat va baholanayotgan bilimlarning muhimligi prinsipi. Mazmun va shakl birligi prinsipi. Test topshiriqlarining mazmunan to'g'riliqi prinsipi. Test topshiriqlari mazmunida o'quv kursi mazmunining qayta taqdim etilishi prinsipi. Test topshiriqlari mazmunining fanning hozirgi zamon holatiga mosligi prinsipi. Test topshiriqlari mazmunining majmuali va muvozanatlashgan bo'lishi prinsipi. Test topshiriqlari mazmunining tizimliligi prinsipi. Test topshirig'i mazmunining variativligi prinsipi. Test topshiriqlariga qo'yiladigan talablar: Test topshirig'i mazmunining to'g'riliqi; Savolning mantiqiy jihatdan to'g'ri tanlanishi; Test topshirig'i shaklining to'g'riliqi; Test topshirig'ining savol va javobning qisqaligi; Test topshirig'i elementlarining to'g'ri joylashganligi; Test topshirig'ining to'g'ri javoblari bir xil baholanishi; Tahsil oluvchilarga test topshirig'ining bajarish bo'yicha bir xil ko'rsatma berilishi; **Turli darajadagi va shakldagi test topshiriqlarini ishlab chiqish yo'llari.** Test topshiriqlarining qiyinlik darajasi mezoni. Test topshiriqlarining qiyinlik darajasi mezoni o'rganilayotgan ob'ektning xususiyatlarini o'zida to'liq aks ettirib, u tahsil oluvchilar tomonidan mazkur xususiyatlarni aniqlash uchun bajaradigan aqliy operatsiyalariga ko'ra:

Oddiy daraja; Reprodsuktiv daraja; Produktiv daraja; Ijodiy (kreativ) darajada bo'lishi mumkin. Oddiy test( eslash, yodda saqlash, tanish kabi psixik mjarayonlarni borishini ta'minlovchi test. Bilimlarini mustahkamlaydi. Reproduktiv darajadagi test topshiriqlari tahsil oluvchilarning xotirasida saqlangan bilim, ko'nikma va malakalarni tanish odatiy vaziyatda axborotlarni qayta ishlamasdan javob qaytarishni talab etadi. Bu darajada tuzilgan testlar tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni aniq baholash imkonini bermaydi. Produktiv darajada tuzilgan test topshiriqlari tahsil oluvchilar tomonidan o'rganilgan ob'ektlarni qiyoslash, o'xshashlik va farqlarni aniqlash, umumiy xulosa chiqarish orqali javob berishni talab etadi. Produktiv darajadagi test topshiriqlari tahsil oluvchilar tomonidan o'rganilgan ob'ektlarning xususiyatlarini boshqa ob'ektga ko'chirish, mazkur ob'ektlarni taqqoslab, keyingi ob'ektning o'ziga xos xususiyatlari haqida xulosa chiqarish, qisman izlanish olib borishni talab etadi. Tahsil oluvchilar tomonidan mazkur darajadagi test topshiriqlariga javob berishda avval o'zlashtirilgan bilimlar yangi vaziyatlarga ko'chiriladi. Ijodiy (kreativ) darajada tuzilgan test topshiriqlari tahsil oluvchilar tomonidan ijodiy fikr yuritish ko'nikmalariga ega bo'lish, mazkur test topshiriq-

larini bajarish jarayonida tahsil oluvchilar tomonidan avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llashni talab etadi. Shakliga ko'ra: Javobli testlar. Javobsiz testlar Mutanosiblikni o'rnatishga qaratilgan test. Izchillikni o'rnatishga qaratilgan test

### **12.3. Aniqlashtirilgan maqsadlar asosida testlarni ishlab chiqish.**

Aniqlashtirilgan maqsadli proektda o'qituvchi aniq tushunlardan foydalanishi lozim. Buning uchun aniq va mavhum tushunchalarni ajrata olishi kerak.

Mavhum tushunchalar:

1. O'rganmoq.
2. Tanishib chiqmoq.
3. Ko'rib chiqmoq.
4. Tushunmoq.

Aniq tushunchalar:

1. Belgilab chiqmoq.
2. Guruhlarni tashkil qilmoq.
3. Ajratib olmoq.
4. Tuzish.
5. Yoddan aytib bermoq.
6. Masala yechmoq.

Ba'zan talabalar ogzaki emas, balki yozma ishlari bajaradilar bunday holda ham aniq maqsadlarni belgilash mumkin. Agar yozma tekst bilan ishlash lozim bo'lsa qo'yidagi aniq maqsadlarni belgilash tizim tavsiya etiladi. Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari albatta birinchi galda qanday nazorat ishi orqali tekshirilishi aniqlanishi kerak. Maqsaddan kelib chiqqan holda test va nazorat ishlari tanlanadi. Tanlangan nazorat har bir maqsad uchun alohida qo'llaniladi. Masalan birinchi qo'yilgan maqsad uchun alohida, keyingi maqsadga erishish uchun alohida nazorat ishi topilishi kerak. Barcha nazorat ishlari umumlashtirilib oxirgi baholash ma'lum qilinadi. Masalan: 1- maqsad ta'rifni yoddan bilish deb belgilangan bo'lsa, uni yoddan aytib berish talab etiladi. 2- maqsad formulani amalda ko'llashga o'rgatish bo'lsa, uni amalda masala ishlab qo'llash talab etiladi. 3- maqsad formulani noan'anaviy holatda qo'llash bo'lsa, unga mos misol tanlanadi va uni ishlash talab etiladi. Shunday qilib nechta maqsad aniqlashtirilgan bo'lsa, shuncha nazorat ishi ham ishlab chiqilishi kerak bo'ladi. Shunday qilib maqsad va nazorat ishi o'rtasida uygunlik xosil qilinadi. Nazorat ishlari tanlashda albatta maqsadning harakteri hisobga olinadi. Aniq belgilangan maqsadlar esa tekshirishni osonlashtiradi. Nazorat ishlarida turli xil test turlaridan foydalanish mumkin. Natijani baholash va o'zlashtirish darajasini aniqlash B.Blum taksonomiyasi mavxum tushunchalarni baxolashda nimalarga e'tibor qaratish lozim degan savolni yoritishga yordam beradi. Agar o'qituvchi mavhum tushunchalarni qo'llagan bo'lsa B.Blum taksonomiyasidan foydalanishi mumkin. Taksonomiya tushunchasi o'zaro izchil algoritmik boglangan tizimni bildiradi. Ushbu taksonomiyadan ham baxolash jarayonida foydalanish mumkin. Har bir maqsadni alohida nazorat ishiga

o‘tkazilishi lozim va nazorat maqsadga mos holda tuzilishi talab etiladi. Nazorat ishi har bir maqsadga alohida tuzilganligi sababli uni qisqa muddatda o‘tkazish yo‘llarini aniqlash lozim. Qisqa muddatni talab etuvchi nazroat ishlaridan biri albatta test nazorati hisoblanadi.

### **Nazorat savollari.**

1. Testologiya asoslari fanining maqsadi va vazifalari, testlarning ta’rifi, tasnifi, metodologik asoslarini izohlang.
2. Turli darajadagi va shakldagi test topshiriqlarini ishlab chiqish yo‘llarini izohlang..
3. Aniqlashtirilgan maqsadlar asosida testlarni ishlab chiqish mexanizmini tushuntiring.
4. O‘qitish jarayonidatalabalarning bilim ko‘nikma malakalarini nazorat qilish va baxolash mexanizmini ko’rsating.

## XIII BOB. KASBIY TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYORLASH

### 13.1. Respublikamizda kasbiy ta'lism o'qituvchilarini tayyorlash

O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Totalitar boshqaruv usuli asosida, ish yuritilayotgan xalq ta'limi tizimida ham so`nggi o'n yilliklar davomida yuzaga kelgan muammolarni hal etish vazifasi Respublika hukumati hamda mutasaddi tashkilotlarni ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishga undadi. Bu boradagi sa'i-harakatlarning samarasini sifatida 1992 yil iyul oyida mustaqil O'zbekistonning ilk «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun mazmunida Respublika ta'limi tizimi, uning asosiy yo`nalishlari, maqsad, vazifalari, ta'lim bosqchlari va ularning mohiyati kabi masalalar o`z ifodasini topdi. Biroq, 1997 yilda, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi yangi qonuni va uning mazmunida ilgari surilgan g`oyalarning amaliyotga tadbiqi tahlil etilganda, bu borada muayyan kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlandi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko`ra, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohot aksariyat o'rnlarda Chuqur ilmiy asoslarga ega bo`lmaganligi ma'lum bo`ldi hamda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish zarurligi belgilandi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sessiyada **2020 yil 5 avgust kuni** yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va **ommaga e'lon qilindi, 2020 yil 23 sentyabrda yangi tahrirdagi qonun qabo'l qilindi.** Unda o'qituvchilar mavqeyini tiklash asosiy vazifa sanaldi. Har qanday mamlakatning kuchi uning, fuqarolarining ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyati esa ta'lim tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog'lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e'tiqodlari asosida shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi yangi qonununing mazmun mohiyati asosini O'zbekistonning taraqqiyotini ta'minlay oladigan, uni jahonning ilg`or mamlakatlari darajasiga ko'tarilishiga hissa qo'shuvchi dadil, mustaqil fikrlovchi, bilimli, malakali mutaxassis, shuningdek, ijobjiy sifatlarga ega bo`lgan raqobatbardoah kadrlarni tayyorlab voyaga etkazish jarayoni tashkil etadi. «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida, raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv, ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash; ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga

oshirayotgan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish;kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatining nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish, kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;ta'lim oluvchilarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestasiyadan o`tkazish va akkreditasiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko`rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;ta'lim, fan, ishlab chiqarish samarali integrasiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, Shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag`lar, shu jumladan, chet el investisiyalari jalg etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;kadrlar tayyorlash sohasida o`zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

### **13.2. Kasbiy pedagogikaning paydo bo`lishi va ravnaq topishi.**

Pedagoglik kasbining shakllanishi kishilik taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog`liq. Ibtidoiy davr kishilar bolalarni o`zları bilan ergashtirib yurib, ulargaov qilish, turli daraxt mevalarini terish, o`simgliklarning ildizi kovlab olish, suv manbalarini izlab topish kabi harakatlarni amalgaoshirishni o`rgatganlar. Bunday harakatlar qabila (urug`)ning tajribali kishilar yoki keksalar tomonidan amalgaoshirilgan. Oddiy kundalik ehtiyojlarni qondirish yo`lidaolib borilayotgan xatti-harakatlar asosida yoshlarga mavjud tajribalar asosida ma'lumotlarni berib, ulardaamaliy ko`nikmalarni shakllantirganlar. Turli tovushlarni chiqarish yordamidaatrodagilarni yaqinlashayotgan xavfdan ogoh qilishni bolalar kattalarning namunalari asosida o`zlashtirganlar. Nutq va yozuv paydo bo`lgunga qadar bu kabi harakatlar imo-ishoralar asosida amalgaoshirilgan. Kishilik tarixida tub inqilobni sodir etgan nutq va yozuvning paydo bo`lishi, shuningdek, urug` jamoasi tomonidan bajariladigan mehnat faoliyatining turli sohalarga ajralishi yoshlarga nisbatan munosabatning ilg`or (progressiv) xarakter kasb etishiga imkon berdi. Turli tabiiy ofatlar ta'siridan himoyalanish, kishilar hayotigaxavf solayotgan kasallikkarni davolash, hayot kechirishuchun etarli oziq-ovqatlarni jamlab

olishgabo'lgan tabiiy ehtiyoj yoshlarga hayotiy tajribalarni ma'lum mehnat faoliyati yo'nalishidaetarlcha bilimga ega bo'lgan kishilar tomonidan berilishi maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatdi. Natijada bolalarga hayot tajribalarini o'rgatuvchi kishilar guruhi shakllandi hamda bolalarga ma'lum yo'nalishlar bo'ysha bilimlarni berish maxsus ajratilgan joylarda tashkil etila boshlandi. Dastlabki maktablar qadimgi Sharqda (Vavilon, Misr, Hindistonda) paydobo'lib, ularda bolalarga ma'muriy-xo'jalik boshqaruvi asoslari o'rgatilgan. Antik davrda maktablar Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar. Qadimgi Yunonistonda bunday joylar akademiya deb nomlangan. «Akademiya» so'zi afsonaviy qahramon Akadema nomidan kelib chiqqan. Eramizdan avvalgi IV asrda Afina yaqinidagi Akadema nomi bilan nomlanuvchi joyda Platon o'z shogirdlariga ma'ruzalar o'qigan bo'lib, keyinchalik ta'lim tashkil etiluvchi maskan ham Shunday nom bilan atala boshlagan. qadimgi Rim va Yunonistonda bolalarga bilim berish faylasuflar zimmasiga yuklatilgan. Jamiyatning tabaqalanishi natijasida, qudorlik tuzumida bolalarni ta'lim maskanlarigaolib borish vaolib kelish vazifasini qullar bajarishgan va ular «pedagog» deb nomlanganlar. Ushbu tushunchaning ma'nosi Payne agoyen «bola yetaklovchi» “Didaktikos”, “men o'qitaman” degan ma'nolarnibildiradi, ushbu so'zlarni ma'nosita'lim-tarbiya berish degan tushunchaga ega demakdir. Tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqchlarida bolalarga tizimli bilimlarni berish bilan doimiy shug'ullanuvchi kishilar aynan shu nom bilan atala boshlaganlar. Feodalizm davridaaksariyat maktablar masjid (musulmon mamlakatlarida) yoki ibodatxonalar (Hindiston) qoshida tashkil etilgan. Bunday maktablarda yoshlarga diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlar ham o'rgatilgan. O'rtaasrlar davrida, Sharqdaakademiya ko'rinishidagi ta'lim muassasalari ham faoliyat yuritgan bo'lib, ular «Donishmandlar uyi» (IX asr, Bag'dod), «Ma'mun akademiyasi» (XI ar boshlari, Xorazm), observatoriyalar qoshidagi jamiyatlar (XV asr, Samarqand) tarzida nomlangan. Akademiyalarga turli fan yo'nalishlari bo'ysha kuchli bilimga ega bo'lgan qomusiy olimlar jalb etilgan bo'lib, ular tomonidan matematika, geodeziya, mineralogiya, medisina, astronomiya kabi yo'nalishlarda keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilgan. O'rtaasrlar hamda kapital ishlab chiqarishiga asoslangan jamiyatlardaakademiya (Sharqda madrasa)lar ko'rinishidagi maktablarda ma'naviy-axloqiy jihatdan etuk, turli sohalar bo'ysha mukammal bilimga ega pedagoglarning faoliyat yuritishlariga alohidaahamiyat qaratilgan. Chunonchi, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek tomonidan barpo etilgan madrasalarda o'z davrining taniqli olimlari – Ali Qushchi, Taftazoniy, qozizoda Rumi, Mavlono Muhammad, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Muiniddin Koshiy hamda Mansur Koshiylar talabalarga ta'lim bergenlar. XIX asr oxiri hamda XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidizm harakatining asoschilari, taniqli ma'rifatparvarlar –

Mahmudxo'ja Behbudi, Munavvar qori, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriy, Ismatulla Raxmatullaev, Abdurauf Fitrat, Isohxon Ibrat va boshqalar aholi orasida nafaqat murabbiy, balki ma'naviy etuk inson sifatida ham nom qozondilar. **Sharq mutafakkirlari va g`arb pedagoglari jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o'rni haqida.** Jamiyat tomonidan o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar o'z davrida Sharq mutafakkirlari hamda g`arb ma'rifatparvarlarining asarlarida o'z aksini topgan. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Rayhon Beruniylar o'qituvchining ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishlariga alohidaahamiyat qaratadilar. Ularning fikrlarcha, yaxshi o'qituvchi boshqalardan bir jihat bilan farq qiladi, ya'ni, u o'zi egabo'lган bilimlarni yoshlarga beminnat o'rgatadi, har bir ishda ularga namuna bo'laoladi. Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida o'qituvchi shaxsga ta'lim berishdek mas'uliyatlari burchni bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvafaqiyatga erishish garovi bo'lган quyidagi tavsiyalarni beradi:

- 1) shaxs bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- 2) berilayotgan bilimning shaxs tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborni qaratish;
- 3) ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish;
- 4) shaxsning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- 5) fanga qiziqtira olishi;
- 6) berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;
- 7) bilimlarni shaxsgatushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- 8) har bir so'zning shaxs hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish<sup>1</sup>.

Alisher Navoiy o'z davrining ayrim maktabdorlari ega bo'lган sifatlar, xususan, qattiqqo'llik, ta'magirlik va johilliklarni qoralar ekan, o'qituvchining ma'naviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qo'yadi. Xususan, «mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa vaolg'irlik uchun gap-so'z va qavqo yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o'rin bo'lmasa... Yaramasliklardan qo'rqlas va noplilikdan qochsa, nainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida vaodat bo'lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon

---

<sup>1</sup>Рахимов С. Абу Али ибн Сино, Таълим ва тарбия ҳақида. – Тошкент, Ўқитувчи, 1967. – 75-бет.

odatni tarqatuvchidir»<sup>2</sup>Ayni o'rinda o'qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini ta'kidlab o'tadi: «Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashgaojizlik qilardi, u esa bir to'da bolaga ilm vaadab o'rgatadi, ko'rkim bunga nimaetsin. Shunisi ham borki, u to'dada fahm-farosati ozlar bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo'ladi. Har qanday bo'lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko'pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsaerziyi.

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,  
Aylamak bo'lmas adooning haqin yuz ganj ila»<sup>1</sup>.

Mashhur pedagog AbdullaAvloniy ham o'z asarlarida o'qituvchi shaxsi va uning faoliyati borasidagi qarashlarni ifodalashgaalohida o'rin beradi. Allomaning qayd etishcha, shaxsning sog'lom bo'lib o'sishidaota-onalar o'zigaxos rol o'ynasalar, uning fikriy jihatdan taraqqiy etishida o'qituvchining o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. Xususan, shaxsning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish muallimlarning «diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifa» ekanligini ta'kidlab, «fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog'liqdur», - deydi. Yan Amos Komenskiy o'z davrida o'qituvchining boladunyoqarashini rivojlantirishdagi roliga katta baho berib, o'qituvchilik «er yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb» ekanligini ta'kidlaydi. Muallifning fikrcha, pedagog o'z burchlarini chuquranglay olishi hamda o'z qadr-qimmatini to'la baholay bilishi zarur. Yan Amos Komenskiy o'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning Shaxsida quyidagi fazilatlarning namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqligiga urg'u beradi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini seuvuvchi, o'quvchilarga otalaridek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, o'quvchilarni o'z ortida ergashtiruvchi va diniy e'tiqod. K.D.Ushinskiy o'qituvchi ma'naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho beradi hamda ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomilashtirib borish maqsadga muvofiq ekanligi to'g'risidagi fikrni ilgari suradi. Mazkur g'oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi tizim – o'qituvchilarini tayyorlovchi tizimni ilk bor asoslaydi. **O'qituvchining asosiy vazifalari va uning shaxsiga qo'yiladigan talablar.** «Ta'lim to'g'risidagi» yangi qonun g'oyalarini amaliyatga tadbiq etish Respublika ta'lim tizimidaolib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash, ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma'naviy qiyofasi hamda

<sup>2</sup> АлишерНавоий. Махбуб ул-кулуб. Асарлар. Ўн беш томлик. 13 том. – Тошкент, Бадиий адабиёт нашриёти, 1966. –189-190-бетлар.

<sup>1</sup>, АлишерНавоий. Махбуб ул-кулуб. Асарлар. Ўн беш томлик. 13 том. – Тошкент, Бадиий адабиёт нашриёти, 1966. 192-193-бетлар.

kasbiy mahoratlariga ham bog`liqdir. Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo`lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning etuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yoshavlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. O`zbekiston Respublikasida o`qituvchi kadrlarning ma`naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo`ymoqda. Chunonchi, bu borada O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagilarni qayd etadi: “Haqiqatdan ham o`zining ko`z nuri, qalb qo`ri butun borlig`ini yosh avlod tarbiyasiga bag`shlagan o`qituvchi va murabbiylar mehnati, jasoratihar qanday yuksak baholarga munosibdir...bu haqda fikr yuritar ekanmiz Behbudiyning ”Avlodlaringizga faqat bugunning emas, kelgusi zamonning ilmini o`rgating” degan so`zлari beixtiyor yodimizga tushadi.” Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o`qituvchisi shaxsiga nisbatan qo`yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o`qituvchi qanday bo`lishi zarur? Kasbiy pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo`nalishlari bo`ycha maxsus ma`lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega hamda ta`lim muassasalarida faoliyat ko`rsatuvchi shaxs sanaladi. O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi qonunining 5-moddasi 3-bandiga muvofiq ta`lim muassasalarida sudlangan shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug`ullanishlariga yo`l qo`yilmaydi. Bizning nazarimizda, zamonaviy o`qituvchi-bakalavr qiyofasida quyidagi fazilatlar namoyon bo`la olishi kerak (so`z yuritilayotgan sifatlar mohiyatan o`qituvchi-bakalavr tomonidan amalga oshirilishi zarur bo`lgan vazifa, burch va mas`uliyatlarini ifodalaydi): O`qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro`y berayotgan o`zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o`quvchilarga to`g`ri, asosli ma`lumotlarni beraolishi lozim. Zamonaviy o`qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo`lishi talab etiladi. O`qituvchi o`z mutaxassisligi bo`ycha chuqur, puxta bilimga ega bo`lishi, o`z ustida tinimsiz izlanishi lozim. O`qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta`lim-tarbiya jarayonida o`quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatgaolgan holda faoliyat tashkil etishi kerak. O`qituvchi ta`lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo`lmog`i lozim. O`qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo`lishi shart. O`qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo`l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalari chuqur o`zlashtirib olishga erishishlari lozim. O`qituvchi nutq madaniyatiga ega bo`lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o`zida aks ettira olishi kerak: nutqning to`g`rili; nutqninganiqli; nutqning ifodaviyili; nutqning sofligi

(uning turli sheva so`zlaridan holi bo`lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklarigaxos so`zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o`zga millatlarga xos so`zlarni noo`rin qo`llanilishi); vulgarizm hamda konselyarizm (o`rni bo`limgan vaziyatlarda rasmiy so`zlardan foydalanish) so`zlardan holi bo`lishi, o`qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo`lishi kerak; d) nutqning ravonligi; j) nutqning boyligi (hikmatli so`zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko`chirma gaplardan o`rinli va samarali foydalanaolish). O`qituvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta`lim-tarbiya jarayonida o`quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o`zlashtirishga erishishi lozim. O`qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o`rnak bo`la olishi lozim. O`qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o`zida bir qator sifatlarning tarkib topishiga erishishi zarur. Chunonchi, u eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to`g`ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni barataraf etishning uddasidan chiqoqlishi zarur. O`quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan mulohot jarayonida fikrini aniq va to`la bayon etilishigaahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so`zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, shaxs (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e'tirof etishi, ularning yanadaboyishiga ishonch bildirishi u bilan tillashaolishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida o`qituvchining so`zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrihohlik, samimiylilik, do`stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko`tarinki kayfiyatda bo`lishi zarur. O`qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o`quvchilar, hamkasblar hamdaota-onalar o`rtasidaobro`-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

### **Nazorat savollari**

- 1.O`zbekiston Respublikasining Ta`lim to`g`risidagi yangi qonununing mazmun mohiyatini izohlang.
2. Kasbiy ta`lim o`qituvchilarini taylorlashda afzallik va kamchiliklari
3. Pedagoglik kasbi, uning paydo bo`lishi tarixi va ravnaq topishishui haqidagi fikrlaringiz.
- 4.Sharq mutafakkirlari va G`arb pedagoglari jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o`rni haqidagi g`oyalari.

## **XIV BOB. KASB TA'LIMIDA AXBOROT KOMMUNIKASIYA TEXNOLOGIYALARIDAN**

### **14.1. Kompyuterli texnologiyalar dasturli o'qitish**

Zamonaviy texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish talablardi yangi g'oyalarini rivojlantiradi, zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsiyalarning noyob imkoniyatlari bilan bog'liq ta'limning hali tadqiq qilinmagan yangi texnologik variantlarini ochadi. Ta'limning kompyuterli (yangi mul'timediyali) texnologiyalari – bu mul'timediyalini tayyorlash va uni ta'lim oluvchiga uzatiSh jarayoni bo'lib, uning amalga oshirish vositasi kompyuterdir, ya'ni:talabalarda mul'timediyali bilan ishslash mahoratini shakllantirish, ularning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish; «mul'timediyalili jamiyat» shaxsini tayyorlash; ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish imkoni darajasidagi va yetarli miqdorda mul'timediyali bilan ta'minlash;talabalarda tadqiqotchilik mahoratini, optimal qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish. Mul'timediyalili ta'lim jarayoni oldindan pedagogik loyihalangandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Pedagogik jarayonni kompyuterlashtirish asosiy yo'nalishlaridan biri va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning shug'ullanishi lozim bo'lган sohasidir. Mul'timediyali texnologiyalari – bu insonlarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnika va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bo'yicha imkoniyatlarini kengaytiradigan ma'lumotlarni tashkil etish, saqlash, ishlab chiqish, tiklash, uzatish usullari va texnik vositalaridir. Yana shuningdek, mul'timediyali texnologiyalari deganda, ma'lum bir maqsadga erishishuchun amalga oshiriladigan jarayonlar zanjiridan iborat yaratuvchi faoliyat tushuniladi. Agar texnologik zanjirni tashkil etuvchi jarayonlar, ular orasidagi mul'timediyali almashinuvini tashkil etish va ularni uyg'unlashtirishda kompyuterlardan foydalinish imkoniyati yaratilsa, har qanday texnologiyaning samaradorligi ortadi. Albatta, buning uchun mazkur texnologiyani sinchiklab o'rganish, jarayonlardagi va ular o'rtasidagi mul'timediyali almashinuvini, shuningdek, jarayonlar zanjirini (ya'ni texnologiyani) boshqarishning mul'timediyali ta'minotini tahlil etish zaruriyati paydo bo'ladi. Mul'timediyali texnologiyalari ta'lim jarayonida muhim o'rin tutib, quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi:har bir insonga xos noyob fazilatlardan iborat individual qobiliyatlarni o'qitilayotgan talaba va talabalarda ochish, saqlash va rivojlantirish, ularda bilish qobiliyatlarini, o'zini o'zi kamolotga etkazishga intilishni shakllantirish; voqeа va hodisalarni kompleks o'rganishni, aniq, tabiiy-ilmiy, texnikaviy, ijtimoiy, gumanitar fanlar va san'at orasidagi o'zaro bog'liqlikning chambarchasligini ta'minlash; o'quv-tarbiya jarayonlarining mazmun, shakl va metodlarini doimiy tarzda va dinamik ravishda yangilash. Ta'lim tizimi nuqtai nazaridan mul'timediyali texnologiyalarining joriy

etilishi bilan birga yuzaga keladigan quyidagi muammolar muhimdir: Texnik muammolar – bular ta`lim tizimida foydalaniladigan elektron-hisoblashmashinalari va kompyuterlarga qo`yiladigan talablarni, ularni amalda qo`llash xususiyatlarini belgilaydi; Dastur muammolari – bular ta`lim tizimida foydalanishuchun dastur ta`minotining tarkibi va turlarini, ularning qo`llanish tarkibi va xususiyatlarini belgilaydi; Tayyorgarlik muammolari – bular o`qituvchi va talaba, pedagog va talabalarning mul`timediyali-kommunikatsiya texnologiyalaridan, shu jumladan, hisoblash texnikasidan ham foydalanish o`quvi bilan bog`liqdir.

Bugungi kunda ta`limni mul`timediyalilashtirishda asosiy yo`nalish turli o`quv fanlari bo`yicha pedagogik dastur vositalarini yaratishdan iborat bo`lib qoldi. Ammo mavjud va ishlab chiqilayotgan kompyuter texnikasi bazasidagi pedagogik dastur vositalari o`qitish nuqtai nazaridan ta`lim sifatida muhim siljishlarga olib kelishi mumkin. Buning sabablaridan biri-kompyuter texnologiyalari an`anaviy tashkil etilgan o`qitish jarayonida joriy etila boshlanganligidir. U o`zining asosiy mazmuni va metodlari bo`yicha bu texnologiyalarga yo`naltirilmagan va ularga ehtiyoj sezmaydi. Keyingi vaqtarda «o`qitishning kompyuter texnologiyalari» tushunchasi tarqalib, bunda kompyuterlar bazasida amalga oshirilgan o`qitish texnologiyalari tushuniladi. Biroq mul`timediyali texnologiyalari tushunchasi o`qitishning kompyuter texnologiyalari tushunchasidan kengroqdir, chunki kompyuterlar mul`timediyali texnologiyalari texnik vositalarining tarkibiy qismidir. Ta`lim jarayonida o`quv mazmuniga mos ravishda metodika, texnologiya, shakl va vositani, shu bilan bir qatorda sharoitni to`g`ri tanlay olinsa, samaradorlikka erishiladi. Ta`limning samaradorligi ko`p jihatdan ta`lim metodlarini to`g`ri tanlashga ham bog`liqdir. Hozirgi kunda maktab ta`limi tizimida ta`lim metodlarining boy xazinasi to`plangan. Biz ta`limda to`g`ri usul (metod) tanlar ekanmiz, ko`zlangan natijaga komil ishonch va qisqa yo`l bilan erisha olamiz. Ta`lim-tarbiya sohasidagi masalalarning to`xtovsiz murakkablashib borishi va yangi imkoniyatlarning yuzaga kelishi, umumiyl o`rta ta`lim vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish o`qitish mezonlarini muttasil yangilab turishni, xalq pedagogikasi ayniqsa milliy Sharq xalqlari pedagogikasidan ijodiy foydalanishni talab qilmoqda. Ta`limi sistemasida o`qitish bilan bir qatorda «uslub va «vosita» terminlari ham ishlataladi. Uslub – ma`lum o`quv materiallarini o`tishda qo`llanilayotgan asosiy o`qitish usuli bilan birga ikkinchi bir o`qitish usulining yarim elementlaridan foydalanib ish ko`rishdir. Vosita – ma`lum o`qitish usulini muvaffaqiyatli amalga oshirishuchun zarur bo`lgan yordamchi o`quv materiallari – o`quv adabiyotlar, o`quv qurollari, tarqatma materiallar va boshqa shu kabilardan foydalanishdir. Demak, ta`lim

jarayonida o'quv materialining xarakteriga qarab tanlangan o'qitish usullari u yoki bu uslub va vositalarni o'z ichiga olgan bo'lishi mumkin. Biroq qaysi o'qitish usuli, uslub va vositalardan foydalanish zarurligi u yoki bu o'quv fanlarining o'ziga xos hususiyatlariga bog'liqdir. Bundan ko'rinish turibdiki dars mashg'ulotlarida metod, texnologiya, shakl va vositalarni to'g'ri qo'llay olish muhim ahamiyat kasb etadi. Mul'timediyali texnologiyalari yordamida bilim berish quyidagi afzallikkarga ega: talabalar bevosita ko'rib bo'lmaydigan jarayonlarni texnik vositalar yordamida kuzatadi, ya'ni vizual ko'rish amalga oshiriladi; o'quv materiallari chuqurroq va mukammalroq o'zlashtiriladi; vaqt tejaladi; olingan bilimlar amalda qo'llaniladi va talabalar xotirasida uzoq vaqt saqlanadi. Hozirgi zamon mul'timediyali texnologiyalarining asosini quyidagi uchta texnika yutug'i tashkil etadi: Mul'timediyalining mashina o'qiydigan tushunchalarda jamlash muhitining paydo bo'lishi (magnit, lentalar, kinofilmlar, magnit disklar va h.); Mul'timediyalini yer sharining istalgan nuqtasiga vaqt va masofa bo'yicha muhim cheklashlarsiz yetkazishini ta'minlovchi aloqa vositalarining rivojlanishi, aholining aloqa vositalari bilan keng qamrab olinishi (radio eshittirish, televidenie, ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari, yo'dosh aloqa, telefon tarmog'i va h.); Mul'timediyalini kompyuterlar yordamida berilgan algoritm bo'yicha avtomatlashtirilgan ishlab chiqish imkonini (saralash, tasniflash, kerakli shaklda ifodalash, yaratish va h.) oshirish. Mul'timediyali texnologiyalari, birinchidan, mul'timediyalining sirkulyasiyasi va ishlov berish majmui, ikkinchidan, bu jarayonlarning tasviridir. Mul'timediyali texnologiyalari ta'lim jarayonida muhim o'rin tutib, quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi: har bir insonga xos noyob fazilatlardan iborat individual qobiliyatlarni o'qitilayotgan talaba va talabalarda ochish, saqlash va rivojlantirish, ularda bilish qobiliyatlarini, o'zini o'zi kamolotga etkazishga intilishni shakllantirish; voqeа va hodisalarni kompleks o'rganishni, aniq, tabiiy-ilmiy, texnikaviy, ijtimoiy, gumanitar fanlar va san'at orasidagi o'zaro bog'liqlikning chambarchasligini ta'minlash; o'quv tarbiya jarayonlarining mazmun, shakl va metodlarini doimiy tarzda va dinamik ravishda yangilash. Ta'lim tizimi nuqtai nazaridan mul'timediyali texnologiyalarining joriy etilishi bilan birga yuzaga keladigan quyidagi muammolar muhimdir:

1. Texnik muammolar – bular ta'lim tizimida foydalilanadigan elektron-hisoblash va mikroprosessor texnikasiga qo'yiladigan talablarni, ularni amalda qo'llash xususiyatlarini belgilaydi;

2. Dastur muammolari – bular ta'lim tizimida foydalanishuchun dastur ta'minotining tarkibi va turlarini, ularning qo'llanish tarkibi va xususiyatlarini belgilaydi;

3. Tayyorgarlik muammolari – bular o'qituvchi va talaba, pedagog va talabalarning mul'timediyali-kommunikasiya texnologiyalaridan, shu jumladan, hisoblash texnikasidan ham foydalanish uquvi bilan bog'liqdir.

#### **14.2. Ta'limida axborot kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish**

Kompyuter texnikasi va kommunikasiya vositalari paydo bo'lishi bilan o'qitish texnologiyalari tubdan o'zgardi. Ta'lim jarayonida mul'timediyali texnologiyalarini amalga oshirilishi quyidagilarning mavjud bo'lishini taqozo etadi: ta'limning texnik vositalari sifatida kompyuterlar va kommunikasiya vositalari; ta'lim jarayonini tashkil etishuchun unga mos tizimli va amaliy dastur ta'minati; ta'lim-tarbiya jarayonida yangi o'quv-texnika vositalarini tatbiq etish bo'yicha mos metodik ishlanmalar. Keyingi vaqtarda «o'qitishning kompyuter texnologiyalari» tushunchasi tarqalib, bunda kompyuterlar bazasida amalga oshirilgan o'qitish texnologiyalari tushuniladi. Biroq mul'timediyali texnologiyalari tushunchasi o'qitishning kompyuter texnologiyalari tushunchasidan kengroqdir, chunki kompyuterlar mul'timediyali texnologiyalari texnik vositalarining tarkibiy qismidir. Bugungi kunda turli optik xotirlovchi qurilmalar (videodisklar, optik disklar) keng tarqaldi. Ulardan foydalanish matnli grafik mul'timediyalini bir vaqtda birgalikda yozish imkonini beradi, shu bilan birga uni qayta tiklashda yuqori sifatlari tasvir paydo bo'ladi. Magnit yozuvdan farqli o'laroq, optik disklardagi yozuv istalgan sondagi qayta tiklashlarda ham yomonlashmaydi. Kompyuterlar ishining dasturiy-matematik ta'minati yuqori texnologik ishlab chiqarish taraqqiyotining muhim yo'nalishi bo'lmoqda. Shuningdek, texnik va dasturli mul'timediyali texnologiyalari ham mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: AT tarmoqlari. Hozirgi vaqtda bilimlarning barcha sohalarida AT yoki kompyuter (lokal yoki global) tarmoqlari keng tarqalgan. AT lokal tarmoqlari uncha katta bo'limgan fazoda amalga oshiriladi va mul'timediyali xizmati turli tarmoqlarining integratori bo'ladi. Ular tashkilotlardagi barcha mul'timediyali texnologiyalari vositalarini birlashtiradi hamda ularning samaradorligini oshiradi. AT global tarmoqlari esa, mul'timediyalini katta masofalarga uzatilishini amalga oshirish imkonini beradi. Yo'ldoshli aloqa tizimlari. Ko'plab yer ustidagi stansiyalarni va yer sun'iy yo'ldoshidagi retrenslyatorlarni o'z ichiga oladi. Bugungi kunga kelib, bu tizimlar kompyuterlar orasidagi aloqani amalga oshirishuchun ma'lumotlar to'plash hamda televidenie dasturini uzatishuchun ishlatilmoqda. Sun'iy intellekt elementli AKTning boshqalaridan farqi shundaki, oddiy AKTlari faqat statistik

ma'lumotlarni, sun'iy intellekt tizimlari esa bilimlarni ishlab chiqadi. Informatikaning alohida yo'nalishi-sun'iy intellektdir. Inson aqliy faoliyatining ba'zi turlarini amalgalashuvchi dasturli-texnika vositalari ishlab chiqilmoqda. Elektron pochta. «Elektron pochta» – bu korrespondensiyalar almashishi uchun pochtaga o'xhash mul'timediyali uzatish va ishlab chiqishning elektron usullaridan foydalanish, ya'ni bosma materiallar, jadvallar va jurnallarni uzatish hamda elektron pochta yoki qog'ozsiz pochta aloqalari xizmatidan iborat bo'lib, u xabarlarni toplash, ishlab chiqish va taqdim etish hamda ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari tizimidir. Elektron pochta asosida aholiga elektron gazeta va jurnallar kabi mul'timediyali xizmati ko'rsatish amalgalashuvchi. So'nggi yillarda jahon bozorida elektron nashrlar borgan sari ko'p o'rinni egallamoqda. Bu jarayon kompakt optik disklar keng tarqalishi bilan tezlashdi. Telekonferensiyalar. Telekonferensiyalar zamonaviy mul'timediyali texnologiyalarning amalgalashuvchiga misol bo'la oladi. Telekonferensiyalarini o'tkazishuchun quyidagi apparaturalardan foydalaniladi: terminallar, televezion kameralar, grafik displeylar, katta namoyish ekranlari. Shuningdek, telekonferensiyalar orqali dolzarb masalalar muhokamasini tezkorlik bilan tashkil etish, muhokama uchun istalgan rasmiy materiallardan foydalanish, dolzarb masalalarni muhokama qilishda ishtirok etuvchi mutaxassislar doirasini kengaytirish, talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish shakllarini tiklash muammosi yangicha hal etilishi lozim. Agar an'anaviy ta'lim sharoitlarida bilish faoliyatini tashkil etishning eng ko'p tarqalgan shakllari individual va frontal shakllar bo'ladigan bo'lsa, mul'timediyali texnologiyalaridan foydalanish sharoitida ularning ikkalasidan bir vaqtida foydalanish mumkin. Ta'lim jarayoni muvaffaqiyatli amalgalashuvchi uchun talaba AKT vositalaridan foydalanish va ularni ishlatish bo'yicha ma'lum boshlang'ich bilim va malakaga ega bo'lishi kerak. Chunonchi ta'lim oluvchining kompyuter va kompyuter jihozlarini mustaqil ishlatishiga, aloqa tarmoqlari orqali tegishli ma'lumotlarni olishiga yoki yuborishiga, bunday ma'lumotlar bilan ishlashiga, bunday tarmoqlar orqali muloqotga kirishishiga to'g'ri keladi. Buning uchun esa undan ma'lum darajadagi kompyuter savodxonligi, shuningdek, tarmoqlarida mul'timediyali almaShuvini amalgalashuvchi malakalariga ega bo'lish talab etiladi. Ta'lim oluvchining bunday malakalarga yoki darajalarga, boshqacha qilib aytganda dastlabki tayyorgarlikka ega yoki ega emasligi ta'limda AKTni qo'llashning samardorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Yangi mul'timediyali kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini qo'llashning pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqligi tamoyili. Ta'limni AKTni qo'llab tashkil etishda bu tamoyilga amal qilish muhim hisoblanadi. Chunonchi, masalan, Rossiya olim va mutaxassislarining tajribasiga qaraganda kattalar ta'limida o'qitishning turli

vositalarini qo'llashning eng maqbul (optimal) nisbati quyidagicha ekanligi ma'lum bo'lgan: an'anaviy qog'ozga pechat qilingan materiallar – 40:50% foiz, WWW-serverlardagi materiallar – 30:35%foiz, kompyuterli konferentsi aloqalar – 5:10% foiz,, boshqa vositalar – 5:15% foiz,. Binobarin, yangi mul'timediyalı kommunikatsiya texnologiyalari vositalari, jumladan INTERNET juda jozibali va o'ziga tortuvchi didaktik xususiyatlarga ega bo'lsada, ular bilan ortiqcha qiziqish yoki ularga ortiqcha ahamiyat berish fetishlashishga, bu esa o'z navbatida qaysidir o'qitish vositasini boshqa hammasidan afzal ko'rishdek noto'g'ri tasavvur va xulosaga olib kelishi mumkin. Albatta, yuqorida keltirilgan nisbat absolyut emas. Lekin u, ta'limda yangi mul'timediyalı kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini qo'llashning pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq nisbatiga rioya qiliSh kerakligiga amaliyot natijalaridan kelib chiqib qilingan ishoradir. Yuqoridagilar ixtisoslik fanlarini o'qitishda AKTdan foydalanish masalasiga ham taalluqli, albatta. Ixtisoslik fanlaridan darsning turli bosqichlarida AKTni qo'llash, har xil ta'limiy (o'quv) maqsadlarga erishishning samarali vositasi bo'lib qoladi. Chunonchi, masalan: yangi materialni tushuntirishda multimedia proektori yordamida ekranga tushiriladigan interaktiv illyustratsiya; talabalar tomonidan dars paytida kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv materialini mustaqil o'rganish jarayonida, bunda o'qituvchi tomonidan masalaning shartlari berilishi nazarda tutiladi; kompyuterli modellashtirishni yoki kompyuter modellashtirish bilan real eksperimentni birgalikda muvofiqlashgan holda qo'llash bilan laboratoriya ishlari ko'rinishidagi tadqiqotchilik faoliyatini tashkil qilishda. Shuni ta'kidlash joizki, real laboratoriya ishlariga nisbatan kompyuterni qo'llab bajariladigan ishlarda talabalar eksperimentni mustaqil planlashtirishda, ularni o'tkazishda va natijalarini tahlil qilishda keng imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Yana shuni ko'rsatib o'tish mumkinki, b'zi laboratoriya ishlarini bajarilishiga texnika xavfsizligi nuqtai nazaridan qattiq cheklovlar qo'yilgani holda, kompyuterli eksperimentda bunday cheklovlar bo'lmaydi; bilim va malakalarni o'zlashtirish jarayonida qaytarish, mustahkamlashda; uyda sharoit (kompyuter) bo'lganda, eksperimentlarni, tegishli o'quv kompyuter dasturlarini ishlatgan holda bajarish. Ixtisoslik fanlarida AKTni qo'llab o'qitishda yaxshigina imkonlariga ega bo'lib, dars samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Bunda o'rganilayotgan voqeani eng asosiy jihatlarini ayrib ko'rsatish, ikkinchi darajali faktorlarni ayrib tashlash, qonuniyatlarni aniqlash, parametrлarni takroran o'zgartirgan holda eksperimentni hohlagancha qayta-qayta o'tkazish, natjalarni saqlab turish va kerak yoki qulay bo'lgan paytda ularga yana qaytish mumkin. Bunday

eksperimentlar u yoki bu qonun, hodisa, jarayonning kompyuterli modeli asosida (bo'yicha) o'tkaziladi. Bunday modellar bilan ishlash talabalarni nafaqat eksperimentlarni kuzatuvchisi, balki ularni faol ishtirokchisiga aylantirib, talabalarga o'qish-o'rganishning juda keng imkoniyatlarini ochadi. Ko'pchilik interaktiv modellarda eksperimentlarning boshlang'ich paramerlari va shartlarini juda keng doirada o'zgartirishning variantlari, vaqt masshtablarini o'zgartirish, real eksperimentlarda amalga oshirib bo'lmaydigan situatsiyalarni modellashtirish nazarda tutiladi. Yana bir ijobiy xususiyat shundan iboratki, kompyuter, real eksperimentda ko'rsatib bo'lmaydigan tabiatdagi real hodisani emas, balki bu hodisaning soddalashtirilgan nazariy modelini ko'rsatish imkonini beradiki, bunda qaralayotgan hodisaning asosiy qonuniyatlarini tezgina va effektiv ravishda aniqlash mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, talaba eksperimentni borishini kuzatiShi bilan bir qatorda tegishli grafikaviy bog'liqlikni ham kuzatib borishi mumkin bo'ladi. Hodisalarni modellashtirishdan olingan natijalarni grafik raviShda tasvirlash talabalarning hosil bo'layotgan katta hajmdagi informatsiyalarni o'zlashtirishlarini yengillashtiradi. Keyingi yillarda oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarini mul'timediyali texnologiyalari bilan jihozlash, ta'lim tizimi mazmuni, uni tashkil etishshakllari hamda sifatini oshirish borasida katta ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi va bermoqda. Ma'lumki, o'qituvchi(pedagog)larning an'anaviy o'qitish usulida laboratoriya va amaliy ishlar o'tkazilishiga ko'p vaqt ajratiladi. Bu mutaxassis tayyorlaShning juda muhim tarkibiy qismidir. U nafaqat talaba-talabaning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, o'quv materialini o'zlashtirish samarasini oshirishga, balki muayyan sohada amaliy ko'nikmalarni hosil qilishga ham ko'mak beradi. Biroq bunday mashg'ulotlar to'laqonli natija beradi, deya olmaymiz. Sababi – laboratoriya jihozlari etarli darajada emasligi hamda ko'pgina laboratoriya va o'quv xonalari zamonaviy moslama va uskunalar bilan jihozlanmaganligi, mavjudlarining ham aksariyati ma'naviy eskirib qolganligi va bugungi kun talablariga to'liq javob bera olmaslidadir. Texnologiyalar tez sur'atda rivojlanayotgan hozirgi vaqtida amaliy mashg'ulotlar uchun laboratoriya va stendlarni har bir o'quv yilida takomillashtirish talab etiladi. Buning uchun esa qo'shimcha sarf-xarajatlar qilish kerak. Boshqa yana bir muhim omil shundaki, ba'zi laboratoriya tadqiqotlaridagi ish yoki jarayonlarning sustligi sababli ajratilgan vaqt ichida ta'lim oluvchilar takror tahlil yoxud sinovlar o'tkazishga qiynalishadi, holbuki, ma'lum bir sohada etarlicha ish ko'nikmalari va tajriba orttirishuchun amaliy mashg'ulotlarni qayta-qayta takrorlash zarur. Afsuski, an'anaviy ish olib borishsharoitida laboratoriya moddiy ashyolari hamda moslamalarining tez-tez buziliShi va shu bilan bog'liq ashyolarga qo'shimcha sarflar qilinishi bois har doim ham bunday qilinavermaydi.

Yuqorida aytilganlarni hisobga olib, yangi tizim mutaxassis kadrlarini tayyorlashchun muhim vazifalarni hal etishga yordam bera oladigan yangi samarali, hammabop pedagogik uslubni joriy etish zaruriyati tug'ildi, deb ayta olamiz. Buning uchun laboratoriya stendlari va o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlar barcha talabalar uchun nafaqat qiziqarli, balki qulay va oson bo'lishiga erishmoq lozim. Mashg'ulotlar o'ziga jalb eta olishi, barcha ruhiy va didaktik omillarni hisobga olishi, jarayonlarni jo'shchin tarzda namoyon etishi, mashg'ulotlar o'tkazish va o'qitilayotgan fanni o'zlashtirishni, umuman butun o'qitish samarasini oshirishi, egallangan bilimlar xususida o'ziga-o'zi baho berish imkonini ta'minlamog'i zarur. Aynan shu nuqtai nazardan zamonaviy mul'timediyali texnologiyalarining tadbiq etilishi yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni maqbul tarzda hal qilish va an'anaviy o'qitish usulining bir qator kamchiliklarini bartaraf etishga ko'mak beradi. Bugungi kunga kelib, Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida virtual stendlardan muvaffaqiyatli foydalanilmoqda. Xo'sh, virtual stend deganda nimani tushunamiz?

**Virtual stend** – o'quv amaliy stendi yoki o'quv-malaka ustaxonasi bo'lib, talaba-talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, kompyuter dastur va texnologiyalari orqali ma'lum yo'nalishda zaruriy ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi. Virtual stendlar har bir talaba-talaba uchun texnikaga o'zining kirish parametrlarini «buyurishga», o'z bilimlarini nazorat qilishga imkon beradi. Laboratoriya ishini o'tkazish, uni zarur tartibda tushunish va hokazolar bilan bog'liq vaqtdan yo'qotish esa kompyuter samarasi hisobiga kamaytiriladi. Bunda, ayniqsa, zamonaviy jihozlar va apparatlarni xarid qilish, ularni barcha ta'lim muassasalarida taqsimlash bilan bog'liq ulkan moliya zaxiralarining tejab qolinishi muhimdir. Zamonaviy mul'timediyali texnologiyasi bo'lgan oddiy kompakt diskka o'nlab, ba'zan esa, yuzlab laboratoriya ishlarini joylashtirish mumkin. Endi esa bir dona shunday virtual laboratoriya stendi necha marta arzonga tushishini hisoblab chiqish qiyin emas. Bundan tashqari, ular bilan birga ta'lim muassasalarini yalpi ta'minlash mumkin. Agar ularda Internetga ulangan kompyuter tarmog'i bo'lsa, undan ham yaxshi bo'ladi. Bundan shuni ko'rish mumkinki, virtual stendlar ko'proq qo'llansa, shunday sarflarning oldini olish mumkin bo'ladi. Ta'lim jarayoniga virtual stendlarning joriy qilinishi natijasida, an'anaviy ta'limga qiyoslaganda, mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ta'lim jarayonining yanada yuqori sifati ta'minlanadi. Bunga avtomatlashtirilgan o'qituvchi (pedagog) va test o'tkazuvchi, tizimlar, test topshiriqlari va o'z-o'zini tekshirishchun savollarni o'z ichiga olgan ixtisoslashgan o'quv-uslubiy qo'llanmalardan foydalanish, o'quv jarayonining uslubiy negizini tezkor yangilash hisobiga erishiladi. Biz o'qitishning tashkiliy shakllari, zamonaviy mul'timediyali

texnologiyalari hamda turli ta`lim maskanlarining o'quv imkoniga ega bo'lamiz. Bu esa ma'lum darajada turli muassasalar mutaxassislari diplomlarining qadri teng bo'lishini ta'minlaydi. Demak, ta`lim jarayonida virtual stendlardan samarali foydalanish ta`lim sifatini oshiribgina qolmay, balki ulkan moliya zaxiralarini tejashga imkon beradi hamda xavfsiz, ekologik toza muhitni yaratadi. Virtual stendlar joriy etilishi ta`lim, ishlab chiqarish, boshqa davlat muassasalarining umumiyligini yondaShuvini talab qiladi. Virtual o'qitish stendlarini, ayniqsa, qimmatbaho jihozni xarid qilishdan oldin diqqat bilan o'rganib chiqish zarur. Bu xodimlarni mahalliy sharoitda o'qitishga, ta`lim oluvchilarni xorij mamlakatlariga guruh-guruh bo'lib jo'nashining oldini olishga imkon yaratadi. Shunday qilib, ta`lim jarayoniga zamонавиј mul'timediyali texnologiyalarining joriy etilishi quyidagilarga olib keladi:ta`lim jarayonini, talaba-talabalarning aniq tayyorgarlik darajasini, qobiliyatlarini, yangi materialni o'zlashtirish sur'atini, qiziqish va mayllarini hisobga olib ko'proq individual ravishda yordam berish;talaba-talabalarning bilish faoliyatlarini kuchaytirish, ularning o'z- o'zini takomillashtirish, ta`lim va kasbga qiziqishlari hamda intilishlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish; ta`lim jarayonida fanlararo aloqalarni kuchaytirish, borliq hodisalarini kompleks o'rganish;ta`lim jarayonining moslashuvchanligi, omilkorligi, tashkil topishshakllari va usullarini takomillashtirish hisobiga uni doimiy va dinamik yangilash; barcha ta`lim muassasalarida o'qitishning muammoli va kompyuter vositalaridan hamda virtual stendlardan foydalanish; ta`lim jarayonining texnologik bazasini hozirgi zamон texnik vositalarini joriy etish yo'li bilan takomillashtirish.

### **Nazorat savollari.**

- 1.Kasb ta`limida mul'timediyali texnologiyalar haqida fikringiz.
- 2.O'qitishning kompyuter texnologiyalari tavsifi.
- 3.Dasturlashtirilgan ta`lim tarmoqlarini izohlang.
- 4.Aborot kommunikasiya texnologiyalarini izohlang.

## **XV BOB. ISHLAB CHIQARISHTA'LIMINI RIVOJLANTIRISH, ISHLAB CHIQARISHTA'LIMI BOSQICHLARI VA TASHKILIY SHAKLLARI**

### **15.1. Tibbiy ta'lim muassasalari o'quv xonalari, laboratoriya o'quv xonalarini tashkil qilishning umumiy asoslari.**

Tibbiy ta'lim muassasalaridagi o'quv-ishlab chiqarish xonalari tegishli ixtisosiga oid o'ziga xos ishlar va texnologik jarayonlarning ko'pgina qismini tashkil etish va xuddi o'ziday aks ettirish imkonini beradi. Yangi o'quv xonalarini loyihalayotganda o'quv guruuhlaridan alohida, lekin ular o'rtaida issiq o'tish yo'li bor binolar qurish nazarda tutiladi.

**O'qitish vazifalari va ularning jihozlanishiga qo'yiladigan talablar.** Talabalarning ishlab chiqarishta'limi asoslarini tizimli eng qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida tibbiy ta'lim muassasalarida o'quv auditoriya xonalari va boshqa ishlab chiqarish ob'ektlari tashkil etiladi. Ularning eng muhim tibbiy-pedagogik ishlarni ta'lim-tarbiya vazifalarini hal qilishga to'la-to'kis bo'ysindirishdan iboratdir. Ishlab chiqarishta'limining xilma-xil tashkiliy shakllari va metodlaridan foydalanish; texnikaviy ma'lumotlarni ma'lum qilish; tadqiqotchilik xarakteridagi ishlarni amalga oshirish; kasb-hunar ko'nikmalari hamda malakalarini tarkib toptirish; texnikaviy bilimlarni, metodik usullarini va bajarilayotgan amaliy topshiriqlarning sifatini tekshirish; talabalarda estetik didni va mustaqil ishslash malakalarini tarkib toptirishhamda kasb madaniyati malakalarini tarbiyalash; yuksak mehnat intizomiga va rioya qilish kabi vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishuchun yaxshi shart-sharoitlar yaratishi lozim. O'quv xonalarida talabalarga kasb o'rgatishni tashkil etish usullari. O'quv auditoriya xonalarida talabalarga dars mashg'ulotida o'rgatiladigan o'quv materiali maqsad va mazmuniga qarab: ishlab chiqarish operatsiyalarini o'rganish, kompleks ishlarini bajarish, talabalarning bilimlari, ko'nikma va malakalarini tekshirish bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Ishlab chiqarishta'limi darsini o'tish quyidagicha shart-sharoitlar yaratishni talab qiladi: talabalarning faolligi va mustaqillagini rivojlantirishga qaratilgan o'quv ishlab chiqarish ishlari muntazam ravishda o'qituvchini rahbarligida o'tkaziladi; o'qituvchi mashg'ulotlar paytida butun guruhni ko'rib turishi kerak; texnologik jarayon o'quv ishlab chiqarish ishlarning maqsad va vazifalariga bo'ysundirilishi lozim; frontal ishshakllari uchun talabalarning ish o'rnlari bir xil bo'lgani ma'qul; o'qituvchi uchun maxsus uyushtirilgan ish o'rnini hozirlashga harakat qilish zarur; jihozlar, asbob-uskunalar va moslamalar ta'limning frontal bo'lishiga erishish imkonini berishi kerak; kompleks-operatsion tizim asosida ta'lim berishuchun o'quv ishlab chiqarish ishlarni o'quv davrlariga moslab maxsus tanlab olish zarur; o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalarida zamonaviy, yuksak darajadagi mahsuldor jihozlar asbob-

uskunalar, moslamalar bo‘lishi lozim. Asosiy operatsiyalarni bajarish bo‘yicha egallagan ko‘nikmalar talabalar tomonidan boshlang‘ich malaka ishlarini bajarishlari bilan mustahkamlangan taqdirdagina boshlang‘ich operatsion va kompleks davrlarda ishlab chiqarish ta’limining dars tizimi to‘liq amalga oshirildi. Ishlab chiqarish operatsiyalarini o‘rganish darsi mashg‘ulotning strukturasi ishlab chiqarish ta’limi dasturining mavzusi, mavzuchasi yoki bo‘limini o‘rganishdan oldin beriladi. Bularning vazifasi talabalarni o‘quv-ishlab chiqarish ishlarini ongli ravishda eng samarali usullar bilan bajarishga tayyorlash, brak va xatolarning oldini olish, xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilinishiga erishishdir. Ta’lim berish paytida instruksion (yo‘l-yo‘riq) xaritalardan foydalanish tavsiya etiladi. Instruksion (yo‘l-yo‘riq) xaritalardan foydalanish talabalarga: guruhdagi talabalarning faoliyatidan qat’iy nazar tayyorgarligi, shaxsiy tajribasi va individual xususiyatlariga qarab materialni o‘rganish sur’atlarini tanlab olish; o‘qituvchi ko‘pincha kompleks baholar qo‘yadilar (nazariya masalalari va ilgari o‘rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo‘llay olishi; ish usullarini to‘g‘ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o‘rnida belgilangan tartibni qo‘llab-quvvatlashi; tibbiy pedagogik bilimni o‘qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish me’yorlanmsa, belgilangan me’yorda bajarishi), bunday baholar ijobiy natijalar beradi. Bunda talabalarning o‘quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi.

## **Kasbiy ta’lim jarayoni**

### **Nazariy ta’lim**

Umumta’lim fanlari

Umumkasbiy fanlar

Kasbiy (maxsus) fanlar

Laboratoriya-amaliy mashg‘ulotlar

### **Ishlab chiqarish ta’limi**

O‘quv amaliyotlari

Ishlab chiqarish texnologik amaliyotlari

(Diplom oldi amaliyotlari, diplom ishlarini (loyihalarini) bajarish

Diplom ishlari himoyasi

**Laboratoriya-amaliy mashg‘ulotlar-o‘rganilayotgan fan bo‘limi** (modul birligi), mavzusi yakuniga ko‘ra nazariy bilimlarni amaliy mustahkamlash maqsadida tashkil etiladi.

**Laboratoriya mashg‘ulotlari-nazariy** darslarda o‘rganilgan modda va jismlarning xususiyatlarini, mashina va mexanizmlarning tuzilishi, ish prinsplari hamda xususiyatlarini o‘rganish maqsadida amalga oshiriladi

**Amaliy mashg‘ulotlar-nazariy** darslarda o‘rganilgan mavzular bo‘yicha ish qurollari va vositalaridan foydalanib, modda hamda jismlarni qo‘llab amaliy ish usul va operatsiyalari elementlarini bajarish maqsadida amalga oshiriladi. **Ishlab chiqarish ta’limi**-nazariy ta’lim jarayonida o‘rganilgan umumkasbiy, kasbiy bilimlar asosida ish usul va operatsiyalarini amaliy bajarish bo‘yicha ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirish maqsadida amalga oshiriladi

### **15.2. Ishlab chiqarish ta’lim amaliyotlarini ilmiy asosda tashkil etish**

Mamlakatimiz ta’lim tizimida ijobiy islohatlar jadal suratlarda olib borilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimiz tibbiy oily ta’lim muassasalarida soha bo‘yicha 20 dan ortiq yo‘nalishlarda 30 dan ortiq ixtisosliklar berilmoqda. Ma’lumki, malakali mutaxassis ixtisoslik malakasini olishuchunshu ixtisoslik bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Talabalarda bu ko‘nikmalar ishlab chiqarish amaliyotlari davrida shakllantiriladi. Ishlab chiqarish amaliyoti mavjud holatlarga binoan kasbiy hamda diplom oldi amaliyotlariga bo‘linadi. O‘quv amaliyotlari asosan tibbiy kasb hunar kollejlarining o‘quv yoki ishlab chiqarish xonalarida, texnologik va diplom oldi amaliyotlari olib boriladi. Ishlab chiqarish amaliyotining vazifasi talabalarni kelgusidagi mustaqil tibbiy mehnat faoliyatiga tayyorlashdir. Amaliyotlar tibbiy oliy ta’lim muassasalaridagi nazariy ta’limni mustaqil ishlar bilan bog‘laydi, talabalarni kasbiy faoliyatning boshlang‘ich ko‘nikmalari bilan shakllantiradi. Ishlab chiqarish amaliyotlarining didaktik maqsadi kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, nazariy bilimlarni ishlab chiqarish faoliyatiga qo‘llash orqali ularni mustahkamlash, umumlashtirish, tizimlashtirish, ishlab chiqarish ta’limining bevosita o‘rganish natijasida bilimlarni kengaytirish hamda chuqurlashtirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar orqali tibbiy ta’limni amaliy o‘zlashtirishdir. Ishlab chiqarish amaliyoti tashkiliy nuqtai nazardan ham, uslubiy nuqtai nazardan ham o‘quv jarayonining eng murakkab shaklidir. Chunki uni amalga oshirishchun tibbiy oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish ta’limi orqali shifoxonalarda tibbiy ta’lim maanfatlarini umumlashtirish, muassasa va tashkilotlar amaliy vazifalariga ta’lim jarayonini moslashtirish talab etiladi. Amaliy mashg‘ulotning boshqarish qulay bo‘lgan shakli bu o‘quv amaliyotlaridir bu amaliyot kasb-hunar ta’limi o‘qituvchilari nazorati ostida ma’lum bir rejimda va didaktik maqsadli mashqlar tizimini amalga oshirish orqali bajariladi. Amaliy ta’lim mazmuni shu amaliyot uchun nazariy asos bo‘luvchi fanlar mazmunidan hamda malakali yetuk mutaxassis ish o‘rni malaka tavsifidan kelib chiqib belgilanadi. Ishlab chiqarishamaliyotlarni ilmiy asosda tashkillashtirishning birinchi sharti unga asos bo‘luvchi o‘quv predmetlarini o‘zlashtirishdir. Shuning uchun «oldin nazariya, so‘ng amaliyot» qoidasiga amal qilish maqsadga muvofiqdir. Amaliy mashg‘ulotlarni ilmiy asosda

tashkillashtirishning ikkinchi shartiixtisoslik bo'yicha laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar davrida olingan boshlang'ich ko'nikmalarga ega bo'lishdan iboratdir. Amaliy mashg'ulotlarning har bir bosqichi – o'quv, texnologik va diplom oldi amaliyotlari o'z maqsadli vazifasiga, didaktik maqsadiga va shunga mos ravishda o'z mazmuniga ega. O'quv va ishlab chiqarish amaliyotlari talabalarining nazariy fanlarni chuqur o'zlashtirishiga, ishlab chiqarish texnologik amaliyotlarga tayyorgarlikning yuqori darajada bo'lishiga, tibbiy ixtisosliklarda shifokor kasbini olishga asos bo'ladi. Ishlab chiqarish ta'limi amaliyotlari esa ishlab chiqarish texnologiyasi bilan tanishtiradi, kasbiy ko'nikmalarini shakllantiradi. Oxirgi bosqichda esa, ishlab chiqarish ta'limining yakuniy bosqichi bo'lmish diplom oldi amaliyotlari davrida talabalar bilim va ko'nikmalarini umumlashtiradilar va takomillashtiradilar, mehnatni tashkil etish usullari bilan tanishadilar, hamda diplom loyihasi uchun material to'playdilar. Ishlab chiqarish amaliyotining asosiy maqsadlaridan biri ixtisosliklar bo'yicha olingan nazariy bilimlarni va kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishdir. Ishlab chiqarish ta'limi amaliyotlari davrida insonga xizmat ko'rsatish va kasbiy jarayonlarga amal qilish bilan bog'liq bo'lgan tibbiy kasbiy ko'nikmalar majmuasini egallaydilar. Agar o'quv ishlab chiqarish ta'limi amaliyotlari davrida nazariy ta'lim jarayonida olingan bilimlar mustahkamlanishi va chuqurlashtirilishi ko'zda tutilsa, navbatdagi bosqichlarda alohida o'rganish asosida bilimlar mustahkamlanadi. Har bir bosqichning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib amaliyot mazmunini takomillashtirish taqozo etiladi. Buning uchun shakllanayotgan tibbiy kasbiy ko'nikmalarining boshlang'ich va yakuniy darajasini aniq belgilab olish talab etiladi. Talabalar ishlab chiqarish ta'limi amaliyotining yakuniga ko'ra tayyorlov yo'nalishi bo'yicha belgilangan ixtisosliklarga ega bo'lishlari zarur. Xo'sh, bu jarayon tibbiy kasb-hunar ta'limi tizimida qanday amalga oshirilmoqda? Mavjud holatni tahlil qilar ekanmiz, bugungi kungacha talabalarga kasb va ixtisoslik berishning ilmiy asoslangan tizimini yaratish lozimligini ko'rish mumkin. Bugungi kunda talabalarining ixtisosliklar bo'yicha kompetensiyasi (layoqatliligi) bir paytda, yakuniy bosqich diplom ishi himoyasi davrida baholanadi. Bu tibbiy kasb-hunar kollejidagi o'quv jarayonini, o'qituvchilar faoliyatini tashkillashtirishda bir qancha qiyinchiliklar tug'diradi. O'z navbatida talabalar ham qisqa vaqt ichida nazariy bilimlarini amaliyotda tadbiq etishga birmuncha qiyinchiliklar sezadilar.

### **15.3. Kasb ta'limi o'qituvchisining malaka tavsifnomasi.**

Tibbiy kasb-hunar ta'limi tizimida kichik malakali mutaxassislarini tayyorlash ko'p jihatdan kasb ta'limi o'qituvchilari va o'quv ustasining layoqatlariga bog'liqdir. Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida kasbiy pedagogik ko'nikma va malakalar tizimi yaratiladi, talabalar kerakli tibbiy-pedagogik

tajribasiga, kasbiy mahoratga ega bo‘ladilar. Shuning uchun tibbiy ta’lim muassasalari kasb ta’limi o‘qituvchilari ishlab chiqarishta’limi jarayonining va o‘z mehnat faoliyatining mazmunini aniq tasavvur etish lozim. Hozirda tibbiy kasb-hunar ta’limi tizimiga har yili maxsus tibbiy pedagogik ma’lumotga va ta’lim-tarbiya ish tajribasiga ega bo‘lmagan yangi tibbiy pedagoglar, ya’ni oliy va o‘rtalik maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarining bitiruvchilari kelib qo‘shilmoqda. Kasb-hunar ta’limi tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan tibbiy-pedagoglar mutaxassislik malakasiga hamda pedagogik malakaga ega bo‘lishi lozim. Mutaxassislik malakasi deb, kasb ta’limi o‘qituvchilari va o‘quv maxsus soha bo‘yicha ko‘nikma va malakalari nazarda tutiladi. Ularning malakalarining ikkinchi qismi “Kasbiy pedagogika” bilim sohasiga tegishli bo‘lib, pedagogik malakalarini o‘z ichiga oladi. Chunki o‘quv jarayoni faqatgina bilim berishga asoslanib qolmasdan, balki ta’lim va tarbiya psixologiyasi bilan uzviy bog‘langan. Bu esa ulardan psixologiya, kasbiy pedagogika, iqtisod asoslarini, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish asoslari bo‘yicha ham malakalarga ega bo‘lishini talab etadi. Mutaxassislik va pedagogik malakalar bilan bir qatorda kasb ta’limi o‘qituvchilari va shaxsiy va ijtimoiy layoqatlarning ham bo‘lishi talab etiladi. Shaxsiy layoqatlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: o‘zini tutishi, shaxsiy ijodkorlik, mas’uliyatlilik va boshqalar. Ijtimoiy layoqatlarga tashkilotchilik qobiliyati, talabalar bilan munosabat, jamoa bilan munosabat kiradi. Bundan tashqari o‘qituvchi rahbarlik qobiliyatlariga ham ega bo‘lishlari lozim. Chunki kasb ta’limi o‘qituvchilari faqat o‘quv ishlab chiqarish ta’limi faoliyatini bajaribgina qolmay, balki guruhlarga rahbarlik qiladilar. Kasb-hunar ta’limi o‘qituvchisining funksional vazifalar. Kasb ta’limi o‘qituvchisining lavozim vazifalari quyidagilardan iborat: Talabalarning kasb-hunarga moyilligini, mahorat va malakasini rivojlantirish; tanlangan kasb va ixtisosligi o‘quv fanlari bo‘yicha chuqur bilimlarni, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish; ta’lim jarayonida o‘qitishning samarali usullari, vositalari va shakllarini, yangi pedagogik texnologiyalarni keng qo‘llash; o‘qitadigan fani bo‘yicha darsdan tashqari ishlarni, to‘garak mashg‘ulotlarni tashkil qilish; talabalarni bilim sifati, o‘zlashtirish darajasi va davomatini nazorat qilish; talabalar bilan individual tartibda ishlash; ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va qo‘llash; muntazam ravishda malakasini oshirish.

**Bilishi zarur:** O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi, yangi qonuni, o‘qitadigan fanning o‘quv reja, dastur va darsliklarning mazmunini; davlatning iichki va tashqi siyosatini, ta’lim va yoshlar to‘g‘risida hukumat tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarni; mustaqil O‘zbekiston ramzlarining mazmun va mohiyatini; pedagogik, ilmiy-metodik va tashkiliy

boshqaruv vazifalarini hal qilishuchun zarur bo‘lgan hajmda umumnazariy fanlar asoalarini; pedagogik sikl fanlarini; ta’lim vositalarini va ularning didaktik imkoniyatlarini; ta’limni va pedagogik fan taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini va istiqbolini; mehnatni ilmiy asosda tashkil etish va huquq asoslarini. Kasb ta’limi o‘qituvchilari bundan tashqari mutaxassisligi bo‘yicha ishlab chiqarish texnologiyalarini, iqtisod asoslari, ishlab chiqarish va boshqarishni tashkil etish asoslarini bilishi kerak. O‘zlashtirishni o‘z vaqtida, tizimli tarzda, har yoqlama, to‘g‘ri yo‘lga qo‘yib hisobga olib borish o‘quv rejasи bajarlishini, har bir talaba ishlab chiqarish ta’limi dasturi hamma mavzularini bajarayotganini nazorat qilishga, bilim, malaka va ko‘nikmani baholashga yordam beradi. Ishlab chiqarish ta’limidagi nazorat-tekshirish ishlaridan va kurs ishlaridan maqsad o‘rganilayotgan mavzular vazifasiga muvofiq talabaarning muayyan vaqt orasidagi bilimlari, malakasi va ko‘nikmalarini vaqt-vaqtida tekshirib turishdan iborat.

#### **15.4. Ishlab chiqarish ta’limi bosqichlari va tashkiliy shakllari.**

Ishlab chiqarish ta’limi bosqichlari va tashkiliy shakllarining nazariy ehtiyojlari, ta’lim-tarbiya qonuniyatlar, tamoyillari kabilarga ko‘ra kasbiy pedagogika fanlari mashg‘ulotlariga quyidagi talablar qo‘yilishi lozim:fan-texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarining so‘nggi yutuqlari, ilg‘or pedagogik tajribalardan imkon qadar foydalanish, ta’lim-tarbiya qonuniyatlariga asoslanib, dars tuzilmasini maqbullashtirish; darsda barcha didaktik tamoyillarning maqbul nisbatini ta’minalash; ta’lim oluvchilarining qiziqishi, ehtiyojlari, moyilligini hisobga olgan holda yuqori samarali o‘quv-bilish faoliyati uchunshart-sharoit yaratish; o‘quv materialini mukammal o‘zlashtirilishi uchun fanlararo aloqadorlikka amal qilish; ta’limoluvchilar tomonidan ilgari o‘zlashtirilgan bilimlar va ularning hayotiy tajribalariga tayangan holda ish ko‘rish; ta’lim oluvchilarining barcha ijobiy jihatlarini rag’batlantirish, o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish yo‘li bilan rivojlantirishga erishish; darsning barcha bosqichlarida mantiqiy va his-tuyg‘ularga asoslanish; didaktik materiallar va vositalardan samarali foydalanish; nazariy materialni amaliyot bilan uzviy bog’lab o‘rganish; zarur bilim, ish-harakat, oqilona fikrlash va amaliy faoliyat ko‘rsatish usullarini tarkib toptirish; ta’lim oluvchilarda uzlusiz ravishda o‘qib-o‘rganish, o‘zbilimiya kasbiy mahoratini oshira borish malakasini shakllantirish; darslarni mukammal rejallashtirish natijalarini oldindan bashorat etish va tashxislash. Kasbiy pedagogika bo‘yicha zamонавиy darslarda bir-biri bilan uzviy bog’liq ta’lim, tarbiya va rivojlantiruvchi maqsadlarni uyg‘unlashtirish bu sohadagi aniq maqsadlarni ham aniqlashtirib olishni talab etadi. Kasbiy pedagogika fanlarni o‘qitishda zamонавиy darslarga quyidagi didaktik talablar qo‘yiladi:har bir darsning ta’lim-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifasini aniq belgilab olish;ijtimoiy talab va tahsil oluvchilarining

ehtiyojlarini hisobga olganholda ta’lim mazmunini maqbullashtirish; o’quv-bilish faoliyatini samarali pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish; ta’limning turli shakl, metod va vositalarining uyg’unligini oqilona ta’minalash; dars tuzilmasini ijodiy yondashgan holda shakllantirish; tahsil oluvchilarning turli o’quv-bilish faoliyatlarini uyg’unlashtirish; ta’lim jarayoni ishtirokchilari orasida tezkor-teskari aloqani ta’minalash, ta’sirchan boshqaruv mexanizmini ishlatishdarsni ilmiy-uslubiy asosda tashkil etish. Amaliyotda sinf-dars tizimi keng ko’lamda qo’llanilganligi sababli maxsus fanlarni o’qitishda ham sinf-dars ta’lim-tarbiya ishining asosiy shakli deb hisoblanadi. Oliy ta’limda ham ta’limni tashkil etishning asosiy shakli sinf-dars shakli Sinf – dars shaklining quyidagi o’ziga hos xususiyatlari mavjud: deyarli bir hil tarkib, yoshi va tayyorgarlik darajadagi ta’lim oluvchini ishtirok etishi ta’lim tarbiya jarayoni o’zaro bog’liq alohida-alohida qismlar ko’rinishiga ega bo’lishi; har bir darsning o’quv rejasiga kirgan ma’lum bir o’quv predmetiga oid bo’lishi; darslarni jadval asosida muntazam ravishda almashinib turishi; darslarda ta’lim beruvchining rahbarlik qilishi; ta’lim oluvchilarni turli ko’rinishdagi o’quv-bilish jarayonida ishtirok etishidir.

Sinf – dars shaklining quyidagi ijobiy va salbiy tomonlari mavjud.

Ijobiy tomonlari	Salbiy tomonlari
qat’iy tashkiliy tizilmaga ega ekanligi; bir o’qituvchi bir vaqt ni o’zida ko’p sonli ta’lim oluvchilar bilan faoliyat olib borganligi sababli iqtisodiy ko’rsatkichlarning nisbatan yuqoriligi; o’qituvchi va ta’lim oluvchini o’zaro hamkorlik faoliyatini amalga oshirishga qulay sharoit yaratilganligi.	darsni sinfdagi o’rtacha ta’lim oluvchilarga mo’ljallanganligi; har bir ta’lim oluvchi bilan individual shug’ullanish imkoniyatining yo’qligi.

Har bir dars o’quv jarayonining bir qismi hamda bilim, ko’nikma va malakalarni egallashning bir butun mantiqiy yakunlangan bosqichi hisoblanadi. Dars muvaffaqiyatli o’tishi uchun uni tashkil etish bo’yicha o’qituvchi faoliyatining maqsadini aniqlash lozim. Har qanday darsning uchta maqsadlari mavjud 1.Ta’limiy maqsad. O’quv jarayonida yangi mavzuni to’liq bayon etish. 2.Tarbiyaviy maqsad. Ta’lim jarayonida tarbiyaviy ta’sir etish. Rivojlantiruvchi maqsad. Mavzu oxirida yangi mavzu yuzasidan savol-javob o’tkazish, mustahkamlash.

**Darsning ta’limiy maqsadlariga quyidagilar kiradi:** yangi tushunchalarni shakllantirish; yangi qonun, qonuniyat, xususiyat va belgilarni uzlashtirishni ta’minalash; yangi harakat usullarini o’rgatish; bilimlardagi etishmovchiliklarni

bartaraf etish; bilimlarni umumlashtirish va tizimga solish; malakalarni shakllantirish; ma'lum harakat usullarini mustahkamlash; tushunchalar orasidagi bog'lanishlarni aniqlash bo'yicha talabalarda biror narsa to'g'risida tushunchalarni shakllantirish; dunyoqarash g'oyalari va muammolarini aniqlash; talabalarda u yoki bu harakatni, voqealarni baholash bo'yicha bilimlarni shakllantirish; xulosa chiqarishga tayyorlash, o'zlashtirishga erishish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadlari** talabalarda quyidagi muayyan shaxs sifatlari va xarakterini tarkib toptirishdan iborat: dunyoqarashni va kasbga qiziqishni; o'z-o'zini tekshirish va o'zaro yordamni; voqeliklar orasidagi bog'lanishlarni aniqlashvatahlil qilish ko'nikmalarini; bir sohadan ikkinchi sohaga bilimlarni ko'chirish ko'nikmalarini; fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish ko'nikmalarini; nutq madaniyatini; vatanparvarlikni; mehnatga ongli munosabatni; ongli intizom va yaxshi xulqni; ta'lim olishga ijobjiy munosabatni; estetik qarashlarni; ish o'rmini tashkil etish va o'z faoliyatini tekshirishni; e'tiqodni.

**Rivojlantirish maqsadi**— dars jarayonida talabalarining psixologik sifatlarini diqqat, xotira, texnik taffakkur va bilish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Psixologik adabiyotlarni tahlil qilish talabalarda tafakkurni, politexnik, mehnat, bilish (anglash) va aqliy ko'nikmalarni, iroda va mustaqillikni rivojlantirish, ularni kelgusi darslarga tayyorlashzarurligini ko'rsatadi. Agar bilimlarni shakllantirishva maqsadli tarbiyalash talabalarining bilish qobiliyatini takomillashtirsa, buni rivojlantiruvchi ta'lim deb tan olinadi. Didaktik maqsadlar bo'yicha darsning quyidagi turlari mavjud:

**Yangi materialni bayon etish darsi.** Yangi materialni bayon etish darslari suhbat o'tkazish, hikoya qilish, tushuntirish, turli ko'rgazmali vositalardan foydalangan holda muammoli vaziyatlar yuzaga keltirish usullari bilan o'tkaziladi. Bunday darsning asosiy maqsadi dastur materialini tushunarli ravishda bayon qilishdir. O'qituvchi darsning ayrim mavzularini tushuntirish jarayonida ta'lim oluvchilar yangi materialni qanday qabul qilayotganini tekshirib (ta'lim oluvchilarga birma-bir qisqa savol berish yo'li bilan), ta'lim oluvchilarni darsda faol ishtiroy etishga jalb qiladi. Bu darslar, odatda, mavzuni bayon etish va darsdan ko'zlangan maqsadni ochib berishni, yangi materialni navbatil bilan bayon etish yoki ta'lim oluvchilarning o'quv adabiyoti, texnika adabiyoti (jurnallar, byulletenlar, albomlar, chizmalar, sxemalar, texnologik jarayon kartalari va shukabilar) yoki ma'lumotnomasi adabiyot bilan mustaqil ishlashini tashkil etishni, ta'lim oluvchilarning savollariga javob qaytarishni, ta'lim oluvchilarning yangi materialni o'zlashtirish sifatini tekshirishni, qo'shimcha tushuntirishlarni, uyga

vazifalar berishni o‘z ichiga oladi. Bunday darslar, odatda, o‘rganiladigan material tavsifiy xarakterda va o‘zlashtirishchun engil bo‘lgan hollarda o‘tkaziladi.

**Bilimlarni mustahkamlash darsi.** Bunday darslarda oldin o‘rganilgan materiallar yuzasidan ta’lim oluvchilar bilan suhbatlar, tajriba-amaliy ishlar o‘tkaziladi, har xil masalalar echiladi, texnologik jarayonlar ishlab chiqish mashqlari, yozma grafik ishlar, ilgari o‘rganilgan materialni mustahkamlash va tizimga solish yuzasidan turli mustaqil ishlar (sxemalar tuzish va ularni o‘qish, jadvallar tuzish, texnikaviy hujjatlarni tahlil qilish va shu kabilar) o‘tkaziladi, kinofilmlar ko‘riladi, ta’lim oluvchilar ma’ruza va referatlar bilan chiqadilar. Bu ish davomida bilimlar esga solinadi, etarli dalillar, tushunchalar, qonuniyatlar ta’lim oluvchilar ongi va xotirasida mustahkamlanadi. Buning natijasida bilimlar ancha puxta bo‘ladi.

**Takrorlash-umumlashtirish darslari.** Bu darslardan ko‘zlangan maqsad – o‘rganilgan material yuzasidan olingen bilimlarni esga tushirish va tizimga solish, bu esa bilimlardagi kamchiliklarni to‘ldirishga, mavzuning, bo‘limning va butun fanning asosiy g‘oyalarini, masalalarini yanada chuqur ochib berishga yordam beradi. Bu turdagи darslar dasturdagi mavzuni yoki bo‘limini o‘rganish so‘nggida va o‘quv yilining oxirida o‘tkaziladi. Takrorlash-umumlashtirish darslariga nisbatan qo‘yiladigan asosiy talablardan biri ularning mundarijasiga albatta ta’lim oluvchilar o‘quv faoliyatiga doir yangi ma’lumotlar va metodlar kiritishdir. Takrorlash-umumlashtirish darslari ikki xil bo‘ladi: o‘qituvchi mavzuning, bo‘lim yoki kursning o‘rganilgan materiali yuzasidan umumlashtiruvchi sharhlovchi ma’ruza o‘tkazadi yoki ta’lim oluvchilar bilan kengaytirilgan suhbat tashkil qiladi. Suhbat vaqtida ta’lim oluvchilar o‘qituvchi rahbarligida umumlashtiruvchi mashqlar, yozma ishlar va boshqa topshiriqlarni bajaradilar.

**Sinash-tekshirish darsi.** Bu darslarda mavzu, bo‘lim yoki butun kurs yuzasidan batafsil og‘zaki savol-javob,test sinovi, yozma yoki grafik nazorat ishlari o‘tkaziladi, nazorat qurilmalari, kartochka-topshiriqlar, sharhlash-takrorlash jadvallari yordamida ta’lim oluvchilar bilimi tekshiriladi, amaliy xarakterdagi topshiriqlar bajariladi. Bunday darslardan ko‘zlangan asosiy maqsad har bir ta’lim oluvchining tayyorganlik darajasini asosli baholashchun ma’lumotlar olish, bilimlarni qanchalik ongli va chuqur o‘zlashtirilganligini, olingen uquv hamda malakalarning qanchalik puxta ekanligini aniqlashdan iborat. Bundan tashqari, bunday darslarni o‘tkazishda o‘qituvchi ta’lim oluvchilar bilimi hamda uquvidagi kamchiliklarni to‘ldiradi.

**Muammoli dars.** Bunday darslarda ko‘zlangan maqsad o‘quv jarayonini yanada takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqilligini rivojlantirish, o‘qitishning eng samarali shakl va metodlaridan foydalanishdir. Muammoli vaziyatlar yaratish, ularni hal

qilish yo'llarini izlash va aniqlash, muammoni hal qilish jarayonining o'zi, chiqarilgan xulosalarning qanchalik to'g'ri ekanligini amalda tekshirib ko'rish o'quv jarayonining muhim elementlari bo'lib qolmoqda. Muammoli vaziyat hosil qilishta'lim oluvchilar faol aqliy faoliyatining zarur shartidir. Ta'lism oluvchi oldiga muayn vazifa qo'yilgan, bu vazifa unda qiziqish uyg'otadi va u bu vazifani hal qilishga urinadi, ammo o'z bilimlari hamda tajribasining etarli darajada to'la va chuqur emasligini payqaydi, ya'ni muayyan qiyinchilikka duch keladi. Ta'lism oluvchida hosil bo'lgan vaziyatdan chiqish yo'lini topishdek iichki ehtiyoj paydo bo'ladi, qiyinchilikni his etish paydo bo'lgan shroitni tahlil qilishga va qo'yilgan masalani echish yo'llarini izlashga undaydi. Shunday qilib, bilish lozim bo'lgan va amaliy vazifalar bilan ta'lism oluvchilarning bilimlari darjasida orasida ziddiyat hosil bo'ladi, bu ziddiyat yuzaga kelgan qiyinchilikni bartaraf etishga qaratilgan intensiv fikrlash faoliyatini uyg'otadi. Muammoli vaziyatni hal etish asosida tashkil qilingan o'quv jarayoni pedagogikada muammoli o'qitish deb ataladi. Muammoli o'qitish vaqtida hamma vaqt masala (muammo) qo'yiladi va hal qilinadi. Bu muammo savol, topshiriq, masala tarzida beriladi. Muammoli vaziyatlar yaratishda pedagogika fani ishlab chiqqan hamda amalda tekshirib ko'rilgan quyidagi qoidalarga amal qilishi zarur: 1.Muammoli vaziyat yaratishshunday amaliy yoki nazariy vazifani nazarda tutadiki, bu vazifani bajarishda ta'lism oluvchi o'zlashtirilishi kerak bo'lgan yangi bilimlar yoki harakatlarni "kashf etishi" lozim. 2.Masala quyidagi shakllarda berilishi mumkin: savol shaklida, bunda ma'lumotlar so'roq gapga kiritilgan bo'ladi; bunda savolniig ta'rifi, uning mohiyati vazifani bajarishda ta'lism oluvchida paydo bo'ladigan real savolga mos kelishi kerak; topshirik shaklida, bunday masalada xulosa chiqarish, nimanidir tushuntirish, asoslash taklif etiladi. 3.Masala hamisha ta'lism oluvchining bilim va uquvlariga asoslanishi lozim. Ular savol yoki vazifaning mohiyatini, tub maqsadni va echish yo'llarini tushunishchun etarli bo'lishi kerak. 4.Ta'lism oluvchiga taklif etiladigan muammoli vazifa ta'lism oluvchining intellektual imkoniyatlariga mos kelishi zarur. Vazifaning qiyinlik darjasini ikkita asosiy ko'rsatkich: o'zlashtirilishi kerak bo'lgan o'quv materialining yangilik darjasini va uning umumlashtirilganlik darjasini bilan baholanadi. 5.Odatda, muammoli vazifa o'zlashtirilishi lozim bo'lgan o'quv materialidan oldin berilishi darkor. Ammo ta'lism oluvchilarda muammoli vazifani hal qilishchun etarli darajada bilim va uquvlar bo'lmasa, ularga zarur ma'lumotlarni bayon etish yoki ularni muayyan harakatlarga o'rgatish lozim. Bunday hollarda o'qituvchi jarayonlarniig xususiyatlari, aniq ma'lumotlar va Shu kabilarni aytib beradi, ta'lism oluvchilar esa ana shu ma'lumotlar asosida, o'rganiladigan harakatlarning umumiyligini qonuniyatlarini, bajarish usullari hamda shartlarini ijodiy o'zlashtiradilar. 6.Ta'lism oluvchilarning muammoli masalalar echish yo'li bilan yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga o'qituvchi doimo

bevosita rahbarlik qilishi kerak. O'qituvchi muammoli vaziyat yuzaga keltiradi, masalani ta'riflaydi, Shundan keyin yordamchi savollar berish, aniqliklar kiritish, ba'zi narsalarni aytib berish yo'li bilan ta'lim oluvchilarga talab etiladigan qonuniyatni mustaqil tushunish hamda ta'riflashga, qilinadigan ish usuli yoki shartini topishga, zarur xulosa chiqarishga yordam beradi. 7. Bilim va harakatlarning ma'lum darajada murakkab tizimini muammoli o'zlashtirishni ta'minlashuchun muammoli vaziyatlar yaratishda muayyan muammoga rioya qilish kerak: murakkab topshiriqni ancha mayda, xususiy topshiriqlarga bo'lish zarur; ba'zi hollarda asosiy masala bir necha dars yoki, hatto, butun boshli mavzu doirasida yagona bo'ladi va xususiy vazifalar sifatida echiladi; har bir muammoli vaziyatda bitta noma'lum elementni (xossa, nisbat, harakat qonuniyati yoki uni bajarishshartini va shu kabilarni) izlanuvchi element sifatida belgilab olish lozim; har xil muammoli vaziyatlar uchun xos bo'lgan didaktik funksiyalarni farq qilish kerak: mavzuni o'rganish boshida hosil qilinadigan birinchi muammoli vaziyat ta'lim oluvchilarda o'rganilayotgan umumiyligi qonuniyatni o'zlashtirishuchun ehtiyoj uyg'otishi darkor; shundan keyingi aniq muammoli vaziyatlar tizimining hammasi shu asosiy masalani ochishga xizmat qiladi; muammoli vaziyatlar sharoitida o'qituvchi bayon etadigan o'quv materialini va ta'lim oluvchilar mustaqil o'zlashtiradigan materialni aniqlashga differensiallangan tarzda yondoshish kerak; bir darsning o'zida, odatda, ikkala tipdagi materialdan foydalaniladi. Bu darslardan maqsad talabalar qo'yilgan muammolarni echa olish yoki echa olmasligini aniqlashdir. Bunday darslar talabalar maxsus fanlardan ma'lum bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lganlaridan keyin o'tkaziladi.

**Umumiy yoki aralash dars.** Bunday darslarda har xil didaktik masalalar hal etiladi - uy vazifalarini va talabalarniig bilimlarini tekshirish, yangi materialni bayon qilish va boshqalar amalga oshiriladi. Ular maxsus fanlarni o'rganishda eng ko'p tarqalgan. Aralash dars o'quv jarayonining bir-biriga eng yaqin zvenolarini o'z ichiga oladi, bu esa talabalar bilimlarni puxta va ongli o'zlashtirishini ta'minlashuchun muhimdir.

### **Nazorat savollari.**

1. Tibbiy ta'lim muassasalari o'quv xonalari, laboratoriya o'quv xonalirini tashkil qilishning umumiy asoslarini izohlang
2. O'quvxonlarida o'qitish vazifalari va ularning jihozlanishiga qo'yiladigan talablarni asoslab berinng.
3. O'quv xonalarida xavfsizlik texnikasi qoidalarini izohlang.

4. O‘qituvchi va talabalarning o‘quv xonasidagi ish o‘rni, tibbiy asbob uskunalar, moslamalar ularni saqlash va unga qo‘yiladigan talablar tavsifini izohlang.
5. Tibbiy ta’limini rejalashtirishning umumiylar masalalari, tibbiy ta’limini rejalashtiruvchi hujjatlar, o‘quv texnologik hujjatlar, taqvim mavzu reja, dars rejasiga oid hujjatlarni asoslab bering.
6. Dars maqsadlari asosida dars mashg’uloti oliib borishning nazariy qonuniyatlarini tavsiflang.

## **XVI BOB. KASBIY TA'LIMDA MALAKAVIY PEDAGOGIK AMALIYOTNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH.**

### **16.1. O'qitish vazifalari va ularning jihozlanishiga qo'yiladigan talablar.**

Talabalarning ishlab chiqarishta'limi asoslarini tizimli eng qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida tibbiy ta'lim muassasalarida o'quv auditoriya xonalari va boshqa ishlab chiqarish ob'ektlari tashkil etiladi. Ularning eng muhim tibbiy-pedagogik ishlarni ta'lim-tarbiya vazifalarini hal qilishga to'la-to'kis bo'ysindirishdan iboratdir. Ishlab chiqarishta'limining xilma-xil tashkiliy shakllari va metodlaridan foydalanish; texnikaviy ma'lumotlarni ma'lum qilish; tadqiqotchilik xarakteridagi ishlarni amalga oshirish; kasb-hunar ko'nikmalari hamda malakalarini tarkib toptirish; texnikaviy bilimlarni, metodik usullarini va bajarilayotgan amaliy topshiriqlarning sifatini tekshirish; talabalarda estetik didni va mustaqil ishslash malakalarini tarkib toptirishhamda kasb madaniyati malakalarini tarbiyalash; yuksak mehnat intizomiga va rioya qilish kabi vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishuchun yaxshi shart-sharoitlar yaratishi lozim. Talabalarga kasb o'rgatishni tashkil etish usullari. O'quv auditoriya xonalarida talabalarga dars mashg'ulotida o'rgatiladigan o'quv materiali maqsad va mazmuniga qarab: ishlab chiqarish operatsiyalarini o'rganish, kompleks ishlarini bajarish, talabalarning bilimlari, ko'nikma va malakalarini tekshirish bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Ishlab chiqarishta'limi darsini o'tish quyidagicha shart-sharoitlar yaratishni talab qiladi:talabalarning faolligi va mustaqilligini rivojlantirishga qaratilgan o'quv ishlab chiqarish ishlari muntazam ravishda o'qituvchini rahbarligida o'tkaziladi; o'qituvchi mashg'ulotlar paytida butun guruhni ko'rib turishi kerak; texnologik jarayon o'quv ishlab chiqarish ishlarining maqsad va vazifalariga bo'ysundirilishi lozim;frontal ishshakllari uchun talabalarning ish o'rnlari bir xil bo'lgani ma'qul;o'qituvchi uchun maxsus uyushtirilgan ish o'rnini hozirlashga harakat qilish zarur;jihozlar, asbob-uskunalar va moslamalar ta'limning frontal bo'lishiga erishish imkonini berishi kerak;kompleks-operatsion tizim asosida ta'lim berishuchun o'quv ishlab chiqarish ishlarini o'quv davrlariga moslab maxsus tanlab olish zarur;o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalarida zamonaviy, yuksak darajadagi mahsuldor jihozlar asbob-uskunalar, moslamalar bo'lishi lozim. Asosiy operatsiyalarni bajarish bo'yicha egallagan ko'nikmalar talabalar tomonidan boshlang'ich malaka ishlarini bajarishlari bilan mustahkamlangan taqdirdagina boshlang'ich operatsion va kompleks davrlarda ishlab chiqarish ta'limining dars tizimi to'liq amalga oshirildi. Amaliyot operatsiyalarini o'rganishdarsi mashg'ulotning strukturasi. Amaliyot ta'limi dasturining mavzusi, mavzuchasi yoki bo'limini o'rganishdan oldin beriladi. Bularning vazifasi talabalarni o'quv-ishlab chiqarish ishlarini ongli ravishda eng samarali usullar bilan bajarishga

tayyorlash, xatolarning oldini olish, ta’lim berish paytida instruksion (yo‘l-yo‘riq) xaritalardan foydalanish tavsiya etiladi. Instruksion (yo‘l-yo‘riq) xaritalardan foydalanish talabalarga: guruhdagi talabalarning faoliyatidan qat’iy nazar tayyorgarligi, shaxsiy tajribasi va individual xususiyatlariga qarab materialni o‘rganish sur’atlarini tanlab olish; o‘qituvchi ko‘pincha kompleks baholar qo‘yadilar (nazariya masalalari va ilgari o‘rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo‘llay olishi; ish usullarini to‘g‘ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o‘rnida belgilangan tartibni qo‘llab-quvvatlashi; tibbiy pedagogik bilimni o‘qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish me’yorlanmsa, belgilangan me’yorda bajarishi), bunday baholar ijobjiy natijalar beradi. Bunda talabalarning o‘quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi.

## Kasbiy ta’lim jarayoni

### Nazariy ta’lim

Umumta’lim fanlari

Umumkasbiy fanlar

Kasbiy (maxsus) fanlar

Laboratoriya-amaliy mashg‘ulotlar

### Amaliyot

O‘quv amaliyotlari

Ishlab chiqarish texnologik amaliyotlari (Diplom oldi amaliyotlari, diplom ishlarini (loyihalarini) bajarish

Diplom ishlarini himoyasi

**Laboratoriya-amaliy mashg‘ulotlar-o‘rganilayotgan fan bo‘limi** (modul birligi), mavzusi yakuniga ko‘ra nazariy bilimlarni amaliy mustahkamlash maqsadida tashkil etiladi.

**Laboratoriya mashg‘ulotlari-nazariy** darslarda o‘rganilgan modda va jismlarning xususiyatlarini, mashina va mexanizmlarning tuzilishi, ish prinsplari hamda xususiyatlarini o‘rganish maqsadida amalga oshiriladi

**Amaliy mashg‘ulotlar-nazariy** darslarda o‘rganilgan mavzular bo‘yicha ish qurollari va vositalardan foydalanib, modda hamda jismlarni qo‘llab amaliy ish usul va operatsiyalarini elementlarini bajarish maqsadida amalga oshiriladi.

**Amaliyot** -nazariy ta’lim jarayonida o‘rganilgan umumkasbiy, kasbiy bilimlar asosida ish usul va operatsiyalarini amaliy bajarish bo‘yicha ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirish maqsadida amalga oshiriladi

**O‘quv amaliyotlari**-bitta umumkasbiy yoki kasbiy fandagi nazariy bilimlarni amaliy mustahkamlash, ish usul va operatsiyalarini amaliy bajarib o‘rganish

bo‘yicha ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirish maqsadida dastur asosida, o‘qituvchi nazorati ostida o‘quv laboratoriylarida, amalga oshiriladi.

**Pedagogik amaliyotlari**-bir necha kasbiy fanlarda o‘rganilgan nazariy bilimlar asosida kasb yoki ixtisosliklar ish usul hamda operatsiyalarini kompleks holda ishlab chiqarish texnologik jarayonlarda amaliy bajarish bo‘yicha ko‘nikma, malakalarni shakllantirish maqsadida dastur asosida, o‘qituvchi maslahatlariga tayanib, biriktirilgan ustoz rahbarligida o‘quv xonalarida, ishlab chiqarish korxonalarida amalga oshiriladi

**O‘qituvchi faoliyatining tuzilishi** Kasbiy pedagogik mahorat o‘qituvchilar pedagogik amaliyotda ijodkorlik, pedagogik texnika, ta’lim – tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma’naviy – ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq–atvorni va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o‘rgatadi va o‘z kasbini rivojlantirib boruvchi **pedagogik faoliyatlar** tizimi to‘g‘risida ma’lumotlar beradi. Kasbiy pedagogik mahoratda amaliyot o‘qituvchilarning pedagogik faoliyati zamirida takomillashib boradi. Kasbiy pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlashuchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta’lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o‘qituvchilar mehnati faoliyatidir. Bo‘lajak tibbiyot sohasi o‘z pedagogik faoliyati jarayonida faoliyatning quyidagi tarkibiy qismlarini bilishi lozim:

#### O‘QITUVCHI FAOLIYATINING TUZILISHI

O‘qituvchi faoliyatining maqsadi

O‘qituvchi faoliyatining ob’ekti va sub’ekti

O‘qituvchi faoliyatining vositasi

1-chizma

#### **16.2. Malakaviy amaliyotda egallanadigan ko‘nikmalar**

Mazkur fanning mazmunidan kasbga doir topshiriq va vazifalarni yechishuchun o‘quv – tarbiya jarayonini boshqarish, unga rahbarlik qilishda pedagogik–psixologik ta’limot nuqtai – nazaridan yondashish, ta’lim – tarbiyani milliy an‘analarimiz ruhida zamonaviy metodlar asosida modellashtirish, o‘quv – tarbiyaviy jarayonda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishuchun o‘qituvchi

mahoratining zarurligi haqidagi ma'lumotlar va ularni takomillashtirish tizimlari o'ren olgan. Shunga ko'ra, «Kasbiy pedagogika» fani kasbga oid bilim va qobiliyatlarni o'qituvchilarda shakllantirish, ijodkorlikni tarbiyalash, mahorat, ko'nikma va malakalarni egallashlari uchun, pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik, pedagogik nazokat, nutq madaniyati to'g'risida ma'lumotlar berib boradi. 1. Bo'lajak tibbiyot sohasi o'qituvchilari pedagogik mahoratning nazariy va metodologik asoslari bilan qurollantiriladilar. 2.Kasbiy pedagogika fanining pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik (muloqot), pedagogik nazokat, pedagogik qobiliyat, tarbiyachilik mahorati, ta'lim jarayonini boshqarish, nutq madaniyati, tarbiya texnologiyasi, pedagogik ijodkorlik, refleksiya kabi tarkibiy qismlari to'g'risidagi bilimlar tizimini egallaydilar. 3.Egallangan pedagogik-psixologik va metodik bilimlar, ko'nikma va malakalar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida har bir bo'lajak o'qituvchi o'zining shaxsiy pedagogik mahoratini shakllantiradi. 5.O'quv-tarbiyaviy jarayonni jahon andozalariga xos so'nggi zamonaviy metod va shakllar asosida tashkil etish va boshqarishni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslarini muntazam o'zlashtiradilar. 6.O'qituvchilar o'z kasbiy mahoratlarini takomillashtirishlari uchunshaxsiy-ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalarini egallaydilar. 7.Kasbiy pedagogic amaliyot jarayonida pedagogik mahoratining mohiyati, funksiyasi, tuzilishi to'g'risida o'qituvchilar uzuksiz ma'lumotlarni o'rghanib boradilar. 8.Yuksak zamonaviy axborot texnologiyalari va portal tizimidan erkin foydalanish asosida o'z kasbiy mahoratlarini shakllantiradilar. Bu maqsad va vazifalarning hal etilishi o'qituvchilar va tarbiyachilarini zamon bilan hamnafas bo'lishga, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashash va kelajakni aniq ko'ra olishga o'rgatadi. Har bir o'qituvchi shaxsida mamlakatimizning dolzarb muammolarini, maqsad va vazifalarini vijdonan tasavvur qilib, aniq bajarib borishi uchunshijoat bilan o'z imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solishga o'rgatadi, hamda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish malakalariga ega bo'lishni tarbiyalaydi. "Pedagogik amaliyotda mahorat" tushunchasi, pedagogik amaliyotda mahoratning o'zi nima? Unga hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan quyidagicha ta'rif beriladi: Pedagogik mahorat – o'qituvchilarning shaxsiy (xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir. U o'z fanini mukammal bilgan, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topishuchun, amaliy faoliyat olib boradigan har bir o'qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo'lishuchun

o‘qituvchi o‘z o‘quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo‘lishi, hamda insoniylik, izlanuvchanlik va fidoyilikni o‘zida tarkib toptirishi lozim. I.P. Rachenko pedagogik mahoratni pedagogik san’atning bir qismi sifatida ta’riflab, shunday yozadi: “pedagogik mahorat deganda o‘qituvchining pedagogik–psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko‘nikmalarni mukammal egallashi, o‘z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyaci, hayotga axloqiy–estetik munosabatda bo‘lishi, o‘z fikr mulohazasiga ishonchi va qat’iy irodasi tushuniladi”. Mahorat pedagogik amaliyatda, faoliyatda namoyon bo’ladi. Kasbiy pedagogika fanida “Pedagogik mahorat” tushunchasining turli ta’riflari mavjud:pedagogik mahorat pedagogik faoliyatning yuqori darajasi bo‘lib, u pedagogning belgilangan vaqt ichida optimal natijalarga erisha olishida namoyon bo’ladi. (N.V.Kuzmina., N.V.Kuxarev);“o‘qituvchining ilmiy bilimlari, ko‘nikmalari, metodik san’ati va shaxsiy fazilatlari sintezi” (A.I.Sherbakov);“pedagogik faoliyatni egallanganlikning yuqori darajasi, ixtisoslikka doir bilim, ko‘nikma va malakalar hamda kasbiy ahamiyatli sifatlar majmui” (Pedagogik lug’at);“kasbiy faoliyatning yuqori darajada tashkillanishini ta’minlovchi shaxs xususiyatlari kompleksi (o‘qituvchi faoliyatining gumanistik yo’naltirilgani, kasbiy bilimlari, kasbiy qobiliyatlar va pedagogik texnikasi” (I.A.Zyazyun); “pedagogik mahorat deganda o‘qituvchining pedagogik–psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko‘nikmalarni mukammal egallashi, o‘z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyaci, hayotga axloqiy–estetik munosabatda bo‘lishi, o‘z fikr-mulohazasiga ishonchi va qat’iy irodasi tushuniladi” (I.P. Rachenko).pedagogik mahorat – pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish, pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi (N.N.Azizzxo’jaeva);Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, “Pedagogik mahorat” tushunchasiga quyidagi tarzda umumlashgan ta’rifni berish mumkin: Pedagogik mahorat – bu o‘quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo’naltirish, o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo‘lgan faoliyatga moyillik uyg’otishdir. Ushbu prinsiplar zamirida o‘qituvchi pedagogik faoliyatining asosiy mohiyati mujassamlangan bo‘lib, uni hayotga tatbiq etish o‘qituvchilar zimmasiga yuklatilgan. O‘qituvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini ta’minlovchi asosiy javobgar shaxs ekan, uning pedagogik mahorati ham hozirgi zamon talablari darajasida, jahon andozalariga mos ravishda shakllanishi kerak. Pedagog kadrlarni ildam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, raqobatbardosh darajada ularning kasbiy sifatlarini takomillashtirishni qo’llab–quvvatlash ta’minlanadi. Ushbu talablar zamirida ham o‘qituvchining pedagogik mahoratini uzlusiz takomillashtirib borish naqadar

muhim va davr talabi ekanligi ta'kidlanmoqda. Kasbiy pedagogik amaliyotning vazifalari quyidagilardan iborat:ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan yangilanish va islohotlarni insonparvarlik va demokratik tamoyillarga moslab olib borish;ta'lim mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda boyitib borishni ta'minlash;milliy urf–odat va an'analarimizdan, boy adabiy merosimizdan samarali foydalanimishning tezkor metod va usullarini ishlab chiqish va joriy etish;ta'lim va tarbiya jarayonini talab darajasida sifatini va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlashchun normativ hujjatlar, o'quv–uslubiy adabiyotlar, moddiy–texnika va axborot bazasi bilan boyitib borish; kasbiy tayyorgarlik darajasi, malakasi, bilimi, madaniy va ma'naviy–axloqiy saviyasining sifatini zamon talablariga javob beradigan darajada oshirib borish va amaliyotda samarali natijaga erishish. Buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg o'qituvchining doimiy ravishda fanlarni mutolaa qilish bilan shug'ullanishi haqida gapirib, shunday degan edi: "O'qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug'ullanmog'i lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o'xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, keljakda bunday o'qituvchidan hech qanday natija kutib bo'lmaydi". Hozirgi zamon fan va texnikasi jadal sur'atda rivojlanayotgan, zamonaviy axborot texnologiyalarining salmog'i keskin oshayotgan bir davrda o'qituvchi pedagogik mahoratini amaliyotda ko'rsatishmuhim ahamiyat kasb etadi. Agar, ilgari fanning biror sohasida ro'y berayotgan yirik kashfiyat qariyb o'n besh yillik samarali va kishi zo'rg'a ishonadigan voqeа hisoblangan bo'lsa, hozir har yili, hatto har oyda fan, texnika sohasida yangi kashfiyotlar yaratilmoqda, bilimlarning ilgari noma'lum bo'lgan yangi yo'nalishlari maydonga kelmoqda. Kishilarda bilimga bo'lgan intilish beqiyos darajada o'sib borayotir. Shuninguchun hozir kunda o'qituvchi faqat o'z fani bo'yicha emas, balki o'z faniga yaqin bo'lgan sohalardagi yangiliklarni bilishi talab etiladi. Bizga ma'lumki, ilg'or jamiyat fuqarosining, xususan o'qituvchining ma'naviy boyligi uning keng dunyoqarashi, teran fikrlash layoqati, savodxonligi, yuksak insoniy fazilatlarga boyligi bilan baholanadi. "Barcha illatlarning kelib chiqishi ilmsizlikdandir" degan edi yunon faylasufi Suqrot. Shunday ekan, yosh avlodning yuksak bilim va tafakkur sohibi bo'lishi uchun barchamiz javobgarmiz. Bu javobgarlik ko'proq o'qituvchilar zimmasida. Darhaqiqat, o'qituvchilarning obro'-e'tiborini ta'minlaydigan ilk vosita uning tarbiyalanganlik darajasidir. Birinchidan, o'qituvchi ma'naviy jihatdan sog'lom va keng fikrlay oladigan bo'lishi, o'z milliy qadriyatları, urf–odatlari va millatimizning buyuk siymolari ijodiy merosini teran bilishlari kerak. Binobarin, o'zi tanlagan mutaxassislik va fan sohasida izlanishlar olib borgan, allomalarning hayoti va ijodini yaxshi bilishi hamda mantiqiy tafakkurga ega bo'lishi lozim. Bu

o‘qituvchi pedagogik mahoratining shakllanib borishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, milliy an’analalarimiz, urf–odatlarimiz, qadriyatlarimiz asosida davlatimizning buyuk kelajagi bo‘lmish yosh avlodga chuqur bilim berish o‘qituvchilardan yuksak qobiliyatni va ishchanlikni talab qiladi. O‘qituvchilik kasbining shakllanishi davomida uning pedagogik mahorati takomillashib boradi. U har xil psixologik xususiyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan ta’lim-tarbiyaviy faoliyat olib boradi. Turli ziddiyatlarga duch keladi. Bu o‘z navbatida uni tinimsiz ijod qilishga, tarbiyaning har xil vosita va usullarini topib, mohirona qo‘llashga majbur etadi. Tarbiya natijasida belgilangan maqsadga erishishuchun o‘qituvchilar yillar davomida yig‘ilgan tajriba va malakalariga tayanib ishlaydilar. O‘quvchilarning nazariy hamda amaliy faoliyatida erishadigan barcha yutuqlari va ijobiy natijalari o‘qituvchi pedagogik mahoratini namoyon etuvchi asosiy vositalar hisoblanadi. O‘qituvchi pedagogik mahoratning tarkibiy qismlarini bilishi, uning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanishi lozim.

### **Nazorat savollari.**

- 1.Ta’lim muassasalarida o‘qituvchining pedagogik mahoratini pedagogik amaliyotda samarali natijaga erishilish yo’llarini izohlab bering.
2. Kasbiy pedagogik amaliyotning vazifalari va talablari nimalardan iborat.
3. O‘qituvchining kasbiy pedagogik amaliyot olib borish nazariyasini izohlang.
4. Pedagogik amaliyot turlari va tavsiflarini izohlang.

## **XVII BOB. KASBIY PEDAGOGIKADA TALABALARNI MOTIVLASHTIRISH VA FAOLLASHTIRISH.**

### **17.1. Motiv va motivatsiya**

Pedagogika va psixologiya dars mashg’ulotlarida talabalarning bilim olishga qiziqishini shakllantirish, motivatsiyasini rivojlantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur masalaning murakkabligi va ko‘p jihatlarga bog‘liqligi motivatsiya tushunchasining mohiyati, tabiatи va tuzilmasiga ko‘plab yondashuvlar mavjudligi, shuningdek, uni o’rganish (V .Bespalko, A.Zimnyaya, I.Zaxarova, A. Maslou, L.Stolyarenko, A.Rean, S. Rubinshteyn va boshqa) usullari ko‘pligi bilan asoslanadi. Ayrim olimlar mazkur tushunchani insonning turli faoliyatlar orqali o‘zini namoyon etishga intilishi (V . Bespalko) deb ta‘riflaganlar. Bu faol va barqaror intilish unga munosib sharoitlar yaratilgandagina sezilarli yutuqlar ko\_rinishida ifodalanadi. Aks holda shaxsning o‘zini namoyon etishga intilishi qaysidir qiziqarsiz o‘quv faoliyati davridayoq so’nib ketishi mumkin. **Motivatsiya** (lot. motivatio) — subyektning qandaydir maqsadlar, qiziqishlari mavjudligi asosidagi faoliyatga tashqi va iichki xohishining ifodasidir. Motivatsiya

barcha pedagogik ta'sir tizimida shakllanadi, biroq avvalo bevosita o'qish faoliyatida tarbiyalanadi. Ijobiy motivatsiyani shakllantirishda ta'lim mazmuni, ta'limni tashkil etish, shaxsiy o'qitish kabi masalalar muhim o'rinni tutadi. Hozirga qadar fundamental bilimlar va amaliy muammolarini qamrab olganmotivatsiya nazariyasi aniq batafsil o'z ifodasini topmagan. Motivatsiyaning quyidagi: bu subyektning ehtiyojlarini qondirishga bog'liq bo'lган faoliyatga tomon intilishidir; ma'lum kuchga predmetli-yo'naltirilgan faollikkadir; predmet (moddiy yoki ideal)ga qaratilgan faoliyatni uyg'otuvchi va belgilovchi tanlovnini amalga oshirish; shaxsiy harakat va intilishlar asosida yotuvchi anglangan sabablarifodasi sifatidagi ta'riflari mavjud. Motivatsiya tushunchasi inson faoliyatidagi ixulq-atvorini tushuntirishchun foydalaniladi hamda jarayon, uslub, vosita sifatida fodalanadi. Motiv va motivatsiya haqida umumiyligi tushuncha. O'z navbatida, ehtiyojlarning rivojlanishi yanada samarali motivatsiya shakllanishiga olib keladi. «Motivlar shaxsning yo'nalganligi bilan bog'liq bo'lib, inson o'z oldiga qo'ygan hayotiy muhim maqsadlari yig'indisining ifodasi bo'ladi. Motivlar yuzaga kelishida inson o'zi uchun zarur ehtiyojlarni anglab boradi. Motivlar — bu ehtiyojlarning anglanishidir. Bir motiv inson shaxsi uchun muhim sanalgan bir necha ehtiyojlar asosida yuzaga kelishi mumkin. Shu tariqa, motiv tushunchasining ta'rifida mazkur tushunchaning ehtiyojga nisbatan muvofiqligi ifodalanadi yoki mazkur ehtiyojning his etilishi va qondirilishi yoki uning predmetli ehtiyoji tushuniladi (S. Rubinshteyn). Biroq ko'pincha shaxsni faoliyatga undagan birgina motivni ajratib ko'rsata olmaymiz, yagona motivni aniqlash mumkin bo'lmaydi, sababi motivlar o'zida qator pedagogik jarayonlar majmuini ifoda etadi. Anglash faoliyati tashqi va iichki motivlarni boshqarishi mumkin. Kasbiy ta'lim sohasidagi faoliyat — insonning atrof-olamga faol munosabati shakli sifatida baholanadi. Motivlar yig'indisi u yoki bu ijtimoiy ahamiyatli maqsadlar yutug'i asosidagi ma'lum bir vazifalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan ketma-ket sodir etiladigan harakatlar orqali ifodalanadigan xulqiy holatdir. Boshqacha aytganda, inson xulqi va u amalga oshiradigan harakatlari iichki va tashqi motivlari bilan boshqariladi. Yoshning umumiyligi xususiyati. Har bir yoshdagagi psixik rivojlanish alohida sifat bosqichiga ega. Yosh xususiyatlari ko'plab shartlar majmui bilan belgilanadi. Bu bola hayotidagi har bir bosqichda unga qo'yiladigan talablar sistemasi, atrofdagilar bilan munosabat, u egallayotgan bilim va faoliyat turi hamda bu bilimlarni egallash usullaridir. Yosh xususiyatini aniqlovchi shartlar majmuiga bolaning jismoniy rivojlanishi xususiyatlari ham kiradi (masalan, go'daklikda ma'lum bir morfologik shakl hosil qiluvchi ma'lumotlarni egallash, o'smirlikda organizmning o'zgarish xususiyatlari va boshqalar). Turli yosh davrlari va ularning o'quv faoliyatları. Yosh davrlarini aniqlash atrofdagilarga munosabatlarning rivojlanish darajasi bilan bilim, usullar, qobiliyatlar rivojlanishi

darjasidagi o'rtasidagi aloqani belgilab beradi. Mazkur ikki taraf orasidagi munosabatlarning o'zgarishi keyingi yosh bosqichlariga otishning muhim iichki asosi («harakatlantiruvchi kuch»)ni tashkil etadi. Bola yashashsharoiti, tarbiya va ta'lim olishsharoitining o'zgartirilishi rivojlanishning yosh davrlari almashinuvini belgilovchi muhim omildir. So'nggi vaqtarda yosh va pedagogik psixologiyada ko'proq pedagogik mezonlarga asoslangan davrlashtirish qo'llanilmoqa. Chaqaloqlik (tug'ilganidan boshlab bir-ikki oylikkacha). Bola ko'pchilik jonivorlarning bolasiga qaraganda ancha ojiz tug'iladi. U nisbatan cheklangan xulq-atvor, tashqi olamga moslashishning muqarrar reflektor shakllari jamg'armasiga ega bo'ladi. Tug'ma xulq-atvor shakllarining kamligi bola kuchsizligini emas, kuchini tashkil etadi – u deyarli cheksiz aqliy rivojlanish, xulqatvorning yangi shakllariga ega bo'lishning yangi tajribalarini o'zlashtirish imkoniga sohib bo'ladi. Chaqaloq rivojlanishining farqli xususiyatlari shuki, uning analizatorlari faoliyati somatik (jismoniy) harakatlarga qaraganda tezroq shakllanadi. Shu asosda munosabat refleksi rivojlanadi va xilma-xil shartli reflektor aloqalari shakllana boshlaydi. Chaqaloqlik davri oxiri va go'daklikning boshlanishida «tetiklanish kompleksi» - kattalarnig paydo bo'lishiga munosabat bildirish paydo bo'ladi. Go'daklikda (bir-ikki oylikdan bir yoshgacha) go'dak to'laligicha kattalarga Bog'liq bo'ladi. Hayotining birinchi yili so'ngiga kelib go'dak ayrim so'zlarni tushunadi va ilk so'zlarni ayta boshlaydi. Tasodifan odamlar davrasidan chiqib. O'smirlik davrining alohida vaziyati uning nomlarida ifodalanadi: «o'tish», «keskin o'zgaruvchan», «mushkul», «tanqidiy». Ularda bu yoshda sodir bo'ladigan rivojlanish jarayonlarining murakkab va muhimligi qayd etilgan. Bu hayotning bir davridan boshqasiga o'tish bilan bog'liq. Inson rivojlanishining barcha yo'nalishlari bo'yicha (jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy, ijtimoiy) katta sifat va miqdoriy o'zgarishlar ro'y beradi. O'smir shaxsi rivojlanishning muhim omili – uning shaxsiy faolligi – shaxsiyat, o'zini e'tirof etish va aniqlash jarayoni faol kechadi – biroq bu jarayon bir tekis emas. O'quv motivlari.

## **17.2. Talabalarni motivlashtirishning psixologik asoslari**

Psixologiya fanida shaxsni aqliy, amaliy harakatga va xulq atvorini amalga oshirishga undovchi, muayyan ehtiyojlarni qondirish bilan uzviy bog'liq sababiyat motivlar deb ataladi. Ta'rifdan ko'rinish turibdiki, ularning asosiy funksiyasi insonni harakatga, xulq-atvorni amalga oshirishga undovchi sabablar (omillar), iichki turkilar vazifasini o'tashdan iboratdir. Bu holatni o'quv faoliyatiga ko'chirishchun quyidagi voqelikni izohlab berish ayni muddaodir. Bunday aniq voqelik har qanday maktab, kollej, akademik litsey, oliy ta'lim tizimida yuz berib turadi. Bizningcha, jazo choralarini ko'rishga shoshilishdan ko'ra, mazkur

—Muammoni keltirib chiqaruvchi omillar qaysilar? , —Nega shunday hodisa yuz berdi? degan savollarga javob qidirish odilona yondashishdir. Ma‘lumki, o’quvchi (o’smir) bilim dargohida ilm olishdan tashqari tengdoshlari jamoasi ichiga kirib boradi va hayotida qatnashadi, shu boisdan unda o’z o’rtoqlari, o’qituvchilarga nisbatan muayyan munosabat shakli vujudga keladi. Uning o’quv faoliyatiga undovchi motivlari bilan bir qatorda boshqacha xususiyatlari xulq-atvor motivlari ham mavjuddir, jumladan ijtimoiy motiv jamoa bilan bolish istagini anglatib, uning hayotida ishtirok etish xohishini o’zida aks ettiradi. O’quvchi va o’smirlar o’quv faoliyatining ijtimoiy motivlari ularning boshqa odamlar bilan muomalaga kirishish ehtiyoji bilan uzviy bog’liq bo’lib, ularni baholash, quvvatlash, tengdoshlari jamoasida muayyan joy egallash singari talablarda o’z aksini topadi. Mazkur motivlaar o’quv faoliyatining mohiyati bilan bog’liq bo’lmay, balki unga yondosh yordamchi faktorlarni anglatadi. Ammo ushbu motivlar o’smir o’qishiga jiddiy turtki vazifasini bajaradi. Maktabgacha yosh 1) Go’daklik (3 yoshgacha) – yasli; 2) Bog’chaning kichik guruhi – uch yosh; 3) Bog’chaning o’rta guruhi – to’rt yosh; 4) Bog’chaning katta guruhi – besh yosh; 5) Bog’chaning tayyorlov guruhi – olti yosh. Maktab yoshi 1) Kichik (1-4-sinf) – boshlang’ich maktab – 7-10 yosh; 2) O’rta (5-9-sinf) – o’rta maktab – 11-15 yosh; 3) Katta(10-12-sinf) – akademik lisey yoki maxsus ta’limda – kasbhunar kollejlar – 16-18 yosh. Psixolog Maslouning fikri bilan yakunlamoqchiman: Tashqi o’qish jarayoni — bu shunchaki yana bir bilimni o’zlashtirish yoki yangisini o’rganishdir. Bilim sohasida eng zukko bilimdon bo’lish esa inson imkoniyatlariga va iichki intilishiga bog’liqdir. Keyingi har qanday o’qish, o’rganish yolidagi ta’limiy maqsadlar — bu insonni kelajakda kim bo’lishini belgilovchi kasbiy faoliyatiga ko’maklashish yo’li va usulidir.

### **Nazorat savollari.**

- 1.Turli yosh davrlari va ularning o’quv faoliyatları tavsifini izohlang.
- 2.O’quv motivlarining umumiylashtirishini izohlang.
- 3.O’quv motivlarining psixologik xususiyatlari va ularni shaklantirish mexanizmini tushuntirib bering.
4. Yosh xususiyatlar tipologiyasini izohlab bering.

## **XVIII BOB. KASBIY TA'LIMDA PEDAGOGIK BOSHQARUV.**

### **18.1. Ta'lim muassasasini boshqarishning pedagogik- psixologik asoslari.**

Boshqarish faqat ishlab chiqarishgagina xos bo`lgan jarayon emas. Balki ijtimoiy sohalar, shuningdek, ta'lim tizimida ham boshqarishni to`g`ri tashkil etilishi juda muhim. Hozirgi paytda yagona pedagogik jarayonni boshqarishga ilmiy yondashish harakati kuchaydi. Bu esa intellektual salohiyati yuqori kadrlarni shakllantirishchun o`ta muhim hisoblanadi. Avvalo, boshqarishning ijtimoiy mohiyatini anglab olaylik. Boshqarish ma'lum bir ob'ektga tashkiliy, rejali, tizimli ta'sir ko`rsatish demakdir. Ta'lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish ta'lim muassasasining faoliyat xususiyatiga ko`ra pedagogik jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag`batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilish maqsadida amalga oshiriluvchi boshqaruv faoliyatidir. Bugungi kunda pedagogika faniga ta'lim muassasalarini boshqarish bo`ycha yangidan-yangi tushunchalar kirib kelyapti, ularning mohiyati avvalgilardan ham teranroqdir. Masalan, «ta'sir etish» tushunchasining o`rniga «o`zaro harakat», «hamkorlik», «refleksiv boshqarish» kabi tushunchalar qo`llanilmoqda. Ta'lim muassasalarini boshqarish nazariyasi ta'lim muassasalarining menejmenti nazariyasi bilan boyitildi. Menejment nazariyasi xodimlarga nisbatan ishonch, ularning unumli mehnat qilishlari uchunsharoit yaratish hamda o`zaro hurmat bilan tavsiflanadi. Xo`sh, menejment va menejer atamalarining asl mohiyati nimani anglatadi? Biz ushbu tushunchalarning mohiyati, ta'lim muassasida davlat-jamoa boshqaruving pedagogik-psixologik asoslarini tushunishimizda ushbu yo`nalishda tadqiqot olib borgan pedagog R.Ahliddinovning qarashlari alohida diqqatga sazovor. «Menejment» va «menejer» atamalari hozirgi talqinda korxona va muassasa egalari o`z mulklari va xodimlarni o`zlari boshqarganlaridan ko`ra tanlangan yo`nalish bo`ycha maxsus tayyorgarlikdan o`tgan mutaxassislarni jalb etish afzal ekanligini tushunib etganlaridan so`ng paydo bo`ldi. Bugungi kunda menejer rivojlangan demokratik mamlakatlarda nufuzli kasblardan biri hisoblanadi. **Menejment** deganda, odatda rahbarlik lavozimiga rasman tayinlangan shaxslarning ishigina tushuniladi. Boshqarishga, shuningdek, murabbiylik ishi ham taalluqli hisoblanadi. **Menejment** (yoki boshqarish) mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natjalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta'sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir. Ta'lim muassasasi menejmenti haqida so`z yuritilganda, O`zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning 4.6-bandida so`z yuritilayotgan jarayonning mohiyati haqida bat afsil to`xtalib o`tilganligini alohida ta'kidlash zarur. Ushbu hujjatda qayd etilcha, ta'lim muassasasi menejmentida quyidagi holatlar nazarda

tutiladi:uzluksiz ta’lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o`zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo`li bilan boshqarib borilishi; barcha darajadagi ta’lim boshqaruв organlarining vakolat doiralari «Ta’lim to`g`risida»gi yangi 2020-yil 23-sentabr qonunga muvofiq belgilanadi; ta’limning normativ-huquiy bazasi rivojlantiriladi; moliya-xo`jalik faoliyatini olib borish hamda ta’lim jarayonini tashkil etishda o`quv yurtlarining huquqlari kengayadi va mustaqilligi ta’milanadi; ta’lim muassasalari O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda attestasiyadan o`tkaziladi hamda akkreditasiyalanadi. Akkreditasiya yakunlariga ko`ra ta’lim sohasida faoliyat ko`rsatish huquqi beriladi; muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiy vakillarni o`z chiga oluvchi vasiylik va kuzatish kengashlari tizimi orqali ta’lim muassasalarining samarali, jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi. Bundan tashqari, olimlar ta’lim menejmetining bir qator o`ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ham ta’kidlab o’tishadi. Ular orasida quyidagi xususiyatlar asosiy hisoblanadi: ta’lim menejmenti «maqsadga muvofiqlik» so`zi bilan aniqlanadigan ma’naviy o`lchovga ega; ta’lim menejmenti – bu fan va san’at (chunki bunda insonlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlar katta rol o`ynaydi); menejment mazmunida o`z aksini topadigan shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarining o`zaro dialektik birligi; ta’limni boshqarishda jamoatchilikning faol qatnashuvi. Xalq ta’limi Vazirligi, Oliy va o`rta maxsus ta’lim Vazirligi O`zbekiston Respublikasida ta’limni boshqarishning davlat yuqori organlari hisoblanadi. Vazirliklar o`zini vakolatlik doirasida: ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ro`yobga chiqaradi; ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va uslub masalalarida ularga rahbarlik qiladi; davlat ta’lim standartlari, mutaxassislarining bilim saviyasi va kasbiy tayyorgarligiga bo`lgan talablarning bajarilishini ta’minlaydi; o`qitishning ilg`or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta’limning texnik va axborot vositalarini o`quv jarayoniga joriy etadi, o`quv va o`quv-usulbiy adabiyotlarni yaratadi va nashr etishni tashkil qiladi; ta’lim oluvchilarining yakuniy davlat attestasiyasi va davlat ta’lim muassasalarida eksternat to`g`risidagi nizomlarini tasdiqlaydi; davlat oliy ta’lim muassasasining rektorini tayinlash to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi; pedagog xodimlarni tayyorlash, ularning malasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etadi. Yuqorida qayd etilgan organlar maktab faoliyati yuzasidan davlat nazoratini olib boradi va uning rivojini ta’minalashchun ko`maklashadi. Ularning vakolatiga maktab direktorlari va ularning o`rinbosarlarini tayinlash ham ikradi. Ta’limni boshqarish ishiga maktab inspeksiyasi, ya’ni, vazirliklar va xalq ta’limi bo`limlarining maktab inspektorlari xizmati yordam beradi. Ular ta’lim faoliyatini o’rganadi, ta’lim-tarbiya

jarayonining natijalarini tahlil qiladi, ilg'or tajribalarini aniqlaydi va ularni ommalashtirish chora-tadbirlarini belgilaydi, kamchiliklarni anihlab, ularni bartaraf etish yo'llarini izlaydi, ta'lim muassasalarida o'qituvchilarga metodik va moddiy yordam ko'rsatadi. Ta'lim tizimini jamoatchilik asosida boshqarish o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar va jamoatchilik vakillaridan iborat pedagogik kengashning umumiy o'rta ta'lim muassasasi faoliyatini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan faoliyatidir. Bosqchli nazorat o'quv yili tamom bo'lgandan keyin imtihonlar, test sinovlari, sinovlar shaklida amalga oshiriladi. Uning asosida reyting aniqlandi va o'quvchini navbatdagi sinfga o'tkazish to'g'risidagi qaror qabul qilinadi. Ta'lim bevosita rahbarlik boshqarishning yuqori organlar tomonidan tayinlanadigan direktor, davlatga qarashli bo'lмагan ta'lim muassasalarida esa muassis tomonidan amalga oshiriladi. Ta'lim muassasining ustavi ta'lim muassasasi faoliyatiga rahbarlik va boshqarish tizimini aniqlovchi hujjatdir. Ta'lim muassasasining ustavida ta'lim jarayonining quyidagi ikki muhim tarkibiy jihatni ajratib ko'rsatiladi: davlat ta'lim standartida, belgilangan bilimlar zahirasini egallash yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish tartibi; bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishni tashkil etish (savodxonlik, mustaqil fikrlash hamda masalalarni echa olishga o'rgatish). Shuningdek, ta'lim muassasasining ustavida muassasani boshqarishga qo'yiluvchi talablar, o'qituvchi, o'quvchilar hamda ta'lim muassasasi rahbarlarining huquq va burchlari ham aniq bayon etib berilgan. Mazkur o'quv yurtida o'quvchilar ta'lim standartlari asosida ta'lim olishuchun intilishlari, ta'lim muassasasining pedagogik xodimlari esa yuqori darajada ta'lim berishlari, ta'lim oluvchilarning o'quv dasturlarini davlat ta'lim standartlari darajasida o'zlashtirishlarini ta'minlashlari zarur. Ta'lim muassasasi rahbari (direktori) esa o'quv-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatlari kechishini ta'min etadi, o'quv dasturlari talablarining bajarilishini nazorat qiladi, ta'lim-tarbiya ishlarining sifati va samaradorligi, bolalik va mehnatni muhofaza qilish talablariga to'laqonli rioya etilishi, ma'naviyat ishlarining samarali tashkil qilinishi uchun shart-sharoitlarni yaratadi. Ustavda o'z-o'zini boshqarish, jamoada o'zaro munosabatning o'rnini kabi masalalar mohiyati ham yoritib beriladi. Tibbiy oliv ta'lim muassasasining ustavida ta'lim muassasasining joylashgan o'rni, uning turi, ta'lim tili, guruh raqbarlari, o'qituvchilarning huquq va burchlari, ta'lim oluvchilar va ularning ota-onalarining huquq va burchlari, shuningdek, ta'lim muassasasining iqtisodiy tuzilishi va xujalik faoliyati, boshqarish tartibi aniq belgilanishi ko'rsatib berilgan. Ta'lim muassasasining ustavi quyidagi bo'limlardan tashkil topadi: qisqacha ta'lim muassasasi haqidagi ma'lumotlar. Ta'lim muassasasining maqsad va vazifalari. Ta'lim muassasasini boshqarish; ta'lim muassasasini boshqarishning oshkoraliq, demokratik va o'z-o'zini boshqarish asosida amalga oshirilishi; pedagogik ilmiy Kengashi; rektor, uning huquq va burchlari; rektorning o'quv

ishlari bo`ycha o`rnbosarining huquq va burchlari; ma`naviyat va ma`rifat ishlari bo`ycha rektor o`rnbosarining huquq va burchlari. O`quv-tarbiya va ilmiy-uslubiy ishlarni tashkil etish: ta`lim mazmunining Davlat ta`lim standartlari bo`ycha ishlab chiqilgan o`quv reja va dasturlari asosida belgilanishi; b) o`quv jarayonini tashkil etish; v) iqtidorli yoshlar bilan ishslash; g) ishlab chiqarish amaliyotini o`tkazish tartibi; d) qo`shimcha pulli mashg`ulotlarni joriy etish; j) kunlik ish tartibi (seminar, mashg`ulotlarning davom etishi, tanaffuslar, uy vazifalarini berish tartibi va hokazolar).

## **18.2. Ta`lim muassasasini boshqarishning tamoyillari va vazifalari.**

Har qanday faoliyat singari boshqarish faoliyati ham o`z vazifalarini bir qator tamoyillarga asoslanib amalga oshiradi. Pedagogik adabiyotlarda ta`lim tizimini boshqarishda asos bo`lib xizmat qiluvchi tamoyillarni ular tomonidan bajariladigan vazifalar (rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish)ga tayanilgan holda belgilanishiga alohida urg`u berilgan. Mazkur o`rinda ta`lim muassasasini boshqarishning har bir tamoyiliga alohida-alohida ta`rif berishga harakat qilamiz<sup>1</sup>. Ta`lim muassasasi boshqaruva nazariyasi va tarixida boshqarishning asosiy tamoyillari quyidagilardi. Pedagogik kadrlarni tanlov va shartnoma asosida ishga qabul qilish, qabul qilinayotgan qarirlarni ochiq muhokama qilish, axborotlarning barcha uchun ochiq va tushunarli joriy etish, ta`lim muassasasi jamoatchiligi oldida ma`muriyatning muntazam hisobot berishi, o`qituvchi va o`quvchilarga ta`lim muassasasi hayotiga oid o`z fikrlarini bildirishga imkon berish, ta`lim muassasasida demokratik g`oyalarning ustuvor o`rin tutishini anglatadi. Ta`lim tizimini boshqarishda shaxsga alohida hurmat bilan munosabatda bo`lish, unga ishonish, pedagogik faoliyatda sub`ektning sub`ektga munosabati darajasiga erishish, o`quvchi va o`qituvchining huquq va manfaatlarini himoya qilish, o`z iste`dodlari va kasbiy mahoratlarini erkin namoyon etishuchunsharoit yaratish insonparvarlik tamoyiliga asoslangan boshqaruva mohiyatini anglatadi. Boshqarishning tizimliligi va yagonaligi. Ta`lim muassasasini boshqarishga nisbatan tizimli yondashuv asosida rahbar ta`lim muassasasini bir butun yaxlit tizim sifatida va uning belgilari haqida aniq tasavvurga ega bo`ladi. Tizimning birinchi belgisi yagonaligi hamda uni bo`laklar, tarkibiy qismlarga ajratish mumkinligidadir. Ikkinci belgisi tizimning ichki tuzilishining mavjudligini anglatadi. Uchinchi belgisi tizimning integrsiyalana olishidir. Tizimning har bir tarkibiy qismi o`ziga xos sifatga ega bo`lgani bilan, o`zaro harakat orqali tizimning yangi integrasiyalana olish sifati hosil bo`ladi. To`rtinchi belgisita`lim muassasalarining tashqi muhit bilan chambarchas bog`liqligidir. Chunki ta`lim muassasalari tashqi muhitga moslashib, ushbu ta`lim jarayonini qayta quradi

<sup>1</sup>Сластенин В.А. Общая педагогика. – Москва, Педагогика, 2003.

hamda o`zining maqsadlariga erishishuchun tashqi muhitni o`ziga bo`ysundiradi. Boshqaruvdagagi tizimlilik va yagonalik rahbar bilan pedagogik jamoa o`rtasidagi o`zaro harakat va aloqani ta'minlaydi, bir yoqlama boshqaruvning oldini oladi. Boshqarishning markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan holatlarining rasional uyg`unligi. Boshqaruvni markazlashtirish keragidan ortiq bo`lganda, albatta, ma`muriy boshqaruv kuchayadi. Bu holat o`qituvchilar va o`quvchilarning ehtiyojlari, talab va istaklarini hisobga olmaslikka, rahbar va o`qituvchilarning keraksiz mehnat va vaqt sarflashlariga olib keladi. Shuningdek, markazlashtirilmamaslikka ham keragidan ortiq e'tibor berilsa, pedagogik tizim faoliyatining sustlashishi ko`zga tashlanadi. Ta'lim muassasasi chidagi boshqaruvda markazlashtirish va markazlashtirmaslikni uyg`unlashtirish ma`muriy va jamoatchilik boshqaruvi rahbarlarining faoliyatini jamoa manfaatiga qaratadi hamda kasb malakasi darajasida qarorlarni qabul qilishga sharoit yaratadi. Yakka hokimlik bilan jamoatchilik boshqaruvining birligi tamoyili pedagogik jarayonni boshqarishda yakka hokimlikka yo'l qo`ymaslikka qaratilgan. Boshqarish faoliyatida o`quvchilarning tajribasi va bilimiga tayanib, turli qarashlarni taqqoslab, oqilona xulosalar chiqarish o`ta muhimdir. Vazifalarni kollegial hal qilish har bir jamoa a'zosining javobgarligini yo`qqa chiqarmaydi. O`z navbatida yakkahokimlikning o`ziga xos jihatlari bor. Yakka hokimlik pedagogik jarayonda tartib-intizom, vakolat doirasi va unga amal qilishni ta'minlaydi.

Ta'lim muassasasining rahbari o`zining faoliyatida menejer vazifasini ham bajaradi. Shuning uchun u o`z faoliyatida kuzatish, anketa, test, instuktiv va metodik materiallardan keng foydalana bilishi lozim. Ta'lim muassasasi ma`muriyati maktab chidagi axborotli boshqaruv texnologiyasini ishlab chiqish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etishga alohida e'tibor qaratishi kerak. Boshqaruv jarayonida axborotdan samarali foydalanish ta'lim muassasasi faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga yordam beradi. Ta'lim muassasasini boshqarishda foydalaniladigan axborotlar turlchadir. Axborotlar jamg`armasini shakllantirish va undan jadal foydalanish boshqaruv ishini ilmiy tashkil etishni yuksaltiradi. Maktab ichki boshqaruvining o`ziga xosligi quyidagi vazifalarda aniq ko`rinadi:

1. Ta'lim-tarbiya jarayonini pedagogik tahlil qilish.
2. Maqsad qo`yish va rejorashtirish.
3. Tashkil qilish.
4. Maktab ichki boshqaruvini nazorat qilish.
5. Tartibga solish.

Ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil etilishi va rivojlanishini tahlil qilmasdan, avval erishilgan natijalarni hozirgilari bilan taqqoslamasdan turib, uni boshqarib bo`lmaydi. Ta'lim muassasasini boshqarish samaradorligi rahbarning ham,

o`qituvchilarning ham pedagogik tahlil uslubiyatini teran bilishlariga bog`liq. Agar o`z vaqtida, professional darajada pedagogik jarayon to`g`ri tahlil qilinmasa, jamoa orasida o`zaro bir-birini tushunmaslik, ishonchszizlik kelib chiqadi. Hozirgi paytda pedagogik tahlilning quyidagi uch turi mavjud:

- 1) kundalik tahlil;
- 2) tizimli tahlil;
- 3) yakuniy tahlil.

Kundalik tahlil o`quv jarayonining borishi va natijasi haqida har kuni ma'lumot yig`ib, undagi kamchiliklarning sababini aniqlashga qaratiladi. Kundalik tahlil natijasida pedagogik jarayonga o`zgartirishlar va tuzatishlar kiritiladi. Kundalik tahlilning predmetiga o`qituvchilarning har kungi o`zlashtirish va intizomlari darjasini, ta`lim muassasasi rahbarining darsga hamda sinfdan tashqari darslarga qatnashishi, mактабning tozalik holati, shuningdek, dars jadvaliga rioya qilish kabi holatlar kiradi. Tizimli tahlil darslar va sinfdan tashqari mashg`ulotlar tizimini o`rganishga qaratiladi. Tizimli tahlil mazmuni ta`lim metodlarini to`g`ri uyg`unlashtirish, o`qituvchilar tomonidan bilimlarning puxta o`zlashtirilishiga erishish, o`qituvchilarning sifatli tarbiyaviy ishlarni olib borishlari, ularning pedagogik madaniyatini ko`tarish hamda ta`lim muassasasida innovation muhitni tashkil qilishda pedagogik jamoaning hissasini ta'minlash kabilardan iborat. Yakuniy tahlil o`quv choragi, yarim yillik va o`quv yili yakunida amalga oshiriladi hamda asosiy natijalarga erishish yo'llarini o`rganishga qaratiladi. Yakuniy tahlil uchun ma'lumotlar kundalik va tizimli tahlillar, joriy va oraliq nazorat yakunlari, o`qituvchilarning va sinf rahbarlarining hisobotlaridan olinadi. Har qanday pedagogik jarayonni boshqarishning asosi maqsad qo'yish va rejalashtirishdan iborat. Boshqaruv faoliyatining maqsadi – ishning umumiyo`nalishi, mazmuni, shakli va metodlarini aniqlash. Demak, maqsad – rejaning asosi. Boshqaruvda asosiy maqsad aniqlanganidan keyin, unga erishishchun qo'shimcha maqsad qo`yiladi. Ta`lim muassasasini boshqarishni rejalashtirish pedagogik tahlil asosida belgilangan dasturiy maqsadga muvofiq qaror qabul qilishdir. Bunday qarorlar ma'lum bir muddat davridagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali yoki yakuniy ishlarni bajarib bo`lgandan so`ng qabul qilinishi mumkin. Ta`lim muassasasini boshqarish amaliyotida rejalashtirishning quyidagi uchta asosiy shakli qo'llaniladi:

- 1) muddatli (perspektiv);
- 2) yillik;
- 3) yakuniy.

Muddatli rejalashtirish qoidaga muvofiq so`nggi yillarda, ta`lim muassasasida amalga oshirilgan ishlarni chuqr tahlil qilish asosida bir necha yilga mo`ljallab qabul qilinadi.

Ta’lim muassasasida, qabul qilinishi mumkin bo`lgan muddatli reja quyidagi ko`rinishda bo`lishi mumkin:

1. Rejalahtirilgan muddatda ta’lim muassasasi oldiga qo`yilgan vazifalar.
2. Guruhlarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, o`quvchilarning yillik o`zlashtirish darajasi muddatlari.
3. Ta’lim jarayoniga pedagogik innovasiya (yangilik)larni olib kirish muddatlari.
4. Ta’lim muassasasini pedagogik kadrlariga qo`yilgan talablar.
5. Pedagog kadrlar malakasini turli shakllar (kurslar, seminarlar, treninglar) orqali oshirish.
6. Ta’lim muassasasini texnika hamda o`quv-metodik (qurilish ishlari, axborotlashtirish, ko`rgazmali qurollar, kutubxona fondini boyitish) ko`lamini rivojlantirish.
7. O`qituvchi va o`quvchilarni ijtimoiy himoya qilish.

Yillik rejalahtirish butun o`quv yili hamda yozgi ta’tilni qamrab oladi. Yillik rejalahtirish o`quv yili davomida amalga oshiriladi va ta’lim jarayonini tashkil etilishi (chorak, semestr)ga qarab bir necha bosqchlarni o`z chiga oladi. Yakuniy rejalahtirish o`quv choraklari uchun tuziladi, u bir yillik rejaning aniqlashgan ko`rinishi hisoblanadi. Shu tarzda rejalahtirishning bunday aniqlashgan ko`rinislari o`qituvchilar, o`quvchilar va ota-onalar qo`mitasining faoliyatini boshqarishga yordam beradi. Bu rejalar o`qituvchilar va sinf rahbarlarining ish rejalarini bilan aloqadorlikda aniqlashtirilib boriladi. Umuman olganda, boshqarish faoliyatida rejalahtirish vazifasining to`la amalga oshirilishi ta’lim muassasasi faoliyati samaradorligini oshiradi. Qabul qilingan rejalarini to`liq amalga oshirishuchun tizimli harakatning boshqaruvchilari uning tarkibiy qismlarini bir-biri bilan aloqada bo`lishini tashkil etishlari kerak. «Tashkil etish» tushunchasi bir qancha ma’nolarda qo`llaniladi. Birinchidan, baho sifatida aqliy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan hamda darsdan tashqari tadbirlarning uyushtirilishini ta’minlaydigan o`quv-tarbiya jarayonining maqsadida namoyon bo`ladi. Ikkinchidan, tashkil etish deganda belgilangan rejalarini amalga oshiruvchi, oldinga qo`yilgan maqsadga erishishuchun butun pedagogik jarayonni boshqaruvchi ta’lim muassasasi rahbarlari, o`qituvchilar, o`quvchilarning o`z-o`zini boshqarish organlari faoliyati tushuniladi. Boshqarishni tashkil etuvchi asosiy boshqarmalar sifatida ta’lim muassasasining kengashi, pedagogik Kengash, direktor boshqaradigan majlis, direktor o`rinnbosarlarining majlisi, tezkor yig`ilishlar, metodik seminarlarni qayd etish mumkin. Pedagogik Kengash faoliyati demokratik va oshkorlik tamoyillariga asoslanib olib boriladi. Pedagogik Kengashlarda anketalar, savol-javoblar, nazorat ishlari, tanlov ishlari ko`riladi. Bundan tashqari pedagogik Kengash yig`ilishlarida ta’lim muassasasi hayoti va faoliyatiga doir

dolzARB masallar hal qilinadi. Shuning uchun pedagogik kengashni turli muhokamali, muammoli masalalardan ozod qilishuchun ta'lim muassasalardan rahbar yig`inlari tashkil etiladi. Rahbar yig`ilishlarida rahbariyat va o`qituvchilar ishtirok etib qolmay, boshqa ishchi xodimlar ham qatnashishlari mumkin. Ta'lim muassasasi o`rinbosarlarining yig`ilishlarida kundalik savollar va ma'muriy boshqarishga oid masalalar muhokama qilinadi. Bunday majlislar ta'lim muassasasi rejasi bo`ycha o`quv yilining choragi (semestri)da yoki har oyda bo`lib o`tadi. Tezkor axboriy majlislar ta'lim muassasasida ta'lim jarayonini tashkil etishning zarur shaklidir. Tezkor axboriy majlislarning mavzusi mavjud sharoitlardan kelib chiqadi. Bu kabi majlislar pedagogik xodimlar, o`uvchilarning barchasi uchun tashkil qilinadi. Iichki nazorat ham ta'lim muassasasini boshqarishda alohida o`rin tutadi. Nazoratni tashkil etishda etishmovchiliklarni bartaraf etishuchun bir qancha talablarni bilish zarur. Bunday talablarga tizimlilik, ob`ektivlik, harakatlilik, to`ldiruvchilik kabilarni ko`rsatish mumkin. Pedagogik boshqaruvga doir adabiyotlarda, ta'lim muassasasi ichki nazoratining quyidagi yo`nalishlarda tashkil etilishi bayon etilgan:

1. Pedagogik tashkilotchilikka doir savollarning qo`yilishi.
2. Ta'lim dasturlari, DTSning bajarilish sifati.
3. O`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarining sifati.
4. O`quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi.
5. O`qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarining bajarilish holati.
6. Darsdan tashqari tarbiya ishlarning tashkil etilish holati va sifati.
7. Pedagogik kadrlar bilan ishslash.
8. Ta'lim muassasasi faoliyatining o`ziga xos samaradorligi.
9. qabul qilingan qarorlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko`rsatilgan talablarning bajarilishi.

Ta'lim muassasasi iichki nazoratining turlari, shakllari va metodlarini turkumlashtirish hozirgi vaqtida muammoli masala bo`lib qolmoqda. Shunga qaramasdan, iichki nazoratning quyidagi turlari ajratilib ko`rsatiladi. Mavzuli nazorat qandaydir aniq masalani o`rganishda ta'lim muassasasi jamoasi, o`qituvchining pedagogik faoliyati tizimi, ta'lim muassasasidagi ta'lim darajasi, shuningdek, o`quvchilarning ekologik va estetik tarbiyasi tizimiga e'tibor qaratiladi. Frontal nazorat butun pedagogik jamoa, metodik kengash yoki alohida o`qituvchi faoliyatini o`rganishga qaratiladi. Alohida nazorat biror bir o`qituvchining faoliyati, sind (guruh) rahbarlarining tarbiyaviy ishlarini mavzuli, frontal tkshirishga asoslanadi. Sinf-muloqot nazorat shaklida sind jamoasining dars va darsdan tashqari jarayonida shakllanishiga ta'sir etuvchi o`ziga xos omillar e'tiborga olinadi. Predmetli nazorat shakli bitta yoki bir necha sind (guruh)larda,

butun ta’lim muassasasida ta’lim olinganlik darajasini aniqlashda qo’llaniladi. Mavzuli nazorat shaklining bosh maqsadi turli fan o`qituvchilari va sinflarning alohida o`quv-tarbiya jarayonini boshqarishdagi ishlarini o`rganishdan iborat. Majmuaviy (kompleks) nazorat shakli bir necha o`quv fanlari bir yoki bir nacha sinf (guruh)larda turli o`quvchilarning ishlarini o`rganishni tashkil etish maqsadida amalga oshiriladi. Tartibga solishning asosiy maqsadi ta’lim-tarbiya jarayonini pedagogik tahlil qilishda ta’lim muassasasining oldiga qo`yilgan maqsad va rejalarini amalga oshirish, boshqaruv ishini tashkil etish hamda nazorat qilishda yo`l qo`yilgan holatlarni tuzatishdan iborat. Tartibga solish boshqaruv faoliyatida katta ahamiyat kasb etadi. U o’tgan o`quv yilida erishilgan natijalarni, yo`l qo`yilgan kamchiliklarni hisob qiladi. Ana shu asosdan kelib chiqib, yangi o`quv yilida ta’lim muassasasi oldiga maqsad va asosiy vazifalarni qo`yadi.

### **18.3. Pedagogik ilmiy Kengash – ta’lim muassasasining boshqaruv organi.**

Ta’lim muassasalarida o`quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish, takomillashtirish, muassasa faoliyati bilan bog`liq barcha tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish, o`qituvchi va tarbiyachilarning kasbiy mahorati va ijodkorliklarini o’stirish maqsadida pedagogik xodimlarni birlashtiruvchi pedagogik Kengashfaoliyat ko`rsatadi. Pedagogik ilmiy Kengash ta’lim muassasasi jamoasining yuqori boshqaruv organi hisoblanadi. Pedagogik ilmiy Kengashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi: ta’lim muassasasi OTMning tayyorlangan muhim hujjatlarini muhokamadan o`tkaziladi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi;ta’lim muassasasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishning istiqbolli yo`nalishlarini belgilaydi;ta’lim muassasasida o`quv, tarbiya jarayonini tashkil etish va ta’lim samaradorligini oshirishda maqbul shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qarorlarni qabul qiladi;ta’lim muassasasi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo`ycha yo`l-yo`riqlarni ishlab chiqadi;pedagogik jamoaning ma’lum yo`nalishlardagi faoliyatini tahlil qiladi va yakuniy xulosa chiqaradi;ta’lim muassasasi pedagogik jamoasi uchun o’z vakolati doirasida me’yoriy talablarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi. Pedagogik ilmiy Kengash quyidagi huquqlarga ega:ta’lim muassasasini rivojlantirish yo`nalishlarini istiqbol rejasini belgilash;ta’lim muassasasi jamoasi oldiga qo`yilgan maqsad va vazifalarining bajarilishini amalga oshirish;o`quv rejada maktab ixtiyoriga berilgan soatlarni taqsimlash, yillik va taqvimiyl ish rejasi mazmuni hamda dars jadvalini muhokama qilish;o`quv jarayonini tashkil qilishning turli shakl va metodlarini muhokama qilish, amaliyotga tatbiq etish;ta’lim muassasasi ta’lim jarayoniga oid barcha masalalarni o’z vakolati doirasida muhokama etish va tegishli qaror qabul qilish;pedagoglar malakasini

oshirish tizimi, ularning ijodiy tashabbuskorliklarini rivojlantirish bo'ycha o'z takliflarini berish; o'quvchilarning bilim darajasini aniqlashda oraliq nazorat bo'ycha qaror qabul qilishda qatnashish, uni o'tkazishshakli va vaqtini belgilash;ta'lim oluvchilarni sinfdan-sinfga, kursdan-kursga ko'chirish va bituvchilarni yakuniy attestasiyaga qo'yish bo'ycha qaror qabul qilish;ta'lim darayonini tashkil qilish hamda ta'lim muassasasini rivojlantirishga doir masalalar bo'ycha maktab rahbariyatining hisobotlarini tinglash;ta'lim maqsadiga muvofiq holda o'quvchilarni rag'batlantirish va jazolash bo'ycha masalalarni hal etish;chorak, yarim yillik «semestr», yil yakuniga doir xulosalar chiqarish; pedagogik ilmiy Kengash a'zolaridan pedagogik faoliyatni bir xil tamoyillarga asosan amalga oshirishni talab qilish;ta'lim-tarbiya jarayonida alohida xizmat ko'rsatgan ta'lim muassasasi xodimlarini rag'batlantirishga tavsiya qilish;yakuniy attestasiyadan muvaffaqiyatli o'tgan o'quvchilarga o'rnatilgan tartibda hujjatlar berish to'g'risida qaror qabul qilish. Ta'lim muassasasi hujjatlari besh yil davomida ta'lim muassasasida saqlanadi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

- 1.Ta'lim muassasining pedagogik faoliyatini boshqarishga ta'rif berish?
2. Menejment, ta'lim muassasasi menejmenti deganda nimani tushunasiz?
- 3.Ta'lim sohasini boshqarish qaysi sub'ektlar tomonidan amalga oshiriladi?
- 4.Ularning vakolatlariga nimalar kiradi?
- 5.Ta'lim muassasasida jamoatchilik boshqaruvi qanday amalga oshiriladi.

**AMALIY MASHG'ULOTLARDA PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH, INTERFAOL METODLARDAN  
FOYDALANISH**

**"BAHS-MUNOZARA" METODI**- biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir. Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta'lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta'lim oluvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak. "Bahs-munozara" metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak: barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish; "o'ng qo'l" qoidasi (qo'lini ko'tarib, ruhsat olgandan so'ng so'zlash)ga rioxalari qilish; fikr-g'oyalarning tinglash madaniyati; bildirilgan fikr-g'oyalarning takrorlanmasligi; bir-birlariga o'zaro hurmat. **Metodning bosqichlari quyidagilardan iborat:** Ta'lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammo bo'yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi. Ta'lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya'ni turli g'oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta'lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga o'z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan birlashtirishda bildirilgan fikr va g'oyalarning guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi. Tahlil natijasida qo'yilgan muammoning eng maqbul echimi tanlanadi.

**"FSMU"**-(fikr, sabab, misol, umumlashtirish) metodi munozarali masalalarni hal etish hamda o'quv jarayonining bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu metod tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash, o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatiga o'rgatadi. Bu metod yangi mavzuni chuqur o'rganishdan avval tinglovchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. SHuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, o'zlashtirish, umumlashtirish, tinglovchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini yozma shaklda, dalil va isbotlar bilan ifodalashga undaydi. **Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiyl fikrlardan xususiy

xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi. **Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.



**FSMU** tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• kuchli tomonlari
W – (weakness)	• zaif, kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	• imkoniyatlari
T – (threat)	• to'siqlar

**Namuna:** Pedagogik fanlarni o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirishda “Xulosalash” metodning SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Pedagogik fanlarni o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirishda “Xulosalash” metodidan foydalanishning kuchli tomonlari	
W	Pedagogik fanlarni o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirishda “Xulosalash” metodidan foydalanishning kuchsiz tomonlari	
O	Pedagogik fanlarni o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirishda “Xulosalash” metoddan foydalanishning imkoniyatlari (iichki)	
T	To'siqlar (tashqi)	

**Namuna:** An'anaviy va zamonaviy ta'lim shakllarini “SWOT-tahlil” metodida tahlil qiling.

S	An'anaviy darsda o'qituvchi, tinglovchilarga ko'p ma'lumot bera olmaydi	Zamonaviy darsda kamroqma'lumot beriladi, biroq ular tinglovchilar ongiga singdirib beriladi
W	O'qituvchi asosan a'lochi, qiziquvchi tinglovchilar bilan gaplashadi, ya'ni darsda oz sonli tinglovchilar qamrab olinadi	Zamonaviy ta'limda darsda ko'p sonli tinglovchilar qamrab olinadi

<b>O</b>	An'anaviy darsda faqat o'qituvchi reja asosida va tayyorlab kelgan ma'lumotlari atrofida gaplashiladi	Zamonaviy darsda muhokamajarayonida yangi-yangi masalalar,muammolar yuzaga chiqishi, g'oyalartug'ilishi mumkin
<b>T</b>	O'qituvchi uchun asosiy to'siq – dasturdan chiqib keta olmaslik, tinglovchi uchun qiziqmasa ham o'qituvchini eshitib o'tirish majburiyati	Keng muhokama uchun vaqtning chegaralanganligi, tinglovchilarni mavzudan chetga burishga intilishlari

## Glossariy

<b>Termin</b>	<b>O‘zbek tilidagi izohi so’zlar</b>
<b>Modernizatsiya</b>	Pedagogik ta’lim jarayoni va pedagogika fanini davr talablari asosida yangilash
<b>Uzluksiz ta’lim</b>	O‘zaro mantiqiy izchillik asosida bog‘langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta’lim tizimi
<b>Ta’lim</b>	talabalarga bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish ko‘nikma va malakalar hosil qilish jarayoni, yoshlarni hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasи
<b>Tizim</b>	Tartibga solingan, o‘zaro bog‘langan va ta’sir ko‘rsatib turadigan pedagogik hodisa
<b>Ta’lim tizimi</b>	Turli daraja va yo‘nalishdagi o‘zaro aloqador uzluksiz ta’lim dasturlari va davlat ta’lim standartlari, tashkiliy-huquqiy tarlaridan qat’iy nazar ta’lim muassasalarining barcha tarmoqlari, ta’limni boshqaruv organlari va ular qoshidagi muassasa hamda tashkilotlarni qamrab oluvchi tizim
<b>Ta’lim prinsiplariprinsi</b>	Yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda ta’lim maqsadlariga muvofiq o‘qitishning asosiy xarakterini belgilab beruvchi tayanch qoidalar
<b>Tarbiya</b>	Shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; yosh avlodni mujassam rivojlantirishga yo‘naltirilgan umuminsoniy hamda milliy ijtimoiy tajribani o‘quvchi va talabalarga uzluksio‘ taqdim etish jarayoni
<b>Innovatsiya</b>	Yangidan kiritilgan tushunchalar, tartib-qoidalar, texnologiyalar va yangiliklar
<b>Menejment,</b>	Mavjud minimal imkoniyatlarda nmaksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta’sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayoni
	Lotinchada “competo” erishyapman, munosibman, loyiqman- u yoki bu sohadagi bilimlar, tajribaga degan

<b>Kompetensiya</b>	ma'nolarni anglatadi.
<b>Boshqaruv</b>	Bu qadimgi san'at va eng yangi fandir
<b>Ko'pqirrali qobiliyatlar</b>	Soddarоq qilib tushuntiradigan bo'lsak ko'pqirrali qobiliyatlar deganda turli xil insonlar turli xil uslublar orqali yoki bir inson turli xil narsalarni turli xilda o'rganilishi tushuniladi.
<b>Avtoritar rahbar-</b>	Barcha ko'rsatmalarni ishchanlik ruhida, aniq, ravshan, keskin ohangda xodimlariga etkazadi
<b>Liberal (loqayd)</b>	Uslubda ishlaydigan rahbar - kayfiyatini, ishga munosabatini, ishdan mamnun yoki mamnun emasligini bilish qiyin. Unda ta'qilash, po'pisa bo'lmaydi, uning o'rniga, ko'pincha, ishning oxirgi oqibati bilan tanishish bilan cheklanadi, xolos.
<b>Demokratik rahbar -</b>	Aksincha, o'z qo'l ostidagilarga mustaqillik, erk berish tarafdori. Ishda topshiriqlar berganda ishchilarning qobiliyatini hisobga oladi, shaxsiy moyilliklarni ham hisobga oladi.
<b>Estetik tarbiya</b>	Estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qibiliyatları, estetik ehtiyojlari va go'zallikni sevish, go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantirish, estetik madaniyatni shakllantirish;
<b>Ekologik tarbiya</b>	Ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamda aloqadorligini o'quvchilarga tushuntirish, ularda ekotizimning inson, insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni va mohiyati borasidagi tushunchalarni qaror toptirish, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, tabiatni asrash to'g'risida g'amxo'rlik qilish kabi tuyg'ularni qaror toptirish, shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirish;
<b>Oila</b>	Oila-er-xotinlik ittifoqiga, qarindoshlik aloqalariga, umumiy xo'jalik yuritadigan er va xotin, ota-onasi va bolalar, aka-uka va opa-singillar va boshqa qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlarga asoslanadigan kichik ijtimoiy guruh;

	jamiyatning asosi, davlat qudratining manbai.
<b>Tarbiya</b>	Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida bolaning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo‘lida har tomonlama voyaga etkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan faoliyat jarayonidir
<b>Dunyoqarash</b>	Dunyoqarash–insonning tevarak-atrofini qurshab turgan voqelik to‘g‘risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o‘zining undagi o‘rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir
<b>Motivatsiya</b>	Skot barmenning fikriga ko‘ra motivatsiya 4 ta asosiy kategoriyadan iborat: faoliyatning o‘zidagi qiziqishdan kelib chiqadigan xolat– iichki motivatsiya. Boshqa odamlarni hursand qiladigan xolat yoki vazifa – ijtimoiy motivatsiyadir. YUtuq motivatsiyasi – bunda boshqalar bilan raqobatlashish maqsadida vazifalarni yaxshi bajarish. Ko‘makchi motivatsiya – bunda motivatsiya rag‘batlash yoki jazolash orqali paydo qilinadi. (jelfhelstead. Navigating the new pedagogy: six principlesthet transform teaching. 26-b.)
<b>Didaktika</b>	(grekcha “didaktikos” – o‘qituvchi, “didako” o‘rganuvchi) pedagogikaning ta’lim muammolarini ishlab chiquvchi qismi.
<b>Metod</b>	1) tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish usuli, harakat qilish tarzi; 2) maqsadga eltuvchi yo‘l, ya’ni, maqsadga erishish yo‘lidagi xatti-harakatlarning o‘ziga xosligidir.
<b>Kasbiy yo‘nalganlik</b>	Shaxsning aniq bir faoliyat turiga bo‘lgan qobiliyati, qiziqlislari, ehtiyoji va qat’iy ishonchi (a.b. Seyteshev); 2) kasb tanlash, qiziqlish, qat’iy ishonch hamda kasb tanlash motivlari o‘rtasidagi aloqaning shaxsiy sifatlarda etakchilik qilishi (n.k. Stepankova).
<b>Dars</b>	Bevosita o‘qituvchi rahbarligida muayyan talabalar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli,

	o‘qituvchi <i>rahbarligida</i> muayyan talabalar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayoni.
<b>Metod</b>	Grekcha tadqiqot, maqsadga erishish yo’li, usuli deganidir. Bu so‘zning etimologiyasi (kelib chiqishi) uning ilmiy kategoriya sifatidagi talqinida ham aks etgan. “metod – eng umumiyl ma’noda – maqsadga erishish usuli, ma’lum tarzda tartibga solingan faoliyat”.
<b>Seminar</b>	Bu o‘qituvchini ta’lim oluvchilar bilan faol muloqotga kirishishiga yo‘naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun zaruriy shart-sharoitni ta’minlovchi ta’limni tashkil etish shaklidir.
<b>Amaliy mashg‘ulot</b>	O‘quv ishini tashkil etishning asosiy shakllaridan biri bo‘lib, eksperimental tavsifdagi mustaqil topshiriqlarni talabalarning professor-o‘qituvchi bilan birgalikda bajarishini o‘zida aks ettiradi.
<b>Mustaqil ish</b>	O‘qituvchining topshirig‘i va uning rahbarligida o‘quv vazifasini hal etadigan ta’limni tashkil etish shakli.

## Kasbiy pedagogika fani buyicha Test

### **1.Dunyoqarashning kengligi nimaga bog'liq?**

- A) Bilimga
- B) Muhitga
- C) Tarbiyaga
- D) Zehnga

### **2.Pedagogik jarayonning vazifasi nimalardan iborat?**

- A) Bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish
- B) Bilish faoliyatini rivojlantirish
- C) Ko'nikma, malaka hosil qilish
- D) O'quv mazmunini o'zlashtirish

### **3.Tarbiyaning bosh maqsadi nimalarda ko'rindi?**

- A) Yoshlarda insoniy fazilatlarni tarkib toptirishda.
- B) Shaxsni mustaqil hayotga tayyorlashda.
- C) Har tomonlama yetukShaxsnishakllantirish.
- D) Shaxsda biron-bir ko'nikmalarni shakllantirish.

### **4.Ta'lism oluvchining asosiy belgilari qaysi javobda to'g'ri berilgan?**

- A) Onglilik, javobgarlik, shaxsiy qadr-qimmat, erkinlik, individuallik.
- B) Bilim, malaka va ko'nikmalar.
- C) Tajriba va yo'nalganlik, uddaburonlik.
- D) Dunyoqarash va e'tiqodlar, sahovatpeshalik

### **5.Kasbiy pedagogikaga berilganto'g'riizohnibelgilang.**

- A) Tadqiqot ob'ekti talaba , o'rganishpredmeti jarayonida kasbga xos xislatlarni tarkib toptirish, ijtimoiylashuv qonuniyatları hisoblangan Kasbiy pedagogika fani sohasidir.
- B) Tadqiqot ob'ekti dars mashg'uloti, hamkorlikning ilmiy asoslanganfan sohasidir
- C) Tadqiqot ob'ekti kitob, "Yakshanbalik o'quv maskanlar" ishini tashkil qilish.
- D) Tadqiqot ob'ekti, hamkorlik asosidagi ilmiy fan sohasidir.

### **6.Kasbiy ta'limganing vazifalariga nimalar kiradi?**

- A) Talabalar bilimlarini chuqur egallahsga tibbiy, ta'limiylar yangicha yondoshuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga jooriy etish.
- B) Talabalar bilimlarini r egallahsga yondoshuvlarni ishlab chiqish.
- C) Inson shaxsining rivojlanishi nazariy-metodik masalalarini ishlab chiqish.
- D) Tarbiya qonuniyatları va printiplarini o'rganish.

### **7.Kasbiy pedagogikaning tarkibiyqismlarini belgilang?**

- A) O'quv-tarbiya jarayonining maqsadi, vazifalari, motivlari, mazmuni, vositalari, topshiriqlar
- B) Alovida o'qitish jarayoni
- C) Tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash jarayonlari.

D) O'qitish vao'quv-bilish jarayonlaridaniborat

**8. Madrasa so`zining ma`nosi .... Degan ma`noni anglatadi.**

- A) Dars o`qitiladigan joy
- B) Muassasa
- C) Bino
- D) Xonalar to`plami

**9.Kasbiy pedagogik fanlar tizimida innovatsiyaning kirib kelishini pedagogika qaysi fanlarning kirib kelishi bilan belgilandi:**

- A) Gendr pedagogikasi, Evristik pedagogika; Maxsus pedagogika; Androgogik pedagogika kabi fanlar
- B) Innovatsionpedagogika; Evristikpedagogika; Maxsus pedagogika; kabi fanlar;
- C) Pedagogikkompetentlik; Evristikpedagogika; kabi fanlar
- D) Kreativpedagogika; Maxsus pedagogika; Androgogikpedagogika kabi fanlar.

**10.Kasbiy pedagogika qanday fanlar bilan uzviy aloqada.**

- A) Falsafa, iqtisod, sosialogiya, etika, fizalogiya, psixologiya, tarix, madaniyatshunoslik.
- B) Matematika, fizika,kibernitika, tabobat
- C) Barcha aniq va tabii fanlar
- D) Tabiiy fanlar, ximiya, bialogiya, fizika , geografiya

**11.Kasbiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari.**

- A) Shaxs, ta'lim-tarbiya, bilim, ko'nikma, malaka , malumot, rivojlanish
- B) Ijyimoulashuv,tabobat, malaka,bilim.
- C) Sosialogiya, etika, fizalogiya, psixologiya.
- D) Falsafa, iqtisod, sosialogiya, etika.

**12.Kasbiy pedagogikaga hissa qo'shgan o'zbek olimlari.**

- A) N. A. Muslimov, Sh. S. Sharipov, Z. Koraboyeva, X. Rashidov, R.G.Isyanov. R.Axliddinov,U.I.Inoyatov.
- B) Nishonova S,J.Hasanboyev,O.Hasanboyeva, M.Xodjayeva.
- C) M.Axmedova, S.Nishonova, B.Xodjayev, Sh.Shodmonova
- D) Nishonova S,J.Hasanboyev .B.Xodjayev, Sh.Shodmonova

**13.Bilimlarni o'zlashtirish jarayonining tuzilishi .**

- A) Idrok etish, o'quv materialini anglab yetish, ma'lumotlarning nazariy jihatlarini ajratib olish, bilim, ko'nikma va malakalarni amaliy faoliyatda qo'llashdan iborat.
- B) Talabalar o'quv faoliyatini erkin tanlashdan, idrok etishdan iborat faoliyat jarayoni.
- C) O'quv materiali bilan dastlabki tanishish amalgaoshiriladi.
- D) Talaba o'quv masalasini yechish usulini tushunsa, bilimlar o'rtasidagi tizimni anglashdan iborat.

**14.Kasbiy ta'limning gnoseologik asoslari.**

- A) O'quv jarayonini mantiqiy qurilishi ta'lim mazmunining xususiyatlari va gnoseologik jihatlariga bog'liq. Gnoseologiya (yunoncha – «gnosis» («gnoseos»)- bilim, ong, o'rganish, logiya –fan, ta'limot) – bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatları, uslublari, ilmiy tafakkur shakllari, insonga xos bo`lgan borliqni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, ta'limot.
- B) Psixologik tadqiqotlar pedagogik nazariyani so'zsiz boyitadi. Bilim olish jarayonida shaxs rivojlanishining kechish jarayoni mohiyatini ochib beradi. Ammo faqat psixologik g'oyalar asosida gnosealogiya ta'lim mohiyatini yoritish pedagogik jarayonni bir tomonlama talqin etishga olib keladi.
- C) Konsepsiya tarafдорлари bilish yo`lini quyidagcha formulaasosida ifodalaydilar: jonli mushohadadan abstrakt fikrlashga vaabstrakt fikrlashdan amaliyatga.
- D) Ta'lim mazmunini tushunishga nisbatan psixologik ondashish bilimlarni o`zlashtirish va inson rivojlanishi borasidagi psixologik nazariyada ilgari surilgan g'oyalarga tayanadi.

**15. Ijtimoiy taraqqiyot tarixida insonning atrof-muhitni bilishi umumiyligiga va bosqchlariga Kasbiy ta'lim pedagogikasiga, asos slogan Sharq mutafakkirlari.**

- A) Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Kindiy, Abu Rayhon Beruniy Beruniy Abu Ali ibn Sino.
- B) Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Avloniy, Oybek, Kindiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Hofiz Kuykiy, Bobur.
- C) Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Avloniy, Oybek
- D) Kindiy, Abdulla Qodiriy,

**16. Abu Ali ibn Sinoning bilish nazariyasida qanday ta'limoti alohida o'ringa ega.**

- A) sabab
- B) natija
- C) oqibat
- D) ruhiyat

**17. Sabablarni aniq, sezish asosida anglanadigan va yashirin, tashqi holatlarini tahlil etish asosida tushuniladigan tabiblik amaliyoti, kasalliklarni ularning simptomlari bo`ycha va dorilar ta'sirini kuzatish asosida aniqlagan. Qaysi mutafakkir g'oyasi**

- A) Abu Ali ibn Sino
- B) Beruniy
- C) Forobiy
- D) Al Farg'oniy

**18. Talim jarayonini mohiyatini ilmiy asoslagan birinchi G'arb olimi.**

- A) Chex pedagogi Ya.A.Komenskiy XVII asrda ta'lim jarayonining mohiyatini, tamoyil va metodlari tabiat qonunlariga muvofiq belgilanishini ilmiy asosladi.
- B) XVIII asrda fransuz olimi Jan Jak Russo ham insonning tabiat va jamiyatdagi o'rni haqidagi falsafiy dunyoqarashlar asosida ta'lim mohiyatini ochib berishga urinib ko'rgan.
- C) XVII asrda yashagan Xorazmiy bilish nazariyasini yaratdi.
- D) XVIII asrda yashagan nemis olimi Gerbart ta'lim tamoyillarini asoslab berdi.

**19.“Pragmatizm pedagogikasi” yoki progressivizm qaysi davlatda, alohida rivojlandi.**

- A) AQShda
- B) Xitoyda
- C) Angilyada
- D) Fransiyada

**20. “Pragmatizm pedagogikasi” yoki progressivizm qaysi davlatda, alohida rivojlandi. yetakchisi qaysi olim mazkur ta'limotni ifodalashda pragmatizmning falsafiy g'oyalarini asos qilib oldi.**

- A) Djon Dyui
- B) Gerbart
- C) Pestalossiy
- D) Komenskiy

**21.Bilish va bilim inson o'z hayotida duch keladigan turli muammo yoki qiyinchiliklarni yengish vositasi hisoblanadi. Bilim yashashuchun kurash vositasi va shaxsning rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. Bu fikrlar qaysi olimga tegishli.**

- A) Djon Dyui
- B) Ibn Sinoga.
- C) Komenskiyga
- D) A.Navoiyga

**22.“Harakatlar pedagogikasi” konsepsiysi ko`p jihatdan falsafiy (pragmatizm) va psixologik qarashlarining oqibati hisoblanadi. Uning mualliflari, reformatorlardan biri nemis pedagogi bilim olish jarayonida ko`zga tashlanuvchi quyidagi uch bosqchni ko`rsatadi: idrok etish, qayta ishlab chiqish, ifoda etish.**

- A) Dj. Dyuining va Vilgelm Avgust Lay (1862-1926 yillar)
- B) L.S.Vigotskiy va Komenskiy
- C) Gegel va L.S.Vigotskiy
- D) Komenskiy Dj. Dyuining

**23. Hamkorlik pedagogikasini novator-pedagoglari.**

- A) Sh.A.Amonashvili, S.N.Lisenko, I.P.Volkov, V.F.SHatalov, E.N.Ilin

B) L.S.Vigotskiy, Komenskiy,Dj. Dyuining , Vilgelm Avgust Lay.

C) Gegel, L.S.Vigotskiy, E.N.Ilin

D) V.F.SHatalov, E.N.Ilin, Komenskiy,Dj. Dyuining , Vilgelm Avgust Lay.

**24.O`qituvchi va talabalar o`rtasida insonparvarlik tamoyiliga asoslangan o`zaro munosabatlari tashkil etishini ta'kidlab o`tadilar. Hamkorlik pedagogikasi uchun konseptual ahamiyatga ega qoidalari qaysi pedagog olimar qarashlarida o`z ifodasini topgan.**

A) A.Avloniy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, Pestalosi,

B) J.J.Russo, Ya.Korchak, K.Rodjers

C) A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, Pestalosi,

D) Beruniy, J.J.Russo, Ya.Korchak, K.Rodjers

**25.Kasbiy ta'limning zamonaviy qonuniyatları va tamoyillari to'liq izohlangan qator.**

A) Didaktik qonuniyatlar. Gnoseologik qonuniyatlar. Psixologik qonuniyatlar. Kibernetik qonuniyatlar. Sotsiologik qonuniyatlar. Tashkiliy qonuniyatlar.

B) Psixologik qonuniyatlar. Kibernetik qonuniyatlar. Sotsiologik qonuniyatlar. Tashkiliy qonuniyatlar

C) Kibernetik qonuniyatlar. Sotsiologik qonuniyatlar. Tashkiliy qonuniyatlar

D) Kibernetik qonuniyatlar. Sotsiologik qonuniyatlar. Tashkiliy qonuniyatlar

**26.Didaktikaning mazmun mohiyatini izohlang.**

A) Didaktika ta'lim nazariyasi: ta'limning nazariy jihatlari ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatları, o`qituvchi va talaba faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolarni o`rganuvchi fan.

B) Ta'limmga faqat individual yondashadigan fan.

C) Faqat tarbiya jarayonini ularning yaxlitligi va birligi asosini o`rganadigan tarbiyaviy fan.

D) Inson faoliyatning mohiyatini aniq bayon etishuchunmo'ljallangan ijtimoiy fan

**27.Didaktikaning asosiy vazifalari nimalardan iborat:**

A) Ta'lim jarayonlari va ularni amalga oshirishshartlarini ta'riflash va tushuntirish, ta'lim jarayonini yanada mukammal tashkil etish, ya'ni, ta'lim tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish, ta'lim jarayoni uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash, omillarini tahlil qilish va ilmiy asoslash.

B) Didaktika turli ijtimoiy fanlar o`rtasidagi bog`liqliklar, ularning mohiyatini ochib berish, rivojlanish tendensiyalari va kelajagini aniqlashdan iboratdir.

C) O`zlashtirilgan nazariy bilimlar ta'lim amaliyotini yo`naltirish, ta'limini jamiyat tomonidan qo`yilayotgan ijtimoiy talablarga muvofiq takomillashtirishga imkon beradi.

D) Ta'lim mazmunini anglab olish, tashkiliy-texnologik vazifani bajaradi.

## **28.Didaktikaga xos bo'lgan tushunchalar**

- A) “Idrok etish”, “o`zlashtirishi”, “mahorat”, “rivojlanish” va boshqalar psixologiya hamda “boshqarish”, “qayta aloqa” kibernetika kabi turdosh fanlarga xos bo'lgan tushunchalarda ham qo'llaniladi.
- B) Talabalarni kelajakka tomon undash. Tibbiy ta'lim muassasalaridagi talabalar hayolidagi shaxsiy kelajagini ko'rishga va unga tayyor bo'lishga undash.
- C) Ta'lim jarayonlari va ularni amalga oshirishshartlarini ta'riflash va tushuntirish, ta'lim jarayonini
- D) Barcha javoblar to'g'ri.

## **29.Didaktik nazariya (konsepsiya)lar va ularning falsafiy asoslari.**

- A) Didaktik tizim yunoncha «systema» – yaxlit qismlardan tashkil topgan, birlashtirish – ma'lum mezonlari asosida ta'lim jarayoning yaxlit holatini belgilash, ajratib ko'rsatish demakdir. ta'limning maqsadi, tamoyillari, mazmuni, shakli, metod va vositalarining birligi asosida tashkil etilgan tuzilmalarning iichki yaxlitligini ifodalaydi. 1. an'anaviy; 2 progressiv; 3 zamonaviy.
- B) Yyunoncha «systema» – yaxlit qismlardan tashkil topgan, birlashtirish – ma'lum mezonlari asosida ta'lim jarayoning yaxlit holatini belgilash.
- C) Ta'limning maqsadi, tamoyillari, mazmuni, shakli, metod va vositalarining birligi asosida tashkil etilgan tuzilm.
- D) Ma'lum mezonlar asosida ta'lim jarayoning yaxlit holatini belgilash,

## **30.Ta'lim nazariyasining asoschilari**

- A) Ya.A.Komenskiy, I.Pestallosi va I.Gerbart.
- B) D.Dyui, G.Kershteynn, V.Lay.
- C) N.Krauder, B.Skinner, L.V.Zankov.
- D) G.Kershteynn, V.Lay, L.V.Zankov.

## **31.Zamonaviy pedagogikada ta'lim paradigmalari**

- A) An'anaviy – konservativ paradigma (bilim paradigmasi).Rasionalistik (bixevoiristik) paradigma. Fenomenologik (gumanistik) paradigma. Texnokratik paradigma. Ezoterik paradigma.
- B) Texnokratik paradigma. Ezoterik paradigma.
- C) Fenomenologik (gumanistik) paradigma. Texnokratik paradigma. Ezoterik paradigma.
- D) Rasionalistik (bixevoiristik) paradigma. Fenomenologik (gumanistik) paradigma.

## **32.Didaktikaning asosiy kategoriyalari nechta.**

- A) 14 ta
- B) 8 ta.
- C) 10 ta.
- D) 12 ta.

### **33. Bilim olishning an'anaviy paradigmasi (modeli) mualliflari**

- A) J.Majo, L.Kro, J.Kapel va boshqalar.
- B) Komenskiy, R.Gane, B.Skinner
- C) R.Tayler, R.Gane, B.Skinner
- D) Komenskiy, . R.Tayler, J.Kapel

### **34. An'anaviy – konservativ paradigma (bilim paradigmasi) ning bosh g'oyasi, maqsadi.**

- A) Qiyin bo'lsada o'zlashtirishshart.
- B) Ananaviy malaka talabi.
- C) Dars mashg'ulotlariga erkin qatnash.
- D) O'zlashtirish malaka talabi.

### **35. Rasionalistik (bixevoiristik) paradigma asoschilari va g'oyasi**

- A) B.Blum, R.Gane, B.Skinner va boshqalar. Rasionalistik paradigma diqqat markazida ta'lim mazmuni emas, balki talabalar tomonidan turli bilimlarni o'zlashtirilishini ta'minlovchi samarali usullari yotadi. Ta'limning rasionalistik modeli asosini B.Skinerning ijtimoiy injeneriya bixevoiristik (inglizcha *behavior - xulqi*) konsepsiysi tashkil qiladi.
- B) (A.Maslou, A.Kombs, Ta'limning maqsadi – talabalarda g`arb madaniyati ijtimoiy qoidalari, talablari va ko`zlagan maqsadlariga mos keladigan moslashtiruvchi "xulqiy repertuar"ni shakllantirish.
- C) K.Rodjers, L.S.Vigodskiy bilim olish paradigmasining asosiy maqsadi: ta'lim olish, taraqqiyot va madaniyatning eng muhim elementlarini avloddan-avlodga yetkazish.
- D) A.Maslou, A.Kombs, Ular shaxsni rivojlantirish maqsadida uni Shaxslararo munosabatlar jarayoniga yo`naltiradi.

### **36.Qaysi mamlakatlarning ta'lim tizimlari tajribasi rasionalistik (bixevoiristik) paradigma g'oyaligiga muvofiq ish ko`rliganda 70 % talabalar yuqori natijalarni qayd etganliklarini ko`rsatadi.**

- A) Avstriya, Belgiya, AQSh va boshqa.
- B) Germaniya,Fransiya, Angliya
- C) Rossiya,Xitoy,Fransiya .
- D) Fransiya, Angliya ,Germaniya.

### **37.Ta'lim tushunchasi**

- A) Talabalarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko`nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo`naltirilgan jarayon.
- B) Davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

- C) O'qituvchi va talabalar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.
- D) Barcha javoblar to'g'ri.

**38.Kasbiy ta'limni rivojlantirishda bugungi kunda O'zbekistonda xorijiy oily ta'limlar nechinchi yillardan faoliyat yuritmoqdalar.**

- A) 1995 yil
- B) 1997 yil.
- C) 2001 yil
- D) 2008 yil

**39.O'zbekistondagi xorijiy oily ta'limning vazifasi nimalardan iborat.**

- A) Mustaqil Respublikamizda xorijiy oliy ta'limni vazifasi jahon talablari darajasida yangilanib borayotgan jahon standartlari darajasidagi kadrlarga tenglasha oladigan, mamlakatimizni buyuk davlat darajasnga ko'taradigan mutaxassislarni tayyorlash, va bu jarayonda asosiy omil sifatida beriladigan axborotlar hajmini emas, balki ijodiy yondoShuvni shakllantirishdan iborat
- B) Beriladigan axborotlar hajmini emas, balki ijodiy yondoshuvni shakllantirishdan iborat
- C) Kadrlarga tenglasha oladigan, mamlakatimizni buyuk davlat darajasnga ko'taradigan mutaxassislarni tayyorlash.
- D) Mustaqil Respublikamizda xorijiy oliy ta'limni vazifasi jahon talablari darajasida yangilanib borayotgan jahon standartlari darajasidagi kadrlarga tenglasha oladigan, mamlakatimizni buyuk davlat darajasnga ko'tarish.

**40.Tibbiy oliy ta'lim talablari nimalarda o'z aksini topadi.**

- A) O'qishi hamda rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish jarayoni tizimli amalga oshirish, tibbiy oily ta'lim muassasalarida mediatexnologiyalar asosida ta'lim berish, kasbiy ta'lim mezonlarini ishlab chiqish, kasb ta'limi muassasalari turlarini va ularni boshqarishni tizimli asoslashda o'z aksini topadi.
- B) Kasbiy pedagogik nazariyalar to'g'risidagi bilimlarni, innovation texnologiyalarni loyihalash uslublarini umumlashtiradi. Kasbiy ta'limni rivojlantirish pedagogikasi fani insonni kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'z aksini topadi.
- C) Kasbiy ta'limni rivojlantirishda , kasbiy pedagogika fani jahon miqyosida tan olingan eng ilgor metodlar va yo'nalishlar bilan boyib borishda o'z aksini topadi..
- D) Bugungi kunda o'zining keng tadbiqini kutib yotgan, fanning boshqa sohalari bilan bog'liq ravishda ishlab chiqilgan yangi konsepsiylar va nazariyalar rivojlantirishda o'z aksini topadi.

**41.O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuniga yangi o'zgarishlar kiritilishi qachon bo'ldi.**

- A) 2020 yil 5 avgust

- B) 2019 yil 4 avgust
- C) 2020 yil,16 mart.
- D) 2020 yil 5 fevral.

**42.Kasbiy pedagogik faoliyatda 2 asosiy yo‘nalish mavjud.**

- A) Bu faoliyat o‘qituvchining kundalik, o‘quv va tarbiyaviy ishlariga, o‘qituvchi va talaba orasidagi o‘zaro munosabatga, ta‘lim-tarbiya ishlarida talabaning bilim, malaka va ko‘nikmalariga bog‘liqdir.
- B) Ta‘lim-tarbiya ishlarida talabaning bilim, malaka va ko‘nikmalariga bog‘liqdir.
- C) o‘qituvchi va talaba orasidagi o‘zaro munosabatga, ta‘lim-tarbiya ishlarida talabaning bilim, malaka va ko‘nikmalariga bog‘liqdir.
- D) Malaka va ko‘nikmalarga bog‘liqdir.

**43.Nogironligi bor shaxslar o‘qishi uchun qaysi pedagogika xizmat qiladi.**

- A) Maxsus pedagogika
- B) Tibbiy pedagogika
- C) Ijtimoiy pedagogika
- D) Umumiy pedagogika

**44. Rivojlangan xorijiy davlatlar ish tarjribasini o‘rganib amaliyotga tadbiq etish va jahon mamlakatlari ta‘lim-tarbiya tizimlari asosini qaysi pedagogika fani o‘rganadi.**

- A) Qiyosiy pedagogika.
- B) Ijtimoiy pedagogika
- C) Tibbiy pedagogika.
- D) Maxsus pedagogika.

**45.Ilg‘or pedagogik tajribani belgilovchi mezon nima?**

- A) O‘qituvchiga qo‘yilayotgan metodik, didaktik, pedagogik talablar.
- B) Uzluksiz oily ta‘lim mazmunining takomillaShuvi.
- C) Yaratilayotgan o‘quv manbalarining mazmun va sifat jihatdan yuksak darajada bo‘lishi.
- D) Kasbiy ta‘lim mazmunini kasbiy pedagogika fanlari ijtimoiy-madaniy hayot bilan bevosita bog‘liqligi.

**46. Kasbiy pedagogika .....pedagogika fanning tarmog‘i sifatida kasbiy - texnik ta‘lim tizimining takomillashishi jarayonida shakllanib boradi.**

**Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zni qo‘ying.**

- A) umumiy
- B).maxsus
- C) ilmiy
- D)...oliy

**47.Rivojlangan xorijiy qaysi davlatida kasb ta‘limining yangi tizimi ishlab chiqildi.**

- A) Buyuk Britaniyada
- B) Angliyada.
- C) Germaniyad.
- D) Yaponiyada.

**48. Tibbiyot sohasidagi birinchi doktorlik diplomini stomatologiya, veterinariya sohalari bo'yicha olishuchun esa 8 yillik ta'lim joriy qilingan davlat.**

- A) AQSh.
- B) Germaniya.
- C) Fransiya.
- D) Rossiya.

**49. Oliy ta'limning fransuz modeli Fransiyadan tashqari qaysi davlatlarga joriy etilgan.**

- A) Belgiya, Shveysariya, Avstriya, Norvegiya.
- B) Rossiya, Germaniya, Belgiya.
- C) AQSh, Yaponiya va Fransiyada
- D) Yaponiya va Fransiya, Avstriya.

**50. Kasbga o'qitishda ta'lim oluvchi Shaxstushunchasi talqini.**

- A) Kasbga o'qitishda ta'lim oluvchi shaxstushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lган jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi.
- B) Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishis.
- C) Kasbga o'qitishda ta'lim oluvchilar shaxsi davlat ta'lim siyosatida insonni intellektual va ma'naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishi
- D) O'z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilishi.

**51. "Individ" so'zi izohlangan tog'ri javob.**

- A) Individ lotincha "individium" so'zidan olingan bo'lib «bo'linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma'nolarini anglatadi. Xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir. Bola ma'lum yoshga qadar "individ" sanaladi .
- B) Individ inglizcha "individium" so'zidan olingan bo'lib «ko'p», «birga», «katta» ma'nolarini anglatadi. Xatti-harakatlarini aqliy refleks yordamida tashkil eta oluvchi buyuk inson.
- C) Individ arabcha "individium" so'zidan olingan bo'lib «yosh», «yetuk», «ilmli» ma'nolarini anglatadi. Harakatlarini erkin tarzda tashkil eta oluvchi komil inson.

D) Individ ruscha “individuum” so’zidan olingan bo’lib «ilmli», «yetuk», «barkamol» ma’nolarini anglatadi. Harakatlarini erkin tarzda tashkil eta oluvchi komil inson.

**52. Shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga qanday qonuniyatlar birgalikda ta’sir etadi.**

- A) biologik va ijtimoiy
- B) Ilmiy va falsafiy.
- C) Ta’limiy-tarbiyaviy
- D) tibbiy-kasbiy.

**53. Kasbga o’qitishda ta’lim oluvchilar shaxsi tarbiyasiga ta’sir etuvchi omillar.**

- A) Bialogik, ijtimoiy, maqsadli tarbiya.
- B) Ta’limiy,ixtiyoriy, tarixiy.
- C) Tarbiyaviy, ilmiy, falsafiy.
- D) tibbiy,falsafiy, ta’limiy.

**54. Fanda biologik yo`nalish deb nomlangan yondaShuv nazariyotchilari va yunalishlari.**

- A) Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo`yadi.
- B) Komenskiy,Volkov talimiyy-bialogik omillarni yuqori qo`yadi
- C) Ibn Sino va Suqrot. Tibbiy -bialogik omillarni yuqori qo`yadi
- D) Demosfeen,Gerbart kasbiy ta’limiy omillarni yuqori qo`yadi.

**55. Kasbga o’qitishda ta’lim oluvchilar shaxsiga ta’sir etuvchi pedagogik va psixologik holarlar.**

- A) Psixologik holatda shaxstushunchasi bola menligin anglaganda, pedagogik holatda kamolot darajasiga yetganda tarbiyaning 12 turini bosib o’tganda shaxs darajasiga yetadi.
- B) Shaxs bola menligini bilgandan u pedagogik-psixologik holatda mukammal shaxsga aylanadi.
- C) Shaxs degan tushunchaga ega emasman, bu fikrlar ilmiy asoslanmagan.
- D) Psixologik holatda shaxstushunchasi o’zini anglaganda, pedagogik holatda yetuk darajasiga o’tganda shaxs darajasiga yetadi.

**56. Faoliyat o`zi nima? U necha xil bo’ladi.**

- A) Faoliyat shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko`rinishi. O’yin, o’qish, mehnat faoliyatlari mavjud.
- B) Kasbiy harakatlarning muayyan shakli.Ilmiy, tarbiyaviy,tarixiy.
- C) Hayotni maqsadsiz tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli.Falsafiy,Tarixiy, kasbiy.

D) Faoliyat ota -ona tomonidan undovchi hatti-harakat.Faoliyatli, menatsevarlik,ta'limiy.

**57. Faoliyatning asosini ..... tashkil etadi.**

Nuqtalar o'rniga kerakli so'zni qo'ying

- A) muloqot
- B) mehnatsevarlik
- C) hissiyotga berilish
- D) bosiqlik.

**58. Rivojlanishning yosh va o`ziga xos xususiyatlari.**

A) Muayyan bir yosh davriga xos bo`lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlari yosh xususiyatlari deb ataladi.

B Ko`rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma

C) Bolalarning tarbiyasiga to`g`ri yondashish.

D) Yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiyani tashkil etish.

**59.Temperament so`zining izohli tavsifi.**

A) Lotincha «temperamentum» «qismlarning bir-biriga munosabati» ma'nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

B ) Ingilizccha «temperamentum» «bir birini hurmat qilish» ma'nosini anglatib, Shaxsning tipologik xususiyatlari majmuidir.

C ) arabcha «temperament» «talantli,qobilyatli » ma'nosini anglatib, shaxsning pedagogic yetuklik majmuidir.

D ) ruscha «temperament» «harakat va holat » ma'nosini anglatib, Shaxsning bialogik majmuidir.

**60. Davrlashtirish hechta guruhga bolib o'rganiladi.**

A) 5 davrga bolib o'rganiladi.

B) 7 davrga bolib o'rganiladi.

C) 4 davrga bolib o'rganiladi.

D) 2 davrga bolib o'rganiladi.

**61.Intellektual rivojlanish nima. U qanday nomoyon bo'ladi.**

A) tafakkur qobiliyati, aqliy faoliyatni yuqori saviyada tashkil etishni talab etadi, bilishga qiziqishi ortadi. Bu davrda to`garaklar, studiya, seksiya, turli tadbirlar o'tkazish katta ahamiyatga ega. Ularning kitob o`qishga qiziqishi ortadi.

B) O`z-o`zini anglash, baholash, tarbiyalashshakllanadi. U o`zini boshqalar bilan solishtira boshlaydi. Taqlidchanlik shakllanadi, o`qishga ishtiyoqi so'nadi.

C) Yig`loqi bo'ladi, hamma bilan urishib yuradi.Hatti-harakati samarasiz bo'ladi.

D) O`smir xarakterida murakkab qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi.

**62.Kasb ta'limi o'qituvchisi shaxsiga qo'yiladigan talablarni aniqlang?**

A) O'quvchilarni kasb-hunarga qiziqtira bilishi, mehnat ta'limi ilmiy asosda tashkil etishi, pedagogik mahorati va o'z fanini yaxshi bilishi

- B Bilimlarni o'quvchiga etkaza bilishi, o'z fanini yaxshi bilishi  
C) Tashkilotchilik malakalarining mavjudligi, katta obro'ga egalik, yuksak g'oyaviylik va onglilik darajasining mavjudligi  
D) O'qitishga ijodiy yondoshuvi, bolalarga muhabbat

**63.Kasbiy ta'linda tarbiyaviy ishlar mohiyati. Tarbiya nazariyasi tavsifi.**

A) Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining muhim tarkibiy qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

B) Tarbiya g'oyasi turlcha ifodalangan bo'lsada, ammo yo'naltiruvchanlik xususiyati hamdaob'ektiga ko'ra yakdillikni ifodaetadi

C) Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyati turlcha bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan.

D) ta'lif nazariyasi hamda xalq ta'limi tizimini boshqarish bilan uzviy bog'liq.

**64.«Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot - yo falokat, yo saodat – yo halokat masalasidur». Ushbu fikrlar qaysi ma'rifatparvar olimga tegishli.**

- A) A.Avloniy  
B) S.Ayniy.  
C) M.Behbudiy  
D) Fitrat.

**65.Tarbiya jarayoni tavsifi nechta turdan iborat.**

- A) 6 ta.  
B) 4 ta  
C) 8 ta  
D) 5ta.

**66.Tarbiya jarayonining natijasi tavsifini izohlang.**

A) Tarbiyaning natijasi yuksak ma'naviy vaaxloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalashdir. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib, uyushtirish va rahbarlik, shuningdek, talaba shaxsining o'zi tomonidan faollik ko'rsatilishini taqozo etadi. Bu jarayonda pedagog yetakchi rol o'ynaydi.

B) O'z-o'zini qayta tarbiyalash shaxsning o'zidagi salbiy odatlar, xarakteridagi zararli sifatlarni yo'qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyatini jarayonidir.

C) Shaxsining qaror topishi oila, ta'lim muassasasi, jamoatchilik, ijtimoiy muhit, shuningdek, vaziyatlar xilma-xilligi, bevosita va bilvosita ta'sirlar ostida ro'y beradi.

D) o'zida ijtimoiy qadrga ega bo'lgan fazilatlarni hosil qilish va takomillashtirishga hamda salbiy xislatlarni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyat

## **67.Ijtimoiy tarbiyaning asosiy vazifalari.**

- A) Ijtimoiy tarbiyani tashkil etish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Ushbu vazifalar ijtimoiy tarbiya maqsadidan kelib chiqib belgilanadi hamda tarbiyaning 12 turini o'zida mujassamlashtiradi.
- B) O'zida ijtimoiy qadrga ega bo'lgan fazilatlarni hosil qilish va takomillashtirishga hamda salbiy xislatlarni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyat.
- C) Talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyatidan ogoh etish, chuqr bilim va tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash, ularning ongini boyitish.
- D) Tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasidagi mas'uliyatni tarkib toptirish;

## **68.Tarbiya tamoyillari tavsifi.**

- A) Tarbiya mazmunidaoldinga qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda sifatlari mohiyati aks etadi. Tarbiya mazmuni shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat .
- B) mazkur talab unilsa, shaxsni tarbiyalash qiyinlashadi yoki barcha urinishlr samarasiz yakun topadi. Mana shundan tarbiya jarayonining yana bir xususiyati – tarbiyada qarama-qarshilikning mavjudligi kelib chiqadi.
- C) Ushbu qaram-qarshiliklar talabalarga o'z tushunchalariga muvofiq paydo bo'lgan dastlabki sifatlar o'rtasida yoki talabalarga qo'yiladigan talablar bilan ularni bajarish imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlarning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi.
- D) Shaxslar va kattalarning birgalikdagi faoliyati.

## **69.Tarbiyaga berilgan ta'rif.**

- A) Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajribaasosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni bo'lib, har qanday tuzum va zamonda ijtimoiy munosabatlar mazmunini aniqlash, ularni tashkil etish asosi bo'lib kelgan.
- B) Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarining yosh xususiyatlarini inobatgaolish maqsadga muvofiqdir.. Biroq har bir bosqchda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.
- C) Yosh xususiyatlari muayyan bir yosh davrigaxos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlardir.
- D) Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ch ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarda ham shakllantirish mumkin.

## **70.Tarbiya metodi haqida berilgan tavsif.**

- A) Tarbiya metodi unoncha «metodos» – aniq bir maqsadga qaratilgan yo'l tarbiya maqsadiga erishishning yo'li, tarbiyalanuvchilarining ongi, irodasi, tuyg'ulari vaxulqiga ta'sir etish usullari. Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga

- bironta tarbiyachining kuchi yetmaydi. Metodlarni takomillashtirishtirafdi.
- B) Tarbiya maqsadi va mazmuni metodlarni to`g`ri tanlashga imkon beradi. Maqsad qanday bo`lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo`lishi zarur.
- C) Metodning samaradorligini u qo`llanilayotgan sharoit nuqati nazaridan baholash mumkin. Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog`liq.
- D) Metodning ijobiy va salbiysi bo`lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo`lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Tarbiyaning mazmuni shaxsning shakllanishiga qo`yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat.

**71. Tarbiyaning nechta turi mavjud.**

- A) 12ta
- B) 7ta
- C) 9ta.
- D) 8 ta.

**72. Tarbiya metodlari nechta.**

- A) 3 ta
- B) 7ta
- C) 6ta
- D) 4 ta

**73. Xalq pedagogikasida tarbiya metodlari nechta.**

- A) 5ta.
- B) 8ta.
- C) 3 ta.
- D) 2ta.

**74. Jahon pedagogik fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqchi ta'limni tashkil etishga o`z ta'sirini o`tkazadi.**

- A) Ayni vaqtida ta'limning qaysi shakllari ajratib ko`rsatiladi: individual, individual-guruhli, guruh-dars, leksion-seminarli va guruhdan tashqari, auditoriyadan tashqari.
- B) Ular talabalarni qamrab olishi, talabalar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari.
- C) Mustaqilligi darajasi va o`qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko`ra
- D) Individual ta'lim o`qituvchining yuqori pedagogik malakaga ega bo`lishini talab etadi.

**75. Kasbiy ta'limni tashkil etishshakllari va ularning didaktikada rivojlanish qaysi tizim yuqori samaradorlikka ega.**

- A) Guruh-dars tizimi garchi 350 yil avval asoslangan bo'lsada, bugungi kunda ham keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda. Guruh-dars tizimining mazmuni o'quv ishlarini tashkil etish o'ziga xos shakli sifatida, mashg'ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi;
- B) o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'ycha individual ishlarni tashkil etish.
- C) talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olishdga qiyinchilikning yuzaga kelishi; katta va kchik yoshli talabalar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.
- D ) ana'anaviy tizim, quyidagilarda iborat, bir xil yoshdagi va taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan talabalar guruhnini tashkil etadi.

#### **76.Ta'lism Shakllari necha guruhgaga bo'lib o'rganiladi.**

- A) 3 guruhgaga An'anaviy, nofn'fnfviy, individual ta'lism shakllariga bo'linadi.
- B) 2 guruhgaga Individual va noan'anaviy individual ta'lism shakllariga bo'linadi.
- C) guruhgaga Talimiy, tizimli, individual, jamoa ta'lism shakllariga bo'linadi.
- D) tizimning asosan bilimlarni o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi talabalar uchun mo'ljallanganligi guruhlarga bo'linmaydi.

#### **77. XIX asr oxiri XX asr boshlarida, aqliy rivojlanishida farqi bo'lgan talabalarni o'qitishda individuallashtirishga ahamiyat qaratish masalasi ayniqsa dolzarb bo'lgan. Tavsifi, shunga mos ravishda tanlab o'qitishshaklini birinchi bo'lib fanga joriy etgan inson.**

- A) 1905 yili Dalton shahrida (Massachusetts shtati) o'qituvchi Elena Park Xerst tomonidan birinchi bor qo'llanilgan ta'limning individuallashtirilgan tizimi ular orasida eng radikal hisoblangan. Bu tizim dalton-reja nomi bilan kasbiy pedagogika va maktab tarixiga kirdi. U ba'zan laboratoriya yoki ustaxonalar tizimi deb ham ataydilar.
- B) Lyuyd Tramk ishlab chiqqan. O'qitishni tashkil etishning bu shakli katta auditoriyalarda (100-150 odam) mashg'ulotlarni, 10-15 kishilik guruhlarda va talabalarning individual ishlarini birgalikda olib borishni taklif etadi.
- C) Yan Amos Komenskiy ishlab chiqqan va amaliyatga tafbiq etgan.
- D) Uni amerikalik U.Kilpatrick ishlab chiqqan. O'qitish bu tizimining mazmuni talabalarning o'zları loyiha ishlari mavzuni tanlab olishlaridan iborat.

#### **78.Darsda talabalar o'quv faoliyatini tashkil etish zamonaviy shakllarining turlari.**

- A) Pedagogik adabiyotlar va maktab amaliyotida asosan uchta shunday shakllari qabul qilingan – ommaviy, guruhli va individual.
- B) Birlashtirish-guruhli shaklida guruhnini odatda katta umumiyl topshiriqni har biri faqatgina bir qismini bajaradigan guruhlarga ajratishni ko'zda tutadi.

- C) Differensiyalashgan-guruqli shakli doimiy guruqlar ham, bir xildagi o'quv imkoniyatlariga ega.
- D) Ta'limning ommaviy shakli ham, guruqli shakli ham jamoaviy hisoblanmasada, lekin ayrim pedagoglar ularni ommaviy ta'lim deb ko'rsatishga harakat qiladilar.

**79. Kasbiy ta'limni tashkil etishning asosiy shakli.**

- A) Dars mashg'uloti.
- B) mustaqil ish.
- C) Uyga vazifa.
- D) O'z ustida ishslash.

**80. Nostandard darsga berilgan tavsif.**

- A) Nostandard dars an'anaviy tuzilishdagi improvizasion o'quv mashg'ulotidir. Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish nostandard darslarning o'nlab turlari mavjudligini ko'rsatdi.
- B) O'qituvchining darsga tayyorgarligida quyidagi uchta bosqch ko'zga tashlanadi: tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish.
- C) Didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir.
- D) Darsga tayyorgarlik asosini bo'lajak mashg'ulning algoritmlari, samaradorligi bog'liq bo'lgan omillar va holatlarni hisobga olishni ta'minlovchi jarayon.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyunъ “Oliy ta’lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

10. Usmonov B.Sh., Habibullaev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T. “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.

- 21.Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obyestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
- 22.Xasanboev J, To'rakulov X., Xaydarov M., Xasanboeva O. Pedagogika fanidan izoxli lug'at. — T., 2008.
- 23.Niyozov G., Axmedova M. E. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. — T.: Noshir, 2011.
- 24.Axmedova M.E. Pedagogika nazariyasi va tarixi ( O'quv qo'llanma) — T.: Tafakkur bo'stoni, 2011.
- 25.Umarova M.X. Teoriya iistoriya pedagogiki. (Uchebnoe posobiya). — T.:Chulpon, 2018.
- 26.Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashxur siymolar, allomalar, adiblar). - T., 1999.
- 27.Ismoilova Z. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. — T., 2001.
- 28.Slastenin V.A., Isaev I. F., SHiyanov E. N. Obshchaya pedagogika (Uchebnoe posobiya). — M., 2003.
- 29.Podlaslyu I. P. Pedagogika. V 2-x kn. (Uchebnoe posobiya). — M., 2003.
- 30.M.X.Toxtaxodjaevaning umumiyl tahriri ostida. Pedagogika **darslik**.T.: O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
- 31.Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. Darslik. — “A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi 2001.
- 32.Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi.**O'quv qo'll.** — T.:O'qituvchi 1996.
- 33.Sh.S.Shodmonova, M.E.Axmedova va boshalar. Umumiyl pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2019.
- 34.Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. Darslik. - T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.

#### IV. Internet saytlar

- 35.<http://> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi

36. <http://lex.uzz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
37. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
38. <http://ziyoneyt.uz> – Ta’lim portalı ZiyoNET
39. <http://tma.uz> – Toshkent tibbiyat akademiyasi huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi.
40. <https://minzdrav.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi rasmiy sayti
41. <http://www.sochrane.org> – Xalqaro Koxran hamkorlik jamiyatı
42. <http://osdm.org> – Dalillarga asoslangan tibbiyat mutaxassislari jamiyatining Moskva bo‘limi sayti
43. <http://www.ncbi.nlm.nih.gov/> Pub Med - Medline ma’lumotlar bazasida tibbiy ma’lumotlarni qidirish uchun mo‘ljallangan universal tizimi – AQSH Milliy tibbiy kutubxonasining elektron resurs bazasi
44. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
45. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
46. [www.Edu.uz](http://www.Edu.uz)

# MUNDARIJA

Kirish .....	3
--------------	---

## I BOB. KASBIY PEDAGOGIKA FANINING ASOSLARI

1.1. Kasbiy pedagogika fanining asoslari .....	5
1.2. Kasbiy pedagogika fanining vazifalari .....	6
1.3. Kasbiy pedagogika fanining asosiy kategoriyalari .....	6
1.4. Kasbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi .....	7
1.5. Kasbiy pedagogika fanlari tizimi .....	8
1.6. Kasbiy pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari .....	9
1.7. Pedagoglik kasbi, uning paydo bo'lishi va ravnaq topishi .....	14

## II BOB. KASBIY TA'LIM JARAYONI

2.1. Kasbiy ta'lismazmuni .....	17
2.2. Kasbiy pedagogik ta'limgunlari .....	18
2.3. Kasbiy ta'limgunlari .....	22
2.4. Kasbiy pedagogik ta'limgunlari va tamoyillarining shakllanish tarixi .....	29
2.5. Kasbiy pedagogik ta'limgunlari .....	30
2.6. Kasbiy pedagogik ta'limgunlari .....	32

## III BOB. KASBIY TA'LIM MAZMUNI

3.1. Kasbiy ta'lismazmuni va didaktika .....	37
3.2. Zamonaviy pedagogikada ta'limgunlari .....	41
3.3. Didaktikaning asosiy kategoriyalari va didaktik tushunchalar tizimi .....	43

## IV BOB. KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJUY TAJRIBALARINI QO'LLASH

4.1. Kasbiy ta'limgunlari rivoyeltirishda olib borilayotgan ishlar .....	47
4.2. Rivoyeltirishda xorijiy davlatlardagi ta'lismazmuni .....	52

## V BOB. KASBGA O'QITISHDA TA'LIM OLUVCHILAR SHAXSI

5.1. Ta'limgunlari shaxslarning pedagogik xususiyatlari .....	57
5.2. Kasbga o'qitishda ta'limgunlari shaxsi tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar .....	58
5.3. Kasbga o'qitishda ta'limgunlari shaxsi. Shaxsning ijtimoyilashuvi .....	64

## VI BOB. KASBIY TA'LIMDA TARBIYAVIY ISHLAR MOHIYATI

6.1. Tarbiya jarayonining mazmuni. ....	67
6.2. Tarbiya jarayonining natijasi. ....	69
6.3. Ijtimoiy tarbiyaning asosiy vazifalari. ....	70
6.4. Tarbiya tamoyillari. ....	72
6.5. Tarbiya qonuniyatlari ....	73
6.6. Tarbiyaning maqsad vazifalari va usullari. ....	76

## **VII BOB. KASBIY TA'LIM USULLARI, SHAKLLARI VA VOSITALARI**

7.1. Kasbiy ta'lism usullarining rivojlanish tarixi .....	83
7.2. Ta'lism pedagogik tizimlarining rivojlanish tendensiyasi. ....	85
7.3. Ta'lismni tashkil etishshakllari va ularning didaktikada rivojlanishi. ....	86
7.4. Darsda talabalar o'quv faoliyatini tashkil etish zamonaviy shakllarining turlari. ....	90
7.5. Dars mashg'uloti- ta'lismni tashkil etishning asosiy shakli. ....	91
7.6. Ta'lism metodlarining mohiyati va mazmuni. ....	104

## **VIII BOB. KASBIY TA'LIMDA ZAMONAVIY DARS TURLARI. TALABALARING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH**

8.1. Kasbiy ta'limga zamonaviy dars turlari .....	111
8.2. Darsda talabalar o'quv faoliyatini tashkil etish zamonaviy shakllarining turlari. ....	114
8.3. Dars mashg'uloti- ta'lismni tashkil etishning asosiy shakli. ....	116

## **IX BOB. O'QITISH JARAYONIDA TALABALARING BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH**

9.1. Ta'lism jarayonini tashxislash .....	121
9.2. Ta'lism olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari. ....	125
9.3. Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari. ....	129

## **X BOB. KASB TA'LIMIDA INNOVATSİYALAR**

10.1. Kasbiy ta'limga innovatsiyalar .....	131
10.2. Dars mashg'uloti mashg'uloti loyihasi va uni amalga oshirish modeli. ....	134
10.3. Ta'lism jarayonini loyihalashning asosiy tamoyillari. ....	136

## **XI BOB. TIBBIY TA'LIMDA O'QITISHNING NOAN'ANAVIY METODLARI**

11.1. Noan'anaviy metodlar tasnifi .....	141
--	-----

11.2. Noan'anaviy ta'lim metodlari .....	141
--	-----

## **XII BOB. TESTOLOGIYA VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

12.1. Testologiya haqida tushuncha .....	154
12.2. Test topshiriqlari mazmunini tanlash prinsiplari .....	157
12.3. Aniqlashtirilgan maqsadlar asosida testlarni ishlab chiqish. ...	158

## **XIII BOB. KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARINI TAYORLASH**

13.1. Respublikamizda kasbiy ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash .....	160
13.2. Kasbiy pedagogikaning paydo bo'lishi va ravnaq topishi. ....	161

## **XIV BOB. KASB TA'LIMIDA AXBOROT KOMMUNIKASIYA TEXNOLOGIYALARIDAN**

14.1. Kompyuterli texnologiyalar dasturli o'qitish .....	167
14.2. Ta'limalda axborot kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish .....	170

## **XV BOB. ISHLAB CHIQARISH TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH, ISHLAB CHIQARISH TA'LIMI BOSQICHLARI VA TASHKILIY SHAKLLARI**

15.1. Tibbiy ta'lim muassasalari o'quv xonalari, laboratoriya o'quv xonalarini tashkil qilishning umumiy asoslari. ....	176
15.2. Ishlab chiqarish ta'lim amaliyotlarini ilmiy asosda tashkil etish .	178
15.3. Kasb ta'lumi o'qituvchisining malaka tavsifnomasi. ....	179
15.4. Ishlab chiqarish ta'lumi bosqichlari va tashkiliy shakllari. ....	181

## **XVI BOB. KASBIY TA'LIMDA MALAKAVIY PEDAGOGIK AMALIYOTNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH**

16.1. O'qitish vazifalari va ularning jihozlanishiga qo'yiladigan talablar. ....	188
16.2. Malakaviy amaliyotda egallanadigan ko'nikmalar .....	190

## **XVII BOB. KASBIY PEDAGOGIKADA TALABALARINI MOTIVLASHTIRISH VA FAOLLASHTIRISH**

17.1. Motiv va motivatsiya	194
17.2. Talabalarni motivlashtirishning psixologik asoslari	196

## **XVIII BOB. KASBIY TA'LIMDA PEDAGOGIK BOSHQARUV**

18.1. Ta'lim muassasasini boshqarishning pedagogik- psixologik asoslari. ....	198
18.2. Ta'lim muassasasini boshqarishning tamoyillari va vazifalari. ...	201

18.3. Pedagogik ilmiy Kengash – ta’lim muassasasining boshqaruv organi .....	206
<b>Amaliy mashg’ulotlarda pedagogik texnologiyalarni qo’llash, interfaol metodlardan foydalanish .....</b>	<b>208</b>
<b>Glossariy .....</b>	<b>212</b>
<b>Kasbiy pedagogika fani buyicha test .....</b>	<b>216</b>
<b>Adabiyotlar ro‘yxati .....</b>	<b>233</b>

## O'QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus  
ta'lim vazirligining 20 21 yil "25" dekabr dagi  
"538" -sonli buyrug'iga asosan

M.E. Aymedova, R.N. Melisboeva, T.R. Beqemirov, A.N. Nurmatoev

(maulijifning familyasi, ismi-sharifi)

5510100 – Davolash isifi

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



## GUVOH NOMA

ta'lim vazirligining 20 21 yil "25" dekabr dagi  
"538" -sonli buyrug'iga asosan  
ning

talabalari (o'quvchilar) uchun tavsiya etilgan  
*Kasbiy pedagogika nomi darsligi*

(ta'lim yo'nalishi (muatavesisi/ligi))  
(o'quv adabiyotining nomi va turi, darslik, o'quv qo'llanma)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan  
litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat  
berildi.

A.Toshkulov  
(imza)

Ro'yxatga olish raqami  
**538-767**



**AXMEDOVA M.E., MELIBAYEVA R.N., BEKMIROV T.R.,  
NURMATOV A.N.**


## **KASBIY PEDAGOGIKA**

### **Darslik**

Bosh muharrir	<b>O.Kozlova</b>
Badiiy muharrir	<b>J.Hamdamov</b>
Kompyuterda saxifalovchi	<b>S.Sultanova</b>

---

NASH.lits. AA № 8798  
«TIBBIYOT NASHRIYOTI MATBAA UYI» МЧЖ  
Toshkent shahri, Olmazor tumani, Shifikorlar, 21



**TIBBIYOT NASHRIYOTI MATBAA UYI**

---

Объем – 15,23 а.л. Тираж – 50. Формат 60x84. 1/16. Заказ № 1590-2022.

Отпечатано «TIBBIYOT NASHRIYOTI MATBAA UYI» МЧЖ

100109. Ул. Шифокорлар 21, тел: (998 71)214-90-64, e-mail: [rio-tma@mail.ru](mailto:rio-tma@mail.ru)

№ СВИДЕТЕЛЬСТВА: 7716